

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



n-16

H.I. AZIMOVA, Sh.M. FAYZULLAYEVA;  
G.I. BALTABAYEVA, U.A. AZIMOVA

# YOZUV TEXNIKASI VA OG'ZAKI NUTQ

*Darslik*

TOSHKENT

494.3(04)

У-26

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**


**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



**H.I. AZIMOVA, Sh.M. FAYZULLAYEVA,  
G.I. BALTABAYEVA, U.A. AZIMOVA**

# **YOZUV TEXNIKASI VA OG'ZAKI NUTQ**

**Darslik**



**TOSHKENT – IQTISODIYOT – 2014**

UDK:494.3  
KBK:81.1

**Azimova H.I., Fayzullayeva Sh.M., Baltabayeva G.I., Azimova U.A. Yozuv texnikasi va og'zaki nutq. Darslik. – T.: IQTISODIYOT, 2014. - 233 b.**

Mazkur darslik “Yozuv texnikasi va og'zaki nutq” fanining o'quv dasturi asosida yozilgan. Har bir mavzu yozuv texnikasi va og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi nazariy ma'lumotlar va ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan iborat.

Darslik bakalavr yo'nalishi talabalari va o'zbek tilini mustaqil o'rganuvchilarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir** f.f.n., dots. H.M. Qayumov

**Taqrizchilar:** f.f. d., prof. Yo. Tojiev,  
p.f.n. F. Norboyeva

**Азимова Х.И., Файзуллаева Ш.М., Балтабаева Г.И., Азимова У.А. Техника письма и устная речь. Учебник. – Т.: IQTISODIYOT, 2014. - 233 b.**

Данный учебник основан на учебной программе курса «Техника письма и устная речь». Каждая тема состоит из теоретических данных, которые помогают развитию техники письма и устной речи и заданий направленных на их укрепления.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата и самостоятельно изучающих узбекский язык.

**Ответственный**

**редактор** к.ф.н., доц. H.M. Каюмов

**Рецензенты:** д.ф.н., проф. Ё. Тожиев,  
к.п.н. Ф. Норбаева

**Azimova Kh.I., Fayzullaeva Sh.M., Baltabaeva G.I., Azimova U.A. Technique writing and speaking. Textbook. – T.: IQTISODIYOT, 2014. - 233 b.**

This textbook is written based on the syllabus of the course “Technique writing and speaking”. Each theme consists of data which theoretically helps the development of the art of writing and speaking and tasks sent from strengthening.

The textbook is designed for students of bachelor and self-studying the uzbek language.

**Editor** p.p.d. Kh.M. Kayumov

**Reviewers:** asso.prof. Y. Tojiev,  
p.p.d. F. Norboeva

***Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2013-yil 29-noyabrdagi Kengashining  
11-sonli Qarori bilan nashrga tavsiya etilgan***

UDK:494.3  
KBK:81.1

ISBN 978-9943-986-05-3

© “Iqtisodiyot nashriyoti, 2014.”

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b>	6
<b>“Lotin yozuviga o‘tish to‘g‘risida”gi qonun va qarorlar</b>	8
<b>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori</b>	10
<b>O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrirda)</b>	11
1-§ “Yozuv texnikasi va og‘zaki nutq” kursining maqsadi va vazifalari	14
2-§ Yozuvning paydo bo‘lishi	16
3-§ Hozirgi o‘zbek adabiy tili bo‘limlari va me‘yorlari	24
4-§ Orfoepiya (talaffuz)	26
5-§ Orfografiya (imlo). O‘zbek tilining imlo qoidalari	38
6-§ Leksikologiya	57
7-§ Grammatika (morfologiya va sintaksis)	67
8-§ Punktuitsiya	80
9-§ O‘zbek tilida uslub	87
10-§ Ilmiy uslub	90
11-§ Badiiy uslub	104
12-§ Uslubiy shakl turlari, janrlari	107
13-§ Qonun va huquq	111
14-§ Ish yuritish hujjat turlari	119
15-§ Ritorika (notiqlik san‘ati)	130
16-§ Antik davr notiqligi	131
17-§ Mumtoz notiqlik san‘ati	134
18-§ Nutqning maqsadli vazifalari	140
19-§ Matnni shakillantirishdagi asosiy prinsiplar	148
20-§ Muharrirlik	174
<b>X va H xarflarining imlo lug‘ati</b>	191
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b>	231

## ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение	6
Законы и постановления “О переходе на латинскую графику”	8
Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан	10
Закон Республики Узбекистан “О государственном языке” (в новой редакции)	11
1-§ Цель и задачи курса “техники письма и устной речи”	14
2-§ Появление письма	16
3-§ Разделы и нормы современного узбекского литературного языка	24
4-§ Орфоэпия (акцент)	26
5-§ Орфография. Правила орфографии узбекского языка	38
6-§ Лексикология	57
7-§ Грамматика (морфология и синтаксис)	67
8-§ Пунктуация	80
9-§ Стиль в узбекском языке	87
10-§ научный стиль	90
11-§ Художественный стиль	104
12-§ Типы, жанры стильной формы	107
13-§ Закон и право	111
14-§ Виды документов делопроизводства	119
15-§ Риторика (искусства ораторства)	130
16-§ Ораторства античности	131
17-§ Классическое искусство ораторства	134
18-§ Цели и задачи речи	140
19-§ Основные принципы в формировании текста	148
20-§ Редактирование	174
Орфографический словарь х и х букв	191
Использованная литература	231

## CONTENTS

<b>Introduction</b>	6
<b>Law and regulations "On transition to the latin alphabet"</b>	8
<b>Regulations of the Cabinet of Ministers of Uzbekistan Republic</b>	10
<b>Law on the official language</b>	11
1-§ The purpose and objectives of the course " art writing and speaking skills"	14
2-§ The advent of writing	16
3-§ Forumus and norms of contemporary Uzbek literary language	24
4-§ Orthoepy (ackent)	26
5-§ Orthographics, the rules of Uzbek orthography	38
6-§ Lexicology	57
7-§ Gramma (morphology and syntax)	67
8-§ Punctuation	80
9-§ Style in uzbek language	87
10-§ Scientific style	90
11-§ Litrary style	104
12-§ Types, genres of the style	107
13-§ Law and vight	111
14-§ Types of documents of clerical work	119
15-§ Rithories ( art of oratory)	130
16-§ Antiquity of oratory	131
17-§ Classical art of oratory	134
18-§ Clims and tasks of speech	140
19-§ Main principles in forming text	148
20-§ Editens	174
<b>Orthographic dictionary of "x" and "h" letters</b>	191
<b>Literature</b>	231

## KIRISH

Prezidentimiz I.A. Karimov o'z nutqida "Barkamol avlod haqida so'z borganda, o'tgan yillar davomida katta kuch va mablag' hisobidan ta'lim sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo'lishi kerak, deb o'ylayman".

Shular qatorida davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini "bugungi kun talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish zarur"<sup>1</sup>ligini belgilab berish boshqa fanlar kabi "O'zbek tili" faniga qo'yilgan talablar ham uning tarkibida o'zgarish va takomillashtirishni zaruriy shartlardan biri qilib qo'ydi.

"Jismoniy va ma'naviy sog'lom, uyg'un kamol topgan o'sib kelayotgan avlodni, professional, zamonaviy darajada tayyorlangan kadrlarni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini har tomonlama oshirish, ta'lim saviyasini yanada takomillashtirish va sifatini yuksaltirish, ta'lim muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash"<sup>2</sup>.

Mehnat bozorida raqobatga bardosh bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biridir.

Oliy ta'lim tizimida tilga alohida ahamiyat berilgan bo'lib, u mamlakatning siyosiy va madaniy hayoti hamda ijtimoiy muammolaridan ajralmasdir.

Joriy etilayotgan "Yozuv texnikasi va og'zaki nutq" kursining asosiy maqsadi talabalarimizning umummadaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan nutq madaniyati, muomala – muloqot odobi, egallayotgan mutaxassisligi doirasida davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili – o'zbek tili ekan uning har bir fuqarosi bu tilni mukammal bilishi shart.

"Ta'lim – tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, ta'limning barcha bosqichlarida yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning qarori. Chet tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. //Xalq so'zi, 2012-yil 11-dekabr, №240 (5660)

<sup>2</sup> 2013-yilni "Obod turmush yili" deb e'lon qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. -T., 2013-yil 14-fevral.

takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi”<sup>3</sup>.

Ma'lumki, zamonaviy mutaxassis o'z sohasining mohir ustasi bo'lishi bilan birga nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, yozma nutq ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Har bir kishi fikri va tuyg'ularini og'zaki ravon ifodalash borasida to'g'ri va mantiqli yozishni ham uddalay olsagina xalq e'tiboriga tushadi. Yozish amali xatolarni bevosita ko'rish, tuzatish, boyitish imkoniyatini beradi hamda bu jarayonda fikr charxlanadi, ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2013-yil 19-yanvar, №13 (5687)



# LOTIN YOZUVIGA O'TISH TO'G'RISIDA" CHIQARILGAN QONUN VA QARORLAR

## O'zbekiston Respublikasi oliy majlisining qarori

"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi"  
O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qaror qiladi:

1. "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni e'lon qilingan kundan e'tiboran amalga kiritilsin (1993-yil 2-sentabr).

2. Yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tilib, bu ish 2005-yil 1-sentabriga qadar to'liq tugallansin.

3. Respublika davlat komissiyasi:

- uch oylik muddat ichida maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarida, maktablar, o'rta va oliy o'quv yurtlarida, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalarida yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tishning davlat dasturi va tartibini ishlab chiqsin va uni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga taqdim etsin;

1995-yil davomida o'zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig'iga taqdim etsin;

"Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Oliy Majlisning ushbu Qarorini ro'yobga chiqarishda davlat hokimiyati va boshqaruvning respublika hamda mahalliy organlariga uslubiyat va axborot bobida muntazam ravishda yordam ko'rsatib borsin;

- respublika va mahalliy boshqaruv organlarining yangi alifboni joriy etish yuzasidan qilinayotgan ishlar to'g'risidagi axborotlarini muntazam tinglab borsin;

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tishning davlat dasturi va tartibi asosida:

- lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini amalda joriy etishga doir aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

1996-yil 1-sentabrdan e'tiboran maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida, umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida yangi alifbo bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishni, qolgan sinflarda esa fakultativ mashg'ulotlar tashkil etishni ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi 1996-yil 1-avgustga qadar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini o'rganish uchun kerakli darsliklar va boshqa qo'llanmalar nashr etilishini ta'minlasin.

6. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlari respublika davlat komissiyasi bilan kelishilgan holda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishga doir dasturni amalga oshirish bo'yicha komissiyalar tuzsinlar.

7. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, jamoat birlashmalarining respublika organlari, shu jumladan, tasarruflaridagi korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda ham xodimlarga yangi alifboni o'rgatishni tashkil etish hamda buning uchun kerakli darsliklar, o'quv qo'llanmalari va texnika vositalari bilan ta'minlash yuzasidan maxsus ishchi guruhlarini tuzsinlar.

Belgilab qo'yilsinki, yangi alifboni joriy etishga doir barcha xarajatlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan (budjet tashkilotlari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

1994-yilgi hamda undan keyingi yillarga mo'ljallangan Davlat budjetini shakllantirish chog'ida yangi alifboni joriy etish maqsadida zarur bo'ladigan mablag'larni budjetdagi tashkilotlar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga ajratilishini nazarda tutsin;

1995-96- yillar davomida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish bilan bog'liq tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlashning hamda korxonalar, tashkilotlar, xo'jaliklar va o'quv yurtlarida yangi alifboni fakultativ tarzda o'rganishni tashkil etishning birinchi galdagi masalalarini hal etsin;

- ushbu Qaror bajarilishining borishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini muntazam xabardor qilib tursin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amaldagi qonun hujjatlarini "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar tayyorlasin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

10. Yangi alifboga to'liq o'tilgan paytdan, ya'ni 2005-yilning 1- sentabridan e'tiboran 1940-yil 8-mayda qabul qilingan "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga ko'chirish to'g'risida"gi (O'zbekiston SSR Oliy Sovetining vedomostlari, 1940-yil, №4) O'zbekiston Respublikasining qonuni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI**

**1995-yil 24-avgust 339-son Toshkent sh.**

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan O‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy etish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta‘lim va fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

*Vazirlar Mahkamasining raisi I.A. Karimov*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**  
**DAVLAT TILI HAQIDA**  
*(yangi tahrirda)*

**1-modda.** O‘zbekiston Respublikasining davlat tili O‘zbek tilidir.

**2-modda.** O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

**3-modda.** O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

**4-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish amalga oshiriladi.

**5-modda.** O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

**6-modda.** O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

**7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi, shu jumladan unga hamma e‘tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

**8-modda.** O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

**9-modda.** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruratga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

**10-modda.** Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**11-modda.** Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

**12-modda.** O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

**13-modda.** Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligi va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruratga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

**14-modda.** O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar,

takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat etish huquqi ta'minlanadi.

**15-modda.** O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

**16-modda.** Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

**17-modda.** Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

**18-modda.** Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra – boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

**19-modda.** Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

**20-modda.** Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

**21-modda.** Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

**22-modda.** Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

**23-modda.** O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

**24-modda.** O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

*Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.*

## 1-§. “YOZUV TEXNIKASI VA OG‘ZAKI NUTQ” KURSINING MAQSADI VA VAZIFALARI

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talabiga muvofiq oliy maktabda barcha fanlar kabi, til fanini o‘qitishda ham tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Ta’limning oliy bosqichida o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni yanada takomillashtiriladi. Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilayotganligi barcha mutaxassislarning, millatidan qat’i nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Xususan, joriy etilayotgan “Yozuv texnikasi va og‘zaki nutq” kursi ham talabalarning o‘zbek tilidagi og‘zaki va yozma nutqini mukammallashtirishga yo‘naltirilgan kursdir.

Shunga ko‘ra, “Yozuv texnikasi va og‘zaki nutq” kursining asosiy maqsadi talabalarda umummadaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan nutq madaniyati, muomala – muloqot odobi, egallayotgan mutaxassisligi doirasida davlat tilida ish yuritish ko‘nikmalarini mukammallashtirish, ularning yozma va og‘zaki nutq savodxonligini oshirishdan iborat etib belgilandi.

Ma’lumki, qadimdan kimki go‘zal va to‘g‘ri so‘zlasa, savodli va chiroyli yozish malakasiga ega bo‘lsa, o‘sha inson “savodxon”, “ziyoli” deb ulug‘langan. Hech shubhasiz aytish mumkinki, o‘zbek tili jahondagi eng boy, eng taraqqiy etgan tillardan biri bo‘lib o‘z shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. O‘zbek xalqi mislsiz meros – go‘zal va mukammal o‘zbek tilini meros qilib oldi. Endilikda bu merosni asrab- avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazib berish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi bo‘lib qoldi.

Inson har doim ham o‘z fikrini aniq va ravon ifodalay olmaydi. Bunga erishish uchun sabr toqat, o‘qish – o‘rganish va mashq qilish lozim bo‘ladi. Yozuv texnikasi, to‘g‘ri va ravon gapirish deganda nimalar nazarda tutiladi? Savodli yozuv texnikasi – o‘zbek tili grammatik qonun-qoidalarni bilish, gapni to‘g‘ri tuza olish, fikrni yorqin ifodalash uchun zarur bo‘lgan leksik birliklarni to‘g‘ri tanlay olish, so‘z va boshqa birliklarning uslubiy jilolarini o‘z o‘rnida ishlata bilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishdir. Chunonchi buning uchun savodli yozish texnikasiga, to‘g‘ri va chiroyli nutq so‘zlash malakasiga ega bo‘lish talab qilinadi.

Savodli va to‘g‘ri nutq tuza olishda so‘zning lug‘aviy ma’nosidan tashqari uning matnda bajaradigan turli uslubiy vazifalarini ham bilish

muhim ahamiyat kasb etadi. Soʻz tushunchadan tashqari, kishining anglatayotgan narsa yo hodisaga boʻlgan salbiy yoki ijobiy munosabatini ham ifodalashi mumkin. Masalan, *bosh* soʻzi odam aʼzosi haqidagi tushunchani anglatadi. Ammo xuddi shu tushunchani ifodalaydigan *kalla* soʻzi esa soʻzlovchining oʻsha predmetga boʻlgan salbiy (kinoyaviy) munosabatini ham bildiradi. *Chehra* soʻzi, aksincha yuz (bet) tushunchasidan tashqari, uning qandaydir yoqimli, goʻzal ekanligiga ishora qiladi. Demak, *kalla va chehra* soʻzlari, maʼlum tushunchalarni ifodalash bilan birga qoʻshimcha maʼno ottenkasiga ham ega. Savodli va chiroyli nutq tuzishni istagan inson bularning barchasidan xabardor boʻlishi lozim.

Bundan tashqari, ogʻzaki nutqda adabiy tilga xos talaffuz qonuniyatlarini ham bilish oʻz oʻrniga ega. Buning uchun oʻzbek tili orfoepiyasini yaxshi oʻrganish zarur. Zero, orfoepiyada nutq tovushlari va soʻzlarni toʻgʻri aytish qoidalari oʻrganiladi.

Yozma nutqni toʻgʻri shakllantirish oʻzbek tilining grafika va orfografiyasini mukammal oʻzlashtirishni talab qiladi. Chunki grafika va orfografiyada tilning yozuv tizimi, toʻgʻri yozishning qonun-qoidalari oʻrganiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “Yozuv texnikasi va ogʻzaki nutq” kursi oʻz oldiga quyidagi vazifalarni qoʻyadi:

- talabalarni oʻzbek adabiy tilining meʼyorlari bilan tanishtirish;
- talabalarga oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini oʻrgatish;
- talabalarda nutqning texnik komponentlarini toʻgʻri va oʻz oʻrnida qoʻllay olish malakasini shakllantirish (nafas, talaffuz, ohang);
- ularga oʻz mutaxassisligiga doir ogʻzaki va yozma nutqni toʻgʻri shakllantirishni oʻrgatish;
- talabalarda turli sohalarga oid (ilmiy, ommaviy kabi) ogʻzaki va yozma matn tuza olish koʻnikmasini shakllantirish;
- ularda fonetik, leksik, grammatik (morfologik va sintaktik) birliklarni toʻgʻri tanlay olish malakasini shakllantirish;
- adabiyotlardan, lugʻatlardan toʻgʻri foydalana olish va bu sohada oʻz bilimni oshirib borish yoʻllarini oʻrgatish va b.

**1-topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering.

- a) kursning maqsadi nimalardan iborat?
- b) kursning vazifalarini sanab bering;
- c) yozuv texnikasi siz tanlagan sohada qanday ahamiyatga ega?
- d) toʻgʻri tuzilgan ogʻzaki nutqning sifatlarini sanab bering.



## 2-§. YOZUVNING PAYDO BO'LISHI

Kishilik jamiyati o'z tarixidan ko'proq qismini yozuvsiz o'tkazgan. U yozuvga yetib kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan.

Odamning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarini yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Zamonaviy til bilan aytganda, axborotni saqlash va uzatish muammosi kelib chiqdi.

Buyumlardan dastlab mnemonika vositalari yoki "eslatuvchi" vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan.

So'ngra buyumlarga aniq ma'no berila boshlagan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos xabarlar, shartli belgilar bo'lib hisoblangan.

Raqamlarni bildirish uchun, masalan, taxtachalarga kertib shartli belgilar o'yilgan. Bu xatcho'plardan har xil shartnomalar tuzishda foydalanilgan.

Hozirgi vaqtda ham ishlatish qulay bo'lgan joylarda signalizatsiya uchun buyumli yozuv tamoyilidan foydalanilmoqda; masalan, suv yo'llarda xatarli joylarni ko'rsatib turadigan suzgich – bakenlar, mayoqlar va signal bayroqchalari – dengizda har xil asboblar qo'llaniladi.

Buyumli yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi: insoniyatning to'plangan bilimlarni saqlab, yodlab o'ziga xos xotirasiga aylana olmadi. Ijtimoiy turmush murakkablashgan sari bunga ehtiyoj tobora ortib borardi. Urf-odatlar, an'analar shakllandi, ularni yangi avlodga yetkazish lozim edi. Mehnat taqsimoti va mol ayirboshlash aniq hisob yuritishni talab qilardi. Qabila boshliqlari va koinlar ajralib chiqdilar, ularning faoliyatini abadiylashtirish zarur edi.

Piktografiya yoki rasmlardan iborat yozuv zamonaviy yozuvga olib boriladigan yo'ldagi navbatdagi bosqich bo'ldi. Uning xususiyati axborot uzatish bilan belgilanar edi. Rasmlardan iborat yozuvning xususiyati shuki, bunda fikr ayrim tushunchalarga ajratib emas, balki to'la ifodalanadi. Piktogrammaning eng mayda parchalari ham, zamonaviy yozuvdagi jumlar singari, mazmunan tugaldir. Jumla tarkibiy qismlarga bo'linadi, ammo piktogramma bo'linmaydi. Piktogramma harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi, lekin og'zaki tilni, buyumlarning nomlarini mutlaqo aks ettirmaydi. Piktogramma nimani tasvirlasa o'shani ifodalaydi, unda simvolika yo'q. Shuning uchun piktogrammani har bir kishi, qanday tilda gapirishdan qat'i nazar, sharhlab berishi mumkin.


Piktografik belgilar hozirda ham keng qo'llaniladi. Do'kon va ustaxonalarning taxtachalaridagi mollar tasviri, ko'cha harakatini tartibga solib turuvchi belgilar jumlasidandir. Masalan, Shimoliy Osetiyada marhumning fazilatlari yoki iste'dodini bildiruvchi piktografik belgi chizish odati saqlanib qolgan: mohir chavandozning qabr toshida – ot yoki egar, olimning qabr toshida – kitob, mohir tikuvchi qabr toshida esa tikuv mashinasi tasvirlanadi.

Tadqiqotchilar piktografiyani fikrni yozuv bilan ifodalashning dastlabki usuli deb hisoblaydilar. Piktografiya yaqqolligi tufayli hammabop bo'lgan-u, biroq ma'no, mazmunni ixtiyoriy sharhlashga yo'l qo'ygan. Rasm fikrni aniq ifodalashga imkon beradigan, ko'p joyni egallaydigan vosita bo'lganligidan mavhum tushunchalarni rasm yordamida anglatish juda qiyin edi.

Qadimgi xalqlar yozuvni mo'jizaviy san'at hisoblab, juda qadrlaganlar. Yozuvni o'zlarining katta xudolari yaratgan deb, shunga ishonganlar.

Birinchi alifboni eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda finiyaliklar yaratgan. Bu alifbo yigirma ikki harfdan iborat bo'lgan, harflar faqt undosh tovushlarni yoki undosh va unli tovushlardan tuzilgan bo'g'inlarni ifodalagan. Chunki finiyaliklar tili semit tillari guruhiga mansub bo'lib, unda undosh tovushlar asosiy o'ringa ega. So'zlarning ildizi undosh tovushlardan tuzilgan. Unli tovushlar esa, asosan, grammatik bog'lanishlarni va so'zning shaklini ifodalagan. Shu sababli finiyaliklar alifbosi yozuvning bo'g'inli va harf-tovushli tizimlari orasida oraliq masofani egallagan. Finiyaliklar alifbosidagi belgilarning shakli sodda bo'lib, yozish uchun ham, yodlab qolish uchun ham qulaydir. Finiyaliklarning yozuvi kelib chiqishi haqida bir qancha fikr mavjud. Olimlar Misr yozuvi ham, ossuriya-bobil yozuvi ham, krit-miken yozuvi ham finiyaliklar yozuviga asos solgan bo'lishi mumkin, deyishmoqda.

Bugungi kunda yozuvning to'rt yuzga yaqin turi ma'lum. Har bir yozuv tizimi jonli, o'zgaradigan, rivojlanadigan bir butundir, qachonlardir aytilganlarni turlicha yozib olish usullaring ajoyib ravishda uyg'unlashgan chiroyli birikmasidir.




### *Piktografik yoki rasmlı yozuv*


Yozuvning eng dastlabkisi sifatida piktografik (lotincha pictus – rasm, surat; grapho – yozaman) yoki rasmlı yozuvni ko‘rsatish mumkin. Bu yozuv turining o‘ziga xos tomoni uning og‘zaki til bilan bevosita bog‘liq emasligi va uni har qanday til vakili tushuna olishidadir.

Piktografik yozuvda bildirilmoqchi bo‘lgan fikrlar inson, hayvon, qayiq kabilarning sxematik tarzda rasmlarini tushirish orqali ifodalangan. Masalan, ovchining ovga chiqqanligi kishi siymosi ov quroli tutgan holda tasvirlangan, uning biron-bir hayvonni tutib olganligi shu hayvonning tasviri bilan, qayiqda dengiz yoki daryoda suzganligi qayiq tasviri orqali, manzilga yetgach, tunab qolganligi chayla tasvirini berish bilan ifodalangan.

### *Qadimgi piktogramma*



### *Zamonaviy piktogrammalar*



### *Ideografik yozuv*

Ideografik (idea – g‘oya, grapho – yozaman) va iyeroglifik (hieroglyhoi – muqaddas yozuv – kohin, qurbon qiluvchi o‘ymakorligi; bu yozuv turida matn yozilmagan, balki suyak va boshqa materiallarga

rasmlar o'yib bitilgan, ikkinchidan, bu yozuv "sirli" yozuv turi ham bo'lgan, chunki uni asosan kohinlar – qurbon qiluvchilar bilishgan, xolos) yozuvlar egallay boshladi. Piktografik yozuvdan ideografik yozuvga o'tilishiga aytilmoqchi bo'lgan mavhum fikrlarning bu yozuv turida to'liq ifodalashning imkoni bo'lmaganligi sabab bo'ldi.

Masalan, "o'tkir ko'zlik", "ziyraklik", "hushyorlik" tushunchalarini aynan rasmda ifodalab bo'lmaydi, ularni shu holatlarni kuzatuvchi, ya'ni ko'zni tasvirlash orqali berish mumkin bo'lgan. Bunda piktografik yozuvda ko'z rasmi berilganda ko'zning o'zi tushunilgan, ideografik yozuvda esa, "o'tkir ko'zlik", "ziyraklik", "hushyorlik" tushunilgan.

### Savollar:

1. Piktogramma so'zining ma'nosi nima?
2. Ideografika so'zining ma'nosi nima?
3. Zamonaviy piktogrammalardan qayerlarda foydalaniladi?

### O'zbek yozuvi tarixidan

Arabcha (Arabcha)	Lotincha (Lotincha)	Kirillcha (Kirillcha)	Lotincha (Lotincha)	Xalqaro Fonetik Alifbosi (Xalqaro Fonetik Alifbosi)
-1929	1929-1940	1940-1993	1992-	
ا, e	Ә ә	А а	A a	[a], [ж]
ب	B b	Б б	B b	[b]
د	D d	Д д	D d	[d]
ه	E e	Э э	E e	[ε]
ف	F f	Ф ф	F f	[f]
ج	G g	Г г	G g	[g']
ح	H h	Х х	H h	[h]
ی	I i	И и	I i	[i]
ج, ڭ	З з, Z z	Ж ж	J j	[ʒ]
ك	K k	К к	K k	[k']
ل	L l	Л л	L l	[l]
م	M m	М м	M m	[m]
ن	N n	Н н	N n	[n]
ا	A a	О о	O o	[o]
پ	P p	П п	P p	[p]
ق	Q q	Қ қ	Q q	[q]
ر	R r	Р р	R r	[r]
ص, س, ش	S s	С с	S s	[s]
ط, ت	T t	Т т	T t	[t]
و	U u	У у	U u	[u]

و	V v	В в	V v	[v], [w]
خ	X x	Х х	X x	[x]
ى	J j	Й й	Y y	[j]
ظ, ض, ز, ذ	З з	З з	Z z	[z]
و	O o	Ӯ ў	O' o'	[o]
غ	Ƣ ƣ	Г г	G' g'	[ɣ]
ش	Ǝ ɛ	Ш ш	Sh sh	[ʃ]

Tarixda o'zbek tilini yozish uchun ko'p alifbolardan foydalanilgan. 1929-yilgacha savodli kishilar arab yozuvida yozishgan. 1929-yildan 1940-yilgacha o'zbek tili lotin yozuvida yozilgan. 1940-yildan kirill yozuviga o'tilgan. 1993-yilgacha o'zbek tili shu yozuvda yozilgan. 1993-yil O'zbekiston rasman lotin yozuvini qaytadan joriy qildi. Hozirda O'zbekistonda ta'lim muassasalarida lotin yozuvidan foydalanilmoqda.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari (ularni sanab o'tirishning hojati yo'q) lotin yozuvidan foydalanadilar. Shuning uchun ham hozirgi eng zamonaviy texnika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy tadqiqotlar haqidagi adabiyotlar shu yozuv asosida yoritiladi.

BMT, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar xabar qilishlaricha, yangi texnika, texnologiya va fanga tegishli adabiyotlarning 80 foizi lotin yozuvida chop etilar ekan.

### ***O'zbek adabiy tilining o'ziga xos xususiyatlari***

Kishilik jamiyatida dastlabki aloqa vositasi faqat og'zaki nutq shaklida bo'lgan. Yozuv bo'lmagan. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o'sib borayotgan iqtisodiy va madaniy talablar ehtiyoji natijasida yozuv paydo bo'lgan.

Yozuvning paydo bo'lishi adabiy tilning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Tilning ma'lum me'yorlarga tayangan, ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan ko'rinishi **adabiy til** deb yuritiladi.


Adabiy tilning qoida va me'yorlari muhim sotsial ahamiyatga ega: bu qoida va me'yorlar tilning barcha lahja va sheva vakillari uchun umumiy, **yagona** bo'lishini ta'minlaydi. Adabiy til aloqa-aralashuv va fikrlashuv tarzini osonlashtiradi, qulaylashtiradi.

Adabiy til odatda asta-sekinlik bilan, tadrijiy ravishda shakllana boradi. Adabiy til maktab, radio, gazeta, jurnal, badiiy adabiyot va shu kabilar vositasida keng xalq orasida yoyila boradi. Adabiy tilning vazifasi xalqning millat bo'lib tashkil topish davrida, ayniqsa oshadi, kuchayadi.

Chunki milliy adabiy til ana shu millat kishilarining butun mehnat faoliyatini qamrab oladi.

**Milliy adabiy tilning ikki shakli bor:**

Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi. U xalq tili asosida, uning tadrijiy takomili sifatida shakllanib, rivojlanadi. Adabiy til esa milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo'lganda ham yuzaga kela oladi.



**Milliy til** tushunchasi adabiy til tushunchasiga nisbatan ancha keng: milliy til mahalliy lahjalarni ham o'z ichiga oladi.

**Adabiy til** esa bir necha tayanch lahja negizida barpo bo'ladi. Boshqa lahjalardan adabiy tilga faqat ayrim xarakterli leksik va morfologik elementlar tanlab olinadi. Masalan: o'zbek tilida bir necha lahja va shevalar mavjud.

1. Qipchoq lahjasi.
2. O'g'uz lahjasi.
3. Qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi.

Har bir lahja o'z o'rnida shevalarga bo'linadi. Masalan: Toshkent shevasi, Xorazm shevasi, Farg'ona shevasi va boshqalar. Bu lahja (yoki sheva)larning har biri o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega.

Tillar bir umumiy manbalardan kelib chiqqanligi, aniqrog'i, o'z materiali (so'z va undagi tovushlar, qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib guruhlariga ajratiladi.

Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar **qarindosh tillar** oilasini tashkil etadi. Masalan:

1. Hind-Yevropa tillari.
2. Semit tillari.
3. Xamit tillari.
4. Ugor-fin tillari.
5. Oltoy tillari.

6. Iberiy-kavkaz tillari.
7. Xitoy-tibet tillari.
8. Dravid tillari.
9. Indonez tillari va boshqalar.

Bulardan oltoy tillari oilasiga:

1. Turkiy tillar.
2. Mo'g'ul tillari kiradi.

Turkiy tillarga o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, ozorbayjon, tatar, boshqird, chuvash, turk, yoqut, qumuq, oyrot, xakas, tuva, sho'z, no'g'ay, balqar (qorachoy), gagauz va boshqa tillar kiradi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari fonetik jihatdan Toshkent shevasiga va morfologik jihatdan Farg'ona shevasiga asoslangan.

O'zbek adabiy tili tarixiy nuqtai nazardan ikki bosqichga bo'linadi;

1. Eski o'zbek adabiy tili:
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili:

Eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan yozma yodgorliklar o'zbek xalqining hamda o'zbek tilining tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

***Yodda tuting:***

*Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining davomi bo'lib, o'zbek tilining eng so'nggi, taraqqiy etgan, ishlangan shaklidir*

Hozirgi o'zbek adabiy tilining lug'at tarkibi asosan, 5 manba negizida tashkil topgan:

1. Umum **turkiy** so'zlar.
2. O'zbekcha so'zlar.
3. **Fors-tojikcha** so'zlar.
4. **Arabcha** so'zlar.
5. **Rus-internatsional** so'zlar.

Umumturkiy so'zlar ko'pchilik **turkiy tillarda** hozir ham ishlatiladigan barcha **turkiy tillar** uchun umumiy bo'lgan ko'pgina so'zlar borki ular azaldan turkiy qabilalar tilida mavjud edi, ular hozir ham ishlatiladi. Masalan: kishi, ot, qo'l, oyoq...

O'zbekcha so'zlar o'zbek tili sharoitida, o'zbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida ko'pgina so'zlar yaratilgan. Masalan: ishxona, so'roq, ulfatchilik, bog'dorchilik...

**Fors-tojik** tillaridan o'zlashgan so'zlar hozirgi o'zbek tilida tubandagi kabi so'zlar bor. Ular dasturxon, chiroq, parda, marvarid, marjon...

**Arab tilidan** o'zlashgan so'zlar. Arab so'zlari o'zbek tiliga VII – VIII asrlardan boshlab kiradi. Bu hol arablarning shu davrda O'rta Osiyoni zabt etishlari bilan bog'liq. Hozirgi o'zbek tilida arab tilidan kirgan quyidagi kabi so'zlar mavjud: kasb, mehnat, hayvon, ittifoq, millat...

Arab so'zlari birinchidan kitob, madrasa, din, davlat tuzimi orqali kirgan. Ikkinchidan Eroni tillar orqali kirgan. Uni masalan arab so'zlariga tojikcha morfemalar qo'shib yasalgan. Masalan: darhaqiqat, mansabdor, mulkdor, baquvvat... kabi so'zlardan bilsa bo'ladi.

**Rus tilidan** o'zlashgan so'zlar. O'zbek milliy tilining shakllanishi va rivojlanishida rus millatining tili g'oyat katta rol o'ynaydi. Rus xalqi bilan o'zbek xalqi orasidagi yaqin aloqa, ayniqsa ruslarning iqtisodiy va madaniy ta'siri rus tilidan ruscha va yevropa tillariga oid so'zlarning o'zbek tiliga kirishiga sabab bo'lgan. Rus tilidan o'zlashgan so'zlar: fabrika, gimnaziya, doktor, shapka...



### 3-§. HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI BO‘LIMLARI VA ME‘YORLARI

1.	<b>Fonetika</b>	Nutq tovushlari, harflar, bo‘g‘in va urg‘u kabi masalalar o‘rganiladi
2.	<b>Orfoepiya</b>	To‘g‘ri talaffuz qonun-qoidalarini meyor va qoidalarini o‘rganiladi
3.	<b>Grafika</b>	Harflarning yozilish shakllari, turlari, xususiyatlari, so‘zlardagi o‘rni va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar o‘rganiladi
4.	<b>Orfografiya</b>	(imlo) To‘g‘ri yozish qonun-qoidalarini o‘rganiladi.
5.	<b>Leksikologiya</b>	Tilning so‘z boyligi, so‘z ma‘nosi va ma‘no taraqqiyoti, shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari, eskirgan va yangi so‘zlar kabi masalalari o‘rganiladi
6.	<b>Frazeologiya</b>	Ibora va ularning turlari o‘rganiladi
7.	<b>So‘z yasalishi</b>	So‘z yasash usullari o‘rganiladi
8.	<b>Grammatika (morfologiya va sintaksis)</b>	Grammatikada tilning grammatik qurilishi o‘rganiladi. U ikki bo‘limdan iborat: morfologiya bo‘limida so‘z turkumlari o‘rganilsa, sintaksisda so‘z birikmasi va gap o‘rganiladi
9.	<b>Punktuatsiya</b>	Tinish belgilari va ularni qo‘llash qoidalarini o‘rganiladi
10.	<b>Uslubiyat</b>	Nutq uslublari o‘rganiladi

#### 2-topshiriq. Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

... Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bolib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak. U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib va o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bolmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy, ma‘naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lard.

Tilning birinchi ma‘rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a‘zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Bundan tashqari, til tufayli bilim avloddan avlodga og‘zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o‘rtadan ko‘taradi. Til tufayli eng qadimgi ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz, hatto kelgusiga oid ma‘lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a‘zolari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Ko‘rinishi, shakli bir xil bolgan narsalarning aksi ongimizga o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so‘z shaklida o‘zlashtiramiz.

Xuddi shuningdek, mavjudotning ko‘rinmas ichki jihatlarini ham so‘z shaklida o‘zlashtiramiz va til vositasi bilan o‘zgalarga tushuntiramiz.

Tilni o'rganish va o'rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. So'z yordamida biz mavjudotni o'rganib, umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalarini o'rganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishiga imkoniyat tug'diradi<sup>4</sup>.

**3-topshiriq.** Tilning ijtimoiy hayotda tutgan mavqei to'g'risida matn yozing.

### ***O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI***

**Fonetik me'yor.**

**Talaffuz – (orfoepik) me'yor.**

**Yozuv (orfografik) me'yor.**

**Imloviy me'yor.**

**Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.**

**Leksik me'yor.**

**Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.**

**Punktuation me'yor.**

**Uslubiy me'yor.**

<sup>4</sup> Rustamov A. «So'z xususida so'z» kitobidan.

#### 4-§. ORFOEPIYA (TALAFFUZ)

1. Nutq tovushlarini hosil qiluvchi a'zolar nutq organlari deb yuritiladi. Bular: o'pka, ikki bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildoq, halqum, ogiz bo'shlig'i, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, til, tishlar, lablar, burun bo'shlig'idir. Ana shu a'zolarning hammasi birgalikda nutq apparati hisoblanadi. Nutq apparati to'rt qismdan iborat:

1. *Bo'g'izdan quyi qism (o'pka, bronxlar, traxeya).*

2. *Bo'g'iz bo'shlig'i (halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon, tog'aysimonlar va tovush paychalari).*

3. *Og'iz bo'shlig'i (til, qattiq tanglay, yumshoq tanglay, kichik til, tishlar, lablar).*

4. *Burun bo'shlig'i.*

*Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan hisoblanadi. Shunday ekan undan to'g'ri foydalanish uzoq va chiroyli so'zlash zaminini yaratadi.*

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yori talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning orfoepiya bo'limi o'rganadi.

*Orfoepiya* - grekcha orphos - to'g'ri, epos - nutq degan ma'noni bildiradi. Tog'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo'shimcha va so'zdan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori hisoblanadi. Masalan, o'zbek shevasida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'q - jo'q, ko'z - go'z, ota - ata, aka - oka, anor - onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada -yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti) shaklida qo'llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q, ko'z, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og'zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi.

Adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganish orfoepik qoida va orfografik lug'at orqali amalga oshiriladi.

2. Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq talaffuz hamma vaqt ham yozuv bilan teng kelavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ayrim tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi mumkin yoki, aksincha, orttirilishi mumkin. Nutqda tovush almashtirilishi ham ko'p uchraydi. Masalan, *adabiyochchi* (adabiyotchi), *badbax* (badbaxt), *ussum* (uch so'm), *issiz* (izsiz), *xursan* (xursand), *go'sh* (go'sht), *bo'sa* (bo'lsa), *kesa* (kelsa) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasa-da\* adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishni), *yuzzi* (yuzni),

*otta* (u yerda), *aqqa* (u yoqqa), *baqqa* (bu yoqqa) kabi soʻzda adabiy meʼyordan chekinish roʻy bergan.

Oʻzbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalarini unli talaffuzi, undosh talaffuzi, asos va qoʻshimcha talaffuzi hamda boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻz talaffuzi tarzida oʻrganish mumkin.

### **Unli tovush talaffuzi.**

f I urtlisi: 1) bir boʻgʻinli soʻzda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tishA bil, sir* kabi; 2) q, gʻ, x undoshlari bilan yondosh qoʻilanganda yoʻgʻon talaffuz etiladi: *qish, gʻisht, xil* kabi; 3) y, ng undoshidan oldin ingichka va bir oz: choʻziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy, ming* kabi; 4) l, r undoshidan oldin kelgan unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi *bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gifo* kabi.

U unlisi: 1) k, g, y undoshidan keyin ingichka *kul, atirgul, yuk, kabi*; 2) q, gʻ, x undoshidan soʻng esa yoʻgʻon talaffuz qilinadi; *qul, norgʻul, xulq* kabi; 3) l -*uvchi, -uv* qoʻshimchasi tarkibida choʻziqroq aytiladi: *yozuvchi, oʻquvchi toʻquvchi, oluv, qoʻshuv* kabi.

Oʻ unlisi: 1) bir boʻgʻinli soʻzda, shuningdek, koʻp boʻgʻinli soʻzning urgʻusi va boʻgʻinida qisqa talaffuz etiladi: *boʻr, toy, roʻmol, soʻroq* kabi; 2) takroriy soʻzning birinchi qismida (urgʻuli boʻgʻinda) choʻziq talaffuz qilinadi; *koʻp-koʻp, zoʻr-zoʻr, moʻl-moʻl* kabi; 3) sayoz til orqa k, g, til oʻrta y va boʻgʻiz undoshi] (h) dan soʻng torroq unli tarzida: *koʻl, goʻr, hoʻl, yoʻl* kabi; chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlaridan soʻng kengroq unli tarzda talaffuz etiladi: *qoʻl, gʻoʻr, xoʻr, qon* kabi.

E unlisi: soʻz va boʻgʻin boshida kengroq (*erkin, ekin, eslamoq* kabi) boʻgʻin ichida bir oz torroq (*kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi. E unlisi *feruz, dehqon, telefon, adres* soʻzlarida i tovushiga yaqin aytiladi.

A unlisi: sayoz til orqa k, g undoshi bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (*kam, katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat* kabi) chuqur til orqa q, gʻ, x undoshi bilan yondosh qoʻllanganda esa yoʻgʻori unli tarzida (*qalam, qargʻa, qasida, gʻam, gʻalvir, xalq, xabar; xat* kabi) talaffuz etiladi.

O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi] *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevada va jonli tilda bu unlining urgʻusi l boʻgʻinda “a”ga yaqin talaffuz qilinish ham uchraydi: *samon, da von* kabi, ammo bu hoi adabiy talaffuz (orfoepik meʼyor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan soʻng yumshoq *kosib, kotib, gov, govmish* kabi; chuqur til orqa q, gʻ, x undoshidan soʻng esa yoʻgʻon unli tarzida talaffuz qilinadi: *qoshiq, qolip, qobil, gʻov, gʻovlamoq*

kabi; 3) y va h undoshi bilan i yondosh qo'yilanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi; *yor, hokim* kabi.

Ayrim so'z tarkibida unli ua, oa, ao, ai, la, aa ko'rinishida qator kelishi mumkin. Bunda ular yo bir unli tarzida talaffuz qilinishi, yoki orasiga undosh tovush qo'shib talaffuz qilinishi mumkin: *muallim - malim, soat - sohat* (Farg'onada), *soat - sog'at* (Toshkentda).

### **Undosh tovush talaffuzi.**

Undosh tovush orfoepiyasi ko'proq fonetik hodisaga bog'liq bo'ladi, Xususan: 1) b, d jarangli undoshi so'z oxirida jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi, bu hoi o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot* kabi; 2) b, d undoshi jarangsiz undosh bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p, t holida talaffuz etiladi, bu hoi ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: *ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti*. 3) j, z undoshining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh, s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yor: *ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur* kabi; 4) b, q undoshining sirg'aluvchi v, g undoshiga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: *bora ber > boraver, keta ber > ketaver* kabi.

V undoshi chetdan kirgan *avtobus, avtomat, Ivanov* so'zida f kabi aytiladi., G undoshi k, q bilan tugagan so'zda k va q tarzida aytiladi: *ek+gan=ekkan, chiq+gan=chiqqan*. D undoshi *obod, ozod* kabi so'zda kelganda t kabi aytiladi, *xursand, farzand* kabi so'zda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi. J qorishiq-portlovchi undoshi *avj, mavj* so'zida ch kabi aytiladi. J sirg'aluvchi undoshi chetdan kirgan *furajka, telejka* kabi so'zda sh kabi aytiladi. Z undoshi *sakkizta, tuzsiz* kabi so'zda yonidagi tovush ta'sirida s kabi aytiladi. N undoshi *manba, tanbur, shanba* kabi so'zda m kabi aytiladi. F undoshi *dalil, taft* kabi so'zda p kabi aytiladi. Q undoshi *maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom* kabi so'zlarda x kabi aytiladi.

### **Asos va qo'shimcha talaffuzi.**

- Q, k bilan tugaydigan otning egalik qo'shimchasi bilan tudangan shakli quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zda *qishloq>qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak>telpagim, telpaging, telpagi* kabi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *o'q>o'qi, tok>toki* kabi (*yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno).

- Q, k, g bilan tugagan otning jo'nalish kelishigidagi shakli quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloq + ga> qishloqqa, chelak + ga> chelakka, tog' + ga > toqqa, pedagog + ga> pedagogka* kabi. Boshqa barcha holatda: a) jarangsiz undoshdan so'ng -ka, jarangli undoshdan va

unlidan soʻng -ga talaffuz etiladi: *otka, oshka, qopka, uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga, akaga* kabi.

Feʻlda: a) *ong + la > angla, son + a > sana, yosh + a > yasha* kabi;  
b) *ek + gan > ekkan, ket + gan > ketkan, oq + gan > oqqan, tush + gan > tushkan* kabi.

Olmoshda: *u + n + da > unda, bu + n + da > bunda, shu + n + da > shunda* (bir "n" orttiriladi), *men + ning > mening, sen + ning > sening* (bir "n" tushirib qoldiriladi).

*Bir* soʻzidan *dona* son yasalganda, oʻzakdagi "r" undoshi "t"ga oʻtadi: *bir + ta > bitta* kabi.

### **Boshqa tildan oʻzlashgan ayrim soʻz talaffuzi.**

1. Turkiy tillarda, maʼlumki, f undoshi boʻlmagan, shuning uchun jonli soʻzlashuvda arab, fors va rus tiilaridan oʻzlashgan soʻzlardagi f ni p deb talaffuz qilish uchraydi: *ulfat > ulpat, faner > paner, ferma > perma* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ularni f bilan talaffuz qilish meʼyor holiga kelgan.

2. Soʻz yoki boʻgʻin boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishli turkiy tillarga xos emas. Bu hodisa keyinchalik boshqa tildan oʻzlashgan soʻz talaffuziga ham taʼsir qilgan - jonli soʻzlashuvda soʻz yoki boʻgʻin boshida yoxud boʻgʻindagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf > ishkap, stakan > istakan, plan > pilon, traktor > tiraktir* kabi. Bunday holat soʻz oxirida ham uchraydi: *aql > aqil, fikr > fikir, ilm > ilim, hukm > hukum* kabi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bunday soʻzni asl forshcha (unli orttirma) talaffuz qilish orfoepik meʼyor sanaladi. Bunday meʼyor shu tipdagi soʻzning yozuvdagi shaklini (imlosini) toʻgʻri belgilashga ham yordam beradi.

3. Umumturkiy soʻzda ikki unli yonma-yon qoʻllanmaydi, bu hol arab tilidan oʻzlashgan *oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa* kabi soʻz talaffuziga taʼsir qilgan: *oila, doir, rais* soʻzlarida bitta y orttirilgan (*oyila, doyir, rais kabi maorif, saodat, mutolaa* soʻzi esa unlining diftonglashuviga - *mo:rip, so:dam mutola:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan soʻz oʻzlashtirishning faollashganligi, ruscha oʻzlashmaning rus tilidagi talaffuz va imlo meʼyorini oʻzbek tiliga aynan singdirish anʼanasining ustun boʻlganligi oʻzbek tilida ikki unlining soʻz tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik meʼyorga aylantirdi: *biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya* va boshqa. Bu hol arabcha oʻzlashmada (*oila, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini meʼyor darajasiga koʻtardi.

4. Arab tilidan o'zlashgan *ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar* kabi so'zning birinchi bo'g'inidagi unli cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zda i unlisi o'zbek tilining i unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. *tish* (o'zb.) - *tip* > *ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) - *tir* > *ti:n* (rus.) kabi.

6. Ruscha leksik o'zlashmaning urg'usiz bo'g'inidagi e unlisi o'zbekcha e dan ancha tor (i ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon*, *televizor* > *tilivizir* *A adres* > *adris* kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashgan so'z da a unlisi o'zbekcha a dan yo'g'onoq talaffuz etiladi: *kana* (o'zb.) - *kanal* (rus) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashgan so'zdagi o'rta keng, lablangan o unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan o\* dan kengroq talaffuz etiladi: *ton* (rus.) - fo'n (o'zb.), *tok* (rus.) - *to'q* (o'zb.), *tort* (rus.) - *to'rt* (o'zb.) kabi.

9. Jonli tilda r bilan boshlangan arabcha, forsha va ruscha so'zlarning boshida bir o' tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za* > *o'raza*, *rus* > *o'ris*, *ro'mol* > *o'ramol* kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida *ro'za, rus, ro'mol* shakllari saralangan.

10. Rus tilidan o'zlashgan so'zning oxirida lab-tish v undoshi jarangsiz f tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif*, *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi; v ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilyativ holatda ham yuz beradi: *avtomat* > *aftomat*, *stavka* > *stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zida qo'llanadigan lablangan b v undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham f ga otmaydi: *ov, birov, ovqat, shavkat* kabi (bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

11. Rus tilidan o'zlashgan so'zning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *atlas, trolleybus, tramvay* kabi.

12. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin *hamma, jami, hamisha, afsuski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yoriga amal qilish imkonini beradi.

### Mustahkamlash uchun savollar

1. Orfoepiya nima?
2. Talaffuz me'yori haqida gapiring.

3. "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" haqida so'zlang.

4. "O'zbek adabiy talaffuz lug'ati" qanday lug'at?

5. Unli tovush talaffuzi haqida gapiring.

6. Undosh tovush talaffuzi haqida gapiring.

7. Boshqa tillardan o'zlashgan ayrim so'z talaffuzi qanday?

**4-topshiriq** So'zni to'g'ri talaffuz qiling va qaysi qoidaga binoan talaffuz qilganingizni ayting:

*Adabiyotchi, badbaxt, uch so'm, izesiz, xursand, go'sht, bo'lsa, kelsa, oshni, ishni, yuzni, u yerda, u yoqqa, bu yoqqa, til, tish, bil, qish, g'isht, xil, bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, kul, atirgul, yuk, kabi, qul, norg'ul, xulq, yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv, bo'r, to'r, ro'mol, qo'l, g'o'r, xo'r, qo'r, kam, katta, gap, gal, gazlama, qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat, kotib, gov, govmish, qoshiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq, muallim, soat, kitob, borib, yozib, savod, obod, ibtidoiy, ketdi, bora ber, ekkan, chiqqan, farzand, furajka, telejka, maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom, qishlog'imiz, telpagim, angla, ulfat, faner, ferma, shkaf, stakan, oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa, biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya, ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar, telefon, adres aktiv, passiv, kursiv, shavkat, atlas, trolleybus, tramvay.*

**5-topshiriq.** A va O unlilarining talaffuziga e'tibor berib, she'mi ifodali o'qing va yod oling

### **ONA DEGAN NOM**

Deydilar, qahrli bahodirlar ham  
Janglarda jon berar chog'i mardona  
Behad azoblarga chidab so'nggi dam,  
Bitta so'z dermishlar shivirlab: Ona.  
Ulug' bir donishmand olamni sharhlab,  
Axiyri tanibdi tuqqan elini.  
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,  
Ona, deb atabdi ilk bor tilini.  
Dunyo shoirlari Vatan sha'niga  
Sifat axtarmishlar qator va qator.  
Nihoyat, kelmishlar bitta ma'niga:  
Ona-Vatan deya bitmishlar ash'or  
Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,  
Takror aytilganda rangsizdir kalom.  
Bu yorug'olamda Vatan bittadir,  
Bittadir dunyoda Ona degan nom!

*(Abdulla Oripov)*



**6-topshiriq.** Talaffuz (orfoepik) me'yorlarning buzilish holatlarini (shevaga xos talaffuzni) toping.

1. Kecha biz shoirlar bilan uchrashdik. 2. So'nggi vaqtda juda ko'p dori-darmonlar chiqib ketdi. 3. Biza nima uchun shunday demoqchi ekanimizni hozir tushuntirib beraman. 4. Bugun madaniyat saroyida katta konsert bo'ladi. 5. Yozgi ta'til vaqtida onamga yordam berdim. 6. Biz ertaga ma'ruzadan keyin kinoga boramiz. 7. Manga yubordila shu yerga. 8. Man o'zbek tilini bilaman-ku. 9. Ochiq deb e'lon qilamiza. 10. Manimcha, bugun interaktiv, savol javob beramiza. 11. Hozircha so'zni Manzuraxonga beramiza. 12. Pulam muhim, sizga kattakon rahmat. 13. Tomosha qib turila. 14. O'zila guvoh bo'ldila. 15. Man esa oldingi holatiga keltirishga harakat qilmovman. 16. Bu xat kepti. 17. Tomosha qilamiza, marhamat. 18. Birinchi o'rinni aytadigan voqt keldi.

**7-topshiriq.** Talaffuz (orfoepik) me'yorlarning buzilish holatlarini (o'zlashgan so'zlarni talaffuz qilishdagi xatoliklarni) toping.

1. Rassomning chizgan rasmi hammani hayratda qoldirdi. 2. Moshina yoqmiyroq turibdimi diymande. 3. Ko'rgazma rahbari unga maxsus sovrin topshirdi. 4. Film rejissori bu rol uchun munosib aktyor tanladi, ushbu nomzodni badiiy kengash orqali tasdiqlatib ham oldi. 5. Do'xtirga murojaat qilmoqchi bo'lsa. 6. Shu sababli Shimoliy provensilarda maxsus yuk mashinalarda qor tashilayapti. 7. Tadbirda instut (institut) talabalari qatnashdi. 8. Ikki davlat prezidentlari nutq so'zlashdi. 9. Jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi. 10. Bu qo'shiqda xalqning dardu alamlari, orzu-armonlari aks etadi. 11. Tinglovchida juda kuchli taassurot qoldiradi. 12. Men bugun ertalab Temuriylar tarixi muzeyiga bordim va u yerdan juda ko'p taassurotlar oldim. 13. Konferensiya o'tqazildi. 14. Konstutsiya konsitutsiyani bilasizmi? 15. Retr agentligi xabar beradi.

**8-topshiriq.** Quyida berigan matnni ifodali o'qing, ohang va talaffuzga e'tibor bering.

### ***Nima uchun Britaniyada choy juda mashhur?***

Choy-Buyuk Britaniyadagi eng mashhur va sevimli ichimliklardan biri. Choy ilk bora Yevropaga gollandiyaliklar tomonidan 1610-yilda olib kelingan. Ammo ro'znomalardagi choy haqidagi ilk xabar 1658-yilda paydo bo'lgan. 1750-yilga kelib choy Angliyaning barcha tabaqalari uchun asosiy ichimlikka aylangan. Bu vaqtgacha esa u juda qimmatbaho bo'lganligi tufayli hamma ham uni tanovul qila olmagan. Choy uy bekalari tomonidan juda qadrlangan bo'lib, uni maxsus idishlarda, ba'zan qulfli idishlarda saqlashgan.

Hozirgi vaqtga kelib choy ichish juda zamonaviy ijtimoiy qadriyatga aylangan. Ko'p uylarda choy bayramlari tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik "tushdan keyingi choy" an'anasi paydo bo'ldi.

Britaniyada choy, odatda Xitoy choynagida damlanadi. Choyni damlagandan so'ng albatta uni bir necha daqiqaga olib qo'yadilar. Ko'pgina britaniyaliklar achchiq, sut va shakar solingan choyni xush ko'radilar.

### *Mavzu bo'yicha savollar:*

1. Nutq hosil qiluvchi qanday o'rganlarni bilasiz?
2. O'zbek tilida qanday unli va undosh tovushlar bor?
3. Talaffuz va ohang nima?
4. Nutq ohangi deganda nimani tushunasiz? Uzun, qisqa ravon ohanglar. Ohangning asosiy vazifalari.
5. Ifodali o'qishning mohiyati nimada? Aniq, yorqin, go'zal talaffuz malakasi.
6. Boshqa tildan kirgan so'zlar qanday talaffuz qilinadi?

**9-topshiriq.** Talaffuz (orfoepik) me'yorlarning buzilish holatlarini (fonetik xatoliklarni) toping.

1. Bahorda o'rik, shaftoli va behi kabi mevali daraxtlar gullaydi.
2. Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish uchun ko'p o'qish kerak, ko'p o'rganish kerak.
3. Shoir haqida aytadigan bo'sak.
4. Yog'inlarning oldini olish hammamizning burchimiz.
5. Kecha do'kondan oq, qizil, sariq hamda ko'k rangli qog'ozlarni sotib oldim.
6. O'qishimga tramvay ham, avtobus ham boraveradi.
7. Singlim bechora ham o'qiydi, ham ishlaydi, ham bolasiga qaraydi.
8. Ukam toza, chiroyli, bexato yozadi.
9. Qirqtan ortiq yong'in yuz bergan.
10. Bu borada tegishli shlar olib borilgan.
11. Davolashdan avval, bu kasalliklarda klinik tekshirishlar olib boriladi.
12. Ko'tarinki ruhda o'tkaziladi.
13. Mavlono Lutfiy bir kator asarlar yaratdi.
14. Oktabr oyida 1-yarmi.
15. Etib utish lozimki.
16. Hukmat rahbarlari, matbuot anjumanida jurnalistlarga.
17. Veteligiya kassaligini etib o'tishim kereyki, bu yuqumli kasallik emas.
18. Yaxshilab umumiy tekshorili, ichek faoliyatini tekshirish, usha yerdagi fatogen mikroflorasini aniqlash ishlari olib boriladi.
19. Inson organizmida ayrim vitaminlarning yetishmasligi yuki.
20. Birovga kerey bo'lmasdan.
21. Jomiki radiokanallarning ijodkorlariga rahmat.
22. Ko'plab mijozlarning ku(u)nglini.
23. Hunar – hunardan unar degan purma'no maqol bor.

**10-topshiriq.** Talaffuz (orfoepik) me'yorlarining buzilish holatlarini (qo'shimchalar talaffuzidagi xatoliklarni) toping.

1. Yetti o'lchab, bir kes.
2. O'zimam qiynalib qolishim mumkin.
3. A'lochi talabalar uy vazifasini puxta bajardilar.
4. Toshkentdan Moskvaga samolyotda uch soatda boriladi.
5. Bilasanmi, bu hayot juda qiziq ekan.

6. Halol mehnat insonni ulug'laydi. 7. Biz sport musobaqasiga tayyorlandik. Ko'chatni ko'pincha bahorda o'tqazadilar. 8. U sayohatni yaxshi ko'radi. Bugun sayohatga jo'naladi. 9. Vatandi himoya qilish kerak. 10. Bizzi, o'zimizzi. Sizzi oldizda qarzdor. 11. Bu hovuzlarni ayrimlari aholi o'rtasida muqaddas hisoblanadi. 12. Kecha universitetda yig'ilish bo'ldi. 13. Bu qizlar Olimpiada g'oliblari bo'ldilar. 14. Ular o'z maqsadlari yo'lida hech narsadan qaytmaydilar. 15. Dalalar. Keng dalalar. 16. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. 17. Gappi ochigi, siz bilan juda ko'p suhbatlashgimiz keladi, lekin vaqt chegaralangani uchun. 18. Poytaxtimizda hududiy-ekologik tahdidlarning onkologik kasalliklar kelib chiqishiga ta'siri mavzusida tashkil etilgan davra suhbatlari ham ana shu mavzu yuzasidandir.

*Yodda tuting!*

**S e** O'zbek adabiy tilida og'zaki nutqqa xos bo'lgan, supersegment vesitalardan biri intonatsiya -qiroatdir. Qiroat-so'z va gapning vazni, xilqati, libosi. U og'zaki nutq orqali voqelanuvchi go'zal bir hodisa bo'lib, inson ruhiyatiga, ongi, idroki va tasavvuriga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi alohida bir ta'limiy-tarbiyaviy tizimni tashkil qiladi.

Nutqning ravonligi, ohangi va ritmi, nutq tezligi va ovoz tembri, mantiqiy(ma'no) urg'u, vazmin va tantanavor ovoz, nafis va jozibador talaffuz qiroat san'atining ajralmas, muhim tarkibiy qismidir.

**11-topshiriq.** E. Vohidovning "O'zbekim" qasidasidan olingan quyidagi parchalarni ifodali o'qing, v-f undoshlari bo'lgan so'zlarni ko'chiring.

So'ylasin Afrosiyob-u,  
So'ylasin O'rxun xati,  
Ko'hna tarix shodasida  
Bitta marjon, o'zbekim.

\*\*\*

Ma'rifatning shu'lasiga  
Talpinib zulmat aro  
Ko'zlaringdan oqdi tunlar  
Kavkabiston, o'zbekim...

\*\*\*

Men Vatanni bog' deb aytsam,  
Sensan unda bitta gul,  
Men Vatanni ko'z deb aytsam,  
Bitta mujgon, o'zbekim.

\*\*\*

Men buyuk yurt o'g'lidurman,  
Men bashar farzandiman,

Lekin awal senga bo'lsam  
Sodiq o'g'lon, o'z begim.

**12-topshiriq.** So'zlarning yozilishiga va talaffuz qilinishiga e'tibor bering va daftaringizga ko'chiring.

*Bankir, veksel, gazetxon, da'vogar, yevrovaluta, yozuvchi, zayom, imtihon, yigirma, kasbdosh, lotoreya, moliya, natija, obligatsiya, pul, rektor, sarmoya, tadbirkor, foyda, xarajat, sentner, chegara, shartnoma, energiya, yulduz, yakshanba, o'ttiz, qarz, g'azna, hisobot, aviatsiya, bayonot, vakil, go'zal, davomat, yetarli, joriy, ziyofat, internet, yig'ilish, kashfiyot, lotin, magistratura, noyabr, oqibat, pedagog, referendum, subyekt, tijorat, umumdavlat, fonetika, xodim, chorshanba, shartnoma, ekologiya, yutuq, yakuniy, o'rinbosar, qismat, g'olib, himoya.*

**Talaffuz (orfoepik) me'yorlari aksentologik hamda urg'u me'yorlarini ham qamrab oladi, chunki har qanday til birliklari muayyan talaffuz va urg'u qo'yish qoidalariga rioya qiladi.**

**13-topshiriq.** Berilgan matnni urg'ularga e'tibor berib o'qing va savollar tuzing.

### *Vatan ravnaqi*

Vatan – insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan tabarruk maskan ekanligini siz yaxshi bilasiz. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan – ota – bobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan, hatto bir qarichini ham hech qanday boylikka almashtirib bo'lmaydigan tabarruk zamin.

Vatan – insonning g'ururi timsoli. Har kim ona Vatani timsolida dunyodagi eng go'zal va betakror yurtni, o'zining, xalqining baxtini ko'radi, hayotning, oila, mahalla, qadrdon shahri yoki qishlog'ining, xalqining qadrini anglaydi. Uning tabiati, havosi, odamlari yoshligimizdan har birimizning ma'naviyatimizni oshirish, yaxshi inson sifatidagi fazilatlarimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Vatan ozod bo'lsa, xalq ham ozod, Vatan ravnaq topsa, xalq ham farovon bo'ladi.

Vatan ravnaqi uning farzandlariga bog'liq bo'lgani bois mamlakatimizda sizdek yoshlarning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bizning har birimiz, bu Vatan, bu yurt – meniki, uning taraqqiyoti menga bog'liq, shu yo'lda bor kuch va salohiyatimizni baxsh etishga tayyorman, degan qarash bilan yashashimiz, yon-atrofimizdagi do'stlarimizni ham shunga da'vat etishimiz lozim.

Shoirlarimiz bejiz Vatanni inson hayotining ma'no-mazmunini belgilab beradigan eng ulug' qadriyatlardan biri sifatida tarannum etishmaydi.

## 5-§. ORFOGRAFIYA (imlo). O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI

Tilda so'zlar va qo'shimchalar ma'lum qoidalar asosida yoziladi. Bu qoidalar yig'indisi imlo (orfoografiya) deb yuritiladi. Imloda to'g'ri yozish me'yorlari o'rganiladi. Imlo quyidagi qoidalarga (tamoyillarga) asoslanadi:

1. Fonetik yozuv (tamoyili). Bu qoidaga muvofiq ba'zi so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozish mumkin:

a) ko'k+ga = ko'kka;

b) og'iz+im = og'zim, burun+im = burnim;

d) yosh+a – yasha, ong+la = angla;

e) ikki +ov = ikkovi, yetti+ovi = yettovi;

f) so'ra+q = so'roq, bo'ya+q = bo'yoq;

g) kes+dir = kestir, kel+dir = keltir;

h) ishlay ber (ishlayver), kela oldi (keloldi).

2. Morfologik yozuv (tamoyil). Bu qoidaga ko'ra so'z o'zagi va qo'shimchalar aynan, asliga muvofiq yoziladi:

a) ketti emas ketdi, aytipti emas aytibdi;

b) Toshkenttan emas Toshkentdan;

d) ishka emas ishga;

e) kulub, uchunchi, tug'ildi emas kulib, uchunchi, tug'ildi yoziladi.

3. Shakliy (etimologik) yozuv (tamoyil). Bu qoidaga ko'ra boshqa tillardan kirgan so'zlar o'sha tillarda qanday yozilsa, shunday yoziladi: stol (ustol emas), bank (banka emas), teatr (teatr emas).

4. Tarixiy-an'anaviy yozuv bo'yicha so'z va qo'shimchalar tarixan, an'anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo'lsa hozir ham shunday yozilishi mumkin: schot-cho't, borgil, borur (borgin va borar bilan bir qatorda).

5. Differensiatsiyalash (farqlash) yozuvi (tamoyili) so'zlarni urg'u yoki boshqa fonetik vositalar (masalan, tutuq belgisi) yordamida farqlab yozishdir: olma - o'lma, sher - she'r.

### *Mustahkamlash uchun savollar*

1. Ba'zi so'z va qo'shimchalarni eshitganimiz bo'yicha yozishimiz mumkin bo'lgan qoida...

2. So'z asosi (o'zagi) va qo'shimchalari aynan, asliga muvofiq yozilish qoidasi...

3. Boshqa tillardan kirgan so'zlar o'sha tillarda qanday yozilsa, shunday yozilishi mumkin bo'lgan qoida...

4. *Soʻz va qoʻshimchalar tarixan, anʻanaviy tarzda qanday yozib kelingan boʻlsa, hozir ham shunday yozilishi mumkin boʻlgan qoida...*

5. *Soʻzlarni urgʻu yoki boshqa fonetik vositalar (masalan, tutuq belgisi) yordamida farqlab yozish qoidasi...*

*Respublikamizda taʼlimning barcha tizimlarida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda “Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” qabul qilgan qarori asosida oʻqitilmoqda.*

Yangi oʻzbek alifbosiga 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va tutuq belgisi kiritildi hamda bu bilan alifbo tizimi anchagina soddalashtirildi. Bu soddalashtirish ikki tovushni ifoda etuvchi *ye, yo, yu, ya* singari grafemalarni, ona tilimizga xos boʻlmagan tovush ifodasi - s harfini va - yumshatish belgisini olib tashlash hamda *ъ* - ayirish belgisini ‘ - tutuq belgisiga almashtirish, shuningdek, *ch, sh, ng* tovushlarini ifodalovchi harflar birikmasini kiritish evaziga amalga oshirildi.

Anʻanaviy imlo meʼyorlarini saqlab qolgan holda lotin grafikasi asosidagi oʻzbek alifbosi bilan ish koʻradigan imlo ham oʻz meʼyoriy qoidalariga ega va bu meʼyorlar yuqorida tilga olingan hujjatda oʻz ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida oʻzbek tilining orfografik meʼyori yoʻlga qoʻyildi.

• Orfografik meʼyor yozma nutqda amal qilib, soʻzlarning oʻzagi, suffikslari, qoshimchalarining, ular qanday talaffuz etilishidan qatʼi nazar, toʻgʻri yozilishini, soʻzlar va ular qismlarining meʼyoriy holda qoʻshib yoki ajratib yozilishini, atoqli otlar va mustaqil gaplarni ajratib turishda bosh harflar bilan yozilishini tartib-qoidaga, meʼyorga solib turish vazifasini bajaradi. Orfografik meʼyor buzilishi yozuvchi biron-bir tovushni yozuvda aks ettirishda muayyan til grafikasini nooʻrin, xato ishlatganda sodir boʻladi.

**17-topshiriq.** Quyidagi soʻzlardan foydalanib gaplar tuzing.

*Akademik, balans, maqola, teng, ssuda, qism, hamkor, marketing, jamgʻarma, litsenziya, ajratma, depozit, bozor, shartnoma, garov, zarar, zayom, daʼvo, shaxmat.*

## O'zbek tilining imlo qoidalari

Imlo qoidalari 7 bo'limdan iborat:

1. Harflar imlosi. U ikki qismdan iborat: unlilar imlosi va undoshlar imlosi.

2. Asos va qo'shimchalar imlosi.

3. Qo'shib yozish.

4. Chiziqcha bilan yozish.

5. Ajratib yozish.

6. Bosh harflar imlosi.

7. Ko'chirish qoidalari.

### Unlilar imlosi

Yangi imlo qoidalarida unli harflarning yozilishiga keng o'rin ajratilgan.

*A* harfi *savol, zamon, bahor* so'zlarida "o" kabi aytilsa ham har vaqt "a" yoziladi.

*O* harfi boshqa tillardan kirgan quyidagi so'zlarda "a" singari talaffuz etiladi, biroq hamisha "o" yoziladi: *kollej, monitoring, dekoratsiya, omonim, okulist* va h.k.

Shuningdek, *o* ba'zan *o'* kabi aytilishi ham mumkin, lekin baribir "o" yozilaveradi: *tonna, noyabr, boks, tort* va h.k.

*I* harfi bilan, *bilim, til, tilak, har xil, qism* kabi so'zlarda qisqa aytiladi va "i" yoziladi, *badiiy, ommaviy, Lutfiy* singari so'zlarda "i" cho'ziq aytiladi, lekin doimo «iy» yoziladi.

*U* harfi *yutuq, butun, tovuq, sovuq, sovun* kabi so'zlarda "i"ga monand talaffuz etilsa-da, qoidaga binoan "u" yoziladi.

*O'o'* harfi *o'zbek, o'lka, o'simlik* kabi so'zlarda old qator, o'rta – keng, lablangan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi.

*E* harfi *e'lon, ehtirom, fe'l, bermoq, meros, mone, tole, kofe* kabi so'zlarda old qator, o'rta – keng, lablanmagan unli tovushni ifodalash uchun yoziladi:

"e", "ë", "ю", "я" harflari yangi alifboda quyidagicha yoziladi:

e: yetti, yetmish, yetim;

yo: yolg'iz, yomon, yong'oq;

yu: yulduz, yumshoq, yumuq;

ya: yakka, yangi, yaroqsiz;

*Milliard, material, million, radio, ukrain, said, doim, shoir, teatr, okean* singari so'zlar talaffuzida unlilar orasida "y" undoshi qo'shib aytilsa – da, yozuvda tushib qoladi.

*Taassurot, taalluqli, taajjub, matbaa, saodat, maorif, muomala, inshoot* kabi soʻzlar oʻrtasidagi unlilar yozuvda saqlanadi.

**18-topshiriq.** Quyidagi soʻzlarni oʻqing va daftaringizga koʻchiring.

a	o	u	oʻ	e	I
ana	xona	u	oʻqi	evara	Ibora
mana	chiroq	ular	oʻquvchi	ega	iborat
taxta	savol	bu	oʻqitiuvchi	egar	ibrat
deraza	devor	bular	boʻz	egri	idrok
talaba	kitob	shu	xoʻp	ekan	ijara
xola	oftob	ukki	xoʻrda	ekin	ijobiy
Nigora	obdasta	uka	osmonoʻpar	elak	ilon
Hilola	oqshom	upa	oʻpkalamoq	elat	iz

**19-topshiriq.** Nuqtalar oʻrniga kerakli unlilarni qoʻyib yozing.

1. Bug...ngi ishni ...rtaga q...yma. (Maqol).

2. Bogʻ...mizda ...lma, oʻr...k, shaft...li, olx...ri va boshqa t...rli m...valar oʻs...di.

3. B...z ushbu yang... oʻq...v yil... uch...n kitob-daft...rlarn... tayyorlab qoʻyd...k.

4. Oʻzbekistonda b...lbul, ch...mchuq, q...rgʻa, m...sicha singari q...shlar j...da koʻp.

**20-topshiriq.** Quyidagi soʻzlardagi xatolarni tuzatib, koʻchiring.

*Ayon, ayvon, avzo, azo, alo, amal, bazan, bevaqt, bemani, muammo, valinemat, nashriyot, vada, vafo, vaz, vazifa, davat, davlat, devor, davogar, jarima, jurat, zafaron, zarafshon, inom, imtihon, istedod, istamoq, masul, mashhur, maoruf, marifiy, maruza, matn, purmano, purhikmat, sanatkor, sifat, tasir, tasir-tusir, talimot, takidlamog, tasis, taqib, fel, shan, sham, tabib, qonun, qita.*

**Undoshlar imlosi**

1. “B” tovushi *borib, javob, hisob, bob, xitob* kabi soʻzlarda “p”, *qibla, tobla* soʻzlarida “v” tarzida aytilsa ham “b” yoziladi.

2. *Avtomat, avtobus, avtomobil* kabi soʻzlarda “v” tovushi “f” tarzida tallafuz qilinsa-da, doimo “v” yoziladi.

3. *Fursat, fizika, fabrika, fahm-farosat, fasl* singari soʻzlarda “f” tovushi “p” kabi aytiladi, lekin asliga muvofiq ravishda har doim “f” yoziladi.

4. *Obod, ozod, faryod, tadbir, tadqiqot* kabi soʻzlarda “d” tovushi “t” tarzida aytilsa-da, har vaqt “d” yoziladi.

5. *Iztirob, tuzsiz, boʻzchi* soʻzlarida “z” tovushi “s” kabi aytiladi, biroq hamisha asliga mos ravishda “z” yoziladi.



6. "J j" harfi *jon, jahon, juma, g'ijjak, vaj* so'zlarida til oldi, jarangli, portlovchi "j", *jurnal, ajdar, garaj, tiraj* so'zlarida esa til oldi, jarangli, sirg'aluvchi "dj" undosh tovushini ifodalash uchun yoziladi.

7. "Sh sh" harfi *shahar, shimol, shoshmoq, osh, bosh* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi tovushni ifodalash uchun yoziladi. Sh harfi ikki tovushni ifodalasa, oraga tutuq belgisi qo'yiladi: *Is'hoq, as'hob* kabi.

8. "Ch ch" harfi *chumoli, choy, achchiq, soch* kabi so'zlarda til oldi, jarangsiz, qorishiq undosh tovushni ifodalash uchun yoziladi.

9. "R r" harfi *rahmat, rahm, diyor*; L l harfi *lola, bol, olmoq*; N n harfi *non, ona, osmon*; G g harfi *gul, ega, eg*; Kk harfi *kam, ikki, tok*; Y y harfi *yetti, yuz, dunyo, toy*; Ng ng harfi *ko'ngil, tong, ong*; Q q harfi *qizil, oq, aql*; G' g' harfi *g'oz, og'a, tog'*; X x harfi *xalq, axborot, baxt*; H h harfi *hamma, hosil, ehson, isloh* kabi so'zlardagi muayyan tovushlarni ifodalash uchun yoziladi.

10. *Farzand, band, poyezd* so'zlaridagi "d" undoshi, *go'sht, past, artist* so'zlaridagi, "t" undoshi talaffuzda tushib qolsa ham yozuvda doimo ifodalanadi.

11. Xuddi shuningdek, *metall, kilovatt, kongress* kabi so'zlar oxiridagi qo'sh undoshlardan biri talaffuzda tushirilib qoldirilsa ham yozuvda hamisha ifodalanadi.

12. Tutuq belgisi *a'lo, ta'lim, e'lon, she'r, fe'l* kabi so'zlarda unlikdan keyin kelib, uning cho'ziqroq aytilishini ta'minlaydi.

13. *Mo'jiza, mo'tadil, mo'tabar* kabi so'zlarda o' unlisi cho'ziqroq aytiladi, lekin tutuq belgisi qo'yilmaydi.

14. *San'at, in'om, mas'ul* kabi so'zlarda unlikdan oldin qo'yilib, uning undosh tovushdan ajratib aytilishini ta'minlaydi.

15. Q harfi *qizil, qimiz, qirq, haqiqiy, aql* kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

**21-topshiriq.** Quyidagi so'zlarni o'qing, ulardagi undosh tovushlarning talaffuziga va yozilishiga ahamiyat bering.

B	V	G	D
baland	vabo	gavda	davlat
badiiy	vazir	gazanda	dazmol
badxat	vazifa	ganj	dala
bayonnoma	vazn	gap-so'z	dalda
bedavo	vakil	garov	danak
bozor	va'da	garchi	dastyor
bola	vijdon	gilam	dasturxon
bormoq	visol	guruch	daraxt

<b>J</b>	<b>Y</b>	<b>NG</b>	<b>G'</b>
jabr	yigirma	jang	g'alla
javob	yigit	singil	g'oz
jahon	yilqi	ko'ngil	g'oza
jo'ja	yroq	yangi	g'o'ra
jadid	yig'i	dengiz	g'ov
jurnal	yig'in	bo'ldingiz	g'ulom
jirafa	yo'l	tong	g'uncha
jemper	yo'rg'ak	ming	g'ussa
<b>Z</b>	<b>P</b>	<b>S</b>	<b>T</b>
zabon	paydo	sabab	taajjub
zavq	payt	sabzavot	tabaqa
zaif	panja	sabr	tabiat
zakiy	parvoz	savat	tabriknoma
zalp	pardoz	salom	talaba
zambil	pechak	savdo	tejamkor
zebo	peshin	sanash	tezlik
ziyo	piyoz	savob	tepa
<b>F</b>	<b>SH</b>	<b>R</b>	<b>K</b>
favvora	shabada	ravish	kabi
fazilat	shamol	razolat	kabob
fayz	shakar	ranj	kabutar
faol	sham	rassom	kal
farzand	shapko'r	Ra'no	keng
fikr	sharoit	rivoj	kesak
firqa	shifokor	ravoch	ket
farz	she'r	rus	kel
<b>CH</b>	<b>H</b>	<b>X</b>	<b>Q</b>
chavandoz	havas	xabar	qadam
chayla	hayot	xavf	qabul
chak-chak	haj	xayr	qadr
chaman	hosil	xasis	qayer
chet el	hayrat	xamir	qalam
chumchuq	hakim		qaysar
<b>M</b>	<b>N</b>	<b>L</b>	
mablag'	nabira	lavha	
mabodo	navbat	lanj	
madad	navro'z	lafz	
modda	Nafisa	lobar	
maydon	namoz	lola	
maktab	negiz	loyiq	

**22-topshiriq.** Soʻzlarni oʻqing, “j” tovushining ikki xil turini ajratib aytib bering.

*jurnal, juda, jar, jim, jazo, javob, jiyda, jiyan, majlis, joy, ajab, byudjet, peyzaj, passajir, hujjat, ehtiyoj, juma.*

**23-topshiriq.** “N+g” va “ng” tovushlarini farqlab aytib bering. Misollarni daftaringizga koʻchirib oling.

alanga	gung	oldinga	tanglay
menga	gurung	oʻngga	soʻngra
senga	eng	jangga	koʻngil
unga	yengil	zangori	rang

**24-topshiriq.** Oʻzbek tiliga xos “q” va “g” tovushlarini toʻgʻri oʻqing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

aloqa	baqa	agʻdarmoq	dogʻ
aniq	boqmoq	begʻaraz	zoʻrgʻa
achchiq	vaqt	bolgʻa	izgʻirin
aql	yostiq	bogʻbon	kambagʻal
baliq	iqtisod	bugʻdoy	ogʻriq

**25-topshiriq.** Lugʻatdan tarkibida gʻ undoshi boʻlgan 10 ta soʻz toping, ularning talaffuzi oʻzgarishini izohlang va shu soʻzlar ishtirokida 10 ta gap tuzing.

**26-topshiriq.** K va q harfi bilan tugagan quyidagi soʻzlarga egalik va kelishik qoʻshimchalari qoʻshing. Bu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Agrotexnik, akademik, bank, darak, uzuk, bitik, jikkak, zambarak, ziyrak, ilk, kichik, kaltak, kiyik, koptok, nozik, tank, tek, bodroq, buyruq, butoq, zavq, iliq, yoʻq, mantiq, maroq, nifoq, ovloq, qattiq, pichoq, sobiq.*

**27-topshiriq.** “Guruhimizdagi talabalar bilan tanishuv” mavzusida yozma suhbat tuzing. Suhbat tuzishda undoshlar imlosiga alohida eʼtibor bering.

**28-topshiriq.** T va d soʻzlari ishtirokida yangi soʻzlar toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

**29-topshiriq.** Berilgan soʻzlarni talaffuz meʼyorlariga amal qilib oʻqing. Sh undoshlari qoʻshaloq kelgan soʻzlarni daftaringizga koʻchiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Shabada, shamshir, sharshara, ashʻor, andisha, bashorat, dashnom, ishbilarmonlik, yondashuv, ishorat, inshoot, ishshaymoq, kashfiyot, kelinposhsha, klavish, maishiy, mashshoq, kashshof, nisholda, shartnoma, pashsha, pishpishlamoq, hash-pash, shaxsiy.*

**30-topshiriq.** Quyidagi soʻzlarga ng, ch harfiy birikmasini qoʻyib koʻchiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

A...inmoq, ba...kana, y...eim, yog'o..., zirap...a, ilg...i, ishon..., kashn...i, ko'...at, lo...in, ...inakam, ...amanzor, ta'sir...an, so...iq, o...erk, ...aqiriq, ... aqqon, ...arm, ... ipta, iqtisod...i. ta...a, daka..., yog'i...archilik, ja..., zara..., i...liz, i...ichka, ke..., ke...ash, lizi..., si...il, sterli..., te...dosh, te...lama, ke..., bodri...

### Yodda tuting:

#### Z-S UNDOHLARI

**Z (z)** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangli un- dosh tovushni ifodalaydi. Jonli nutqda so'z oxirida kelgan z tovushi jarangsizlanib, s tovushiga moyil talaffuz qilinadi, biroq asliga muvofiq z yozilaveradi: *boramiz- boramis, og 'iz-og 'is* kabi. Bu holatni z bilan tugallangan o'zakka jarangsiz undoshlar qo'shilganda ham kuzatish mumkin: *yuz so 'm- yuz so 'm, so 'zsiz- so 'ssiz, izchil-ischil* kabi.

**S (s)** harfi til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz un- dosh tovushni ifodalaydi. E, i unlilaridan oldin kelganda yumshoq talaffuz etiladi: *sezgi, sekin, silamoq, sim* kabi.

**31-topshiriq.** Quyidagi maqollar va to'rtliklardagi z-s undoshlarini qiyoslang va shunga o'xshagan misollar keltiring, daftaringizga ko'chiring

1. *Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi.*

2. *Oz so'z-soz so'z.*

3. *Yer haydasang kuz hayda,*

*Kuz haydamasang yuz hayda.*

4. *Do'stlar, yaxshilarni avaylab asrang!*

5. *Salom degan so'zning salmog'in oqlang!*

6. *O'lganda yuz soat yig'lab turgandan,*

*Uning tirigida bir soat yo'qlang.*

*Maqsud Shayxzoda*

#### X-H UNDOHLARI

**X (x)** harfi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi.

Qarang: *xalq, xabar, to'xta, axtar, xush, xamir* kabi.

**H (h)** harfi ham sirg'aluvchi, jarangsiz undoshni ifodalaydi. Ammo bu tovush bo'g'izda hosil bo'lgani uchun bo'g'iz undoshi hisoblanadi.

O'zbek tilida bu tovush **oh**, **e**, **ha** kabi undosh so'zlarda va asosan, arab, fors tillaridan o'zlashtirilgan so'zlarda uchraydi.

**H harfi** ifodalagan tovush **x** tovushiga nisbatan yumshoqroq, nafisroq talaffuz etiladi va quyidagi so'zlar kabi yoziladi: *himoya, hosil, hokim, Shohista, ohang, sahna, tuhfa* kabi.

Jonli nutqda **h** tovushi ba'zan o'zidan keyingi undosh kabi aytiladi yoki butunlay talaffuz etilmaydi: *mahkam-makkam, mahsi-massi, daxlsiz-dalsiz, shahodatnoma-shaodatnoma* kabi. Kundalik so'zlashuvda yumshoq bo'g'iz tovushi **h** undoshining ko'pincha qattiq, chuqur til orqa tovushi **x** tarzida aytilishi adabiy talaffuz me'yoriga xos emas. Chunki bu tovushlarning bir xilda talaffuz etilishi so'z ma'nosini butunlay o'zgartirishi mumkin: *shohi-shoxi, hol-xol, hil-xil* kabi.

**32-topshiriq.** Quyidagi so'zlarda **h** undoshini to'g'ri talaffuz qiling va yozilishini esda tuting.

*Sulh, bahor, subh, sahv, sahifa, sahro, sayyoh, ruhoniy, ruhan, ruhiy, rohat, rahm, rahmat, mehmon, pinhon, ohista, oh-zor, ohu, muhtaram, mahalla, mahkam, lahza, ishtaha, zohid, ahvol, ahd, ahamiyat, muharrir, muhtasham, muhtoj, muhabbat, muhayyo, muhrdor, muhim, muhlat, muhojir, muhokama, muhr, mehr, mehnat, mahsulot, mohtob, mahkum, zahmat, himmat.*

**33-topshiriq.** Nuqtalar o'miga **x** yoki **h** harflaridan mosini qo'yib, so'zlarni ko'chiring.

*Ishta...a, ji...oz, jo...il, za...ar, za...matkash, ze...n, ba...odir, mar...amat, masla...at, e...son, e...tiyotkorlik, sa...iy, so...il, giyo..., sayrgo..., ...orij, ...azil, ...arakat, guru..., ...attot.*

#### **Asos va qo'shimchalar imlosi**

1. *a* unlisi bilan tugagan fe'llarga *-v*, *-q*, *-qi* qo'shimchalari qo'shilganda *a* unlisi *o* aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, qayna – qaynoq, sayra – sayroqi.*

Shuningdek, *o'qi – o'quvchi, sovi – sovuq, to'qi – to'quvchi* so'zlarida *i* unlisi *u* ga aylanishi mumkin.

2. *K k* harfi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, ular *g* va *g'* ga aylanadi: *yurak – yuragi, bilak – bilagim, tilak – tilagim; buloq – bulog'im, quloq – qulog'ing, qishloq – qishlog'i* kabi. *Erki, ishtiroki, huquqi, ravnaqi* singari so'zlarda bunday holat kuzatilmaydi.

3. *Singil, o'rin, ko'ngil, og'il, shahar* kabi sozlarga egalik qo'shimchasi, *qayir, ayir* so'zlariga nisbat yasovchi qo'shimcha, *ikki, olti, yetti* so'zlariga jamlovchi son hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilsa, asosda tovush tushishi hodisasi ro'y beradi.

4. *U, shu, o'sha* kabi olmoshlarga *-da, -dan, -day, -dagi, -dosh, -cha* qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* orttiriladi, aksincha, *men, sen* olmoshlariga *-ni* va *-ning* qo'shimchalari qo'shilsa, bitta *n* tushirib qoldiriladi: *bunda, shundan, o'shancha, meni, sening* kabi.

5. *Parvo, obro', mavqe* so'zlariga egalik qo'shimchalari (I va II shaxsda) qo'shilsa, bitta *y* tovushi orttiriladi va shunday yoziladi: *parvoyi, obro'yim, mavqeyim* kabi.

6. *-boz, -bon* qo'shimchalari *-vos, -von* kabi aytilsa-da, doimo asl shakli bo'yicha yoziladi: *dorvoz, bog'bon* kabi.

7. *-dir* nisbat yasovchi qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi: *yondir, bordir, quvdur* kabi (kel so'zi bundan mustasno), qolgan o'rinlarda *-tir* shaklida aytiladi va shunday yoziladi: *ektir, quyultir, kestir* kabi.

8. *-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qo'shimchalari uch xil aytiladi va yoziladi *ertaga, ertagacha, borgach, borguncha, borgudek, borgan; eshikka, eshikkacha, chiqqach, chiqquncha, chiqqani* kabi.

**Eslatma:**

*bargga, pedagogga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha* so'zlari bunga kirmaydi

**34-topshiriq.** Matnlardagi yasama iqtisodiy terminlarni aniqlang va ajratib yozing.

1. *Bozorchi-bu bozorga savdo-sotiq ehtiyoji bilan kelgan kishi.*
2. *Shu jihatdan sudxo'rlik rivoj topadi, ya'ni qarz beruvchi kishi bergan pulini kafolatlovchi va pulini qadrsizlatib ketishdan saqlash yolini qidira boshladi.*
3. *Jamg'armalar va iste'moldan voz kechish o'rtasidagi o'zaro bog'lanish unchalik yaqqol ko'rinmaydi.*
4. *Qonunchilik qoniqtirilmagan holati tadbirkor tashabbusini susaytiradi.*
5. *Boshqa yurtdan tovar olib keluvchiga baraka va ehtiyotkor deyilgan.*
6. *Ma'lumki, mulkdor topgan mulkining halol bo'lishi uchun zakot bermog'i shart.*
7. *Sotuvchi va xaridorning iqtisodiy ahvoli bozor kon'yunkturasiga, bozorning joriy holatiga bog'liq bo'ladi.*
8. *Tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar tez daromadlaridan foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibda qilmoq kerak.*
9. *Shunga muvofiq ravishda amaldagi yo'riqnomalar, qoidalar ham tez o'zgarib turibdi.*
10. *Kafolatnoma kredit oluvchi xorijiy xaridor, jismoniy shaxs va xususiy-huquqiy shaxs bo'lgan taqdirda beriladi.*
11. *Mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, shunchalik mehnat unumi yuqorilashadi.*
12. *Bozor munosabatlari*

iqtisodiyotning hamma jabhalarini, jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi. 13. Raqobat basma-baslikka bellashuv, kim o'zadi qabilida kurashuv demakdir. 14. Bojxona – chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasi. 15. Foyda berish, korxonalar va tarmoqlar faoliyatining asosiy mezonlaridan biridir. 16. Agar taqchilik hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatining 3-5 foiziga teng bo'lib, undan oshib ketmasa, bu iqtisodiyot uchun normal hol hisoblanadi. 17. Xuddi shuning uchun ham mamlakatimizda bolalarning ilm olishlari bepul amalga oshiriladi, negaki vaqt g'animat, uni befoyda o'tkazmaslik kerak. 18. Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri, ochiq daromad yoki mulkdorlarga solinadi. 19. Naqd pulsiz valuta to'lovlari hujjatlarning quyidagi turlari. 20. Ishsiz deganda aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish reja olmasdan, mehnat zaxira armiyasiga aylangan qismi hisoblanadi.

**35-topshiriq.** Quyidagi so'zlarga *-chi, -ma, -kor, -dor, -noma, -ot, -ik, gar* qo'shimchalaridan birortasini qo'shib ko'ring, o'zakdagi o'zgarishni izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Iqtisod, bozor, xizmat, jamg'ar, undir, usta, tadbir, xam, chora, qarz, mulk, hissa, xabar, taklif, kafolat, taqsim, iqtisodiy, hisob, tanqis, mustaqil, mulkchi, savdo.*

### **Qo'shma so'zlarning imlosi**

#### **Quyidagi tarkibdagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:**

1. Tarkibida *xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxt, kam, umum, aro, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlardan biri qatnashgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *ishxona, qabulxona, ma'lumotnoma, tabriknoma, sholipoya, g'o'zapoya, ommabop, xushxabar, hamdo'st, hamsuhbat, orombaxsh, kamgap, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, izzattalab* kabi.

2. Ikkinchi qismi *-ar* (inkor shakli *-mas*) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *otboqar, o'rinbosar, molboqar, beshiktervatar, tezoqar, ertapishar, tinchliksevar, ishyoqmas, qushqo'nmas* kabi.

3. O'xshash, qiyoslash asosida yuzaga keluvchi qo'shma otlar va qo'shma sifatlar: *karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, bodomqovoq, devchechak* kabi.

4. Narsani biror belgisi asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

5. Narsani joyga nisbatan bildiruvchi qo'shma otlar: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

6. Biror maqsad, ish uchun mo'ljallangan narsani bildiruvchi qo'shma otlar: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, ko'zoynak* kabi.

7. Qaratqich + qaralmish tipidagi birikmaning so'zga aylanishi bilan yuzaga keluvchi qo'shma otlar: *mingboshi, shaftoliqoqi, olmaqoqi, qovunqoqi* kabi.

8. Ikkinchi qismi turdosh otlardan yoki **obod** so'zi bo'lgan joy nomlari: *Sirdaryo, Kattaqo'rg'on, To'rtko'l, Yakkabog', Yangiobod, Xalqobod, Fayziobod* kabi.

Ammo ikkinchi qismi atoqli otlardan bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: *O'rta Osiyo, Yuqori Chirchiq, Qo'yi Chirchiq, Ko'hna Urganch* kabi.

9. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kalka usulida hosil qilingan qo'shma so'zlar: *kinoteatr, fotoapparat, elektroapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, suvosti, bayramoldi* kabi.

10. Qisqartma otlar qo'shib yoziladi: O'zMU (O'zbekiston Milliy Universiteti), O'zXDP (O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi) kabi.

**36-topshiriq.** Quyidagi so'zlarning tarkibini aniqlang. Shakldosh o'zaklarni ajratib, izohlang.

*O'qi – o'quv, o'quvchi, o'qituvchi; ish – ishchi, ishchan, ishli; maza – mazali, mazasiz, bemaza; tinch – tinchlik, notinch, bog' – bog'bon, bog'lam, bog'lovchi, bog'dor, bog'lama.*

**37-topshiriq.** Berilgan so'zlardan o'zakdosh so'zlar qatorini hosil qiling (Paxta, lola, ish, bil, zar, do'st)

paxtakor (shaxs oti)	ishchi (shaxs oti)
paxtazor (joy oti)	suvchi (shaxs oti)
paxtachilik (kasb oti)	zardo'z (shaxs oti)
paxtasiz (sifat)	maxsido'z (shaxs oti)
paxtali (sifat)	bog'bon (shaxs oti)
paxtadek (ravish)	saroybon (shaxs oti)

**38-topshiriq.** O'zakdosh otlar yordamida so'z birikmalari hosil qiling va gaplar tuzing.



### **Yodda tuting:**

#### **So'z birikmasi Qo'shma ot**

Issiq ko'l Issiqko'l  
yangi yer Yangiyer  
yangi yo'l Yangiyo'l  
katta qo'rg'on Kattaqo'rg'on  
qo'ygan yor Qo'yganyor

#### **Qo'shma ot So'z birikmasi**

Toshko'prik tosh ko'prik  
Qumqishloq qum qishloq  
Oqdaryo oq daryo  
Ko'korol ko'k orol  
Mingbuloq ming buloq

**39-topshiriq.** Birinchi qismi *oq, qora, yuqori, o'rta, quyi* so'zlaridan hosil bo'lgan qo'shma otli joy nomlariga misollar topib yozing.

**40-topshiriq.** Ikkinchi qismi *daryo, soy, ko'l, dengiz* so'zlari bilan tuzilgan qo'shma joy nomlariga misollar topib yozing.

**41-topshiriq.** Qo'shib yoziladigan quyidagi so'zlarning har biriga bittadan gap tuzing: *bojxona, arznoma, shartnoma, talabnoma, kamxarj, umumdavlat, o'rinbosar, so'zboshi*.

**42-topshiriq.** Rus va boshqa tillardan o'zlashtirish yoki so'zma-so'z tarjima qilish orqali yasalgan 20 ta qo'shma so'zni (iqtisodiy) yozing va ularning har biriga gap tuzing.

**43-topshiriq.** *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan quyidagi so'zlarni yodda tuting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Bojxona, elchixonona, mehmonxonona, talabnoma, arznoma, shahodatnoma, shartnoma, ruxsatnoma, zinapoya, sholipoya, imoratbop, sahnabop, xushbo'y, xushfe'l, xushxulq, hamkasb, hamkurs, hamdo'stlik, hamyurt, shifobaxsh, orombaxsh, kamxarj, kamchiqim, kamhosil, umumdavlat, umumjahon, umumnazariy, misrang, lolarang, sovuqmijoz, maymunsifat, devsifat, savobtalab, shifotalab.*

#### **O'zbek tilida juft va takror so'zlar**

Juft so'zlar o'xshash ma'noli yoki qarama-qarshi ma'noli so'zlarni qator keltirish, so'zni takrorlash bilan hosil bo'ladi: *asta-sekin, qozon-tovoq.*

Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi: juft va takror so'zlarning qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *asta-sekin, uch-to'rt, kiyim-kechak, qop-qop, uy-uyiga* kabi;

- juft soʻzlar orasida - **u (-yu)** bogʻlovchisi qoʻllansa, bogʻlovchidan oldin chiziqcha qoʻyiladi: *oq-u qora, kecha-yu kunduz* kabi;

- **ma, - ba** yordamida birikkan soʻz qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam* kabi;

- arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar chiziqcha bilan yoziladi: *5- sinf, 6- "V" sinf, 1991-yil, 3- mart* kabi.

**44-topshiriq.** Quyidagi soʻzlar yoniga mos soʻzlar qoʻyib juft soʻzlar yasang va yozilishini izohlang.

*Qarindosh - ....., kuch - ....., qovun - ....., yoʻl - ....., non - ....., osh - ....., oʻyin - ....., boʻlar - ....., gul - ....., yer - ....., yor - ....., dor - ....., tepsa - ....., temir - ....., asta - ....., oq - ....., chora - ....., kirim - ....., mehr - ....., aytdi - ....., kecha - ....., uzoq- ....*

**45-topshiriq.** Juft soʻzlarni ajratib oling va daftaringizga koʻchiring va ular ishtirokida 10 ta gap tuzing.

*Urf-odat, nim pushti, yarim orol, tez-tez, baxt-saodat, dori-darmon, toshkoʻmir, yalangoyoq, uch-toʻrt, yoza-yoza, oʻgʻil-u qiz, qosh-qovoq, qoʻrqa-pisa, shu on, tokqaychi, yuzma-yuz, hovli-joy, soʻramay-netmay, olaqargʻa, asbob-uskuna, yer-u osmon, sap-sariq, hol-ahvol, koʻksulton, keta ber, yoz-u qish.*

### **Chiziqcha bilan yozish**

**1.** Juft va takror soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi: *mehr-oqibat, katta-kichik, el-yurt, asta-sekin, bordi-keldi, don-dun, mayda-chuyda, taq-tuq, qop-qop, baland-baland, chopa-chopa, yura-yura ayrim-ayrim, borib-borib* kabi.

Juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: *katta-yu kichik, tun-u kun, el-u yurt* kabi.

**2.** Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan **kundan kunga, yildan yilga** kabilar shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi **koʻpdan koʻp, ochdan och** kabi birikishlar chiziqchasiz yoziladi:

M: *yildan yilga, kundan kunga, naridan beri, koʻpdan koʻp, tekidan tekin*

**3.** Yil va oylarni (sanalarni) koʻrsatuvchi arabcha raqamdan soʻng lotin yozuvi asosidagi imloga koʻra chiziqcha qoʻyiladi: *2003-yilning 9-sentabri* kabi.

4. Kuchaytirilgan belgi shakllari chiziqcha bilan yoziladi: *qop-qora, yam-yashil, yap-yapaloq, ko'm-ko'k, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, yop-yorug'* kabi.

5. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kalka usulida o'zlashgan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *injener-konstruktor, gramm-molekula, kilovat-soat, vitse-prezident* kabi.

**46-topshiriq.** Quyidagi so'zlarning har biriga 2 tadan gap tuzing.

*Hisob-kitob, narx-navo, eksport-import, xavf-xatar, xayr-sadaqa, xayr-ehson, pul-kredit, so'm-kupon, bosqichma-bosqich.*

**47-topshiriq.** Matnni o'qing. Chiziqcha bilan yozilgan so'zlarni aniqlab, chiziqcha qo'yilishining sabablarini aniqlang.

*Biz hayotlik chog'larida ota-onamizning qadriga yetamizmi, axir ular bizni deb sog'liqlaridan kechishgan, tunlarni bedor o'tkazishgan. Ko'p mashaqqatlar chekishgan. Ne-ne to'siqlami yengishgan va oxir-oqibatda kuch-quvvatdan qolishgan. Asablari bora-bora ishdan chiqqan. Ko'ngillari yarimta bo'lib qolgan. Tabiiyki, bunday holatda ular o'g'il-qizga munosabatda, muomalada, gap-so'zda, ehtimolki, xatoga yo'l qo'yishlari mumkin, ana shunday paytda biz ularni to'g'ri tushunamizmi, kechira olamizmi, oshiqmay, asabiylashmay yuzma-yuz o'tirib, xushmuomalalik bilan fikrimizni tushuntira olamizmi?*

*Dunyodan, hayotdan, kelajakdan, puf-puflab, avaylab, oq yuvib, oq tarab o'stirayotgan farzandlarining orzu-havasini ko'rishdan, ularning kelajakda baxtli bo'lishidan umidvor bo'lgan odamlar, yigit va qizlar bu haqda chuqur o'ylab, mushohada qilib ko'rishlari lozim.*

### **Ajratib yozish**

1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *imzo chekmoq, ta'sir etmoq, vafu qilmoq, sotib olmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq* kabi.

2. Belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi *och, to'q, tim, nim, liq, jiqqa, lang* kabi so'zlar bilan kelgan sifat turkumiga oid so'zlar ajratib yoziladi: *och qizil, to'q qizil, tim qora, nim pushti, liq to'la, jiqqa ho'l, lang ochiq* kabi.

3. *Har, hech, hamma, ba'zi, g'ayri, bir, qay, u, bu, shu, o'sha* so'zlari yonida kelgan so'zdan ajratib yoziladi: *har zamon, hech kim, hamma vaqt, ba'zi bir, g'ayri tabiiy, bir qancha, bir yo'la, qay kuni, u yerga, bu yoqdan, shu erdan, o'sha yoqqa* kabi.

Lekin *birpas, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyon (beri)* so'zlari qo'shib yoziladi.

Lotin yozuvi asosidagi imloga ko'ra *biroz* so'zining ham qo'shib yozilishi belgilab qo'yilgan.

**Qay so'zi yer, yoq, yon** so'zlari bilan kelganda bir y tushib qolishi natijasida bu so'zlar qo'shib yoziladi:

**Qiyoslang:** qay yerda – qayerda, qay yoqqa – qayoqqa, qay yondan – qayondan kabi.

**Qaybir, qayvaqt** so'zlari ham qo'shib yoziladi.

4. Murakkab sonlarning qismlari ajratib yoziladi: *yigirma besh, bir yuz ellik ikki* kabi.

5. Tojikcha izohli birikmalar ajratib yoziladi: *tarjimai hol, nuqtai nazar, oynai jahon, dardi bedavo* kabi. Shuningdek, yangi imlo qoidalarida izohli undosh bilan tugagan so'zlarga *i* shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga *yi* shaklida qo'shilishi belgilab qo'yildi.

**Qiyoslang:** *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol, oynayi jahon, piri badavlat* kabi.

**48-topshiriq.** *Bir xil, sarf qil, sotib ol, hamma vaqt, tekidan tekin, olti yuz, tarjimai hol* kabi so'zlarning ajratib yozilishini izohlang va har biriga bittadan gap tuzing.

### ***Bosh harflar imlosi***

Orfografiya qoidalariga ko'ra bosh harflar quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi:

1. Satr boshi, gap, she'rning har bir misrasi bosh harf bilan boshlanadi.

2. Atoqli otlar bosh harf bilan boshlanadi: *Alisher Navoiy, G'afur G'ulom, Toshkent, O'zbekiston* kabi.

3. Sayyora va yulduzlarning nomlari bosh harf bilan boshlanadi: *Yer, Quyosh, Oy, Mars, Hulkar* kabi. Ammo *Yer, Quyosh, Oy* so'zlari sayyora ma'nosidan boshqa ma'nolarda kelganda kichik harf bilan boshlanadi. **Qiyoslang:** *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi; Hamma bir yerga to'planib, kelasi oyning rejasini tuzib oldik.*

4. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarning, xalqaro tashkilotlarning nomlaridagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi. *O'zbekiston Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi* kabi.

5. Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlarning nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Madaniyat vazirligi,*

*Fan va texnika davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, Til va adabiyot instituti kabi.*

6. Madaniy – maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq – ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan boshlanadi: *“Saodat” drammasi, “Navro'z” xayriya jamg'armasi, “Toshkent” mehmonxonasi, “Qutlug' qon” romani, “Paxtakor” stadioni, “Dilorom” operasi kabi.*

7. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi.*

8. Davlatning oliy darajali mukofotlari nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *“O'zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal).*

Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: *“Sog'lom avlod uchun” (orden), “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa aloqachisi” (nishon) kabi.*

**49-topshiriq.** 20 ta bosh harf ishtirok etgan iqtisodiy mavzudagi gapni gazetalardan toping va ko'chiring.

**Yodda tuting:**

Qisqartma otlar orasiga hech qanday tinish belgilari qo'yilmaydi. Agar shartli qisqartma bo'lsa, orada nuqta qo'yiladi: G'.G'. (G'. G'.ulom), H.O. (Hamid Olimjon) kabi.

**50-topshiriq.** Berilgan qisqartma so'zlarni yozing, ularni kengaytirib izohlang. BAR, DTS, O'zMU, SamDU, BuxDU, TDPU, TDIU, IIV.

**51-topshiriq.** Quyidagi qisqartmalarni to'liq holiga keltiring: *ToshDTU, ToshDAU, TMI, O'zMU, SamDU, O'zDFU, O'zA “O'zbek”, TSHPOTMOJ, O'zDJTI.*

**52-topshiriq.** Qisqartma otlarga yangi misollar toping. Ular ishtirokida so'z birikmasi hosil qiling va gaplar tuzing.

**53-topshiriq.** Birinchi so'zning bosh qismi, boshqa so'zlarning birinchi harfi va aralash yo'l bilan hosil qilingan qisqartma otlarga misollar keltiring, ularning o'qilishi va yozilishini tushuntiring.

**54-topshiriq.** So'zlarning birinchi harfidan yasalgan qisqartma otlarga misol keltiring. Ularning yozilishi va o'qilishini tushuntiring. Ular bilan so'z biriktmalari hosil qiling.

**55-topshiriq.** Qisqartma otlar qatnashgan beshta gap tuzing.

**56-topshiriq.** Izohli diktant yozing. Tarkibidagi qisqartma otlarning to'la shaklini yozib chiqing. *Masalan: BAR - Birlashgan Arab Respublikasi, DTS - Davlat ta'lim standarti, O'zMU - O'zbekiston Milliy universiteti, filfak- filologiya fakulteti v.x.*

### **Bo'g'in ko'chirilishi**

**Orfografiya qoidalariga ko'ra bir qatorga sig'may qolgan so'zning qismi ikkinchi qatorga quyidagicha ko'chiriladi:**

1. So'z qismlarga bo'g'inidan ajratib ko'chiriladi: *tala-ba, ta-laba, mak-tab, ko'-ngil* kabi.

2. Bir unlidangina iborat bo'lgan bo'g'in oldingi satrda qoldirilmaydi. Shuningdek, keyingi satrga ham bir unlidan iborat bo'lgan bo'g'in ko'chirilmaydi: *o-naning emas, ona-ning, jamo-a emas, ja-moa, mudofa-a emas, mudo-faa* kabi.

3. Bir tovushni ifodalaydigan harfiy birikmalar ajratilmay ko'chiriladi. Misollarni har ikki yozuv asosida **qiyoslang**: *Ky'нгил, монг-гу, су-нгил; поме-шчик, ме-шчан; ma-shaqqat, ke-chuv, kech-qurun, tong-gi, so'ng-ra, pome-shik, me-shchan* kabi.

4. Bosh harflardan tuzilgan qisqartma otlar, ko'p xonali raqamlar ikkinchi qatorga bo'lib ko'chirilmaydi: *O'zMU, BMT, AKT, 155, 2003, XXIX* kabi.

6. Ism va familiyalarning harfiy qisqartmalari ajratib ko'chirilmaydi: *I. O. Sultonov, A. B. Ahmedov* kabi.

### **Yodda tuting:**

O'zbek tilida bo'g'inning asosiy turlari.

1. **Bir unlidan iborat:** o-na, u-ka, a-na, u, a.

Ertaga kinoga borasanmi, a? U biznikiga keladi.

2. **Unli + undosh:** osh, ot, ish.

3. **Undosh + unli:** da-da, bo-la, lo-la.

4. **Undosh + unli + undosh:** kel, yo'q, ket, bol, tiz.

5. **Unli + undosh + undosh:** ost, ust, erk, ishq, aql, adl.

**Undosh + unli + undosh + undosh:** ko'rk, tark, tinch, yanch, sanch, tort, qirq.

**57-topshiriq.** Quyidagi matnni ko'chiring va bo'gin ko'chirish qoidalariga rioya qiling.

### **Milliy iqtisodiyot: Xorij sarmoyasi va qo'shma korxonalar**

*O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning o'ziga xos va mos yo'lini tanlagan ekan, jahonning istalgan mamlakati bilan hamkorlik*

olib borish imkoniyatiga ega va jahon bozoriga ochilgan yo'llari yanada ravon bo'laveradi.

Xorij sarmoyasini iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilish kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi integratsiyalashuv jarayonida hech qaysi davlat jahon iqtisodiyotidan ayrim holda, tashqi yordamlarsiz, boshqacha aytganda xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tarixi ham xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni qayta qurish, modernizatsiyalash va yuksaltirishdagi o'rni nihoyatda katta ekanligini ko'rsatadi.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish va qo'shma korxonalarni tashkil qilish borasida O'zbekiston har tomonlama qulay zamindir. Buning isboti sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Respublikamizda boy va tabiiy xomashyo salohiyati mavjud. G'oyat boy qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdagi yonilg'i resurslari (neft va gaz kondensati, tabiiy gaz) konlari, ko'plab turdagi mineral xomashyo va binokorlik metallari-bularning barchasi respublikamizda katta hajmdagi ichki va tashqi investitsiyalarni yuksak darajada samarali o'zlashtirish uchun samarali o'zlashtirish uchun muhim asos bo'ladi. O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud. Mamlakatimizdagi mineral xomashyo zahiralarining umumiy bahosi 3,3 trillion AQSh dollaridan ziyodroq. Xususan, O'zbekiston strategik xomashyo hisoblanmish paxta tolasi, yoqilg'i energetikasi resurslari, kimyo mahsulotlari, plastmassa ishlab chiqarish bo'yicha nafaqat MDHda balki butun dunyoda ham yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz zarur mehnat salohiyatiga ega. Shu bilan birga, respublikamizda 8 milliondan ortiq faol yoshdagi aholi mavjud bo'lib mehnatga layoqatli aholi har yili 200 mingdan ortiq kishiga ko'paymoqda. Eng avvalo shuni aytish kerakki, respublika mehnat salohiyati jihatidan yuksak darajaga ega, mehnat resurslari umumiy va professional ta'lim darajasi yuqori.

**58-topshiriq.** Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrating va bo'g'in turlarini aytib bering.

Aloqa, bino, baland, bahor, dara, daraxtlar, ish, ishchilar, davomat, o'qituvchi, o'quvchi, jiddiy, zafar, mehnatsevar, singil, e'lon, oila, tanga, ko'ngil, oyijon, adajon, buvi.

**Namuna: a-lo-qa, bi-no.**

## 6-§. LEKSIKOLOGIYA

**Leksikologiya** tilning soʻz boyligi soʻz maʼnosi va maʼno taraqqiyoti, shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari, eskirgan va yangi soʻzlar kabi masalalarni oʻrganadi.

**Leksik meʼyorlar** deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud boʻlgan soʻzlarni toʻgʻri tanlash va oʻrinli ishlatish tushuniladi. Koʻpmaʼnolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining koʻpligi uning xususiy meʼyorlari shakllanishiga ham sabab boʻlgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning meʼyoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik meʼyor toʻgʻrisidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til meʼyori doirasida meʼyorni belgilash tilimizdagi masʼuliyatli masalalardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksikasidan ularning koʻpchiligi uchun umumiy boʻlgan soʻzlarni tanlab oladi va uni oʻz leksik tarkibiga kiritadi (mas., *sigir-siyir-inak*; *chaqaloq-buvak*, *tuxum-moyak-yumurta*, *chumoli-murcha-qarinja-qumursqa* kabilar).

Oʻzbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobshe, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qoʻymoq, bo, akun, soni* kabi soʻz va birikmalarining ishlatilishi juda xunik hodisa. Bu yerda meʼyor buzilgan.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yoʻnalishlari boʻyicha atamashunoslik sohasida islohotlar oʻtkazish, ularni “oʻzbekchalashtirish” ga imkoniyat yaratildi. Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni “milliylashtirish”ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda koʻpaydi. Joʻyali fikrlar bilan bir qatorda, hazm boʻlishi qiyin boʻlgan takliflar ham oʻrtaga tashlandi. Bu gapning tasdigʻi sifatida ayrim misollarni keltiramiz: *matematika-riyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushtariy, auditoriya-saboqxonona, xona, oʻquv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan-suvqogʻoz, seyf-zarf, attestatsiya-koʻrik, samolyot-tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-daʼvatxonona, titul list-sarvaraq* va hokazo.

Ammo bu qarashlar shu maʼnoda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash gʻoyasi yotadi. Tilimizda qoʻllanilib kelinayotgan *avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya,*



*inspektor, intelligent, kontrol, komandirovka, komandirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, muammo, rayon, raport, redaktor, revolutsiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, traditsiya, forma* singari soʻzlar oʻrmini muallif, meʼmor, insonparvarlik, maʼruza, maskura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma /xabarnoma, muharrir, inqilob, maʼlumot/maʼlumotnoma, talaba, kotib/kotiba, mavzu, hudud, anʼana, shakl kabi tavsiya etilgan soʻzlar osonlik bilan egalladi. Chunki ular ikkinchi nusxa sifatida tilimizda ozmi – koʻpmi oldindan ham qoʻllanilib kelinayotgan edi.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda koʻplab yangi soʻz va iboralar, birikmalar paydo boʻlayapti. Bu holatni asosan fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, sanʼat va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz.

Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qatʼi nazar, ularni qoʻllashdagi har bir holatga munosabat bildirilib borilishi, meʼyor sifatida tavsiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda maʼqul koʻrilganligini asoslanishi zarur boʻladi.

**59-topshiriq.** Leksik meʼyorning buzilish holatlarini (notoʻgʻri soʻz qoʻllash, taftologiya, paronimlarni notoʻgʻri qoʻllash kabilarni) toping.

1. *Bugungi koʻrsatuvimizda elimiz suygan taniqli sanʼatkor Oʻlmas Rasulov hamda surnay soʻzining mohir ijrochilaridan Joʻra Ahmadjonov, Ikromjon Matanov ham ishtirok etishgan. Koʻrsatuvimiz surnay soʻziga bagʻishlanadi. Avvalambor, surnay soʻzining ommaviyligi uning keng omma ichida chalinib koʻpchilikka yetib borishi bu sozning ommaviyligiga ham bogʻliq. Shu sababmi, barcha sozanda va bastakorlarimizning ijodlarida surnay navolari, surnay ijro yoʻllari sezilib turadi.* 2. *Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajaradilar.* 3. *«Tilga hurmat – elga hurmat», – deydi dono xalqimiz.* 4. *Onam aytardilar: «Sen mening umid yulduzimsan, qizim».* 5. *Ustozim: «Agar ilmni oʻrganishdan toʻxtasang, oʻsha kundan boshlab eʼtibordan qolasan», – der edilar.* 5. *«Men ertaga ishga kelmayman», – dedi boshligʻimiz.* 6. *«Yaxshi boʻlibdi!» – deb kulib qoʻydi singlim.* 7. *«Moskvaga sen ham ketayapsanmi?» – deb soʻradi qiz.* 8. *Jarohat aynan transport vositasi aybi bilan hosil boʻlgan.* 9. *Yosh ijodkorlarning akvarel va qalam tasvirlari, liboslari eskizi, bisqit toʻqish kabi ijobiy ishlari koʻrgazmaga qoʻyilgan.* 10. *Yurtimiz hayoti va xorij sahnida roʻy bergan voqealar tafsiloti bilan...* 11. *Maʼlumki, qoʻshma korxonalarini*

*rivojlantirish yuqori davlat idoralari tomonidan rag'batlantirilib va tartibga solinib turilsa-da...*

***Yodda tuting:***

**Leksik, grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va finish belgilarga oid me'yorlar adabiy tilning faqat yozma shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa faqat og'zaki nutq shakli uchun xosdir.**

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir – baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir.

Tildagi me'yoriy holatlarni belgilashda, tilning adabiylik darajasini taminlashda ilmiy asoslangan imlo va talaffuz qoidalarining mavjud bo'lishi, ular vakolatli tashkilotlar tomonidan rasmiylashtirilib, ma'lum m'noda til iste'molchilari uchun majburiy bo'lishi, qonuniy hujjat holiga keltirilishining ahamiyati katta, albatta. Ammo til iste'molchilarining hammasida ham ana shu qonun-qoidalaridan yetarli darajada xabardor bo'lish imkoni bo'lavermaydi.

Ular me'yorini asosan eshitish va ko'rish natijasida o'zlashtiradilar hamda shu asosda gapirib va yozib ketaveradilar. Bunda tildan foydalanuvchining, ayniqsa, yosh paytidagi, tilni endi o'zlashtira boshlagan chog'laridagi oila qurshovining, atrof- muhitning bog'chaning, maktabning, umuman, bundan keyingi ta'lim va tarbiya manbalarining ahamiyati katta bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pchiligimiz shevachilik illatlaridan qutula olmaymiz, ayrimlarimizning savodxonligimiz o'ziga yarasha bo'ladi. Aslida bu jarayon insonning butun umrida davom etishi mumkin. Hozirgi davrda bizga tilimizning me'yorini belgilab beruvchi, ularni o'zlashtirib olishimizga, ko'nikma hosil qilishga yordam beruvchi ommaviy axborot, badiiy adabiyot singari kuchli vositalar ham borki, ularni, ayniqsa, badiiy adabiyot namunalarini, ana shu ma'noda o'ziga xos ko'zgu deyish mumkin. Chunki ularning tilni qamrash imkoniyatlari boshqa manbalarga nisbatan kengdir.

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar

sifatida qabul qilish mumkin.

Demak, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan yesa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz.

“O'zbek tili leksikologiyasi” kitobida bu kabi keng iste'moldagi so'zlarning barcha so'z turkumlarida uchrashi qayd qilib o'tilgan. Masalan otlarda – *daryo, suv, osmon, yer, tosh, tog', bog', daraxt, uy, devor, ko'cha, vodi, sahro, qum* kabi; sifatlarda – *oq, qizil, sariq, qora, katta, kichik, keng, tor, uzun, qisqa, chiroyli, aqlli, dono, barno* kabi; sonlarda – *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million* kabi; olmoshlarda – *u, bu, shu, ana, mana, siz, biz* kabi; fellarda – *bor, kel, ket, yur, tur, o'tir, uxla, yot, ayt, qo'y, o't* kabi; ravishlarda – *tez, sekin, oz, kam, ko'p* kabi; bog'lovchilarda – *va, ham, ammo, lekin, biroq, goh, yoki, yoinki* kabi; yuklamalarda – *-u, -ku, -da, -yu* kabi; undovlarda – *oh, voh, voy, dod, uh, ura* kabi.

Keltirilgan so'zlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lahja va so'zlashuv nutqida ham qo'llanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiy me'yorlari qurshovida qarashga asos bo'ladi. Xususiy me'yor ma'lum til umumiy me'yorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab o'tilgan o'zbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining me'yori xususiy me'yor sanaladi. Xususiy me'yorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan bo'lsak, har bir shaxsning tildan foydalanish me'yorini ham, o'zbek tilida mavjud bo'lgan beshta – rasmiy, ilmiy, ommabop, badiiy, so'zlashuv uslublari doirasida amal qiladigan me'yorlarni ham xususiy me'yorlar deb tushunishimizga to'g'ri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa ko'rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

### ***Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar tavsifi***

Nutqda so'z va iboralar o'zaro ma'nodosh, shakldosh va zid ma'no tarzda qo'llaniladi. Lug'aviy birliklarning bu imkoniyatlaridan foydalanish nutqqa, ifodaviylik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

**Ma'nodosh so'zlar(sinonim)** bir umumlashtiruvchi ma'noga ega, ammo ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi, talaffuzi va yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: **kasal, bemor, xasta, betob** kabi so'zlar ma'no qirralari bilan o'zaro farqlanadi.

**Shakldosh so'zlar(omonim)** talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo anglatgan ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlardir. Masalan: a) **soz** – *puxta, ma'qul*; b) **soz** – *cholg'u asbobi*; d) **soz** - *inoq, o'zaro yaqin*. Agar ko'p ma'noli so'zning anglatgan ma'nolari o'rtasida ichki bog'liqlik bo'lsa, shakldosh so'zlarda bunday bog'lanish bo'lmaydi, shakldosh so'zlarning har biri mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lgan alohida so'zdir.

**Zid ma'noli(antonim) so'zlar** bir-biriga zid, qarama-qarshi ma'noni bildiruvchi, ba'zan umumlashtiruvchi ma'noni ifodalovchi, chiziqcha bilan ajratib yoziladigan so'zlardir. Masalan: **uzoq-yaqin, do'st-dushman, oq-qora, yerga urmoq, ko'kka ko'tarmoq** kabi.

**60-topshiriq.** Lingvistik va matematik terminlarni alohida ustunlarga yozing.

*Qo'shuv, kelishik, unli tovush, ayiruvchi, undosh tovush, ko'paytirish, bo'lish, sifat, aylana, fe'l, olmosh, gap, oddiy kasr, mahraj, o'nlik, aniqlovchi, to'ldiruvchi, tenglama, masala, so'z birikmasi.*

**61-topshiriq.** O'qing. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

*1. To'kin-sochin kuz fasli boshlandi. 2. Shirin-shakar mevalarni yetishtirgan bog'bonlarimizga ming rahmat. 3. Temir yo'l vokzali qayta ta'mirlandi. 4. Do'stim har kuni o'qishga Yangiyo'l shahridan qatnaydi. 4. Haqiqiy inson o'z ota-onasini doimo hurmat qiladi. 5. Mehmondo'stlik o'zbek xalqiga xos xislat. 6. Toshkentimiz kundan-kunga tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketmoqda.*

**62-topshiriq.** Antonimlarini ko'chirib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Achchiq va chuchuk, shirin va bemaza, oq va qora, uzun va qisqa, arzon va qimmat, baland va past, aziz va xor, yo'g'on va ingichka, qattiq va yumshoq, quyuv va suyuq, issiq va sovuq, toza va iflos, chiroyli va xunuk.*

**63-topshiriq.** Sinonimlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Chiroyli, ko'rkam; kuchsiz, zaif; ulug, buyuk; eski, ko'hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong'i, zim ziyo; katta, ulkan.*

**64-topshiriq.** Quyidagi iboralarning ruscha muqobilini toping.

*Ikki tomchi suvday, tomdan tarasha tushganday, birovning nog'orasiga o'ynamoq, oyog'i kuygan tovuqday, yeng shimarib, xamirdan qil sug'urganday*

**65-topshiriq.** Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'z va so'z birikmalarining ma'nosini izohlang.

### **PUL TARIXIDAN**

*Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.*

*Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o'rnini chorva bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba'zi bir xalqlarida chorva tuyog'idan pul o'rnida foydalanilgan. Tinch okeani va Afrika qit'asi xalqlarida qimmatli chig'anoqlar pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - fil suyagi, Qadimgi Misrda - bug'doy, Xitoyda - tuz, Mo'g'ulistonda - choy ayirboshlash jarayoni pul muomalasi o'rniga o'tgan.*

*Qadim zamonlardan beri pul vazifasini qimmatbaho metallar ham o'tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida asal va kumush pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.*

**66-topshiriq.** Savdo-sotiq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing.

**67-topshiriq.** Antonimlarini ko'chirib yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Achchiq va chuchuk, shirin va bemaza, oq va qora, uzun va qisqa, arzon va qimmat, baland va past, aziz va xor, yo'g'on va ingichka, qattiq va yumshoq, quyuq va suyuq, issiq va sovuq, toza va iflos, chiroyli va hunuk.*

**68-topshiriq.** Sinonimlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Chiroyli, ko'rkam; kuchsiz, zaif; ulug, buyuk; eski, ko'hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong'i, zim ziyo; katta, ulkan.*

**69-topshiriq.** Bu yil qanday deb nomlanali? Shu haqda do'stingiz bilan suhbatlashing.

**70-topshiriq.** Kursdoshingiz bilan o'tilayoygan fanlar, egallamoqchi bo'lgan kasbingiz haqida suhbatlashing. Dialogni daftaringizga yozing.

**71-topshiriq.** Quyidagi gaplarni ko'chiring va tushuntirib bering.

- 1. Dunyoda oqilona so'z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi.*
- 2. Tong yorishgan, ammo hali quyosh chiqmagan edi.*
- 3. To'g'rilik bilan xiyonat, yolg'onchilik bilan diyonat chiqisha olmaydi.*
- 4. To'rt narsa hama uchun kerak: salomatlik, go'zal xulq, rostgo'ylik va halol mehnat.*

5. Yurtimizning bu kuni chiroyli, lekin ertasi, indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi.

**72-topshiriq.** Quyidagi badiiy parchalarning o'zining ta'sirchan vositalarni toping.

*Yo'ldoshxon: Shirin gapirasiz-da, Ayniddin aka! Bu safar o'zimiz bilan "Ochil dasturxon" ham olib kelganmiz, qandolatchilikning eng noyob mevalaridan topiladi. Hatto qush suti ham bor.*

*Zaynobiddin aka: Hamma chuchuklik muhayyo ekan-ku, manavi shogirdim Shirayev bo'lsa, kelishda bir do'konda savdo qilayotgan yosh juvondan iris bormi, deb so'rayapti.*

*G'ulomjon aka: Juvon ham bo'sh kelmay, "Aka, Qoraqumdan kelganmisiz, birovning irisini so'rab nima qilasiz? Ana, sizbop kis-kis, tuziklar bor" deganmish.*

Kelur sel, ko'kda goho bo'lsa chaqmoq,  
Zarar qilg'ay danakni tishda chaqmoq.  
Yomondir ikki o'rtoq o'rtasida,  
Urishtirmoq uchun bir-biriga chaqmoq.

(Habibiy)

Ul yor agar yoshursayuz oh,  
Ag'yorgagar ko'rinsayuz oh.

(Zahiriddin Muhammad Bobur)

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,  
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot.  
Nasixatim yod qilib ol, farzandim,  
Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

(Fozil Yo'ldosh o'g'li)

### **So'zning o'z va ko'chma ma'nolari.**

Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sishi ma'no ko'chishi, ma'noning kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi.

So'zlarda ma'no ko'chishi metafora, metanomiya, vazifadoshlik, sinekdoxa kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

**1. Metafora** (yunoncha "metapora" – ko'chirma) nisbiy o'xshashlikka ega bo'lgan ikki predmetdan birining nomi bilan ikkinchisini ham atash hodisasidir. Masalan: yoqa - to'ning yoqasi, daryoning yoqasi; etak - ko'ylakning etagi, tog'ning etagi.

2. **Metanomiya** (yunoncha “metanomya” – qayta nomlash) narsa va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Bunda ikki predmet o‘rtasida hech qanday o‘xshashlik bo‘lmaydi. Ular orasidagi doimiy bog‘lanish tufayli birini aytganda ikkinchisi ham anglashiladi. Masalan: **Bir kosa suv ichdim, deyish o‘rniga bir kosani simirdim. Navoiyning asarini o‘qidim, deyish o‘rniga Navoiyni o‘qidim kabi.**

3. **Sinekdoxa** (yunoncha “sinekdoche” – birga anglamoq, qo‘shib fahmlamoq) qismning nomi bilan butunni yoki butunning nomi bilan qismni atash hodisasidir. Masalan, “**bosh**” yoki “**tuyoq**” so‘zlarining qoramol, qo‘y-echki ma‘nosida, “**tirnoq**” so‘zining farzand ma‘nosida qo‘llanishi.

4. **Vazifadoshlik** muayyan narsaning vazifasini ikkinchi bir narsa bajarishi natijasida avvalgisining nomi bilan keyingilarini ham ifodalashdir. Masalan, “**siyoh**” so‘zi ilgari yozuvda “**qora rangli suyuqlik**”, keyinchalik yozishda ishlatiladigan “**turli rangdagi suyuqlik**” ma‘nolarida qo‘llanadi. Yoki “**o‘q**” so‘zi **kamonning o‘qi > miltiq o‘qi > zambarak o‘qi > raketa o‘qi** birikmalarida ishlatilishi kabi.

**73-topshiriq.** She‘riy parchadagi so‘zlarda uchragan ma‘no ko‘chish hodisalarini aniqlang va tavsiflang.

Lermontovni tashlamadim hech,  
So‘ngra qo‘lga oldim Hofizni.  
Pushkin menga ko‘rsatdi har kech,  
Yig‘lab turgan bir cherkas qizni.

(H. Olimjon)

### SO‘Z HAQIDA HIKMATLAR

Agar biz so‘z boyligini masalliqqa qiyos qilsak, nutq - dasturxonga tortilgan taom erur. Masalliq mo‘l bo‘lsa, osh mazali bo‘lganidek, lug‘at xazinasini bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon, suhbatini jonon bo‘ladir. Zero, alar ila hamsuhbat bo‘lmoqlik rohati jon erur.

Chala pishgan oshning xazmi taomi qiyin kechgani kabi, g‘aliz so‘zli kishining suhbatini tinglamaklik ham azobi jondir.

- taomni yemakka, so‘zni demakka shoshmang;
- ezmalikdan xazar qil, so‘zingni muxtasar qil;
- ko‘p so‘zlasang so‘zning qadri oz bo‘lur;
- xo‘b so‘zlasang izzat - obro‘ boz bo‘lur;
- so‘zi nochorning o‘zi nochor, so‘zi muxtasarning o‘zi mo‘tabardir;
- g‘iybat qilma, g‘urbatga qolasan;

- ozroq yegil, oz uxlagil, oz so'zla;
  - ozroq degil, oz bo'lsa-da, soz so'zla;
  - shirin kalom, shirin taomdan qimmatliroqdir;
  - xusn zoxiriy go'zallik bo'lsa;
  - yetuk va ravon nutq botiniy go'zallikdir;
  - ustoz ziyosidan bahramand bo'lgan inson, quyoshga intilgan maysadyek, yorug'likka, ilmga, mangulikka intiladi;
  - kishi bordur, ham botiniy, ham zoxiriy go'zaldir;
  - kishi bordur, har bir so'zi yuz ochmagan gazaldir;
  - nozik ersa boz ustina tabiati, suhbat;
  - tavob aylang, ushbu inson ma'naviy barkamoldir;
  - go'zal nutq sohibi bo'lmoqlik;
  - birni yuz turda anglamog'-u
  - yuzni birga jamlay olmoqlikdir;
  - tafakkur atalmish nurafshon qasming qulfi-ilm, kaliti-so'zdir;
  - tasavvuf ilmidin ogoh bo'lmoqlik;
  - tafakkur javhariga sayqal bermaklikdir.
- 74-topshiriq.** Siz so'z haqida qanday maqol va hikmatli so'zlarni bilasiz?

### **SO'Z TANLASH VA QO'LLASH**

*Nutqda so'zni to'g'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so'zni to'g'ri tanlash lozim.*

**So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:**


- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;
- tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- so'zning suhbatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;
- so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash;

*Atamalar, kasb-hunarga oid so'zlar faqat bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadi. Bular bir ma'noli so'zlardir. Masalan: Piyola – choy ichishga mo'ljallangan idish; leksikologiya – so'z ma'nolarini o'rganuvchi fan ma'nosidagina qo'llanadi.*

*So'zlar ikki va undan ortiq ma'noni ifodalasa, ko'p ma'noli sanaladi. Avval bir ma'noda qo'llangan so'zning ko'p ma'nolarda ishlatilishi ko'p ma'nolikni vujudga keltiradi.*



Masalan:



**75-topshiriq.** Lug'atdan bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlarga 10 tadan misol toping, ularni ikki ustunga ajratib yozing. 4 ta ko'p ma'noli so'zni tanlab, ularga ikkitadan gap tuzing.

## 7-§. GRAMMATIKA (MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS)


Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, so'z birikmalari va gaplarni to'g'ri tuzish me'yorlarini belgilab beradi.

So'z tuzilishi, gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmasini tuzish, gap qurilishidagi xatoliklar va g'alizliklar tinglovchiga ma'lumot yetkazishda noaniqlikka sabab bo'ladi. Ko'p hollarda so'zlarning noto'g'ri joylashuvi tushunishga qiyinchilik tug'diradi. Masalan: "Mana ikki-uch kundan beri hamma bir-birini tabriklagan g'alaba bilan deydi. Aslida "Mana, ikki - uch kundan buyon g'alaba bilan hamma bir-birini tabriklagan bo'lishi kerak.

Grammatik xatoliklarning ko'p qismi o'tli va fe'lli birikmalarga to'g'ri keladi.

Insonning operativ xotirasi uzun sintaktik birikmalarni eslab qolishga qiynaladi. Binobarin, og'zaki nutqda ularni qo'llamaslik kerak. Aks holda, murakkab gaplarni moslashtirish bilan bog'liq xatolar yuzaga keladi. Bundan tashqari, faqat birlikda qo'llanilishi lozim bo'lgan otlarni ko'plikda qo'llash (yoki, aksincha) da ham shunday holatlar yuzaga keladi. Grammatikada ko'p yillar davomida bartaraf etilmagan barqaror xatolar ham ajratiladi: kelishikdagi boshqaruvida; so'z shaklini yasashda; moslashuvda.

### *Sintaksis tushunchasi*



**Sintaksis** (gr. *sintaxys* - tuzish, qurish)ning asosi gap haqidagi ta'limotdir. Gaplar, aslida, so'zlarning erkin birikuvlariga ham asoslanganligi tufayli, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, so'z birikmalari ham sintaksisda o'rganiladi.

### *Yodda tuting:*

Morfologiya bilan sintaksisning bir-biridan farqi shundaki, morfologiyaning tekshirish ob'yekti – so'z unda so'zning u yoki bu formalari, xususiyatlari tahlil qilinadi. Sintaksisning tekshirish obyekti gap bo'lib, gap tuzilishi, so'z birikmalari va so'zlarning bog'lanish yo'llari tahlil etiladi

Gaplar, aslida, so'zlarning erkin birikuvlariga ham asoslanganligi tufayli, so'zlarning bog'lanish qonuniyatlari, so'z birikmalari ham sintaksisda o'rganiladi.

Til o'z ijtimoiy vazifasini sintaktik qurilma - gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha - fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki bevosita muhimdir. Zero, har qanday sintaktik hodisada so'z va morfologik ko'rsatkichlarni ko'ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatlarni belgilashda leksik va morfologik omillarga tayaniladi.

**76-topshiriq.** Berilgan so'z birikmalari asosida gaplar tuzing.

*Baxtli bolalik, bepoyon vatan, mashaqqatli mehnat, qiziqarli o'yinlar.*

**77-topshiriq.** Quyida berilgan she'rni ifodali o'qing, daftaringizga ko'chiring.

Ulug' bobong Navoiyning  
yotar joyi Hirot bo'lgay,  
Valekin bilmasang ul  
zotni sen, og'ir uyot bo'lgay.

Senga muhtoj emas hazrat,  
ulug' maqsad, ulug' mehnat  
Bilan dil ko'zlarin ochkim,  
hayoting ham hayot bo'lgay.

Zavol ermas, kamol keltir  
ona yurtingga har soat,  
U senga ham ona, ham yurt,  
senga ikki qanot bo'lgay.

Nechun yolqinlanib kezhay  
bu to'fonzoda toychoqlar?  
Ular farzandlaringga  
Boychiboru ham G'irotni bo'lgay.

Bu tuproq uzra inson bor,  
va iymon — ikki mansab bor,  
Agar juzdir va yo qarluq,  
o'g'iz yo qo'ng'irod bo'lgay.


Ketar jisming muvaqqatdir,  
Vatan — mangu muhabbatdir,  
Agar kimda muhabbat yo'q,  
jahonda nomurod bo'lgay.

Kelibsan gar surur keltir,  
havas birlan g'urur keltir,  
Ki sen ketsang ham ortingdan  
el ichra nomu yod bo'lgay.

Navoiy nazmi — iymondir,  
agarchi So'zni sotgaysan,  
Uning bir satri oxir  
ta'bi nazmingga sirot bo'lgay.

Mening bu noravon she'rim  
yozildi bir niyat birlan,  
Yozilsin she'r ham toki  
u she'rdan bir murod bo'lgay.

*Sirojiddin Said*



**Nutqiy gapning asosiy belgilari**

**78-topshiriq.** Egalik affikslarini toping.

1. Tojixon o'zlaridan ibrat olsa, kamina kuyovlaridan ibrat olsam, turmushimiz bundan ham yaxshi bo'lib ketsa ajab emas. (A.Q.) 2. Begim xotirjam bo'lsinlar, qaytib borishim bilan istaklarini Akbar qori afandiga yetkazaman (Sh.Sa'dulla). 3. Bolam, biron ering og'riyaptimi, nega besh-o'n kundan buyon xayoling parishon, gaplashging kelmaydi, senga nima bo'ldi jon qizim? (S.Karomatov) 4. Narzi, qizim, bormisan, omonmisan? 5. Voy g'alati gapni gapirasiz-a, domlasi, ona o'z bolasiga yomonlikni ravo ko'radimi? (A.Q.) 6. Oyisi Sul-tonmuroddek olim bo'lsin! – dedi samimiyat bilan Dildor (O.)

**79-topshiriq.** So'zlar tarkibidagi ko'plik egalik affikslarining qo'shilish o'rniga diqqat qiling. Ularning o'zaro o'rin almashishidagi semantik-uslubiy xususiyatlarini aniqlang.

*O'g'illarim – o'g'limiz, bolalar – bolamlar, studentlar – studentimiz, senlar – sizlar, akanglar – akangiz, maqolamiz – maqolalarim, Alievlar – Alievimiz, professorlar – professorimiz, yuraklarim – yuragimlar, maktablarimizda – maktabimizdalar, shoirlarimiz – shoirimizlar, undan chiqdi – undan chiqdi.*

**80-topshiriq.** Quyida berilgan matnni o'qing. So'z birikmalarini topib, daftaringizga ko'chiring.

### XUSHMUOMALALIK

Har bir kishi atrofdagi odamlarga hurmat bilan, mehribonlik bilan qarashi, ularning ham o'zlariniki singari nozik qalblari borligini bilishi kerak.

“Qars ikki qo'ldan chiqadi”, - deydilar. Janjal ham ikki tomonning qo'pol muomalasidan chiqadi. Bir qo'lingiz band bo'lsa, janjalning o'ti o'chadi.

Bir misol: avtobusda odam tiqilib ketdi, igna tashlasangiz, yerga tushmaydi. Bunday hollarda yo'lovchilarning bir-birlariga urinishlari, turtishlari tabiiy. Bir yo'lovchi oradan qisilib o'tib ketayotib, boshqa bir yo'lovchiga bexosdan tegib ketdi. U bunisiga bir o'qrayib qaradi-yu, jon-jahdi bilan uni itarib tashlab, “ho'kiz” deb to'ng'illadi. Oralab o'tayotgan yo'lovchida ayb yo'q edi. Buni qo'pol muomala qilgan kishi ham bilar edi. Billa turib gunohsiz odamni xafa qildi. Haqoratlangan yo'lovchi dag'al kishiga teng bo'lgisi kelmadi, yo tabiatida xushmuomalalik bormidi, har qalay, unga bir jilmayib qaradi-da:

- Kechirasiz, - deb qo'ya qoldi. Kutilmagan xushmuomalalikdan qo'rs kishi mulzam bo'lib qoldi. Mana sizga odamshavandalikning bir ko'rinishi. (O'.Hoshimov)

**81-topshiriq.** Tinish belgilarini qo'yib, avval darak gaplarni, keyin so'roq gaplarni, so'ngra buyruq gaplarni ko'cnirib yozing.

1. Uyda akamdan boshqa hech kim yo'q edi. 2. Paxta tersang toza ter, chanog'ida qolmasin. (qo'shiqdan) 3. Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz hunar (Maqol) 4. Hamma hasharga 5. Malika menga dars jadvalini berib turasanmi.

**82-topshiriq.** Tug'ilgan joyingiz haqida kichik hikoya tuzing.

**83-topshiriq.** Berilgan so'z birikmalari asosida gaplar tuzing.

Baxtli bolalik, bepoyon vatan, mashaqqatli mehnat, qiziqarli o'yinlar.

**Yodda tuting:**

Sintaksis (grekcha *syntaxis* – «tuzish») gapning grammatik xususiyatlarini, gap qurilishi uchun ohang, so'zlarning birikishi predikativlik va so'z tartibi kabi sintaktik vositalar muhimdir.

Morfologiya bilan sintaksisning bir-biridan farqi shundaki, morfologiyaning tekshirish obyekti – so'z unda so'zning u yoki bu formalari, xususiyatlari tahlil qilinadi. Sintaksisning tekshirish obyekti gap bo'lib, gap tuzilishi, so'z birikmalari va so'zlarning bog'lanish yo'llari tahlil etiladi

**74-topshiriq.** Quyida berilgan asardan parchalarni o'qing, o'zingizga yoqqanlarini daftaringizga ko'chiring va unlarni sharhlang.

### Ona tili

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi. O'limi oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi.

### Mehr

Quyosh buloq suviga ham, mag'zavaga ham, chaqirtikanakka ham baravar nur sochaveradi. Yer chuchmomani ham, chaqirtikanakni ham baravar o'stiraveradi.

Ota-onaga bolaning yaxshi-yomoni yo'q.

### Do'st

Do'st degani daraxt yaprog'iga o'xshaydi. Bahor chog'i – behisob. Kuz kelganda – sanoqli. Yoshlik chog'i – behisob. Keksayganda sanoqli.

(O'tkir Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

### *Yodda tuting:*

So'z birikmasi ham, gap ham so'zlarning grammatik aloqaga kirishishidan hosil bo'lgan. So'z birikmasi biror narsa, belgi, harakat yoki holatni aniqlashtirilgan holda anglatadi. Gap esa ma'lum bir fikrni, tasdiq yoki inkor hukmni ifodalab keladi. Gapping markazi kesimdir

*Men keldim.*

Kesimlik belgisiga ega bo'lgan har qanday so'z gap bo'lib kela oladi.

*Masalan: Bahor...go'zalsan!!!*

Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi.

So'z birikmasi tushuncha, gap esa fikr ifodalaydi. Gap tarkibidagi so'zlar ham ma'no tomondan ham grammatik tomondan o'zaro bog'lanadi

Gaplar maqsadiga ko'ra turlicha quriladi: O'ziga xos grammatik xususiyatkarga ega bo'lib, alohida, talaffuz etiladi. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar:

1. Darak gaplar.
2. So'roq gaplar.
3. Buyruq gaplar
4. Istak gaplarga bo'linadi.

Biror voqea – hodisa haqida xabar bildiruvchi gaplarga darak gaplar deyiladi.

### *Yodda tuting:*

Darak gaplar orqali tasdiq, inkor, xabar, orzu – umid, maslahat, taajjub, tashvish, gina, kinoya ma'nolari ifodalanadi. Masalan: *ba'zan ayollarning o'ziga befarqligini ko'rib, hayron qolasan kishi.* – tashvish ayollarning tibbiy madaniyatini oshirish tog'risida ham o'ylamog'imiz zarur. – maslahat

### *Yodda tuting:*

So'roq gaplar so'roq ma'nosini bildirgan gaplardir. Riturik so'roq gaplar ham so'roq shaklida bo'lib, javob talab qilmaydi. Masalan: *Bilmayman bu ijod kishilarisiz qaydan olar edim qalbinga o'tni?*

Ma'lum bir harakat – holatni, voqea – hodisani bajarish yoki bajarmaslikka da'vat etuvchi gap turiga buyruq gaplar deyiladi.

Nutq jarayonida boshqalarga istak hohishni bayon qiluvchi gaplar – istak gaplar deb ataladi

**75-topshiriq.** Darak, so'roq va buyruq gaplarga xos turli uslubiy bo'yoqni aniqlang.

1. Qani endi gap uqtirib bo'lsa (A.Q). 2. Hamrabuvi borib bo'пти. Hafizani ham yubormaydi. Unga gap uqtirib bo'ladimi. (A.Q). 3. E, Ro'zvon buvi, buyam sizga o'xshash yotig'i bilan gapirsa ekan. 4. Oy havolab ketdi, ayvon qop-qorong'i bo'lib qoldi. Uyqu qani (O'.H.). 5. Qobilbobo ro'para bo'lganda, Amin baqbaqasini osiltirib kuldi.- Nega yig'lanadi. Yig'lanmasin. Axir, borilsin, arz qilinsin-da (A.Q).

**76-topshiriq.** Qo'shma gaplardagi bog'lovchi vositalarni aniqlang.

1. Toy hozir Saidaning ostida ham yo'rg'alab borar, lekin endi bundan foyda yo'q. Chunki tortayotgan azobi zarracha qiynamas edi. (A.Q). 2. Keldi jon og'zimg'a-yu, ul sho'xi badxo' kelmadi. (N.) 3. Sen bilan bizning cho'ponimiz eski bo'lsa ham, nazarimiz to'q, ammo lekin ular hamisha yog' ichida yashasalar ham, o'lguday ochko'z bo'ladilar. 4. Tarbiya nechog'lik to'g'ri va yaxshi bo'lsa, xulq va odobimiz shunchalik go'zal bo'lg'usi (O.). 5. Baxtim bormi ekan deb, menga yormi ekan deb, kelaverdilar bari, kattakon chinor sari (H.O.). 6. Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib his bor edi menda (H.O.). 7. Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham o'sha yerda bo'ladi (Maqol). 8. Do'st bilan obod uying gar bo'lsa u vayrona ham (E.V.)

**77-topshiriq.** Belgili va belgisiz qaratqich shaklli so'zlarni ko'chirib yozing.

1. Har bir narsaning yangisi, do'stning eskisi yaxshi. (Maqol) 2. Hamma yig'ilishi bilan biz ishga kirishdik. (Gaz) 3. Hamid Olimjonning "Roksananing ko'z yoshlari" she'rining tahlili bo'ldi. 4. Abduhamid, palovdan eng, choyni ham iching. 5. Sevgisi ko'zidan sochadi buloq. Bormi deb sevgining tilga hojati? 6. Uyda, Kumushbibining tog'asining uyida, qizlar majlisi, gullar majlisi. (A.Q.) 7. Kampir dadamning onasi, qiz amakimning qizi Sarviniso edi. (A.Q.) 8. Tog'larning balandligi uzoqdan ko'rinadi (P.Q.). 9. Cho'lning daydi shamollari o't-o'lanlarni silkib yugurar (S.A.). 10. Maqtanganning uyini ko'r, kerilganning to'yini (maqol).

**78-topshiriq.** 1. Ona xalqim, jon-tanim manim, O'zbekiston-Vatanim manim! (A.O.). 2. Qo'shiqchilarning biri kuyladi. – qo'shiqchilardan biri kuyladi. 3. Asrlarning so'kib chokini, ko'zlarimga surib hokini, tarixlarni bir-bir titurman, afsonalar topib biturman. 4. Pazandasi yopadi shirmon izi, o'likni tirgizar nozi dim kami, qarilari kutadi mehmon. 5. Yarashgandi qosh-u ko'zi, topilmaydi bosgan yo'q butun o'zi, shuytib kuydirgan-da bizni (E.Jumanbulbul).



**79-topshiriq.** Matnni o'qing. Darak gaplarni so'roq yoki undov gaplarga aylantiring.

### **BRITANIYA UNIVERSITETLARI**

Oksford universiteti Britaniyadagi eng qadimiy universitetdir. U XII asrda bir qator kollejlarni Federatsiyasi sifatida tashkil etilgan. Uning tarkibiga 1249-yilda tashkil etilgan Universitet kolleji, Oll Souls, Krist Church, Oksford Katedral va birinchi qizlar kolleji Ledi Margaret Xoll kirgan.

U o'zining ajoyib kollejlarni arxitekturasi bilan mashhur. 1133-yilda shaharda ruhoniylarga to'liqroq ta'lim berish maqsadida universitet tashkil etish rejalashtirilgan edi. Lekin Oksford faqat Genrix II davrida haqiqiy universitet shaharchasiga aylangan. O'rta asrlarda Oksfordda faqatgina ruhoniylargina ta'lim olgan va ular asosan kambag'allar bo'lib mahalliy aholidan xonalar ijaraga olib yashashgan.

Hozirgi kunda universitet tarkibida 38 ta turli kollejlarni mavjud bo'lib, shulardan ikkitasi faqatgina qizlar uchundir.

1208-yilda Oksforddagi turli qo'zg'olonlardan charchagan olimlar Kembrijda o'zlarining akademik jamiyatlarini barpo etadilar. Universitet tarkibidagi eng qadimiy kollejni Peterxaus kolleji bo'lsa, eng kattasi Genri VIII tomonidan 1546-yilda tashkil etilgan Triniti kollejidir.

Shotlandiyada ham o'rta asrlarda barpo etilgan Edinburg, Glasgou, Aberdin universitetlari mavjud.

Uel universiteti 1893-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga oltita kollejni kirgan.

Eng mashhur kollejlardan Xristos cherkovi kolleji, Merton va Magdalen kollejlari. Xristos cherkov kolleji eng katta va chiroyli kollejni hisoblanib, u 1546-yili Genrix VIII buyrug'i bilan qurilgan. Magdalen kolleji 1458-yili Venchestir kollejining o'qituvchisi tomonidan tashkil etilgan. Bodlean Libray - Oksfordning eng katta kutubxonasi bo'lib, unda 6 mingdan ortiq kitob bor. U 1598-yili tashkil etilgan.

**Nutqimizda gaplar bir yoki ikki grammatik asosan tuzilishi mumkin. Grammatik asos deganda, gapning bosh bo'laklari: Ega va kesim nazarda tutiladi. Shu jihatdan gaplar:**

**1. Sodda.**

**2. Qo'shma gaplarga bo'linadi.**

**Sodda gap** tarkibida kesimlik shakllariga ega bo'lgan bitta kesim bo'ladi. Sodda gap tarkibidagi barcha bo'laklar shu kesim atrofida birlashadi.

Gapda soʻzlar oʻzaro grammatik munosabatga kirishib, gap boʻlaklarini hosil qiladi. Gap boʻlaklari vazifasini mustaqil soʻzlarga bajaradi. Gap boʻlaklari 5 ta: **Kesim, ega, aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol.**

**Kesim gap markazi boʻlib, u tasdiq – inkor, zamon, mayl, shaxs – son maʼnolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa boʻlaklarini oʻz atrofiga birlashtiradi.**

**Gap kesimining qoʻshimchalaridan anglashilib turgan shaxs- son maʼnosini aniqlashtiruvchi boʻlakka egadir.** Ega, asosan, kim? nima? soʻroqlariga javob beradi. Ega doimo bosh kelishik shaklida boʻladi, egalik va koʻplik shakllarini qabul qilishi mumkin. Qars ikki qoʻldan chiqadi. Ikkalasi ham chiqib ketishdi.

**Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan boʻlaklar ikkinchi darajali boʻlaklar** deyiladi. Ikkinchi darajali boʻlaklar uch turlidir: **aniqlovchi, toʻldiruvchi va hol.** Ular feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid soʻzlar, olmoshlar bilan ifodalanishi mumkin. Aniqlovchi, toʻldiruvchi, hollar gapni uning ayrim boʻlaklarini kengaytirishga va aniqlashga xizmat qiladi.

**Quyidagi hollarda ot kesim va ega orasida tire qoʻyiladi:**

**1. Ot kesim kesimlik qoʻshimchalarisiz yoki bogʻlamasiz qoʻllanganda:**

*Tinchlik – farovon hayot manbai.*

*Uch karra uch - toʻqqiz.*

*Doʻstlik – xalqimizning xulqi, odati, Doʻstlik - oʻlkamizning qudrati shoni.*

**2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, kesim tarkibida boʻgʻlama yoki kesimlik qoʻshimchasi boʻlmaganda:**

*Oʻqish – ulgʻayish.*

*Maqsadim – oʻqimoq.*

**3. Ega koʻrsatish olmoshi bilan ifodalansa:**

*Bu – siz uchun katta sinovdir.*

*Taniganim – shular.*

**4. Eganing maʼnosi taʼkidlab koʻrsatilganda:**

*Urush – quyon ovi emas.*

*Men – mana shu minglarning biriman.*

**5. Ega bilan kesim bu, u, mana bu soʻzlari bilan ajratilganda:**

*Men tugʻilgan oʻlka – u muqaddas.*

*Vatan – u mening jon – u tanim, sajdagohimdir.*

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega gaplar **sodda gaplar** deyiladi. Ikki va undan ortiq soda gapning oʻzaro grammatik

va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan va ohang tugalligiga ega butunlik **qo'shma gap** sanaladi. Gap uchun eng muhim belgi kesimlikdir. Kesimlik belgisining miqdori gaplarning sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

Qiyoslang: *Jaloliddin Manguberdi Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashishda jasorati tufayli buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida Sharq-u G'arbda dong taratdi - sodda gap.*

*Quvonarlisi shundaki, Fitratning kitobi yangi milliy musuqashunosimizga asos soldi - qo'shma gap.*

**80-topshiriq.** Quyidagi "deb" konstruksiyali so'z birikmalari uchun, tufayli so'zlari yordami bilan hosil bo'ladigan birikmalarga aylantirib ko'chiring.

1. Gapni yana cho'zmasin deb unga qarshi hech narsa demadi (A.Q).  
2. Hamma ayb o'zingizda, yaxshi o'qisin deb Zuxrani juda erkalatib yuborgan edingiz (A.Q).  
3. Faqat qiz yumushlari ko'p deb unamadi (O.).  
4. Qizning qo'li qavaradi deb o'smasini ham o'zingiz siqib berar edingiz (A.Q).  
5. Yana ishni susaytirmasinlar deb qo'rqyapman (O.).  
6. Dadam boyaqish kecha-yu kunduz cho't qoqadi, miyasi aynamasin deb qo'rqaman (O.).  
7. Tog 'day og 'ir bilak berdim, yovlarni mushtlasin deb (H.O.).

**81-topshiriq.** Quyidagi sodda so'z birikmalarini murakkab so'z birikmalariga aylantirib yozing.

*Namuna: gazeta o'qimoq-bugungi gazetani qiziqib o'qimoq-barcha gazetani o'qimoq.*

*Haqiqatni aytmoq, keksa odam, qora bulut, do'sti bilan quvonmoq, ishga ketmoq, dala kezmoq.*

Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar qo'shma gap qismlari sanaladi. Bu qismlarni bog'lash uchun xizmat qiladigan vositalar esa bog'lovchi vositalardir.

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar uch garahga bo'linadi:

- 1. Bog'langan qo'shma gaplar.**
- 2. Ergashgan qo'shma gaplar.**
- 3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.**

Qismlari teng bog'lovchilar bo'lsa, esa so'zlari, -u (yu), -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar **bog'langan qo'shma gaplar** hisoblanadi:

*Gulchehra "piq" etib kuldi-da, cho'zilib tugunni oldi.*

*To'satdan eshik sharaqlab ochildi va ostonada Ertoyev paydo bo'ldi.*

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar **ergashgan qo'shma gaplar** hisoblanadi.

Ergash gaplar bosh gaplarga *chunki, shuning uchun, -ki, agar, garchi, mabodo, go'yo(ki)* kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'lning ravishdosh, sifatosh, harakat nomi shakllari, shuningdek, yuklama, ko'makchilar, turli vazifadagi ko'rsatish olmoshlari, *kim - u, qanday-shunday, qancha-shuncha, qaysi - o'sha, qayerda - u yerda* kabi bir-biriga ishora ma'nosini bildiradigan so'roq olmoshlari va ko'rsatish olmoshlaridan iborat nisbiy so'zlar, *sababli, tufayli, deb* so'zlari orqali bog'lanadi: 1. *Biz kitobni sevamiz, chunki u bilim manbaidir.* 2. *Hosil to'kin bo'lsa, to'ylar to'xtamas.*

Diqqat! Kesimi tarkibida *-ki*, tarkibida *shuning uchun* bog'lovchisi qatnashgan gaplar ko'pincha **bosh gap** hisoblanadi, kesimi tarkibida *sa, -sa ham, -b(-ib), -gach, -guncha, -ganda, -r(-ar)* ekan bog'lovchi vositalari, shuningdek, ko'makchilar, *chunki, agar, go'yoki, toki* bog'lovchilari qatnashgan gaplar esa har doim **ergash gap** hisoblanadi.

Maxsus bog'lovchi vositalarsiz, asosan ohang yordamida birikkan sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplar **bog'lovchisiz qo'shma gaplar** deyiladi: Bunday qo'shma gap qismlari ohangdan tashqari ayrim so'zlarning takrorlanishi, gap qurilishi, umumiy bo'laklar vositasida birikadi: *Kech kirdi, tevarak-atrofga qorong'ilik tusha boshladi.* Bu qo'shma gapdagi sodda gaplar o'zaro faqat ohang yordamida bog'langan, ularning o'rini almashtirib bo'lmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

**Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap:** *Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi.* Bu gapni zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Tig' yarasi tuzaladi, lekin til yarasi tuzalmaydi.*

**Ergashgan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap:** *Qor yog'di don yog'di.* Bu gapni o'xshatish ergash gapli qo'shma gapga aylantirish mumkin: *Qor yog'di, go'yo don yog'di.*

**Bog'lovchili qo'shma gapga sinonim bo'lmagan bog'lovchisiz qo'shma gap:** *Xushxabar olib keldim: garnizon yanchildi (Sh.).*

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibida tinish belgilari quyidagicha qo'llanadi:

Agar bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket yuz bergan voqea-hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi: *Arava g'ijirlab borar, aravakash xirgoyisini birzumga ham to'xtatmas edi.*

Nutqimizda kamida uchta sodda gapning bog'lanishidan tuzilgan qo'shma gaplar ham mavjud. *Qo'lidagi bo'r tushib singandan keyin(1), butun sinf qah-qah urib kulib yuborgach(2), u o'ziga keldi(3).* (J.Abd.) Bunday gaplar **murakkab qo'shma gaplar** deb yuritiladi.

**82-topshiriq.** Quyidagi qo'shma gaplar tarkibidagi bog'lovchi vositalarni almashtiring.

1. *Mutal kuchli edi, ammo Otabek undan ham kuchli edi* (A.Qod.).  
2. *Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.* 3. *Agar u odam ikki qo'llab tutib olmasa, xotinning a'zoyi badani shikast topardi.* 4. *Askarlar toqqa ancha chiqqandan keyin, bir pastqamlikdan o'q yog'ila boshladi* (S.A.).

### Savollar:

1. Gap nima?
2. Gap tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
3. Gap mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Nutq so'zlashda u qanday rol o'ynaydi?
5. Gap bo'laklari deganda nimani tushunasiz?
6. Gap bo'laklarining nutqda qanday roli bor?
7. Ega va kesim orasida qay holatda tire qo'yiladi?
8. Gapda so'zlarning o'rnini almashsa, mazmunga ta'sir qiladimi?

### Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar

O'zgalarning hech o'zgarishsiz aynan berilgan gapi **ko'chirma gap** bo'ladi. Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga qo'llanadi. Ko'chirma gap muallif gapidan oldin, keyin, shuningdek, muallif gapi ko'chirma gap ichida va ko'chirma gap muallif gapi ichida kelishi mumkin.

O'zgalar gapining shakli o'zgartirilib, mazmuni o'zgartirilmay berilsa, u **o'zlashtirma gap** bo'ladi: *O'qituvchimiz ona tilini yaxshi bilmasdan, boshqa fanlarni chuqur egallash mumkin emasligini ta'kidladi.*

His-hayajon gap, ritorik so'roq gap, atov gaplar va kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirib bo'lmaydi. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda ko'chirma gap kesimining shaxs qo'shimchasi, kishilik olmoshi o'zgarishi mumkin: Sen aytding: (*"Men kitobni olaman"*) *Sen kitobni olishingni aytding.*

Muallif va ko'chirma gapning o'rniga ko'ra tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1. Ko'chirma gap + muallif gapi:

"K.....", - M.....

2. Ko'chirma gap + muallif gapi + ko'chirma gap:

"K..... - ..... M ..... - ..... K.....".

3. Muallif gapi + ko'chirma gap:

M.....: "..... K ....."

Agar ko'chirma gaplar mazmuniga ko'ra so'roq yoki his-hayajon gap bo'lsa, ko'chirma gaplardan keyin so'roq yoki undov belgisi qo'shtirnoq ichida bo'ladi, ko'chirma gapdan keyin vergul qo'yilmaydi. Ko'chirma gap darak gap bo'lganda qo'shtirnoqdan keyin vergul yoki tire qo'yiladi. ("K!" - M. M: "K?", "K", - M kabi).

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirganda *demoq, aytmoq, gapirmoq, so'ramoq* kabi fe'llar ishlatiladi.

**83-topshiriq.** She'riy parchadagi so'zlarda uchragan ma'no ko'chish hodisalarini aniqlang va tavsiflang.

Lermontovni tashlamadim hech,  
So'ngra qo'lga oldim Hofizni.  
Pushkin menga ko'rsatdi har kech,  
Yig'lab turgan bir cherkas qizni.

(H. Olimjon)

### 8-§. PUNKTUATSIYA (tinish belgilari)

Punktuation me'yori yozma adabiy nutqqa xos bo'lib, tinish belgilarini ishlatishning butun tizimi va usullarini qamrab oladi. Har bir tinish belgisi o'z nomiga va vazifasiga ega, tinish belgilarisiz gapni tushunish qiyinchilik tug'diradi. Agap gapda punktuation me'yori talablari buzilsa, jumla o'z ma'nosini va ritmik - melodik xususiyatini yo'qotadi. Adabiy tilning punktuation me'yori uning yozuv shaklining rivojlanish qonuniyatlari va adabiy tilning sintaktik hamda stilistik qurilishining qay darajada ishlab chiqilganligiga qarab belgilanadi.

Punktuation me'yorni buzmaslik uchun tinish belgilarini ishlatish qoidalarini yaxshi bilish zarur. Shunga ko'ra, ularni sizlarga eslatib o'tamiz.

#### *Qo'shtirnoq*

1. Ko'chirma gaplarni ajratib ko'rsatish uchun: *"Ertaga kelamiz", - dedi.*

2. Ko'chma ma'nodagi, shartli nom yoki taxallus ma'nosidagi ayrim so'z va so'z birikmalari ham qo'shtirnoqqa olinishi mumkin: *"Tog' asali" sotadigan yigit... dovonning nariyog'iga o'tib ketgan.*

#### *Eslatma:*

Qo'shtirnoqda olinishi kerak bo'lgan so'zlarda turlovchi (kelishik) qo'shimchalar mavjud bo'lsa, bu qo'shimchalar qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi: *Bularni ko'rgan Aziz o'zi haydab kelayotgan "Gaz-69" yurishini tezlatib, yo'lga chiqdi-da, "Jiguli" tomonga burildi*

**84-topshiriq.** Nuqtalar o'miga tegishli tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Tire va qo'shtirnoqning qo'yilishini izohlang.

1. *Ikki dugona... Lobar bilan Nazira birga to'yga ketishdi.* 2. *Ahror ovoz egasini tanidi... Xasan naychi edi.* 3... *Hunari bor hech kimga zor bo'lmas... degan maqol bor.* 4. *Yaxshidan bog' qolar... yomondan dog'.* 5. *Telefon ... jiring ... etsa ... yuragim ... shuv ... etadigan bo'lgan.* 6. ... *Men qoqi o't, karnaygul, tog' piyozi... giyohlarni teraman... dedi yo'lovchi.*

#### *Qavs*

1. Ifodalanayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga qo'shimcha izoh beruvchi so'z yoki iboralar qavsga olinadi: *Karimjon (sinfimizning a'lochisi) oliy o'quv yurtiga kiribdi.*

## Yodda tuting:

1. Qavsdan oldingi tinish belgilari (vergul, nuqtali vergul, yoki nuqta, tire) qavsdan keyinga ko'chiriladi: *Chavandoz bu gaplarni Ertoyevga aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay (aytsa Ertoyev xafa bo'ladi, aytmasa bir joydan chatog'i chiqishi mumkin), boshi qotib turganda... Gulchehra mojarosi chiqsa bo'ladimi?*
2. Kirish gaplar yoki remarkalar qavs bilan beriladi: *Ukam (sen uni taniysan) bu yil maktabni bitirdi. Aziz Kamol (hayol og'ushida). Vatanimizga qarshi ko'tarilgan ruhiy va iqtisodiy hujum shu kunlarda cho'qqisiga chiqdi.*
3. Misol yoki ko'chirmaning manbai: *...Eshik qars etib yopildi. (O.Yoqubov.)*
4. Kirish so'z yoki iboraga oid tinish belgilar qavsning ichiga olinadi: *To'satdan uning hayoliga akasining bundan besh-olti oy oldin... yozgan xati (o'shandan beri undan dom-darak yo'q!) ...tushdi.*

## Tire

Tire quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ot, son, olmosh va harakat nomi bilan ifodalanib, kesim bilan bog'lamasiz birikkan ega va kesim orasiga: *O'zbekistonning poytaxti – Toshkent. Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Bularni amalga oshiradigan – siz. O'qish – hayotni o'qish.*

2. Uyushiq bo'laklaridan so'ng kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin: *Akam, opam va singlim – barchasi meni kutib o'tirishgan ekan.*

3. Ajratilgan bo'lak bilan izohlanmish bo'lak orasiga: *Men – Valiyev Mahmud, 1954-yilda Toshkentda tug'ilganman.*

4. Kirish gap bilan gap bo'laklari orasiga: *Tunov kuni ovchi – men uni o'rmonda uchratib qoldim – menga qiziq bir voqeani so'zlab berdi.*

5. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida: *– Bugun kelasizmi? – so'radi qizi.*

6. Dialog tipidagi ko'chirma gaplarda: *– Keldimi? – Keldi.*

7. Kutilmagan voqea-hodisalarni ifodalagan gaplardan oldin: *– Kecha sizlarnikiga borgan edim – Asqarjon kelibdi!*

8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida: *Jismimiz yo'qolur – o'chmas nomimiz.*

**85-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga tegishli tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Tinish belgilarining qo'yilish sababini tushuntiring.

1. *Albatta... go'zallik ham har xil bo'ladi... kechasi qop-qora osmonda olovli iz qoldirib uchgan yulduz ham go'zal, kunduzi guldan gulga qo'nib yurgan kapalak ham go'zal... (A.Q.).* 2. *Lekin na chora... Bu manhus toj-u taxt... bu saltanat... insonlar ustidan hokimlik qilmoq istagi*



shunday shirin ekanki, uning niyati pokligiga kim ishonadi... (O.Y.). 3. Biz... Ahror ikkalamiz... allamahalgacha uxlamay... onam haqida... uni xursand qilish haqida gaplashib yotdik... 4. Rus edi, mallaroq edi... o'zi ham barvasta... kelishgan yigit edi. 5. U olacha chopon kiygan... beliga qiyiqcha bog'lab olgan... oftobda oqargan do'ppisi daraxt shoxiga ilingan edi. 6. Qachongacha bizni aldaysizlar... bo'ldi endi... Boshqa ishonmaymiz...

### **Ikki nuqta**

1. Uyushiq bo'laklaridan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan so'ng: *Yig'ilishda tajribali ishchilar: Salim aka, Abdukarim aka va Sobirjonlar so'zga chiqishdi.*

#### **Yodda tuting:**

Ba'zan umumlashtiruvchi so'z yashirinishi mumkin, lekin ikki nuqta qo'yilaveradi: Qilinishi kerak: traktorlar ta'mirdan chiqarilsin, ishchilarga yetarli sharoit yaratilsin

2. Quyidagi ma'nolarni ifodalagan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda:

- bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatining sababini ko'rsatsa: *U ichkariga shoshib kirib ketdi: telefon anchadan beri jiringlayotgan ekan.*

- bir gap ikkinchi bir gapdan anglashilgan ish-harakatining natijasini ko'rsatsa: *Shamol juda zo'raydi: daraxtlarning ancha-munchasi sinib tushdi.*

- agar biror gap boshqa bir gapning mazmunini to'ldirsa yoki izohlasa: *Vazifangiz shu: bironta odam bu xonaga kirmasligi kerak.*

3. Ko'chirma gapdan oldin, muallif gapidan so'ng: *U baland ovozda so'radi: – Kim bor?*

**86-topshiriq.** Quyidagi savollarga javob qaytaring .

1. Biror narsadan xursand bo'lganingizni hayajon bilan ifodalab gap tuzing, so'ng unda ishlatgan tinish belgilarini sharhlang.

2. Ikkinchi gapda birinchisining izohi ifodalangan gapga misol ayting. Bunday holda qanday tinish belgilarini qo'llash o'rinli?

3. Uyushiq bo'lakli gap tuzing, undagi tinish belgilarini izohlang.

4. Taajjub, kuchli hayajon bilan ifodalangan gap tuzib, unda qo'llangan tinish belgilariga tavsif bering.

### *Nuqtali vergul*

**Nuqtali vergul** quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

1. O‘z ichida vergul bo‘lgan yoyiq uyushiq bo‘laklar orasida:

*Mehnat, ijod, odam sharafi;  
Dil yorug‘i, hayot quvonchi,  
Hammasining asl manbai  
Sen, Vatanim – tinchlik tayanchi.*

(S.Nazar)

2. O‘z ichida vergul bo‘lgan, mazmunan ma‘lum darajada mustaqillikka ega sodda gaplar orasida hamda har xil turdagi gaplarni o‘z ichiga olgan qo‘shma gaplarda: *Daraxtlar, butalar shitirladi; kuzning salqin nafasi yuziga urildi.*

### *Vergul*

**Vergul** quyidagi o‘rinlarda qo‘yiladi:

1. Uyushiq bo‘laklar orasida:

- bog‘lovchisiz birikkan uyushiq bo‘laklar orasida: *Andijon, Namangan, Qo‘qon, Marg‘ilon – O‘zbekning chamani bog‘u bo‘ston.*
- takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *U goh kulimsiraydi, goh chuqur o‘yga toladi.*
- zidlovchi bog‘lovchilar yordamida birikkan uyushiq bo‘laklar orasiga: *Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.*

2. Undalmalarni ajratish uchun: *Ertaga, azizim, toqqa jo‘naymiz.*

3. Kirish so‘zlarni va tuzilishiga ko‘ra murakkab bo‘lmagan kirish gaplarni ajratish uchun: *Xullas, ertaga shu yerda yig‘iladigan bo‘ldilar. Men sizga aytsam, odamning yomoni bo‘lmaydi.*

4. Ha va yo‘q so‘zlarini gap bo‘laklaridan ajratish uchun: *Ha, bu gapingiz to‘g‘ri. Yo‘q, ertaga kela olmayman.*

5. Gapning ajratilgan bo‘laklarini ayirib ko‘rsatish uchun: *“Biz, yoshlar, ota-bobolarimiz qoldirgan bebaho merosni ko‘z qorachig‘iday asrashimiz kerak”.*

6. Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Eshik ochildi, ichkariga muzday havo yopirilib kirdi.*

7. *Va, ham, hamda, yoki* (yolg‘iz kelgan) bog‘lovchilaridan boshqa bog‘lovchilar bilan bog‘langan qo‘shma gaplarda: *Hamma gapirdi, lekin u bir chekkada xomush o‘tirar edi.*

8. Ergash gapni bosh gaplardan ajratish uchun: *Hamma yig‘ilgach, majlis boshlandi.*

9. Muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish mumkin: – *Bugungi qilgan ezgu ishlarimiz, – dedi ota, – kelajak uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.*

### ***Ko'p nuqta, undov va so'roq belgilarining birikkan holda kelishi***

1. So'roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo'lgan so'roq gaplardan keyin undov va so'roq belgisi birikkan holda (!?) qo'yiladi: *Go'zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?*

2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so'roq gaplardan so'ng so'roq va undov belgisi birikkan holda qo'yiladi: *A!? – Xonkeldiyeva turgan yerida surat bo'lib qoldi. – Direktorimiz-a?!*

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (!..) qo'llanadi: – *Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o'pkasi yumshab, ko'zlariga qaynoq yosh keldi.*

4. Mazmunan tugallanmagan so'roq gaplardan so'ng so'roq belgisi va ko'p nuqta birikkan holda (?..) ishlatiladi: – *Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?*

### ***Ko'p nuqta***

**Ko'p nuqta** quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Fikrning tugallanmaganligi, so'zlovchining hayajonlanib yana nimadir aytmoqchi ekanligini ko'rsatish uchun: *Agar hozir gapingizni to'xtatmasangiz...*

2. Ba'zan ko'p nuqta so'zlovchini o'ylashi, mulohaza qilishini ko'rsatadi: *Bugun... bugun oldingizga o'tsam bo'ladimi?*

3. Ba'zan kimningdir savolga javob bermay indamay turganini ko'rsatish uchun ham ko'p nuqta qo'yiladi: – *Mendan rozimassiz, bilaman, kechirmaysiz...*

4. Biror so'z yoki gapning tushirilganini ko'rsatish uchun: *Bugun yettinchi bo'limga kelib, ... fig'oni oshdi.*

### ***Undov belgisi***

**Undov belgisi** quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Kuchli his-hayajonni ifodalagan gaplardan so'ng: *Yoshligimizda naqadar baxtiyor edik!*

2. Buyurish, tilak, orzu ma'nolarini ifodalagan gaplardan so'ng: *Hoziroq bularni ko'zimdan yo'qot! Qandi endi qush kabi osmonda parvoz qilsa!*

3. Gap boshida kelib, kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan, undov hamda *ha* va *yo'q* so'zlaridan so'ng: *Yo'q! Rustam bunday qabihlikka bormaydi hech qachon! Azizlar! Sizni mustaqillik bayrami bilan tabriklayman!*

### **Nuqta**

**Nuqta** quyidagi o'rinlarda qo'yiladi:

1. Tinch ohang bilan aytilgan darak, buyruq va undov (his-hayajon) gaplardan keyin: *Oltin kuz fasli kirib keldi. Darslarni o'z vaqtida tayyorlab yurgin. Koshki uni kuchi yetsa.*

2. Birinchi qismida nuqta, ko'p nuqta, undov yoki so'roq belgisi bo'lgan ko'chirma gap o'rtasida kelgan muallif gapidan so'ng: *"Men hozir jo'nayman, – dedi u. – Siz esa yarim soatlardan keyin yo'lga chiqing"*.

3. Qisqartirilgan ism va familiyalarning birinchi harfi yoki qismidan keyin: *M.Ism. (Mirzakalon Ismoilij).*

4. Sanash yoki ayrim fikrning qismlarini ifodalagan va oy, kun, yillarni bir-biridan ajratish uchun qo'llangan raqam yoki harflardan keyin: *27.09.2002 kabi.*

**Diqqat!** Qavsga olingan manbadan oldingi gap oxiridagi tinish belgilari o'z o'rnida saqlanadi va qavsdan keyin hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi: *Ketdi.* Shuningdek, sarlavhalardan keyin (darak gap bo'lsa) nuqta qo'yilmaydi.

**87-topshiriq.** Quyidagi savollarga avval og'zaki, keyin yozma javov bering.

1. *Qavs belgisi qanday vaziyatlarda ishlatiladi?*

2. *Vergulning ishlatilish holatlarini sanab bering.*

3. *Ikki nuqta qaysi vaziyatlarda qo'yiladi?*

4. *Tire bilan chiziqchanning qanday farqi bor?*

5. *Ikki nuqta va ko'p nuqtaning qo'llanish holatlarini aytib bering.*

**88-topshiriq.** Punktuation me'yorning buzilish holatlarini toping.

1. *Zaldan voy tovba, shu ham gapmi degan tovushlar eshitildi.*

2. *Toshkent! Ey mening ona shahrim Toshkent!* 3. *Komiljon uni ko'rib, onajon deb baqirib yubordi.* 4. *Rayhon, binafsha gullarni juda ham yaxshi ko'raman.* 5. *Qaniydi mana shu kitoblarnig barchasi meniki bo'lib qolsa!* 6. *Bu joylar juda ajoyib joylar ekan-ku!* 7. *Kech tushdi, shamol esa boshladi.* 8. *To'satdan hovlida qadam tovushi eshitildi.* 9. *Uni ko'rib yuragim tez, tez urib ketdi.* 10. *Yarim kecha edi, olisdan o'q tovushi eshitilib qoldi.* 11. *Ruhlarni shod etay degan qalb pok bo'lishi yurishi - turishi, kiyishi bilan ajralib turishi kerak.* 12. *Kelin kuyovlar bu yerga*

*ulug'lardan baxt - najot tilab kelganiga emas o'zlarini birovlariga ko'rgazma qilayotganga o'xshaydi. 13. Nimani tushunganimizni albatta so'rar edilar. 14. Shveytsariya va Gretsiya taqdirlandilar ko'rgazmaning baxtli ishtirokchilaridan biri. 15. Ayrimlariga kamar yoki xivchin, tarsaki yoki musht bilan tarbiya beradilar. 16. Dadam bizlarni, onamizni hech urushmaganlar.*


**89-topshiriq.** She'riy parchani ifodali o'qing va yodga olib davomini yozing. Tinish belgilariga tavsif bering.

Men nechun sevaman O'zbekistonni,  
Tuproq'in ko'zinga aylab to'tiyo?!  
Nechun Vatan deya yer-u osmonni,  
Muqaddas atayman, atayman tanho?  
Aslida, dunyoda tanho nima bor,  
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?  
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?  
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.  
Men nechun sevaman O'zbekistonni?  
Bog'larin jannat deb ko'z-ko'z etaman,  
Nechun ardoqlayman tuprog'ini men  
O'paman: «Tuproq'ing bebaho, Vatan»...

*(Abdulla Oripov)*

## 9-§. O'ZBEK TILIDA USLUB

**USLUB** – so'zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir



### So'zlashuv uslubi

So'zlashuv uslubini *adabiy so'zlashuv* uslubi va *oddiy* so'zlashuv uslubi tarzida ikkiga ajratish maqsadga muvofiq emas. So'zlashuv uslubi adabiy nutqqa qarama-qarshi turuvchi nutq ko'rinishidir. Jonli so'zlashuv nutqi yozma adabiy nutqqa yaqinlashtirilgan. Jonli so'zlashuvda adabiy nutq shakllaridan farq qiladi, ya'ni shevalarga xos til birliklari juda keng o'rin oladi.

Jonli so'zlashuvda uy- rozg'or, qo'ni – qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilikda uchraydigan suhbatlardagi birliklardan foydalaniladi: mayli, mayliga, xo'p, kirib turing, so'rab qo'ying, xudoga shukur, qoyil, bo'pti, borovring, opovsi, dadasi, omon bo'ling, barakalla, yashavoring o'rgilay, ishqilib, salom ayting, qurg'ur, qotiramiz, qo'yavering kabilar ko'p uchraydi.

**90-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing va jonli so'zlashuvda uchraydigan so'zlarni anglab izoh bering.

*Keling Hoji bobo. Ko'rinmaysiz, kelmaysiz...*

*-Barakallo, o'g'lim, barakallo, - dedi Hoji kursiga ehtiyotkorlik bilan o'tirayotib, - Umringiz uzoq bo'lsin. Ko'pdan ko'p xursand bo'ldim... O'g'il degan shundoq bo'lsin, otasini rozi qilsin. Ko'p xursand bo'ldim. Xo'p... Bu gilam... bu gilamni necha pulga oldingiz?*

*-Esimda yo'q. Ancha bo'ldi olganimizga.*

*-O'tgan hafta bozorga bir gilam chiqdi, gilammisan gilam edi-da. Bir ming uch yuzga savdo qilib, Qodiralining qo'liga olib berdim. Gilam tanigan odam ikki mingga indamasdan oladi (A.Qahhor).*

### *E'tibor bering:*

jonli so'zlashuvda to'liqsiz gaplardan keng foydalaniladi:

- Otamga aytasizmi ?
- Nimani! Ha, aytganday!
- Yo'q, hojati yo'q! Otang bilmagani ma'qul.
- Bildira qolsam-chi! Javob bermaydi anoviyam qolip ketadi.
- Mayli, nima qildik? Ketaveramizmi?
- Bo'ldi, jo'nadik! Pul-mul ovoganmisan?
- Yetadi, yetmasa sen borsan-ku
- Xo'v, menga ishonma! O'zimni eplayman, xolos!
- Yaxshi, toparman, yetib borsak, bo'lgani.

### *E'tibor bering:*

**Nutq so'zlashuv va yozma nutq uslublariga bo'linadi**

**Qiyoslang:** 1. *Kecha biz darsda ma'ruza tingladik* gapi so'zlashuv uslubida fikr va uning o'ttenkasi o'zgarmagan holda *Kecha biz Ma'ruza tingladik, darsda tarzida* ham qo'llana oladi: so'zlovchi fikrini aytadi-da, keyin yana biror unutgan so'zini o'sha gapning ketidan keltira beradi: *Akam yengil mashina oldi, "Lasetti"*.

So'zlashuv uslubini xarakterlovchi asosiy xususiyatlar:

1. Nutqning dialogik shaklda bo'lishi: *Kelyapti (Bola), Quydi (Yomg'ir)*.

2. Ko'chma ma'nodagi, frazeologik birliklarning – ko'proq qo'llanishi:

*Ular juda inoq aka-ukalar: oralaridan qil o'tmaydi.*

3. So'z takrori: *Kim-kim keldi!* (Kimlar keldi?), *Nima – nima olding?* (Nimalar olding?).

4. Intonatsion vositalar (gumon, ishonmaslik, hayronlik, qat'iylik).

5. Hazil elementlar.

6. Sodda gaplarning ko'p ishlatilishi: *Borolmadim: ishim chiqib qoldi* (*Chunki so'zi ishlatilmagan*).

7. Ko'chirma gapning ko'pincha avtor gapi o'rtada kelgan tipining ishlatilishi: *Otam: "Bugun buvingnikiga boramiz", - dedi.*

Uslubiy me'yorlar nutqning funksional-uslubiy muvofiqligini ta'minlab turuvchi me'yorlar hisoblanadi. Ular til xatoliklaridan ko'ra ko'proq muloqot qonuniyatlarining buzilishiga tegishli hisoblanadi. Zero, stilistika nutqning estetik sifati bo'lib, so'zlovchi haqida tasavvur

uyg'otadi. Shunga ko'ra har bir so'zni o'z uslubi doirasida ishlatish muhim hisoblanadi.

**91-topshiriq.** Uslubiy me'yorning buzilish holatlarini toping.

1. Yurtimizning yanada rivojlanishi yo'lida saralashlarini izhor etdilar.
2. Hashar – Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri.
3. Yuksak sifatli mahsulotlar ishlab chiqaramiz.
4. Hasharning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajariladi
5. Ayni damda to'kis va dasturxon atrofida tanavvul iste'mol qilayotgan yurtdoshlarimizga yoqimli ishtaha tilaymiz.
6. Maqsadlar aniq va ravon ekanligidan dalolat beradi.
7. Ulug' ustozning saboq maktabini 3 oy mobaynida o'tgan hamyurtimiz kuch va mohiyatini o'zining kimligini va nimaga qodir ekanligini isbotlay bildi.
8. AQSh davlati va iqtisodiyoti uchun kichik biznesning ahamiyatliligi va uning qanchalik muhimligi barcha kishilar tomonidan, asosan, hukumat organlari, davlat va shaxsiy ta'lim markazlari hamda turli xil iqtisodiy rivojlanish guruhlari tomonidan tuzilgan biznes jamoalari tomonidan kundan - kunga keng tan olinmoqda.
9. Moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.
10. Riga shahrining markazida... mustahkamlanib borayotgan do'stona munosabatlarning o'ziga xos tomoni bo'lib qolajakligiga ishonch bildirdi.
11. Hovlingizda birorta cho'p bejo yotgan bo'lsa, dilingizga g'ashlik qo'nadi. Shahar ham ana shu hovlimizdek ardoqli, mo'tabar!
12. Hamisha har bir daqiqani hisobli va rejada ekanligi bilan e'tiborimni tortgan.
13. So'zlashuvda mantiqning ustunligi, suhsbatdoshiga nisbatan hozirjavoblik har jihatdan yigitlik olamini bezaydi.
14. Xalqimizda ajoyib naql bor: birovni hech qachon og'ir kunda qoldirmasam, deydi.
15. Dastlabki tahlilga ko'ra avtomobilni sekinlashtiradigan moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.
16. Aksariyat bemorlar, bemorlar yotog'iga yotadilar, aksariyat jarrohlar tig'idan shifo topadilar.
17. Siz mamlakatimizning eng so'nggi yangiliklaridan ogoh bo'ldingiz.
18. Yo'laklar ozoda, beton ariqlar yog' tushsa yalagudek! Qurigan daraxtlar o'rniga navnihollar ekilgan, ko'chalardagi latofatga qarab ko'z to'yamaydi.

**E'tibor bering:**

**Kitobiy uslublar uch xil bo'ladi: ilmiy uslub, rasmiy uslub, publitsistik uslub**



## 10-§. ILMIIY USLUB

Fan va texnika tili **ilmiy uslub** deyiladi. Ilmiy tilning asosi atama, ta'riflar, qoidalar, qonunlardir. Jumladan, atamalar faqat bir ma'noda qo'llanib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatadi, masalan, *o'zak, negiz yasovchi qo'shimcha, turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar; forma yasovchilar* kabi atamalar – so'z tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi.

Ilmiy uslub, bilimning turli sohalariga qarab, o'zaro farqlanadi. *Masalan*, matematikaga oid asarlar bilan biologiyaga doir asarlarning uslubi bir xil emas: matematikaga oid ishda shartli belgilar, turli formulalar bo'ladi. Ilmiy uslubdagi asarlar, ilm-fanga doir ma'lumotlar berish bilan mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi: mutaxassislar undagi maxsus terminlarni bimalol tushunadilar, lekin ilmiy ma'lumotlar butun xalqqa, ommaga qaratilgan bo'lsa, maxsus terminlar kam ishlatiladi va izohlar bilan tushuntiriladi. *Masalan*, gazetalarda, ommabop jurnallarda turli ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar.

**92-topshiriq.** Quyidagi qoida qaysi fanga doir yozilgan va unda qanday ilmiy atamalar ishlatilgan.

Geneologik usul odamlarning mumkin qadar ko'proq sondagi, nasl-nasabini o'rganib chiqishdan iborat. Shundan foydalanib, insonning ko'pgina belgilari, jumladan irsiy kasalliklarining nasldan-naslga o'tib borishini aniqlash mumkin bo'ladi. Odamning Mendel qonunlariga muvofiq nasldan-naslga o'tib boradigan belgilaridan bir nechtasi misol tariqasida keltirildi.

### ***E'tibor bering:***

Odamdagi qobiliyat, iste'dod va boshqa fazilatlarning rivojlanishi irsiy omillarga bog'liq ekanligi geneologik usul bilan aniqlangan. *Masalan*, musiqa, matematikaga bo'lgan iste'dod va qobiliyatlari.

**93-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing, "ta'lim" va "tarbiya"ning farqini ayting. Ta'lim va tarbiya haqida fikringizni yozma ravishda bayon qiling.

*Tarbiya – ong mahsuli, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.*

### *E'tibor bering:*

Ilmiy uslubning *og'zaki* va *yozma* shakllari ham mavjud. Ilmiy *og'zaki* uslub tili so'zlashuv tiliga yaqin, biroq undagi qo'llanayotgan so'z – terminlar, aniqlik, ta'riflar ilmiy uslub ekanligini isbotlab turadi.

Ilmiy uslubning yozma shakli turli xil ilmiy doiradagi o'quv qo'llanmalar tilini tushunmoq kerak. Uni terminlar va atamalar tashkil qiladi. **Termin** ilm – fanga tegishli bo'lgan tushunchalarning nomi: *fonetika, ega, kesim, kislorod, vodorod* kabi. **Atama** esa mavjud narsalarga atab qo'yilgan nom: *inson, osmon, kitob, olma* kabi.

### **Boshqariladigan... keksayish**

*Keksalik albatta keladigan davrdir. Keksayish esa boshqarish mumkin bo'lgan jarayondir, uni tezlatish ham, sekinlatish ham mumkin. Odam 50-55 yoshga kirganda keksayishning belgilari paydo bo'ladi. Bu ko'pgina kasalliklarning kelib chiqishidir. Ba'zan ular juda og'ir kechadi. Keksayish murakkab jarayon bo'lib, hujayralar tarkibi, modda almashinuvini o'zgartiradi. Olimlar hali hujayralarda kechadigan jarayonlarni boshqarishni o'rganishlari kerak. Ammo profilaktik tibbiyot insonga sog'lom va to'laqonli hayot kechirishga yordam beradi. Hujayralar keksayishni sekinlashtiradigan, yujudning himoya-moslashish majmuini faollashtiradigan vositalar mavjud.*

### *E'tibor bering:*

Keng jamoatchilik uchun o'qiladigan ilmiy leksiya ham ilmiy uslubning bir ko'rinishi bo'lib, **ilmiy – ommabop uslub** deb yuritiladi.

Ilmiy uslubda mimik harakatlar ; imo- ishoralar kam bo'ladi ( ilmiy dokladda)

**94-topshiriq.** I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asaridan olingan parchani o'qing va unda ishlatilgan murakkab gaplarni tahlil qiling.

*Chindan ham, agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam bo'lib yurmasak, bizning jahon maydonida munosib o'rin egallashimiz qiyin bo'ladi.*

### ***Matn tuzishda gaplardagi o'zaro bog'liqlik va abzats tushunchasi***

Ma'lumki, inson voqelikni, borliqni til orqali, uning vositalari yordamida aks ettiradi. Shu jarayonda u turli matn ko'rinishlarini yaratadi. Bular quyidagilar:

1. *Ma'lumotnoma matni* ya'ni yuz bergan voqea – hodisa oddiy so'zlar vositasida tasvirlanadi.

2. *Ijodiy – tavsifiy matn*, bu yuz bergan voqea – hodisa haqida ijodiy – tavsifiy bayonni aks ettiruvchi matn, ya'ni har bir voqea – hodisa muayyan dalillar bilan ishonarli tarzda aks ettiriladi.

Bu matn turlariga ilmiy, ommabop, badiiy uslublarda yaratilgan matnlarni kiritish mumkin.

### ***Reja tuzish, ko'chirma va iqtibos ( sitata) tushunchalari***

*Reja*, birinchidan, talaba mavzuning g'oyaviy va badiiy yo'nalishini qay darajada tushunib yetganligini ko'rsatadi, ikkinchidan, mavzuni qismlarga, moddalarga to'g'ri bo'lish asarni chuqur va asosli tahlil qilish imkonini beradi.

Reja mavzuning asosiy tomonlarini ochishi bilan birga, ishning umumiy hajmini, qismlar mutanosibligini belgilaydi. Tahlil qilinayotgan masalaning biror muhim tomonini e'tibordan chetda qoldirmaslik imkonini beradi va insho muallifining fikr- mulohazalarini tartibga soladi. Rejada ko'rsatilgan hamma moddalarga tartib bilan to'xtab va masalaga o'z munosabatini bildiradi. Rejaning kirish qismida mavzuning qo'yilishi, maqsadi, dolzarbligi, qaysi maqsadda bu mavzu tanlangani, mavzuni yoritishda xizmat qiluvchi vositalar haqida o'quvchi ma'lumot beradi. Rejada tinglovchi o'z fikrlarini, tushunchalarini qisqa, ifodali, aniq shaklda bera bilishga o'rganishi kerak.

*Masalan:*

Kirish : 1. Alisher Navoiy – so'z mulkining sultoni.

2. "Farhod va Shirin" – insoniy fazilatlarni madh etuvchi doston.

B. Asosiy qism: 1. Farhodda mukammal insoniy fazilatlarning mujassamlashuvi. 2. Haqiqiy oshiqlik Farhodning fazilatlaridandir.

C. Xulosa: 1. Doston so'z san'atining go'zal namunasi.

**95-topshiriq.** *O'zingiz yoqtirgan badiiy asar bo'yicha to'liq reja tuzing va asarni og'zaki nutq qoidalariga rioya qilib so'zlab bering.*

*Ko'chirma* kitob ustida ishlashning o'ziga xos shaklidir. O'rganilayotgan asarning eng kerakli o'rinlari *sitata* shaklida mumkin qadar aniq, so'zma-so'z ko'chirib olinishi yoki talabaning o'z so'zlari bilan yozib olinishi ko'chirma hisoblanadi. Ko'chirma olish uchun avval

asarni tugal o'qib chiqish shart emas, asarni o'qish jarayonida eng kerakli o'rinlari ko'chirma qilinadi. Haddan tashqari ko'p ko'chirma olishdan saqlanish kerak. Ko'chirma sifatida badiiy asar matnidan, ilmiy - tanqidiy asarlardan olinishi mumkin.

**96-topshiriq.** Sitatalarni ma'nosini tushunib, daftarga izohlab yozing.

So'z- hayot belgisi: hayo ko'zdan, saviya so'zdan bilinadi.

*A. Jo'rayev*

Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir

*I.A. Karimov*

Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!

*I.A. Karimov*

Adolatga intilish xalqimiz ma'naviy-ruhiy dunyosiga xos muhim xususiyatdir.

*I.A. Karimov*

Adolatparvarlik – vijdon amri.

*I.A. Karimov*

Ustozni otangdek aziz deb bil.

So'zni isboti bilan gapir!

*Abu Ali ibn Sino*

Bilim shunday narsaki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zingda qoladi.

Hammomga kirsang ham suv bilan yuvib bo'lmaydi.

*Abu Rayxon Beruniy*

Til odobida e'tiborsiz, o'ylamay so'zlaydigan insonlar jim turgani ma'qul.

*Luqmoni Hakim*

**97-topshiriq.** Turli davrlarda yozilgan buyuk insonlarning sitatalarini keltirib va ular ishtirokida gaplar tuzing.

*Ilmiy matn tuzish (referat, maqola, ma'ruza, taqriz, otzif)*

**Referat** – lotin so'zidan olingan bo'lib, "axborot berayapman" ma'nosini bildiradi. Referat biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni; o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot; tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi ma'ruza. Unda muayyan

mavzu yoritiladi, ilmiy nazariyalar va xulosalar tahlil etiladi hamda tanqid qilinishi ham mumkin.

REFERAT oddiy tarzda materiallarni o'g'irlab ko'chirish emas, balki unda muallif tomonidan adabiyotni o'rganish orqali o'z fikrlarini, qarashlarini, xulosa va takliflarini aniq tarzda ifoda etishi lozim.

### *Referat ustida ishlash tartibi*

1. Mavzuni tanlash.
2. Tayyorlov bosqichi: asosiy manbalarni o'rganish.
3. Zaruriy materiallarni konspektlash.
4. Tadqiqot muammosi mantiqini yaratish, referat rejasini tuzish.
5. Yig'ilgan materialni tartiblashtirish va yozish.
6. Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirishni tekshirish.
7. Matnni tahrir qilish. Matnni imlo va stilistika nuqtai nazaridan tekshirish.
8. Referatni rasmiylashtirish.

### *Referat matnidagi ibora va so'z birikmalari namunalari*

- "...ishda...tizim qarab chiqiladi"
- "kirish qismida ko'rsatiladiki, ya'ni..."
- Muallif shuni nazarda tutadiki, ya'ni..."
- "1-bobda quyidagi savollar yoritiladi..."
- "...2-bobda tadqiq etiladi"
- "3-bobda..tadqiq etiladi..."
- "Xulosada muallif shunday yozadi:..."

### Referatni baholash

Baholash ko'rsatkichlari; baholash mezonlari:

1. Referatlashtirilgan matn yangililigi -20 ball-mavzu dolzarbligi.
  2. Muammo mohiyatini ochib berish darajasi -30 ball reja mavzuga mosligi.
  3. Manbalar tanlash -20 ball-adabiy manbalardan foydalanish.
  4. Rasmiylashtirish qoidaga amal qilish – 15 ball - hajmiga rioya qilish.
  5. Ravonlik, savodlilik - 15ball - orfografik, sintaktik xatolar.
- 100 - balli tizimda baholanadi:
- 86 - 100 –“a'lo”
  - 70 - 85 –“yaxshi”
  - 51 – 69 - “o`rta”
  - 51 dan past - “qoniqarsiz”

**Maqola** – publitsistika janri bo‘lib, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisod, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar va xalq xo‘jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

Maqola termini keng ma‘noda gazeta va jurnallardagi barcha materiallarga, shuningdek, to‘plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

### **Maqola**

*Tadqiqotchi A. Madraimov*

#### **Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholi turmush darajasining statistik ko‘rsatkichlari tizimini baholash**

Iqtisodiy taraqqiyotimizning barqaror o‘shish sur‘atlari, yuksalib borayotgan moliyaviy imkoniyat va rezervlarimiz, ichki bozorimiz sifatli tovar va xizmatlar, birinchi navbatda yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barqaror ravishda to‘ldirib borilayotgani aholi turmush farovonligini yaxshilash, ish haqi va daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borish, mamlakatimiz iste‘mol bozorini rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish uchun yetarli darajada ishonchli asos yaratmoqda.

Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi...

... Aholi jon boshiga o‘rtacha pul daromadlari umumiy yig‘indisini mavjud aholi soniga bo‘lish orqali hisoblanadi.

... oilalarning daromad va xarajatlarini statistik o‘rganish, uy xo‘jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish orqali amalga oshiriladi.

**Taqriz** – arab so‘zidan olingan “ijobiy baho” ma‘nosini bildiradi.

**Retsenziya** – adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning mazmuni, unda ko‘tarilgan muammolar, asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. Yaratilgan kitobga baho beriladi.

*Namuna:*

TDIU katta o‘qituvchisi Baltaboyeva G.I. tomonidan  
tayyorlangan “Atamalar lug‘atiga

## *Taqriz*

Hozirgi kunda davlatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish munosabati bilan iqtisodiyot sohasi bo'yicha ko'p yangi iqtisodiy atamalar kirib keldi. Shu munosabat bilan bu atamalarning lug'atini tuzish va ularga keng xalq ommasiga tushunarli qilib izoh berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

TDIU o'qituvchisi Baltaboyeva G.I. tomonidan tayyorlangan "Atamalar lug'ati" katta ahamiyatga ega. Ushbu lug'atga hozirgi kunda ko'p qo'llaniladigan iqtisodiy atamalar kiritilgan.

Lug'at o'zbek tilini o'rganuvchilarga, bilim yurtlari o'quvchilariga va talabalarga mo'ljallangan. Bundan tashqari lug'at tadbirkorlarga, kichik va o'rta tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi rahbarlarga tavsiya etilishi mumkin.

Lug'atda keltirilgan atamalar kundalik turmush sharoitida, gazeta va jurnallar o'qiganda, radio va televideniye bo'yicha eshittirishlar tinglaganda uchraydigan iqtisodiy atamalarning mazmunini tushunishda keng yordam berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Baltaboyeva G.I. tomonidan tayyorlangan "Atamalar lug'ati" chop etilishini tavsiya etaman.

ToshTYMO

"Transportda iqtisod va menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n. (imzo)

A.I. Ismailxodjayev

*Ma'ruza bilan so'zga chiqish, ya'ni ilmiy axborot bilan so'zga chiqish jarayonining tuzilishi;*

Maqsad qo'yish, asosiy fikrlar va qoidalarni shakllantirish, gapirish.  
(E'tiborni quyidagi usullar bilan egallash mumkin).

1. Ma'ruzani nimadan boshlamoq zarur? (auditoriya e'tiborini qozonish).

2. Asosiy ma'ruzani bayon etishda tinglovchilarni qanday yo'l bilan qiziqtirish mumkin? (obrazli solishtirishlardan foydalanish).

3. Ma'ruzani qanday tugatish lozim?(xulosa qilish ya'ni asosiy g'oya jumlasini ta'kidlash).

Ma'ruzachilarni baholash ko'rsatkichlari:

1. So'zga chiqish mavzusi va maqsadi aniq tushunarli bo'ldimi?

2. Mazmuni mantiqli va qiziqarliymi?

3. Nutqi va tilida tushunishga xalaqit beruvchi xatolar bormi?

4. Tashqi ko'rinishi, o'zini tuta bilishi o'rinni.

## *Ma'ruza*

### *Huquqshunoslik fanining predmeti, maqsadi, vazifasi*

“Huquqshunoslik” fanining mazmun-mohiyati, unda o‘tiladigan huquq sohalaridan olgan bilimlarning amaliyotda qo‘llanishi maxsus kursning predmeti hisoblanadi.

“Huquqshunoslik” fanining maqsadi Davlat va huquq nazariyasi, davlatning vujudga kelishi, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik omillari, davlat organlari, ularning vakolatlari, ma‘muriy, mehnat, fuqarolik, oila, jinoyat, tabiatni huquqiy muhofaza qilish va boshqa huquq sohaları bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar berish; yoshlar huquqiy bilimi, madaniyati va ongini oshirishga yordam berish, huquqbuzarlikning oldini olish, yoshlarni qonunga bo‘ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishda o‘z hissalarini qo‘shishga o‘rgatishdan iboratdir.

Qonun ustuvorligini ta‘minlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uzviyligini, huquqiy demokratik davlatni barpo etishda yoshlarning o‘mini bildirish bu fanning asosiy vazifasidir.

### *Diktant. Uning tahlili*

Diktant talabalarning savodxonligini sinash va o‘stirishga xizmat qiladi. Diktant yozish ko‘p vaqt talab qilmasligi bilan ham qulay. Diktant ikki yo‘nalishda bo‘lib, o‘quv jarayonida amaliy mashg‘ulotlarda tez-tez o‘tkaziladiganlari; 1) ta‘kidiy diktant; 2) izohli diktant; 3) saylanma diktant; 4) ijodiy diktant; 5) erkin diktant; 6) lug‘at diktant. Bulardan ta‘kidiy, izohli va saylanma diktant turlari orfografiya – imlo qoidalarini ustida ishlashni ko‘zda tutadi. Ijodiy va erkin diktant turlari orfografik – imloviy qoidalarini mustahkamlash va yozma nutq malakasini egallash, tayanch so‘zlar va ixcham matnlar tuzishni o‘rganish maqsadida yoziladi. Lug‘at diktant imlosi qiyin so‘zlar, yangi atamalar bilan yaqindan tanishtirishni va to‘g‘ri yozilishini mustahkamlash uchun yoziladi.

Diktantning ikkinchi yo‘nalishida tekshiruv (kontrol) diktantidir. 1) talabalarning savodxonlik darajasini tekshirish; 2) xatolarni kamaytirish.

Diktantda qo‘pol imloviy va qo‘pol bo‘lmagan imloviy xatolarga ajratiladi.

Qo‘pol xatolar; 1. ko‘p uchrovchi so‘zlarni xato yozish, masalan, “Navoiy” “Navoyi”, “jahon” “joxon”, “xalq” “halq” v.h.

2. Gapning va so‘zning ma‘nosiga e‘tibor bermasdan, qanday eshitsa shunday yozish.



3) ‘ va ’ belgilari imlosini bilmaslik; “ she’r” “ sh’er”, “ mas’ul” “ ma’sul”.

4) So‘zlarni bo‘g‘inga to‘g‘ri ajratishni bilmaslik va qatordan qatorga noto‘g‘ri ko‘chirish; ikkov-ing, darax-tlar, a-’ana, bizni-ng, il-indi.

Qo‘pol bo‘lmagan xatolar; 1. imlosi mujmal, munozarali holatlarga doir xatolar, masalan, “ dov yurak” “ dovyurak”, Ona-Vatan yoki Ona-vatan.

2. “x” va “h” harflarining imlosida noto‘g‘ri yozilishi, masalan “ xislat” “hislat”, “Havo” “xavo”.

Diktantlarda uchraydigan xatolarning ikkinchi turi punktatsion, tinish belgi xatolaridir.

**98-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga “x” va “h” harfini mosini qo‘yib yozing.

1. .abar, .avas, .ayol, .azina, .adeb, .aloskor, .ayotbaxsh, .arajat, .iyobon, .alqaro, .aybatli, .ayron, .ayhot, .asis, .iyobon, .abar, .at, .alovat, .amma, .atto, .izmat, .ira, .islat, .ushmuomala, .arakat, .ayajon, .aqiqat, .ulq, .a.loq, .issiyot, .okimiyat, .ulosa, .ush yoqmas.

**99-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga “u” va “o” harfini mosini qo‘yib yozing.

1. .zaro, .git, .vol, .vushmoq, .dum, .zi yurar, .ydirma, .lamo, .ylamoq, .kinch, .ng‘ay, .lamo, .yg‘un, .rganmoq, .rinbosar, .suvchan, .tkazmoq, .lug‘vor, .mrbod, .nutuvchan, .yushmoq, .tkir, .tmish, .yushqoq, .yatchan, .yuvchi, .q-yoy, .quv.

**100-topshiriq.** (‘) belgisi qatnashgan so‘zlar ishtirokida murakkab gaplar tuzing.

**101-topshiriq.** Diktantni. Tinish belgilarini tug‘ri qo‘ying.

### **Xasislik yomon odat**

*Hazrat Mavlono (Jaloliddin Rumi) masnaviysida xasislikning yomonligi haqida so‘z yuritar ekan, bir xasis odamning hikoyasini keltiradi. Xasisligi bilan o‘z zamonasida dong taratgan bir badavlat odam bor ekan. Bu davlatmand odam eng xasis, eng ziqna odam sifatida mashhur bo‘libdi. Bu xasis bir kun jome‘ga jamoat bilan namoz o‘qishga bordi. Jome‘da namozning sunnatini o‘qib bo‘lib, birdan: « Uydagi chiroqni o‘chirganmidim, o‘chirmaganmidim», deb o‘ylanib qoldi. Shu zahoti shoshilib turib, uyiga bordi. Eshikni taqillatdi. Xizmatchi « Kim u?» deb ovoz berganida, xasis:*

*- To‘xta, eshikni ochma! Xonamdagi chiroq yoniq bo‘lsa, o‘chirib qo‘y, yog‘i tugab qolmasin tag‘in, - dedi.*

*Xizmatchi:*

- *Xo`p, afandim. Chiroqni o`chirishni tushundim, ammo nega eshikni ochmayin, tushunmadim, - dedi.*

*Xasis odam:*

- *Eshikning oshiq-moshig`i yedirilmasligi uchun, - deb javob berdi.*

*Xizmatchi:*

- *Qoyil, afandim. Ammo siz masjididan bu yerga kelguncha poyafzal eskirishini o`ylamadingizmi? - dedi.*

*Xasis:*

- *Sen nima, tentakmisan? Meni yaxshi bilasan, masjididan kelguncha poyafzalimni eskirishga qo`yamanmi? Poyafzalimni qo`ltig`imga qisib olib, yalangoyoq keldim, - dedi.*

**(«Hikmatlar xazinasidan»dan.)**

**102-topshiriq.** Diktant. Yozing va tahlil qiling.

### ***Dunyodagi uchta mo`tabar so`z***

*Dunyoda uchta mo`tabar so`z bor: Ona, Vatan, O`qituvchi. Bir-biridan aziz, ulug` siymo bular. Ularni sevmagan, qadrlamagan kishi bo`lmasa kerak. Hamma ularni tabarruk etadi, ular qarshisida ta`zim qiladi.*

*Vatan – behisob boyliklar, farovonlik makoni. Uning madhi she`rlarimizda, dillarimizda. Ijodimizning butun ko`rki ham ona-Vatan.*

*O`qituvchi o`quvchiga nodir bilimlarini baxsh etadi. Unga hayotda qoqilmasdan o`z yo`lini topib ketishi uchun badiiy, tarixiy, falsafiy asarlardan namunalar keltirib yo`l ko`rsatadi.*

*O`qituvchi – murabbiya, ustoz, maslahatchi. Ular kelajakka shu o`quvchilarining ko`zlari bilan qaraydilar.*

*Yashasam yuz yil ham chiqmaydi esdan,*

*Menga ilk alifni o`rgatgan ustoz.*

*Yashaydi ko`nglimda nafasday aziz,*

*Qalamim yozguncha minnati cheksiz.*

***M. Shayxzoda***

*Ona. Mehri quyoshga teng ona. O`z shafqati, nuri bilan bolaga qalb bergan, mehr baxsh etgan – ona!*

*Tunlari bedor: shirin uyqusini buzib, bolasiga halovat beradigan yoqimli allasi bilan ona farzandiga ruhiy lazzat bulog`ini ochadi.*

*Onalar – po`lat iroda sohibalari: bolasi yo`lida hamma qiyinchiliklarni yengadi. Ularning madhi hamisha kuylarda.*

**103-topshiriq.** Diktant yozing. Ulug' olimlarning quyidagi gaplarini o'z so'zingiz bilan ifodalab bering.

1. *So'zning kuchi bexaddir. Chekinayotgan qo'shinni to'xtatish, mag'lubiyatni zafarga aylantirish va mamlakatni qutqarib qolish uchun goho o'rinli aytilgan birgina so'z ham kifoya qiladi. (E. Jirarden)*

2. *O'rnida, vaqtida va sidqidildan aytilgan oddiygina so'z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi. U so'zlovchining o'zini qiziqtirib yuborishi, uni va atrofdagilarni o'z nafisligi bilan mahliyo etishi mumkin (A.F.Koni).*

3. *Zarur so'z, gaplar takrorlanmasa, uqtirib turilmasa, beparvolik qilinsa, bolalik u yoqda tursin, o'spirinlik, yoshlik, o'rta yoshlik, keksalik chog'larimizda ham xatolarga yo'l qo'yish xollari sodir bo'lib turishi ajablanarli emas (V.Abdullayev).*

4. *...Go'zal so'zli va yoqimli bo'lgan til, agarda ko'ngil bilan birga bo'lsa, yaxshiroq bo'lur. Til aloqa vositasi ekan, so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan sinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmoq – millatning ruhini yo'qotmoqdir (A.Avloniy).*

### ***Ommaviy va rasmiy ishbilarmonlik uslubi***

***E'tibor bering:***


#### **Ommaviy uslub hususiyatlari haqida tushuncha**

**Ommabop ( publitsistik) uslub** – matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Publitsistika – lotincha “ijtimoiy” so'zidan olingan. Publitsistika keng ma'noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o'z ichiga oladi.

Publitsistik uslubning og'zaki turiga notiqlik kiradi. Publitsistik stilning og'zaki turiga kundalik voqealarga doir maqolalar yoki xalqaro obzor bilan radio va televideniya da chiqayotgan sharhlovchilarning nutqlari ham kiradi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali izchil ifodalanadi, zarur o'rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlar “muxbirimizning xabar berishicha, elchixonada xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqea ro'y bergan joydan xabar beradi...” va hokazo iboralar qo'llanadi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladi, masalan, “Qonun barchaga barobarmi?”, “Kafolat – va'da emas”, “Chetlatilgan mutaxassis”, “Tuya ko'rdingmi, yo'q”, “Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin”).

Publitsistik stilning yozma va og'zaki ko'rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlangan bosh maqolalar, fel'eton va pamphletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistikaning yozma turiga kiradi.

Og'zaki publitsistika - notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar axboroti, radio va televideniya chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin



Publitsistik uslubning badiiy uslub bilan o'xshashligi bor; bularning ikkalasi ham mavzuning har xilligi va shunga qarab, turli uslubga mos vositalardan foydalanishi bilan tavsiflanadi. Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalar, romandan parchalar ham beriladi.

#### *Publitsistik janrlar (intervyu, ocherk, maqola v.h.)*

*Intervyu* - ingliz tilidan kirib kelgan "uchrashuv" ma'nosini bildiradi, ya'ni publitsistika janri.

Jurnalistning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalar yuzasidan bir yoki bir necha shaxs bilan suhbat.

Intervyu ikki turga bo'linadi: 1. Xabar intervyusi – asosan axborot maqsadida o'tkaziladi; 2. Mulohazali intervyuda muhim dalil va voqealar sharhlab beriladi.

*Ocherk* – badiiy adabiyotning nasriy janrlaridan biri. Ocherkda voqea va obrazlarning zarur tizimga solinishida muallif ixtiyori, u bayon qilmoqchi bo'lgan masala yoki shaxs hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sujet, konflikt, xarakter kabi badiiy vositalar ocherkdan joy oladi. Yozuvchi hayotdan olgan taassurotini yozadi.

O'zbek ocherkining asoschilaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor shunday deydi: "...Ocherkist – yozuvchidir. Gap janrda emas, asarning

qanday yozilganida. Yaxshi hikoya uzoq umrli bo'lsa, yaxshi ocherk ham uzoq umrli bo'la oladi” .

Masalan, o'zbek klassik adabiyotida tarixiy asarlardan ocherk shaklida “Bobirmoma” asari eng xarakterli namunadir. Unda o'sha davr O'rta Osiyo tabiatiga tegishli dalillar, bu yerda yashaydigan xalqlar hayotiga oid lavhalar berilgan.

*Maqola* – publitsistika janri bo'lib, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisod, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar va xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

**104-topshiriq** . Quyidagi matnni e'tibor bilan o'qing.

*Matnda uyushiq bo'lakli gaplarni toping (ular –sh (-ish) affiksli harakat nomi shaklidan foydalanilgan). Matndan matbuot nutqi uchun berilgan so'z va iboralarni toping.*

### **“Eski shaharni saqlay olamizmi?”**

... Shukurkim, o'zligimizni anglay boshlashimiz shaharsozlik sohasida ham ma'lum o'zgarishlar yasab, bu hududga e'tibor berila boshladi. So'nggi 3-4 yil ichida hukumatimizning eski shaharni saqlab qolish bo'yicha qarorlari, “mahalla” dasturi qabul qilindi.

O'rta Osiyo shaharsozlik va me'morchilik nazariyasi ilmiy tadqiqot oliygohi me'morlari tomonidan eski shaharni saqlab qolish va tiklash dasturi, uning shimoli – g'arb qismini va Qoratosh, Shahrison, Olmazor, O'qchi mahallalarini qayta tiklash loyihalari ishlab chiqildi. Bu loyihalarga ko'ra eski shaharning tarixiy ko'chalari, mahalla markazlari, tarixiy qiymatga ega va yaxshi saqlangan turar-joylar saqlanib qolinadi...

Toshkentning eski shahar qismini saqlab qolish va qayta tiklash muammosi kompleks masala bo'lib, buni yechish uchun, fikrimizcha, shahar hukumati qoshida turli xil tashkilotlar, mutaxassislar, idoralar ishini muvofiqlashtiradigan markaz tuzish, keng jamoatchilikni bu ishga jalb etib, tiklash ishlari qanday ketayotgani to'g'risida matbuotda axborot berib borish kerak...

**105-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing, qaysi uslubga mosligini ayting.

### ***Iqtisodiyot bo'yicha NOBEL mukofoti sohiblari***

**Fridrix fon Xayek** London maktab vakili (Venada tug'ilgan), I Jahon urushida artilleriya zobiti bo'lgan, Avstriya iqtisodiy tadqiqotlar instituti direktori bo'lib ishlagan.

Kapitalistik bozor iqtisodiyotida ekspluatatsiya, sinfiy antogonizm mavjudligini inkor etadi. Uningcha ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining asosiy sababi kapitalning haddan tashqari ortiqcha investitsiyasi va banklarning noto'g'ri pul-kredit siyosatidir. Xayek mehnatkashlarga yengilliklar berishga qarshi. Kommunistik qurilishning nazariya va amaliyotini tan olmaydi. Xayek fikricha, to'la erkin bozor munosabatlari avtomatik ravishda iqtisodiyotning mo'tadil inqirozlarsiz rivojini ta'minlay olmaydi, inflyatsiya va ishsizlik masalalarini ham hal etmaydi.

Xayek iqtisodiyot faniga "tartibga solinadigan jamiyat", "kafolatlangan daromad" tushunchalarini kiritdi.

**Milton Fridman** "Iste'mol nazariyasi, monetarizm tarixi sohasidagi yutug'i va barqarorlik siyosatining murakkabligini namoyish eta olgani uchun" Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Fridmanning fikricha, davlat iqtisodiyot uchun qilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi ish – biznesga tegmaslik va bozorning o'z ishini qilishga yo'l berishdan iborat, ya'ni bozorga tabiiy sharoit yaratish tarafdori bo'lgan.

### *E'tibor bering:*

**Rasmiy uslub** turli hujjatlarning tilini ko'zda tutadi: qarorlar, instruksiya, akt, ariza, raport, buyruq, e'lon kabilar. Rasmiy yozishma va hujjatlar iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, ma'muriy – davlat idoralarida ishlatiladi. Yuridik qonunlar, diplomatik yozishmalar, farmonlar, qarorlar, buyruqlar, shartnomalar shu uslubda yoziladi. Rasmiy uslub kitobiy uslubga kiradi, ma'muriy idoraning ish usuliga mos, maxsus professional so'zlari, terminlari (shunga ko'ra; shu asosda; ...ni e'tiborga olib; biz, quyida qo'l qo'yuvchilar; biz, ushbu aktni tuzuvchilar; biz, yuqorida nomi ko'rsatilganlar; ...ga muvofiq; ..uchun; oylik maosh miqdorida) qisqalik, aniqlik rasmiy ish qog'ozlarining bosh belgilaridir. Ibora va jumlar bir qolipda bo'ladi. Davlat hujjatlarida, shaxsiy xatlarda so'zlar ko'chma ma'noda ishlatilmaydi

*Rasmiy nutqning ikki xil ko'rinishi mavjuddir:*

1. Og'zaki tarzdagi rasmiy ma'ruzalar (dokladlar) nutqi;
2. Rasmiy ish qog'ozlari nutqi (asosan yozma nutq)

## 11-§. BADIY USLUB

### *E'tibor bring:*

**Badiiy uslub** badiiy asar tili sifatida namoyon bo'ladi, shuning uchun emotsionallik, ta'sirchanlik va obrazlilik uning asosiy xususiyati hisoblanadi. Yozuvchi va shoirlar so'z yordamida real borliq manzaralarini o'quvchi ko'zi o'ngida qaytadan yaratadi, ya'ni uning obrazini jonlantiradi.

Badiiy asar, falsafadan shu bilan farqlanadiki, falsafa isbot etadi, adabiyot esa ko'rsatadi.

Badiiy asarlar o'ziga xos uslubda yoziladi. Badiiy uslub umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga, uning har bir turi (hikoya, qissa, roman, novella, doston, esse, fantastika, ertak, qo'shiq va b.) o'z yo'li va o'z uslubiga ega bo'ladi.

**106-topshiriq.** Badiiy asardan olingan ushbu parchani tahlil qiling.

*Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar, so'z birikmalari va gaplar tuzilishi, ko'chma ma'noli hamda uslubiy bo'yoqdor so'zlarning mavjudligi, insonlarga xos xususiyatlarning jonsiz narsalarga ko'chirilishi orqali jumalarda obrazlilikning ifodalanishini badiiy uslubga xos xususiyatlarini ko'rsating.*

“Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yuguradi. Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in – horg'in oqsalardi, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira – kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi. Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasiga yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada...ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?”

### **Diqqat qiling:**

O'xshatishning asoslari o'z ifodasini topganlari, ayniqsa, o'xshatish qo'shimchalari va ko'makchilari (-dek, -day; o'xshash, xuddi, go'yo, misli, singari, kabi, yanglig', bamisoli) ishtirok etganlari nasriy nutqda ko'p uchraydi.

Badiiy nutqda har bir so'z ham odatda fikrni ta'sirchan, obrazli qilib ifodalashga xizmat qilishi shart. Shuning uchun ham metafora, epitet, o'xshatish, kesatish, kichraytirish, jonlantirish kabi tilning tasviriy vositalaridan juda unumli foydalaniladi.

**107-topshiriq.** Badiiy asardan olingan quyidagi parchalarga e'tibor bering.

### **O'tkan kunlar**

*"Otabek Marg'ilon kelganning ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo'lgan edi. Asr namozning vaqti o'tib borganlikdan u shundagi do'kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so'radi. Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do'kondor unga suvning qulay o'rnini ko'rsatdi: "Mana, shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz!", – dedi Otabek do'kondorning ko'rsatishicha qutidorning tashqarisiga kirdi.*

*Shu vaqt tasodifan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy, ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko'zini katta ochib o'tgan daqiqada uchrashgani xayoliy go'zalni istab xayollandi. Biroq, haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yiga o'tirdi, ammo ko'zi xayol yashiringan yo'lakda edi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdin uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to'xtab qoldi. Yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar edi.*



*Ko'p kutdi, asr nomozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug'ilgan edikim, bu yog'i o'quvchimizga ma'lumdir. Kumushbibining yuqorida "Siz o'shamu?" deb so'rashi shunga binoan bo'lib, ammo unga masalaning anglashilmay qolishi va chin baxtini bil'aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib, ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovushish bilan natijalandi".*

*A. Qodiriy*

## 12-§. USLUBIY SHAKL TURLARI, JANRLARI

(diplomatik uslub, nota, memorandum va b.)

**Diplomat** – fransuz soʻzidan kirib kelgan. Chet mamlakatlar bilan aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakolat berilgan lavozimli kishi. Diplomatik uslubni qoʻllashda ular kommunikativ boʻlishlari kerak, oʻz ishining nozik tomonlarini, qonun-qoidalarini, muzokara olib borish sanʼatini biladigan kishi boʻlishi lozim.

**Diplomatik uslub** – davlatlar oʻrtasida olib borilgan diplomatik muzokara yoki maxsus konferensiya qarori. Diplomatik uslub shartnoma, bitim, konventsiya, protokol, deklaratsiya, dalil, ustav kabi turli nomlar bilan atalishiga qaramay, yagona yuridik ahamiyatga ega. Uning keng tarqalgan formasi – oʻzaro yordam, savdo toʻgʻrisidagi xalqaro shartnomalardir; memorandum, bayonot ham diplomatik uslub hisoblanadi.

**Nota** – (xalqaro huquqda) – bir davlatning tashqi ishlar organlari tomonidan ikkinchi davlatning tashqi ishlar organlariga yuboriladigan yozma rasmiy hujjat. Har bir davlat nota yordamida boshqa biror davlatning notoʻgʻri xatti-harakatiga qarshi oʻz huquqi yoki daʼvosi, noroziligini bildiradi; shuningdek, nota almashtirish yoʻli bilan oʻzaro bir bitimga kelishi mumkin.

Masalan, Nota orqali bir mamlakat bitim bayonini beradi, ikkinchi mamlakat esa oʻzining javob notasida uni takrorlaydi.

Yakka holdagi (yoki individual) Nota *shaxsiy* yoki *verbal* notaga boʻlinadi. Shaxsiy nota bir shaxs tomonidan belgilangan shaklda yoziladi va imzolanadi. Verbal notada egasi koʻrsatilmaydi, uchinchi shaxs nomidan yoziladi.

### **Rasmiy ishbilarmonlik uslubining oʻziga xos xususiyatlari**

*Diplomatik yozishmalarda* hujjat turini uning mazmunidan kelib chiqqan holda toʻgʻri tanlash va yozish qonun-qoidalariga toʻla va aniq amal qilish, hujjat yoʻllanayotgan mamlakat anʼanalarini hisobga olish zarurdir.

Diplomatik hujjatlarning shakli, tashqi koʻrinishi qanchalik muhim boʻlmasin, diqqat-eʼtibor asosiy qismga, uning mazmuniga qaratilmogʻi lozim.

Diplomatik hujjatlarda soʻzga eʼtibor juda kuchli boʻlmogʻi kerak. Ularning tili sodda, ravon boʻlib, koʻchma maʼnolardan xoli boʻlmogʻi, soʻz mazmun bilan mutlaq mos boʻlishi, undan boshqacha maʼno anglashilmasligi kerak.

Hozirgi vaqtda davlatlararo aloqalarda diplomatik yozishmalarning quyidagi turlari faol qo'llanmoqda:

1. Nota va bayonotlar.
2. Rasmiy xatlar.
3. Ilova xatlar.
- Yarim rasmiy shaxsiy xatlar (nomalar).
4. Esdalik yozishmalari.
5. Diplomatik protokol (qaydnoma)lar.
6. Memorandumlar.

*Shaxsiy va verbal notalarga xos umumiy xususiyatlar:*

1. Notalar yuqori qismiga davlatning nomi yozilgan va davlat gerbining tasviri tushirilgan eng toza, sifatli qog'ozga yoziladi.
2. Qogozning yuqori o'ng burchagiga nota yo'llayotgan davlat poytaxtining nomi va sana yoziladi.
3. Notaning hajmidan qat'i nazar, birinchi betning pastki chap tomoniga u yo'llanayotgan davlat nomi to'liq yoziladi, konvert ustida ham xuddi shu manzil ko'rsatiladi.

*Shaxsiy notalar quyidagi masalalar bo'yicha yuboriladi:*

1. Ishonch yorliqlarini topshirish.
2. Elchixonona, vakolatxonalarining ochilishi munosabati bilan.
3. Davlatning tashkil topgan yoki mustaqillik e'lon qilingan kuni bilan qutlash.
4. Milliy bayramlar munosabati bilan qutlash.
5. Prezidentlik saylovi yoki referendum munosabati bilan qutlash.
6. Mamlakatda ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqea munosabati bilan.
7. Mamlakatda yuz bergan tabiiy ofat (zilzila, suv toshqini va h.k.) munosabati bilan hamdardlik bildirish.
8. Prezident yoki yuqori mansabdor shaxsga aloqador musibat munosabati bilan ta'ziya bildirish.

*Nota birinchi shaxs tomonidan yoziladi: murojaat, asosiy qism, xulosa.*

*Masalan;* «Janob Prezident. Sizga chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etaman va shuni bildirish sharafiga muyassarmanki... Sizni...bayrami bilan samimiy qutlayman va mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar bundan keyin ham rivojlanib boradi, deb umid bildiraman»; «Sizning hukumatingiz va ... RESPUBLIKASI o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va diplomatik vakolatxonalar o'z ishini

boshladi»; «...munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etaman va qo'limizdan kelgan yordamni ayamastligimizni ma'lum qilaman»;

«Fursatdan foydalanib, yana bir bor Sizga hurmat va ehtiromimni izhor etaman»; «Imkoniyatdan foydalanib, Sizga bo'lgan hurmat va ehtiromimni yana bir bor izhor etaman»;

So'ng o'ng tomonga kimdan, chap tomonga kimga yuborilayotgani yoziladi.

Imzo qo'yishdan avval hurmat ifodasi yoziladi:

«Eng ezgu tilaklar ila»,

«Hurmat va ehtirom bilan» kabi.

*Verbal nota* – tashqi ishlar vazirliklari, elchixonalar, vakolatxonalarining asosiy yozishmasidir. Unda hukumatlarga muhim, davlat ahamiyatiga molik masalalar va so'rovlar, viza berish, uning muddatini cho'zish, mamlakatga tashrif yoki yirik anjumanda ishtirok etish uchun taklif, ruxsat olish, delegatsiya jo'natish va b.

*Verbal notaning zaruriy qismlari:*

1. Davlat gerbi tasviri tushirilgan maxsus qog'ozga yoziladi.

2. Qog'ozning yuqori chap burchagiga nota yo'llayotgan hukumat, elchixonaning to'liq nomi yoziladi va joriy raqami quyiladi.

3. Matn asosiy qism, uchinchi shaxs nomidan yoziladi.

4. Matndan so'ng davlat poytaxtining nomi, sanasi yoziladi.

5. Pastki chap burchagiga nota yo'llanayotgan mahkama va davlat poytaxtining nomi yoziladi.

6. Tashqi ishlar vazirligi yoki vakolatxonalar muhri bilan tasdiqlanadi.

7. Imzo qo'yilmaydi.

**108-topshiriq.** «Janob bosh vazir»ga shaxsiy nota-diplomatik yozishma tarzida davlatning tashkil topgan kuni bilan ezgu-tilaklar bildiring.

**109-topshiriq.** Milliy bayram munosabati bilan elchixonaga shaxsiy nota yozing.

**110-topshiriq.** Prezidentlik saylovi yoki referendum munosabati bilan qutlash «Janob Prezident» tarzida rasmiy nota yozing.

**111-topshiriq.** Yuqori mansabdor shaxsga aloqador musibat munosabati bilan ta'ziya bildirib rasmiy nota yozing.

**112-topshiriq.** Mamlakatda yuz bergan tabiiy ofat (zilzila, suv toshqini va h.k.) munosabati bilan hamdardlik bildirib elchixonaga nota yozing.

**113-topshiriq.** «Hurmatli janob vakil» tarzida mamlakatda ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqea munosabati bilan rad javobini ma'lum eting.

**114-topshiriq.** Tavallud topgan kuni bilan «Qirolicha hazrati oliyalari»ga hurmat va ehtirom izhor eting.

**Memorandum** - lotin so'zidan olingan, "Esda qoldirishi kerak bo'lgan narsa" ma'nosini bildiradi. Memorandum – davlatlarning biror masala yuzasidan o'zaro qabul qilgan qarorlari yuzasidan bergan bayonnomasi. Unda har bir davlatning fikri va o'zaro kelishuvi bayon qilinadi. Bu hujjat toza, sifatli qog'ozga yoziladi, faqat unda gerb tasviri va tartib raqami bo'lmaydi.

Memorandum diplomatik akt turlaridan biri, biror hukumatning diplomatik yo'l bilan muhokama qilinishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon qilib yozgan nomasi. Memorandum ko'pincha, notaga ilova qilinadi. Unda biror ahvol tahlil qilinishi yoki ikkinchi tomonning da'vosiga e'tiroz bildirilishi mumkin.

Memorandum alohida kuryer orqali jo'natiladigan bo'lsa, u blankaga yoziladi. Jo'natilgan joyi, vaqti ko'rsatiladi, ammo muhr va imzo qo'yilmaydi. Ilova memorandum blankaga yozilmaydi, raqam ham qo'yilmaydi faqat jo'natilgan joyi va vaqti ko'rsatiladi.

## 13-§. QONUN VA HUQUQ

*Qonun* deganda davlat hokimiyatining oliy organi tomonidan qabul qilingan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan *normativ huquqiy akt*. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil etadi.

*Huquq* jamiyatda tartib o'rnatishni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasidir.

**Konstitutsiyaviy huquq** – ijtimoiy tuzum va davlat organlari tizimini, shaxsning mavqeini, davlat hokimiyatini amalga oshirishda yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni boshqarib turuvchi huquqiy me'yorlar majmuini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyaviy huquq ijtimoiy tuzum asoslarini mustahkamlaydi.

Davlatning Asosiy Qonuni ijtimoiy tuzumni tartibga solish maqsadini ko'zlaydi.

Konstitutsiya boshqa qonunlardan ajralib turadi va farq qiladi; 1. Hamma qonunlar Konstitutsiyadan kelib chiqishi. 2. Uning holati doim birinchi va asos soluvchi. 3. Unda joriy qonunlar tizimini belgilashida.

Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasi xalqining maqsadini, istagini, davlat suverenitetini, ijtimoiy va davlat tuzumini, respublikamiz xalqaro munosabatini, inson va fuqarolarning huquqiy holatlarini, davlat organlarining vakolatlarini, saylov tizimi va boshqa muhim masalalarni o'z ichiga olgan.

Konstitutsiyamiz inson huquqi, inson erkinligini o'zida muhrlab bergan va vijdon erkinligi va diniy erkinligimizni ta'minlab bergan.

**NIZOM** – tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma korxonalar va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjat.

*Nizomning asosiy zaruriy qismlari:*

1. Vazifalari nizom bilan belgilanayotgan muassasa nomi.
2. Hujjat turining nomi ( Nizom).
3. Mazmuni (matni).
4. Rahbar imzosi.
5. Sana va joyi.
6. Tasdiqlash ustxati(yuqorida o'ng burchakda).

**AKT** – shunday hujjatki, unda aniqlangan muayyan hodisa yoki biron-bir dalilning to'g'riligi tasdiqlanadi va bunga bir necha kishining guvohligi keltiriladi. Bu hujjat o'zbek tilida «dalolatnoma» so'zi bilan aytiladi.

**Dalolatnoma** deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq tuziladi (hatto baxtsiz hodisa yoki tabiiy ofat haqidagi dalolatnoma asosida ham moddiy masala bor), u ko'proq tadbirkorlik, moliya-xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'llanadi.

*Kassani taftish etish dalolatnoma namunasi:*

### **TASDIQLAYMAN**

O'zbekiston Respublikasi FA  
Abu Rayxon Beruniy nomidagi  
Sharqshunoslik instituti  
Direktori (imzo) (I.SH.F)  
2013-yil 14-oktabr

Sharqshunoslik instituti kassasida o'tkazilgan taftish

### **DALOLATNOMASI**

2013-yil 13-oktabr  
Toshkent shahri

Raisi – institut bosh hisobchisining o'rinbosari Erkinoy Rahimovna Olimova, a'zolari – rejalash bo'limining iqtisodchisi Naima Ikromovna Karimova va hisobchi Oysha No'monovna Po'latovalardan iborat jihozlarni yuklama qilish komissiyasi institut direktorining 2013-yil 10-oktabrdagi 19-raqamli buyrug'iga muvofiq institut kassasida 2013-yil 13-oktabrdagi holat asosida taftish o'tkazdi. Taftish institut kassiri Narimon Ubaydullayev ishtirokida o'tkazildi.

Taftish o'tkazish natijasida:

- 1) kassadagi naqd pul qoldig'i 14 ming so'm ekanligi;
- 2) kassa daftari bo'yicha pul qoldig'i 14 ming so'm ekanligi aniqlandi.

Institut kassasida boshqa qimmatbaho buyumlar topilmadi, bu hol hisob ma'lumotlariga mos keladi.

Kassa daftarini yuritish va pullarni saqlash tartibi «Davlat, kooperativ va jamoat korxonalarini, tashkilotlari va muassasalari tomonidan kassa ishlarini yuritish haqida nizom» talablariga mos keladi.

Komissiya raisi: (imzo) E.R. Olimova

Komissiya a'zolari: (imzo) N.I. Karimova

(imzo) O.N. Po'latova

Kassir: (imzo) N. Ubaydullayev

**115-topshiriq.** Institut kadrlar bo'limida hujjatlarning saqlanish ahvoli haqida «dalolatnoma» tuzing.

**116-topshiriq.** Rahbar xodim ishni topshirish-qabul qilish haqida tuziladigan dalolatnomalarining zaruriy qismlarini yozing.

**117-topshiriq.** Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish etish dalolatnomasini tuzing.

**118-topshiriq.** Tabiiy ofat yoki falokat natijalarida yuz bergan texnik nosozliklar haqida dalolatnoma tuzing.

### ***Shartnoma va ishonchnoma tuzilishi va uslubi***

*Shartnoma – ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish, to'xtatish yo'lidagi kelishuvidir, ya'ni bitimni qayd etuvchi va munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir.*

*Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra bir qancha ko'rinishga ega, masalan; mahsulot yetkazib berish haqida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat yo'li bilan xarid qilish haqida, bino va inshootlar qurilishi haqida, turar joy ijarasi, uy-joy, transport vositalarini oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, mol-mulkni ijaraga olish, qarz berish haqida va b.*

*Shartnomaning zaruriy qismlari:*

1. Shartnomaning nomi.
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnoma tuzilgan joy.
4. Tomonlarning aniq va to'liq nomi.
5. Shartnoma matni.
6. Huquqiy manzillari.
7. Tomonlarning imzolari va muhrlari.

Shartnoma ikki nusxada yoziladi, matn varaqning har ikkala tomoniga kompyuterda bir oraliq bilan yoziladi, bandlari bir yarim oraliq bilan ajratiladi.

«SHARTNOMA» katta harflar bilan orasini ochib yoziladi.

*Transport vositasini hadya qilish shartnomasi namunasi*

### ***Shartnoma***

Toshkent shahri, ikki ming o'n uchinchi yil, o'n beshinchi mart

Biz, Toshkent shahar Abay ko'chasi 6-uyda yashovchi Baxtiyor Xalilovich Bakirov va Toshkent shahar Mirobod tumani, 29-uy, 11-xonadonda yashovchi Murod Rustamovich Boltaboyev, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:

I. Men, B.X. Bakirov, Toshkent shahar IIB davlat avtonazorat ro'yxatlash va imtihon olish bo'limi tomonidan 2011-yil 20-fevralda



berilgan. GE 434546 raqamli texnik pasportga asosan menga tegishli «Matiz» markali yengil mashinani (2011-yilda ishlab chiqarilgan, shassi raqami – 40146, motor raqami - 85617, kul rangli, davlat raqami belgisi N 625 NR) M.R. Boltaboyevga hadya qildim.

2. Men, M.R. Boltaboyev, mazkur avtomashinani B.X. Bakirovdan hadya sifatida qabul qildim.

3. Mazkur avtomashina shartnoma tuzuvchilar tomonidan 9000000 (to‘qqiz million) so‘m miqdorida baholandi.

4. Hadya qilingan avtomashina bu shartnomaga qadar hech kimga sotilgan emas, garovga qo‘yilmagan, nizoda bo‘lmagan, foydalanish taqiqlab qo‘yilmagan.

5. Shartnoma uch nusxada tuzildi: 1-nusxa notarial idorada saqlanadi, qolgan nusxalar M.R. Boltaboyevga avtomashinani ro‘yxatdan chiqarish va ro‘yxatga qo‘yish uchun berildi.

(imzo) B.X. Bakirov

(imzo) M.R. Boltaboyev

(notarial idoraning tasdiqlovchi yozuvlari va muhri)

Avtomashinani oldi-sotdi

### ***Shartnomasi***

O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahri, ikki ming o‘n uchinchi yil yigirmanchi fevral kuni.

*Biz, Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar Yassaviy ko‘chasidagi 44-uyning 17-xonadonida yashovchi Tursun Rajabovich Turg‘unov va Toshkent shahar Forobiy shoh ko‘chasidagi 66- uyda yashovchi Mirpo‘lat Akbarovich Miraxmedov, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdik:*

1. Men, Tursun Rajabovich Turg‘unov, Yangiyo‘l tumanlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘limi tomonidan 2012-yilning 26-aprelida berilgan GE 654376 raqamli texnik pasportga ko‘ra menga tegishli bo‘lgan Neksiya markali, 2011-yilda ishlab chiqarilgan, shassi raqami 616263, motor raqami 211221, kuzov raqami 542432, kul rangli, G 01 488 davlat raqamli belgisiga ega bo‘lgan avtomashinamni sotdim; men, Mirpo‘lat Akbarovich Miraxmedov, yuqorida ko‘rsatilgan avtomashinani sotib oldim.

2. Yuqorida zikr etilgan avtomashina 80 ot kuchiga ega bo‘lib, tomonlar uni 15000000 o‘n besh million) so‘mga baholadik va avtomashina ana shu narhga sotildi.

3. Men, Tursun Rajabovich Turg‘unov, sotilgan avtomashina uchun

*Mirpo'lat Akbarovich Miraxmedovdan ko'rsatilgan miqdordagi pulni mazkur shartnomani imzolash arafasida to'liq oldim.*

*4. Ushbu shartnomaga qadar oldi-sotdi qilinayotgan avtomashina boshqa shaxsga o'tkazilmagan, garovga qo'yilmagan, nizoda bo'lmagan, unga taqiq solinmagan.*

*5. Ushbu shartnomani tuzish uchun ketadigan xarajatlarni Mirpo'lat Akbarovich Miraxmedov to'laydi.*

*6. Ushbu shartnoma M.A. Miraxmedovga yuqoridagi avtomashinani Yangiyo'l tumanlararo ro'yxatlash va imtihon olish bo'limidan ro'yxatdan chiqarish huquqini beradi.*

*7. Ushbu shartnoma DAN idoralarida ro'yxatga qo'yilishi lozim. Shartnoma uch nusxada tuzilib, biri Yangiyo'l shahar davlat notarial idorasida saqlanadi, qolganlari avtomashinani ro'yxatdan chiqarish va ro'yxatga qo'yish uchun M.A. Miraxmedovga beriladi.*

(imzo) T.R. Turg'unov

(imzo) M.A. Miraxmedov

(notarial idoraning tasdiqlovchi yozuvlari va muhri)

**119-topshiriq.** To'lov-kontrakt (ikki tomonlama kontrakt) asosida mutaxassis tayyorlashga shartnoma namunasini zarur qismlarini keltirib yozing.

**120-topshiriq.** To'lov-kontrakt shartnomasiga qo'shimcha bitim shartlarini ayting.

**121-topshiriq.** Shaxsiy mulkni (uy-joy, ayrim xonalarni) ijaraga berish shartnomasini tuzing.

**122-topshiriq.** Mehnat shartnomasi (kontrakt) va mehnat bitimiga shartnoma namunalarini tuzing.

**Ishbilarmon xatlarning yozilish uslubiga**

**Diqqat qiling:**

### ***Ishonchnoma***

Muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjat. Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra, mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy-buyum boyliklarini olish, sud hamda notarial idoralarda ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

Ishonchnomalar rasmiy va shaxsiy (xizmat) turlarga bo'linadi.  
*Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnoma namunasi;*

### ***Ishonchnoma***

Fermer xo'jaligining To'rtburchak muhri (xo'jalikning to'liq nomi, ishonchnoma raqami va vaqti) 2012.01.03.

Zafar fermer xo'jaligi bosh iqtisodchisi Adxam Anvarovich Axmedovga Bekobod qurilish jihozlari korxonasi bilan 2012-yilning 2-va3-choragida fermer xo'jaligiga 70 mingga qurilishbop g'isht va 200 tonna ohak yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzish hamda mazkur topshiriq bilan bog'liq barcha ishlarni bajarishga vakolat beradi. Ishonchnoma 2012-yilning 15-dekabrigacha amal qiladi.

Fermer xo'jaligi rahbari (imzo) M. Qurbanov  
(muhr)

### ***Shaxsiy ishonchnoma namunalari:***

### ***Ishonchnoma***

Men, Toshkent shahar, 2-Qorasuv dahasi, 213-uy, 4-xonadonda yashovchi Axmad Nosirovich Hasanov, yon qo'shnim Zarifa Qodirovna Majidovaga shaharning 4-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2012-yil 12-sentyabr (imzo) A.N. Hasanov  
A.N. Hasanov imzosini tasdiqlayman.

Kadrlar bo'limi boshlig'i (imzo) G. Mamajanova  
(muhr)  
2012-yil 12-sentyabr

### ***Ishonchnoma***

Men, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Menejment fakultetining 1-kurs talabasi Sohibov Saidazimbek, kursimiz talabasi Azizbek Islomovga (AA seriyadagi 0054884 raqamli pasportga ega) kassasidan menga tegishli 2013-yil sentyabr oyi stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

0000 yil 00.00 (imzo) S.A.Sohibov  
S.A.Sohibovning imzosini tasdiqlayman.

Menejment fakultetining dekani (imzo) M.A.Yusupov  
0000 yil 00.00

**123-topshiriq.** Pul jo'natmasini aloqa bo'limidan olish uchun kursdoshingizga shaxsiy ishonchnoma bildiring.

**124-topshiriq.** Rasmiy (xizmat sohasidagi) va maxsus ishonchnomalarga namunalar keltirib yozing.

**125-topshiriq.** Notarial tasdig'idan o'tgan, avtotransportdan foydalanish huquqini beruvchi ishonchnoma tuzing.

**126-topshiriq.** Uy-joyni sotish va sotib olish uchun ma'lumot-axborot hujjatlarini, ya'ni ishonchnoma tuzing.

### *Xizmat xatlari*

Muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjat bu xizmat xatlaridir. Xizmat xatlari imkoni boricha qisqa bo'lishi, bir betdan oshmasligi lozim. Xatlar o'z vazifasiga qarab ikki turga bo'linadi:

1. Javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo, so'rov, iltimos xati)

2. Javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova, tasdiq, eslatma, axborot, kafolat xatlari)

**AXBOROT XAT** – maqsad ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilish.

*Namuna: Ilmiy- amaliy seminar o'tkazish haqida*

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti 2013-yil oktabr oyida «Hujjatlar tili va uslubi» mavzuida ilmiy-amaliy seminar o'tkazishni rejalashtirmoqda.

Seminardan ko'zlangan maqsad.....

O'tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar manzili...

Ma'lumot uchun tel:...

Institut direktori ...

**TASDIQ XAT** – muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga javob yoziladigan xat.

*Namuna:* Bugun, 6-iyunda Sizdan buyurtmamiz bo'yicha mahsulot ishlab chiqarayotganligingiz haqida xabar berilgan telegrammani oldik.

O'z vaqtida qaytarilgan javob uchun Sizga minnatdorchilik bildiramiz.

**ESLATMA XAT** – Jo'natilgan iltimos va so'rov xatlarga javob olinmasa, tuzilgan shartnomalar muddati buzilganda yoki amal qilinmaganda yuboriladigan xat.

*Namuna:* 2013-yilning 22-noyabrida korxonamiz uchun 200000 (ikki yuz ming) dona g'isht ajratishni so'rab, Sizga xat yo'llagan edik, biroq xat

javobsiz qoldi. Iltimosimizni qondirishingizni va 2013.25.12. gacha bizga bu haqda xabar berishingizni takroran so‘raymiz.

**SO‘ROV XATI** – javob talab qiladigan, ma’lumotlar, hujjatlar va zarur narsalar so‘raladigan xat.

«O‘zbekkimyomash» zavodining direktori M.R. Qurbanovga

Namuna: «O‘zbekkimyomash» zavodida 2013-yilning ikkinchi yarmidan boshlab davolash barokamerasi ishlab chiqarilayotganligi matbuot orqali ma’lum qilindi.

Bu zamonaviy uskuna bizni juda qiziqtiradi. Shu sababli Sizdan ushbu barokameraning mufassal tavsifi, yo‘riqnomasi va tegishli fotosuratlarini zudlik bilan yuborishingizni so‘raymiz.

Hurmat bilan Andijon shahar 1- klinik kasalxonasi bosh shifokori  
(imzo) A. Abdullayev

**KAFOLAT XATI** – muayyan bir shart yoki va’dani tasdiqlash maqsadida tuziladi.

Namuna: Hurmatli Hasan Mullajonovich

«Algoritm» zavodi Sizga o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borishingiz uchun barcha sharoitlarni yaratishga va o‘zaro shartnoma asosida xaq to‘lashga kafolat beradi.

Zavod direktorii (imzo) A.V. Vahobov

Bosh hisobchi (imzo) S.T. Sharipov

**127-topshiriq.** O‘quv dargohi uchun kerakli hujjat to‘g‘risida «ma’lumot so‘rov xati»ni tuzing va unga javob xatini bering.

**128-topshiriq.** Darsliklar bilan ta’minlash haqida nashriyotga «Axborot xati» tayyorlang.

**129-topshiriq.** Sanoat-qurilish bankiga «kafolat xati» hamda kafedra mudiriga «iltimos xatlari»ni tuzing.

## 14-§. ISH YURITISH HUJJAT TURLARI

### ARIZA

Ariza – eng ko‘p qo‘llanadigan hujjat turlaridan biri.

Ariza biror tashkilot yoki mansabdor shaxs nomiga yoziladi. Unda biror iltimos, taklif, shikoyat bayon qilinishi mumkin.

Ariza quyidagi zaruriy qismlarga ega:

1. Ariza yo‘llanadigan tashkilot nomi yoki mansabdor shaxsning F. I.Sh.

2. Arizachining F. I.Sh. (to‘liq), manzili yoki lavozimi.

3. Hujjat nomi.

4. Asosiy matn (talab, iltimos, shikoyat).

5. Ilova qilinadigan hujjatlar (agar zarur bo‘lsa).

6. Arizachining imzosi, familiyasi, I.Sh.

7. Sana.

**130-topshiriq. Quyidagi mazmunda arizalar yozing:**

- kotiba vazifasiga, o‘qituvchi (muhandis, sex boshlig‘ining o‘rinbosari, provizor, kichik ilmiy xodim, hisobchi, oila shifokori, tarjimon, soliq inspektori) lavozimiga ishga qabul qilishni so‘rab;

- moddiy yordam ko‘rsatishni so‘rab;

- talabalar turar joyidan o‘rin berilishini so‘rab;

- yozgi oromgohga yo‘llanma ajratilishini so‘rab.

#### Ariza shakli

					kinga
					kimdan
Asosiy matn		ARIZA			
Ilova (zarur hollarda)					
Sana		imzo		I.Sh. Familiyasi	

#### *Tushuntirish xati*

Tushuntirish xati xizmat, o‘qishga aloqador masalani, uning biror jihatini yozma izohlovchi hujjatdir. Shaxsiy tushuntirish xatida xodim (talaba, o‘quvchi) tomonidan sodir etilgan ayrim o‘rinsiz xatti-harakat tafsiloti, uning sabablari bildiriladi va dalillar bilan izohlanadi.

Tushuntirish xati shakli

kimga

kimdan

***Tushuntirish xati***

Matn

O'qish (ishga) kelmaganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlar izohlanadi.

Asoslovchi hujjat ilova qilinadi (agar bo'lsa)

(Ilova: \_\_\_\_\_)

Sana Imzo I.Sh. Familiyasi

**Yodda tuting:**

*Ayrim rasmiy ish yuritish qog'ozlaridan namunalar:*

S. Ahmedovga  
9-sinf o'quvchisi

Rustamova Umidadan.

**ARIZA**

Andijon viloyatidan Toshkent shahriga doimiy yashash uchun ko'chib kelganligimiz tufayli oilaviy sharoitimiz hali to'la izga tushgan emas. Ota-onam mening bir necha kunlik yordamimga muhtoj. Shuni hisobga olib, meni 1 hafta davomida barcha darslardan ozod qilishingizni so'rayman.

2013.02.20. ( imzo) T. Ahmedov

*Ishga qabul qilish haqidagi buyruq namunasi*

Toshkent davlat universiteti 01-14

***Buyruq***

15.01.03. № 101

Kadrlar shaxsiy tarkibiga oid ishga qabul qilish xususida (haqida)

Kurbanov Oybek Ulugbekovich 2003.02.06 dan 233000 so'mli maosh bilan o'zbek filolgiyasi fakulteti tarkibida ilmiy guruhning katta laboranti lavozimiga qabul qilinsin (tayinlansin).

Asos: O.U. Qurbanov arizasi, dekaning rozilik ruxsatnomasi.  
Universitet rektori ( imzo) SH.O. Alimov Imzo:  
Kadrlar bo'limi.

### *Tilxat*

Men Toshkent davlat universitetining katta o'qituvchisi Bahodir Olimov Toshkent musiqa asboblari korxonasi tayyor buyumlar ombori mudiri Anvar Karimovdan institut buyurtmasi asosida tayyorlangan, umumiy bahosi 120000 (bir yuz yigirma ming) so'm bo'lgan 100 ( yuz) dona rubobni qabul qilib oldim.

2011.12.08. (imzo) B.N. Olimov

TDIU " Bank ishi" fakulteti

Dekani O.A. Ortiqovga  
1-kurs talabasi G. Rustamovadan

### *Tushuntirish xati*

Men 2012-yil 23-sentabrdan 28-sentabrgacha bo'lgan davrda oilaviy sharoitimga ko'ra darslarga qatnasha olmadim.

O'tilgan mavzularni mustaqil ravishda o'zlashtirib olaman.

Ilova: Tibbiy ma'lumotnoma bor.

2012-yilning 29-sentabr (imzo) G. Rustamova

**131-topshiriq.** Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.

**132-topshiriq.** Guruh yig'ilishi o'tkazilmagani va uning sabablari keltirilgan tushuntirish xati yozing.

**133-topshiriq.** Quyidagi so'z va birikmalar tarjimasini yozing va ularni yod oling.

- *betobligim tufayli;*
- *noqulay ob-havo tufayli;*
- *xomashyo vaqtida yetkazib berilmaganligi sababli;*
- *ma'lumot o'z vaqtida berilmaganligi sababli;*
- *oilaviy sharoitlarimga ko'ra.*

### *Tarjimai hol. Tavsifnoma. Tavsiiyanoma*

#### *Tarjimai hol*

Tarjimai hol - u yoki bu shaxs tomonidan o'z hayoti va faoliyati aks ettirilgan hujjat. U qat'iy shaklga ega emas, qisqa yo to'liq bo'lishi



mumkin. Garchi ixtiyoriy tarzda yozilsa-da, unda ayrim majburiy qismlar bo'lishi shart:

1. Hujjat nomi.
2. Matn:
  - muallifning F. I.Sh.
  - tug'ilgan sanasi va joyi;
  - ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (F. I.Sh. ish joyi va lavozimi);
  - ma'lumoti va ixtisosligi;
  - mehnat faoliyat turlari;
  - oxirgi ish joyi va lavozimi;
  - mukofot va rag'batlantirishlar;
  - oilaviy ahvoli;
  - manzili.
3. Sana.
4. Imzo.

### *Tarjimai hol shakli*

#### *Tarjimai hol*

**Men,** (famiyasi, ismi va otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi)  
\_\_\_\_\_ oilasida tug'ildim.

Oila a'zolarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi)

(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, olgan mukofotlari)

**Bo'ydoqman** (turmushga chiqqanman, \_\_\_ ta farzandim bor)

**Mening turar joyim:**

Sana imzo I.Sh. Familiyasi

**134-topshiriq.** Tarjimai holingizni yozing.

#### *Tavsifnoma*

Tavsifnoma- ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Odatda, tavsifnomaning birinchi qismida shaxsning mehnat faoliyati, ikkinchisida shaxsiy tavsifi, uchinchisida esa yuqorida bayon qilinganlarning xulosasi beriladi bu hujjat qanday maqsadda berilayotganligi ko'rsatiladi.

### ***Tavsifnoma shakli***

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi,  
ota ismi va familiyasi, tug'ilgan yili,  
millati, ma'lumoti, lavozimi

### ***Tavsifnoma***

#### ***Matn***

Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy sharoiti, mukofotlari haqida ma'lumot beriladi va xulosalanadi, tavsifnoma nima maqsadda berilgani ko'rsatiladi.

Tashkilot rahbari  
muhr

imzo

I.Sh. Familiyasi

sana

**135-topshiriq.** Guruh murabbiyi nomidan kursdoshingizga tavsifnoma yozing.

### ***Tavsiyanoma***

*Tavsiyanoma - biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat. Tavsifnomada shaxsning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari qayd etiladi, tavsiyanomada esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.*

### ***Tavsiyanoma shakli***

#### ***Tavsiyanoma***

#### ***Matn***

Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, a'zolikka munosibligiga ishonch bildiriladi.

Imzo

Tavsiyanoma beruvchining lavozimi, I.Sh.  
familiyasi, sana

**136-topshiriq.** Kursdoshingizni «Kamolot» YIH a'ziligiga tavsiya qilib, tavsiyanoma yozing.

## ***Ishonchnoma. Bildirishnoma***

### ***Ishonchnoma***

*Ishonchnoma* – muayyan muassasa yoki ayrim shaxs tomonidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma tarzda ishonch bildirilgan vakolatli hujjat.

*Xizmat va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.*

*Shaxsiy ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (u ishlamagan taqdirda fuqarolar o'z-o'zini boshqarish organi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.*

*Ayrim hollarda tayyor (qolipli) ishonchnomalardan foydalaniladi (avtomobilni boshqarish uchun ishonch bildirilganda).*

### ***Rasmiy (xizmat) ishonchnoma shakli***

#### ***Ishonchnoma***

Tashkilot, idoraning uchburchak muhri, ishonchnoma raqami va berilgan sana

#### **Matn**

Ishonch bildirilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi (to'liq), narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi

Ishonchnoma (sana) gacha amal qiladi

Rahbar lavozimi (imzo) I.Sh. familiyasi  
(muhr)

Shaxsiy ishonchnoma shakli

#### ***Ishonchnoma***

Men, (ishonch bildiruvchining F. I.Sh.), (ishonchli shaxsning F. I.Sh.)ga (qavsda pasport ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati bilan) ... uchun ishonch bildiraman.

yumaloq muhr

Ishonch bildirgan shaxsning lavozimi, imzosi, ism-familiyasi

sana

**137-topshiriq.** Oylik stipendiyangizni olish uchun kursdoshingiz nomiga ishonchnoma yozing.

#### ***Bildirishnoma***

*Bildirish (bildirishnoma, bildirgi) – muayyan idora, uning rahbariga biror vakolatiga tegishli masalalar yuzasidan axborot berish maqsadida taqdim etiladigan hujjat.*

### ***Bildirishnoma shakli***

(kimga, kimdan) xabar  
yuborilgan idora, rahbarning  
to‘liq nomiga yo‘llovchi shaxs  
lavozimi, to‘liq nomidan

### ***Bildirishnoma***

matn sarlavhasi  
...haqida

#### **Matn**

Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot beriladi, iloji bo‘lsa, ilova ro‘yxati keltiriladi.

Bildirishnoma  
tayyorlagan  
shaxs(lar) lavozimi

Sana imzo(lar) I.Sh. Familiyasi

**138-topshiriq.** Navro‘z munosabati bilan o‘tkazilgan hasharda bajarilgan ishlar yuzasidan bildirishnoma yozing.

### ***Majlis bayoni. Majlis bayonidan ko‘chirma Hisobot***

#### ***Majlis bayoni***

Majlis bayoni – majlis, yig‘ilish va sh.k. qatnashchilarining chiqishlari, shuningdek ularning qarorlarini qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U qisqa (kun tartibi, ma‘ruzachi va muhokamada so‘zga chiqqanlarning ism-familiyasi, qaror) va to‘liq (qatnashchilarning hamma fiklari keltiriladi) bo‘lishi mumkin.

Bayonnomaning zaruriy qismlari:

1. Tashkilot muassasa nomi.
2. Sarlavha (kengashayotgan tashkilot yoki yig‘ilish nomi).
3. Hujjat nomi (majlis bayoni).
4. Sana.

5. Raqami.
6. Yig'ilish o'tkazilgan joy.
7. Tasdiq xati (zarur bo'lganida).
8. Raislik qiluvchi va kotib ism-familiyasi.
9. Matn:
  - qatnashchilar ro'yxati yoki soni;
  - kun tartibi;
  - eshitildi;
  - so'zga chiqdilar;
  - qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar bo'lsa).
11. Imzolar.

**139-topshiriq.** Majlis bayoni shakli bilan tanishib chiqing va guruh yig'ilishi bayonnomasi tuzing.

**140-topshiriq.** Quyidagi so'z(birikma)larni tarjima qiling va yod oling.

taklif kiritdi, qo'llab-quvvatladi, bekor qilindi, ma'qullashni so'radi,... ni tasdiqlashni so'radi, belgilab qo'yilsinki, ...

### *Majlis bayoni shakli*

Tashkilot nomi

\_\_\_ - sonli Majlis bayoni

Joyi Sana

Rais

Kotib

Qatnashdilar:

Kun tartibi

1.

2.

3...

**1.ESHITILDI:**

Ma'ruzachining ism-familiyasi (Ma'ruza ilova qilinadi)

**SO'ZGA CHIQQILAR:**

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

**QAROR QILINDI:**

1.

2...

## 2. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (Ma'ruza ilova qilinadi)

## SO'ZGA CHIQQILAR:

So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi - ...

## QAROR QILINDI:

1.

2...

Rais imzo Familiyasi. I.Sh.

Kotib imzo Familiyasi. I.Sh.

### *Majlis bayonidan ko'chirma*

Zarur hollarda majlis davomida qilingan qarorlardan ko'chirma olinadi. Majlis bayonidan ko'chirma tegishli shaxslarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Majlis bayonidan ko'chirma quyidagi qismlardan iborat:

1. Tashkilot muassasa nomi.

2. Hujjat nomi (majlis bayonidan ko'chirma).

3. Sana (yig'ilish sanasi).

4. Shartli raqam.

5. Ko'chirma rasmiylashtirilgan joy.

6. Matn:

- kun tartibi;

- eshitildi;

- so'zga chiqdilar;

- qaror qilindi.

7. Imzolar.

8. Ko'chirmaning tasdiq xati.

Majlis bayonidan ko'chirmada qatnashchilar soni yoki ro'yxati keltirilishi mumkin.

Majlis bayonidan ko'chirmada faqat korxonaga yoki shaxsga yetkazilishi kerak bo'lgan qismgina o'z ifodasini topadi. Bir necha qaror qabul qilingan bo'lsa, faqat tegishli masala bo'yicha qilingan qaror keltiriladi.

**141-topshiriq.** Majlis bayonidan ko'chirma rasmiylashtirish tartibini ko'rib chiqing va uning namunasini tayyorlang.

**142-topshiriq.** Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslab qoling, ularni qo'llab gaplar tuzing:

*zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo'yilsinki, yuqori tashkilotlardan so'ralsin, ...ning ... -bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.*

*Majlis bayonidan ko'chirma shakli*

Tashkilot nomi

\_\_\_\_\_ - sonli Majlis bayonidan ko'chirma

Joyi Sana

Kun tartibi

3. ESHITILDI:

Ma'ruzachining ism-familiyasi (Ma'ruzaning qisqa bayoni)

QAROR QILINDI:

1.

2....

Rais imzo Familiyasi. I.Sh.

Kotib imzo Familiyasi. I.Sh.

### ***Hisobot***

Hisobot – xizmat faoliyati yuzasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Shakl va mazmuniga ko'ra bildirishnomaga o'xshasa-da, hisobot qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilganlik darajasi, bu boradagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar batafsil berilgani bilan ajralib turadi.

Hisobot shakli I-shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolanadi.

*Hisobot shakli*

Hisobot sarlavhasi (idora, xo'jalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati) ... haqida

**Hisobot**

**Matn**

Ma'lum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilgani haqidagi axborot bayoni.

lavozim nomi

imzo

I.Sh. Familiyasi

Sana:



## 15-§. RITORIKA (NOTIQLIK SAN'ATI)

Notiqlik san'ati-qadimiy san'at. Qadimda so'zga chechan suhandonlarni voizlar, nutqni esa va'z deb ataganlar. Notiqlik san'ati voizlik deb yuritilgan. Voizlik og'zaki va yozma nutqni (va'z yoki ma'ruzani) tinglovchilarga jonli, ifodali hamda ta'sirchan tarzda yetkaza olish usullari va ularga oid malakasini o'rganish va o'rgatish haqidagi fandır.

Notiq bo'lish uchun notiqlik mahorati va san'atini bilish lozim. Uning tarixini, uslubiy tajribalarini o'rganish zarur.

Notiqlik san'ati ulkan va uzoq tarixga ega. Bu ulkan va boy tarix quyidagilarni ta'kidlashga imkon beradi.

1. Notiqlik – tarixiy ijtimoiy hodisadir. Har bir davr o'z notig'ini hamda o'ziga xos voizlik usul va mezonlarini yuzaga keltiradi.

2. Notiqlik ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Masalan, harbiy notiqlik, siyosiy yoki diniy notiqlik, ma'rifiy yoki ilmiy notiqlik.

3. Notiqlik san'ati maxsus fan sohasi sifatida o'ziga xos umumiy qonuniyatlar va tushunchalarga, usul va uslublarga ham ega.

4. Notiqlik san'ati ijodiy mahoratni, tadrijiy kamolotni taqozo etadi. Bu ijtimoiy-siyosiy, tafakkurning, ahloqiy va ma'naviy madaniyatning takomili avji bilan uzviy bog'liqdir.

5. Notiqlik san'ati muayyan maqsadni, mafkurani, nuqtai nazarni, ijtimoiy-ahloqiy maromlarni yoyish, tarqatish, odamlarni shunga ishontirish san'atidir. Xalqni tarbiyalash mahorati va malakasidir. Notiqlik esa madaniy-ma'rifiy, mafkuraviy va tarbiyaviy faoliyat vositasidir. Ushbu vositani va undan foydalanish san'atini bilish hamda zarur malakaga ega bo'lish shaxsning ma'naviy-madaniy saviyasini, ijtimoiy mavqeini belgilovchi muhim mezon hamdir.

## 16-§. ANTIK DAVR NOTIQLIGI

Notiqlik, voizlik san'ati nihoyatda qadimiy tarixga, uzoq tarixiy taraqqiyotga ega. Bu san'at qadimgi Misr, Vavilon kabi davlatlarda shakllangan bo'lib, qadimgi Gretsiyada juda ravnaq topgan. Buning sababi Afina va boshqa davlatlarda siyosiy kurashning kuchayishi bilan bog'liq. Notiqlik siyosiy kurashning, odamlarga ta'sir etishning faol vositasiga aylangan. Siyosiy arboblarning mavqei, taqdiri ularning notiqlik mahorati bilan bog'liq bo'lgan. Bu qadimgi Rimda, Misrda, ayniqsa, Gretsiyada siyosiy voizlikning taraqqiy etishiga olib kelgan. Mohir Notiq Sitseronning ta'kidlashicha, shaxsning oliy maqomga ko'taruvchi ikki san'at mavjud bo'lib, bularning biri sarkardalik san'ati bo'lsa, ikkinchisi – notiqlik san'ati hisoblangan.

Antik davrda ijtimoiy-maishiy taraqqiyot darajasi maishiy hamda huquqiy notiqlikning rivojiga ham zamin yaratgan. Solonim hukmronligi (eramizgacha 594-yillar) davrida afinalik har bir fuqaro sudda o'zini o'zi himoya qila bilishi zarurligi qonun orqali rasman qayd etilgan va huquqiy maromga aylangan. Shu bois ham kishilar notiqlik mahoratini egallashga harakat qilganlar. Bu davrda hatto notiqlik bilan shug'ullanuvchi maxsus kishilar – logograflar (nutq matnini yozuvchilar) toifasi yuzaga kelgan. Ular sud qilinuvchilarga nutq matnlarini yozib berish bilan shug'ullanganlar. Sudlanuvchilar sudda o'zini himoya qilish uchun mohir notiqlarni yollash imkoniga ham ega bo'lganlar.

Marosim (yoki madh) notiqligi ham vujudga kelgan. Xullas, notiqlik san'ati nihoyatda qadrlangan. Bu san'atni o'qitish va o'rgatish uchun maxsus maktablar ish olib borgan, mohir voizlar nutq so'zlash malakasini o'rgatganlar. Mana shu asosda ritorika deb atalmish notiqlik san'ati nazariyasi yaratilgan.

Notiqlik san'ati ilmi yaratilishida antik davrning mashhur notiqlarining tajribalari, mahoratlari muhim ahamiyat kasb etgan. Eramizdan oldin V-VI asrlarda yashagan Perikl, Lisiy hamda Demosfen (384-322) kabi mashhur voizlar notiqlik amaliyotiga katta hissa qo'shganlar. Chunonchi, Lisiy usta sud notig'i va logograf bo'lgan va sudlanuvchilarga nutq matnini yozib bergan.

Lisiy fikrni o'zi istagan shakl va uslubga solishni juda yaxshi bilgan. Bunda u nutq egasining tabiati, ijtimoiy mavqeiga mos, fikrlar tarziga monand nutq matnini osonlik bilan yarata olgan. Bu nutq ayni o'sha kishining o'zigagina xos takrorlanmas uslubga egaligiga alohida e'tibor bergan. Manbalarning xabar berishicha, sudlanuvchilardan biri u yozib bergan matndan minnatdor bo'ladi. Lekin ko'p o'tmay, u Lisiyga nutqni

qayta-qayta o'qigan sari o'ziga yoqmay qolayotganligidan noliydi. Shunday Lisiy "Sud sening so'zingni bir marta eshitadi" deb javob beradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa, ayni bir nutqni ikkinchi bir takrorlash fazilat sanalmaydi, takrorlash nutq kuchini, ta'sirchanligini yo'qqa chiqardi.

Notiqlik mahorati uzoq vaqt og'ir mehnat va amaliy tajribani taqozo etadi. Demosfenning dastlab ovozi past va yoqimsiz bo'lgan, so'zlaganda yelkalari asabiy titrab turgan. Bu qusurlarni yo'qotish uchun dengiz bo'yiga borib og'ziga mayda toshlarni solib o'zicha nutq so'zlagan, to'lqinlar ovozidan balandroq so'zlashni mashq qilgan. Asabiy titrog'idan qutilish uchun tepaga osilgan va yelkasiga tegib-tegmay turgan qilich ostida nutq so'zlagan: qilichning uchi tegib yelkasini yaralamasligi uchun titramaslikka harakat qilgan. Bunday tinimsiz va og'ir mashhur tufayli yetuk va usta notiqqa aylangan tadqiqotchilardan biri Demosfen mahoratini shunday tavsiflaydi: "Demosfen nutqlari bir vaqtning o'zida ham dabdabali, ham sodda, ham favqulodda, ham oddiy, ham shirin, ham achchiq, ham jiddiy, ham bebosh, ham quvnoq, ham vazmin".

Aristotelning fikricha, notiqlik san'ati ilmiy-ritorikaning asoschilaridan biri Epidokl va uning shogirdi Korakslar bo'lgan.

Aristotelning o'zi ham mohir notiq va zo'r nazariyotchi bo'lgan, "Ritorik" (335 y.) nomli asarini yaratgan.

Bu muhim asar 3 qismdan iborat:

1. Nutq uchun xizmat qiluvchi asosiy tamoyillar tahlili.
2. Notiq uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilat va qobiliyat.
3. Notiq nutqida qo'llanadigan nutq unsurlari va usullari.

Aristotel notiq uslubining aniqligi, maqsadga muvofiqligi, mavzu va material tanlash va ularni joylashtirish hamda aniq va to'g'ri ifodalash, ta'sirli talaffuz etishga alohida ahamiyat bergan.

Rimlik mashhur notiq va notiqlik nazariyotchisi Mark Tulliy Sitseronning xizmatlari buyuk. Unda amaliyotchilik va nazariyotchilik xislati ajoyib tarzda omuxta bo'lgan.

Uning fikricha, nutqning ustunligi quyidagilarga bog'liq:

- 1) notiqning o'z fikriga ishonchi qat'iy va mustahkam bo'lmog'i;
- 2) ishonchli dalilu da'volarga ega bo'lishi, isbotlanganligi;
- 3) material to'g'ri tanlangan, saralanganligi;
- 4) nutqning qurilishi uni anglash va idrok etishga yengillik yarata olish;
- 5) notiq o'z nutqi qaratilgan sohani, mavzuga daxldor bilimlarni yaxshi bilishi.

Sitseron notqlik nutqi kompozitsiyasini quyidagicha belgilagan va shunga amal qilgan

1. Kirish.
2. Mavzuning mohiyatini bayon etish.
3. Rejaning keyingi qismlarini bayon qilish.
4. Dalil va isbotlar.
5. Asosiy mazmuni, maqsadni ta'kidlash.
6. Yakun yasash (xulosa).

Sitseron notqlikda "Sitseron davri"ni yaratgan. Uning Katilinaga qarshi so'zlagan 4 ta nutqi hozir ham yuqori baholanadi. Sitseronning notqlik san'ati va tarixiga oid 3ta asari ma'lum. Bular: "Notiq haqida", "Notiq" va "Brut" (yoki "Taniqli notiqalar haqida").

Rim notqlik san'atining mohir ustalari va buyuk nazariyotchilaridan biri Kvintiliandir (35-96).

Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida" degan asari bor. U Sitseron fikrlariga qo'shilgan holda notiq, eng avvalo, bilimdon bo'lishini hamda axloqan olijanob bo'lishini talab qilgan. Kvintilian notqlik maktabining asoschisi hisoblanadi. U uydagi notqlik tarbiyasi, maktabda notqlik bilimini o'qitish va o'rgatish haqida muhim fikrlarni ilgari surgan. U "Shunday gapirki, seni har bir kishi tushunsin", degan va shu tamoyilga rioya qilgan yirik notiq va nazariyotchidir.

## 17-§. MUMTOZ NOTIQLIK SAN'ATI

Voizlik san'ati (va'z arabcha-targ'ib, voiz – targ'ibotchi) – jamoaning hissiyot va tushunchasiga ta'sir etish usuli. Notiqlik san'ati musulmon Sharqida Voizlik san'ati deb yuritilgan. "Qomusi usmoniy" nomli lug'atda va'z "kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasixatdir" deyilgan.

Qadimda podshohlar el oldida davlat tuzumi, xalqaro axvol, diniy qoidalar haqida juma kunlari, xayit bayramlarda nutq so'zlaganlar. Milodning IX asriga kelib bu ishni maxsus so'z ustalariga topshirganlar va ularni voizlar deb ataganlar. Voizlik san'ati jahon madaniyati xazinasida Baxouddin Valad - XII asr, Jaloliddin Rumiy - XIII asr, Xusayn Koshifiy - XV asr, Muin Voiz Xaraviy - XV asr so'z ustalari yetishdi.

U paytlarda davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan baravar darajada ulug'langan. Shu ikki san'atni mukammal egallagan arboblarga yuqori lavozimlarga saylangan.

Alisher Navoiy notiqlik san'atini yuksak darajaga ko'taribgina qolmay, nutq madaniyati nazariyasi bilan ham jiddiy shug'ullangan. U "Mahbub ul-qulub" asarining 24-bobini voizlikka bag'ishlagan.

O'rta Osiyo notiqligining o'ziga xos xususiyatlari, eng avvalo o'sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi.

Notiqlik – nutqning og'zaki shakli. Notiqlik san'ati – og'zaki nutq san'ati hisoblanadi.

Voizlar har bir so'z va ma'noning ta'sirchanligini ta'minlash, nutq matnlari tinglovchilarning bilimi, ijtimoiy mavqelarga bo'lingan (yuqori tabaqa uchun, mehnatkashlar uchun. Jangovor nutqlar).

### *Notiqlik san'ati pog'onalari*

Notiq nutqini ta'sirchanli o'qishi uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish muhim. Omma tushuna oladigan tilda gapirish, ularni ishontira olish notiqlar oldiga quyiladigan asosiy shartlardan hisoblanadi. Buning uchun mavzuni yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq belgilangan rejasi bo'lishi kerak. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o'zaro bog'lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tanishtirib, gapni boshlash lozim. Vaqtni hisobga olish notiq mahoratidir.

Nutq aniq, ravon, grammatik jihatdan tog'ri tuzilgan, adabiy talaffuz qoidalariga bo'ysunishi lozim. Ana shunday nutq tinglovchi qalbiga borib yetadi. Buning uchun muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

### *O‘z – o‘zini boshqarish*

1. O‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish.

2. O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, fikrlarni ilmiy asoslash.

3. Mavzuga mas‘uliyat bilan yondashish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish.

4. Ma‘ruzalar. Ommaviy chiqishlar paytida tinglovchilar bilan nihoyatda yaqin aloqa, muloqotni ta‘minlash.

5. Har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan ma‘ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash ketma-ketligini yaxshi bilish, reja-konspektlar tuzish va h.k.

**Nutq texnikasi** – nutq madaniyati fanining bir bo‘limi. Nutq so‘zlayotganda tushunarsiz, har bir so‘zni boshi va oxiridagi tovushni “yutib yuborish”, ba‘zan alohida so‘zlarni qo‘shib, noaniq birikmaga aylantirib talaffuz qilish tinglovchi uchun nihoyatda yoqimsiz holatdir.

Nutqning aniq, toza, lo‘nda va yoqimli bo‘lishida lab, til, tish, tanglay, kichik tilcha, bo‘g‘iz va boshqa nutq a‘zolari o‘z o‘rnida, to‘g‘ri ishlatilishi lozim. Agar nutq a‘zolaridan birortasi yaxshi ishlamasa shifokorga murojaat qilish lozim bo‘ladi. Ammo kishi biror tovush yoki so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilishga odatlanib qolgan bo‘lsa, bu illatni yo‘qotish yo‘li faqat bitta, u ham bo‘lsa to‘g‘ri talaffuz mashqlaridir.

Nutq texnikasini egallash uchun, bordiyu talaffuz to‘g‘ri bo‘lsa ham doimiy ravishda mashq qilish lozim bo‘ladi. Bunday mashqlar nutqning aniq, ravon, yoqimli bo‘lishi bilan birga, uning yengil hamda erkin bo‘lishini ham ta‘minlaydi.

Nutq so‘zlovchining maqsadini tinglovchiga aniq yetkazishda tinish belgilarining ahamiyati juda katta. Yozuvdagi har bir tinish belgisining nutqda o‘z o‘rni bor. Bu ayniqsa matnni ovoz chiqarib o‘qish yoki so‘zlab berishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, gap oxiridagi nuqta – ovozni pasaytirishga ishora. Vergul – gaplar orasiga qo‘yilib, vazifasiga ko‘ra turli ohang talab qiladi.

Nuqta vergul – matnda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan o‘rinlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

So‘roq belgisi – odatda javob talab qiluvchi ohangni belgilaydi, biroq hamma vaqt ham javob talab qilmay, alohida hissiyot bilan so‘zlangan nutqlarga xos bo‘lib, ritorik savol deyiladi. Bunday savol javob talab qilmaydi.

Undov belgisi – nutqda his-tuyg‘uni ifodalab, birmuncha baland va tugallangan ohangni talab qiladi.

Ko‘p nuqta – nutqda tugallanmaganlik ohangini talab qiladi. Bunda notiq gap oxiriga qadar ovozi pasaytirib borib, uzun va ma‘noli to‘xtam (pauza) qilib olishi va yana nutqini davom ettirilishi lozim bo‘ladi. Shuningdek, nutq so‘zlayotganda o‘ta hayajonlanish yoki so‘z boyligining kamligi ham o‘rinsiz to‘xtab qolishga sabab bo‘lishi mumkin.

**143-topshiriq.** Matnni ifodali o‘qing, nutq texnikasiga e‘tibor bering.

Mutolaa inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Kitob o‘qimagan talaba darslarni tushunmaydi, quruq yodlashga moyil bo‘ladi, o‘zi o‘qigan bilim va fan xulosalarini muhokama etmaydi, natijada talabaning zexni o‘tmaslashadi, sarg‘ayadi, “eslab qoladigan jonli asbobga” aylanadi. Bu juda xavflidir. Bu yo‘l kishining aqlini ham, aqliy faoliyatini ham, tabiiy iste‘dodini ham zaiflashtiradi. Bu xavfdan qochish kerak, o‘tdan qanday qo‘rqsak, bu badnom kasallikdan ham shunday qochish kerak. Aks holda kishining xotirasi ham “teshik” kulchaga aylanadi. Ijod yo‘q bo‘la boshlaydi. Shunda “shpargalka” o‘rtaga tushadi. Donolar aytishgan ekan:

Har kimki qo‘lidan tushmadi kitob,  
Ilm osmonida u bo‘ladi oftob.

*N. Ganjaviy*

**144-topshiriq.** Matnni o‘qing, mazmunini so‘zlab bering. Qaysi nutq uslubiga kirishini ayting.

Xalqni biror g‘oyaga sajda qildirish mumkin, mabodo u yurakdan o‘rin olmasa, o‘ziga tortmasa, odamlar yuz, hatto ming yildan keyin ham undan yuz o‘giradilar. Tilni ham ana shunday zo‘ravonlikdan holi jabhalardan, deb bilaman. Ichki qonuniyat degan tushuncha bor, balki uni kashf etish oson emasdir, uni faqat qabul qilish kerakdir. Tildagi ichki qonuniyat esa o‘ta nozik va sirli. Biz arab tilini bilmaymiz, biroq Qur‘oni Karim oyatlarini tinglaganda, karaxt bo‘lib qolamiz, borlig‘imiz sel bo‘lib oqadi. Balki Ollohdan nozil bo‘lgan kitob suralarini tashkil qiluvchi so‘zlardagi tovushlar shunday joylashtirilgandirki, talaffuz qilinganda, paydo bo‘lgan ohang ilohiy bir musiqaga aylanib, qalbimizni sado berar va bizni sehrlar.

Ona tilimizda ham paydo bo‘layotgan har bir so‘zda ana shunday jozibaning, hech bo‘lmaganda, o‘ndan biri jamlanishi kerak.

**145-topshiriq.** Matnni ifodali, ta‘sirchan tarzda o‘qing. O‘z munosabatingizni yozma ravishda bildiring.

## **Kulish madaniyati**

*Kulgi inson kayfiyatini chog'laydigan, huzur bag'ishlaydigan holatdir.*

*Samimiy va soxta kulgilar bor. Samimiy kulgida inson yurakdan zavqlanadi, butun vujudi rohatlanadi. Soxta kulgida esa sun'iylik sezilib turadi, qalbdan chiqmagan kulgi zamirida xasad, g'araz yashirindir.*

*Kulgi chiroyli, me'yorida bo'lishi kerak. Og'izni katta ochib, beo'xshov kulish odobdan emas. Alisher Navoiy bobomiz kulgi me'yorini tabiatdagi barcha go'zalliklarga o'xshatgan edilar:*

*"Kulgi o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Gul g'unchasi kulgani uchun uni shamol uchirib ketadi. Chaqmoq esa kula-kula pastlashadi. Odobli odam kulish uchun og'iz ochmaydi".*

*Xalqimiz orasida o'zining zukkoligi, bilimdonligi, aqlu farosati bilan mashhur bo'lgan Xo'ja Nasriddin Afandi insonlarga ming bir kulgini hadya etgan.*

**146-topshiriq.** Gapلامي ritorik so'roq gaplarga aylantiring.

Masalan: Kitobsiz umrni umr desa bo'ladimi? Ilmni mashaqqatsiz egallab bo'ladimi?

*1. Siz xali o'zingizni odam sanaysiz – a! (A.O.) 2. Bu yorug' olamga borsang, aslida, Oliy baxt sanalur o'lmayin yurmoq (A.O.). 3. Ilmu kamolot hamisha fazilatdir. 4. Kunlar horiydi – horimas kuchli inson (T.F.). 5. Insoniyat sahiylikni, sadoqatni, bag'ri kenglikni, yaratuvchanlikni bahordan olsin. 6. Har holda taqdirning bunchalik o'yinlari turgan bir zamonda biz hech nima qila olmas edik (A.Kod.). 7. Harom yo'l bilan topilgan molu dunyo oxiri senga halokat keltiradi (R. Tagor). 8. Halollik Islomda eng oliy matlab (A.O.).*

**147-topshiriq.** Berilgan gapلامي oddiy darak gaplarga aylantiring.

*1. Haqiqatan, ko'zdan o'ta nozik, haddan tashqari omonat bo'lgan a'zo bo'ladimi? 2. Omon va Bekjonlarga ajoyib kitoblar sotib olganimni bilsang edi (O.). 3. Kurashadi ikki to'lqin – qarab turaymi? (O.) 4. Nahot otasidan bo'lsa azizroq, qaysidir tog'dagi qandaydir toshlar! (E.V.)*

**148-topshiriq.** Ko'chiring. Tinish belgilarining ishlatilishi sabablarini ayting. Gapning ma'nosini, tuzilishi va turini ayting.

*1. Axtarganim – bir so'z, rostlik degan so'z, bu so'zga baxshida umrimning bori. 2. Ilmsiz dunyo – qorong'u zindon. 3. Yolg'onchi payg'ambarimizga ham, bizga ham ummat bo'lolmaydi: hech kim uning so'ziga ishonmay qo'yadi va yolg'onchi xoru zor bo'lib, bu dunyodan o'tadi. 4. Ilm, Navoiy, senga maqsud bil, endikim ilm o'ldi – amal aylagil.*



5. Olamdan o'tganni tuproq ostiga – tuproqning ustiga so'zni qo'ydilar. Quyoshdan uyalib, oydan uyalib, yalang'och yuraklar so'zni kiydilar.

**149-topshiriq.** Berilgan so'zlarga kesim topib va ular ishtirokida gap tuzing.

*Alisher Navoiy, til, yoshligim, xayol, tajriba, Oybek, baxt, mehnat, sihat-salomatlik, atirgul, nihol, chinor, gulzor, ona – tabiat.*

**Yodda tuting:**

### **Notiq obrazi**

*Notiq xushmuomalali va ziyrak bo'lish kerak, gapirganda tinglovchilarni ko'ziga qarab turish darkor, oyoqlarni chalishtirmasdan, kuchli imo-ishora qilmay, ruchka, markerni o'ynatmay, qog'oz bilan yelpinmay, qo'lni orqada ushlamay, stol, minbarga tayanmay doimo nutqni kulib turgan holda boshlab va tugatish lozim, biroq ortiqcha harakat qilmasdan.*

**150-topshiriq.** Ocherkdan keltirilgan parchani ifodali o'qing.

### **Qalbning oppoq daftari**

*...Esimda, o'shanda yosh bola edim. Biroq aniq yodimda bor: elliginchi yillarda g'alati qoida bor edi. Birovning qiziga o'qituvchidan sovchi kelsa, ota-onasi deyarli ikkilanmasdan rozi bo'lar edi. Hozir o'qituvchidan qiziga sovchi kelsa, ensasi qotadigan ota-onalar oz emas. Lekin, aytaylik, baza mudiridan sovchi kelsa, deyarli ikkilanishmaydi. Ilgarilari davraning eng to'rida o'qituvchi o'tirardi. Hozir... Bilmadim, har qalay hamma davraning to'rida ham o'qituvchi o'tiravermaydi. Yaqinda "boyvachcha" yigitlar davrasiga kirib qoldim. Xo'p zamonaviy kiyingan, ko'rinishidan ziyolinamo, tilla tish qo'ygan yigit g'alati latifa aytib berdi.*

*Bir odamning bolasi o'lgudek sho'x ekan. Buning ustiga nuqul "ikki" olarkan. Biroq dadasi badavlat kishi ekan. Bir kuni o'qituvchi uning uyiga hasrat qilib kelibdi. Shundoq, shundoq bolangizni xulqi yomon, o'qishning mazasi yo'q, bu ketishida odam bo'lishi qiyin, debdi. Otasi o'ylab o'tirmasdan qo'l siltabdi. Baribir uyda ham bekor yuradida, maktabga qatnab tursin, juda bo'lmasa, ma'lim-pa'lim bo'lar, debdi. Davradagilar xaxolab kulishdi. Men zil ketib o'tirardim. Ehtimol, bu shunchaki xushchaqchaq latifadir. Lekin uning tagida juda mudhish ma'no bor. Nahotki, o'qituvchi degan kasbning qadri shunchalik pasayib ketgan bo'lsa?! Buning uchun kim aybdor, nima aybdor? Axir bundan 20-30 yil*

ilgari biz maktabda o'qiganimizda o'qituvchiga faqat bolalarning emas, ota-onalarning ehtiromi ham g'oyat kuchli edi-ku...

**O'tkir Hoshimov**

**151-topshiriq.** Adabiy o'qish.

### **GIRDOB**

(roman)

Ikki kundan beri Muhiddin Jabborovichning yegani ham, ichgani ham tatimaydi. U, shundoq ko'z o'ngida, shundoq yonginasida aql bovar qilmas kashfiyot vujudga kelganini sira hazm qilolmasdi...

... Muhiddin Jabborovich oxiri o'sha qog'ozni – tagi notekis yirtilgan kichkinagina katak varaqni topdi: “Har qanday ilmiy mehnat, har qanday kashfiyot, har qanday ixtiro umum, ko'pchilikning mehnatidir. U – bir qismi zamondoshlarning kooperatsiyasi, bir qismi o'tgan davrlarda yashaganlarning mehnatidan foydalanish natijasida bunyodga keladi, - Karl Marks”.

Domla shosha-pisha qog'ozning orqa-o'ngini ag'darib qaradi, biroq, afsuski, aniq manbasi yozilmagan ekan. U o'zini koyidi. Umr bo'yi shu, ba'zan ta'biga yoqib ketgan zo'r fikrlarni ko'chirib oladi-yu, qayerdan, qaysi kitob, qaysi betdan olinganini yozishni esa unutib, keyin qancha ovora bo'lib yuradi...

...bu yerda hech qanday kashfiyotning o'zi yo'g'-a! O'sha men bundan qirq yil avval boshlagan ishning davomi, xolos! Farqi faqat shuki, men madaniy navlarni chatishtirdim (paxta urug'chiligi, g'o'za navlari haqida gap yuritilyapti) Qosimov Aziz bo'lsa, tavakkal qilib, bir taraf urug'likka erkaklab ketgan navni qo'yib tekshirdi. Nima bo'пти?! Ali-Xo'ja, xo'ja-Ali!..

Muhiddin Jabborovich shu fikrlarni yuritarkan, o'z vijdoni oldida qiynalar, bu darajada insofsizlik, birovning tayyor oshiga bu darajada chang solish odamgarchilikka isnodligini o'ziga-o'zi uqtirar...ammo bari bir ko'nglida o'sha xufyona niyati tobora kuchayib borardi...ya'ni bu ishonch – shu institut dargohida nimaiki yaratilgan, nimaiki kashf etilgan bo'lsa, hammasi deyarli uning panohida amalga oshirilgan, buni kattadan-kichikning bari biladi, tan oladi, degan ishonch edi.

**O'ktam Usmonov**

## 18-§. NUTQNING MAQSADLI VAZIFALARI

Odam nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab oladi. Inson nutqi rang-barang. Do'stlarning suhbatlari ham, so'zlayotgan kishining chaqirishi ham, san'atkorning sahnadagi monologlari ham, o'quvchining sinfdagi javobi ham nutqning bir ko'rinishidir. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo'ladi. U ba'zan istak-tilak, ba'zan chaqiriq-murojaat, ba'zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. **Nutq ichki va tashqi ko'rinishlarga ega.** Ichki nutq odamning o'z ichida gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Bayon qilinadigan fikrni o'z aqliy faoliyat jarayonidan o'tkazish, uni fikran bir joyga to'plash ichki nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil ishlarning hammasi ichki nutq holatida boshlanib, keyin tashqi nutq shaklida namoyon bo'ladi.

Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. Og'zaki nutqda ko'proq sodda gaplar qo'llaniladi: o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, mantiqiy urg'udan foydalanib, ma'lum bir so'zni alohida ta'kidlashi, nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og'zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir yoki necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monologik, dialogik shaklda namoyon bo'ladi. Yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro'yobga chiqadi. Yozma nutq ham og'zaki nutq singari monologik va dialogik shakllarda bo'lishi mumkin. Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o'qilganni qayta so'zlab berish, o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon bo'ladi.

Dialogik nutq esa ikki va undan ortiq kishi o'rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo bu nutq keng jummalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda ko'p bo'ladi. Bunday nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar ko'pincha o'zining qisqaligi bilan

ajralib turadi. Og'zaki dialogik nutqda so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham ishga solinadi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng xarakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroq til tushunchasiga qarama-qarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya'ni gapirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan artikuzida yuzaga chiqadi.

Asl nutq ("tashqi nutq") bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so'zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida, tovush yoki yozuv qo'llanmagan holda faqat ovozli nutqdagi so'zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan aksiy jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so'zlarning o'ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og'zaki nutq uchun xos bo'lgan ohang, mimika va qo'l harakatlarining bevosita qo'llana olmasligi bilan farqlanadi. Nutqning monologik va dialogik turlari mavjud.

Nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko'rinishi o'qishdir.

Har bir kishining nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi; vaholanki, asosiy til unsurlari – lug'at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo'lmay, umumnikidir, ya'ni muayyan til jamoasiga umuman taalluqli bo'ladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavhumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o'y xayollari, hissiyoti, irodasi va b.ning namoyon bo'lishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega.

Nutq qo'llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo'ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, ta'sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo'lib qolishi kerak.

Har qanday nutqiy chiqishdan avval notiq qanday maqsadda nutq so'zlamochi ekanligini juda puxta o'ylab olmog'i lozim. Maqsadi aniq bo'lgach, notiq material tanlaydi.

Ommaviy ma'ruza, hisobot ma'ruzalari kabi nutqlarda tinglovchilarga qandaydir muhim xabarni, ma'lumotni yetkazish maqsad qilib qo'yiladi. Ijtimoiy-siyosiy nutqlar asosan tashviqot qiluvchi xarakter kasb etadi. Barcha nutqiy chiqishlarni shartli ravisda: qiziqtiruvchi, xabar beruvchi, targ'ibot-tashviqot qiluvchi nutq turlariga bo'lish mumkin. Ularning har biri o'ziga xos xarakterga ega.

### ***Xabar beruvchi nutq***

Xabar beruvchi nutqning vazifasi faqat qiziqish uyg'otish bo'lib qolmay, biron kimsa yoki biron narsa haqida tasavvur hosil qilishdir. Xabar beruvchi nutq yangi ma'lumotlarga tinglovchilarning diqqatini jalb etishi kerak.

So'zlovchi tinglovchilarni qiziqish uyg'otuvchi aniq narsalarni gapirishi ko'zda tutiladi. Masalan, moliyaviy hisobot, statistik ma'lumot, marketing tadqiqotlari, auditorlik tekshiruvi natijalari va boshqalar.

Xabar beruvchi nutq darak beruvchi (hikoya qiluvchi), tasvirlovchi va tushuntiruvchi kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Darak beruvchi nutq-hikoya, tarix, siyosiy iqtisodiy, madaniy yangiliklar to'g'risida axborot beradi.

Tasvirlovchi nutq sharoitni tushuntirish. So'z kompaniyada kadrlar, raqobat, yangi loyihalar masalasi qanday hal etilayotgani haqida borishi mumkin.

Tushuntiruvchi nutq axborot asosi davomiyligini ta'minlashdir.

Xabar beruvchi nutq quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- unda hech qanday munozarali masala bo'lmasligi kerak;
- ma'lumot dolzarb (muhim)masalalarga bag'ishlangan axborot qiziqish uyg'otishi kerak.

### **Xabar beruvchi nutq shakllarida ishlatiladigan konstruksiyalar:**

<b>Taxmin</b>	Aytaylik Tasavvur qilaylik Bizningcha
<b>Tasdiqlash</b>	Albatta Hamma biladiki, Tabiiyki, ...bundan chiqdi... Ko'rinib turibdiki

<b>Inkor</b>	Shunday bo'lsa ham... ...-deb oylash xato bo'ladi ... shubha uyg'otadi ... deb ishontirish to'g'ri bo'lmaydi Biz...ligiga shubha bilan qaraymiz ...munozarali masala ko'rinadi Bu ma'lumot u fikrni inkor etadi
<b>Asoslash</b>	Agar bunday bo'lmasa, u holda Natijalar shuni ko'rsatdiki,... ... deb tasdiqlash mumkin emas Biz ... ga tayangan holda... Nuqtai nazarlarni hisobga olib,...
<b>Argumenlash</b>	Qilingan harakat(eksperiment) natijasida... Materiallar tahlili ko'satdiki, Tajriba shuni ko'rsatdiki,...
<b>Baholash</b>	(Ko'rilgan, qilingan, aytilgan) ishlarni nizomlar bo'yicha ... Bu holat ....zid keladi Aslida.... Yuqorida aytilgan fikrlarga ko'ra,u ...
<b>Xulosa</b>	Xulosa shuki, Isbot qilindiki,... Shunday qilib, Demak,.... Xususan,... Shak-shubhasiz, ...

### ***Qiziqtiruvchi nutq***

Uning asosiy maqsadi tinglovchilarni qiziqtirish, ularning ko'ngillarini shod qilishdan iborat bo'ladi. Notiq bunday nutqda biror yangilikni juda qiziqarli tarzda tinglovchiga yetkazadi. Bunday nutq ayniqsa yaqin do'stlar davrasida yoki dam olish maskanlariga qo'l keladi.

Qiziqtiruvchi nutqda ko'proq hazil-mutoyiba, yumor ishlatiladi, ammo hamma joyda ham bu usul ishlatilavermaydi.

Tinglovchilarga huzur bag'ishlash, ularni qiziqtirish uchun biror qiziqarli voqea, o'zingiz boshingizdan o'tkazgan sarguzasht yoki sayohat tafsilotlarini juda san'atkorona yetkazish mumkin.

Qiziqtiruvchi nutq bir-biriga bog'langan, bir-birini tasdiqlovchi xabarlardan iborat bo'lishi shart emas.

Qiziqtiruvchi nutq hazil-mutoyibani ham, jiddiylikni ham, haqiqat va to'qimani ham, o'rtoqlik hazili-yu, mubolag'ani ham o'zida aks ettirishi mumkin. Eng muhimi bunday nutqda kishi ko'ngliga ozor yetkazuvchi so'z, ohang mutlaqo bo'lishi mumkin mumkin emas.

Agar siz aytib berayotgan voqea yoki hazil-mutoyiba kimnidir hafa qilib qo'yishi mumkin bo'lsa, uni aytmay qo'ya qolgan ma'qul. Chunki

atrofda o'ta jiddiy, hazilni tushunmaydigan insonlar bo'lishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Hazil qilganda:

- birovning shaxsiy hayotiga til tekkizmaslik;
- kishini noqulay ahvolga qo'yimaslik;
- milliy qadriyatlarni yerga urmaslik;
- insonni nimanidir tushunib yetmasligidan kulmaslik;
- o'z hazilidan birinchi bo'lib kulmaslik;
- ezma bo'lmaslik.

**152-topshiriq.** Quyidagi matnni do'stingiz diqqatini jiddiy muammolardan chalg'itish maqsadida unga aytib bering.

*Bir yevropalik Afrikaga borib, u yerda bir habashga duch kelibdi.*

- *Siz nima uchun kiyim kiyaysiz? – debdi hayron holda yevropalik.*
- *Siz yuzingizga qanday kiyim kiyasiz? – deb javob beribdi habash*
- *Yuzga kiyim kiyilmaydi, – debdi yevropalik.*
- *Mening hammayog'im yuz, – deya javob beribdi habash.*

**153-topshiriq.** Quyidagi matnni o'qing, unga savollar tuzing va sarlavha qo'ying.

*Sulaymon podshoning odilligi haqidagi maqtovlar ko'pchilikka ma'lum. Kunlardan birida uning huzuriga ikki ayolni keltirishibdi. Ulardan biri: "Biz ikkimiz bir uyda yashaymiz. Men og'il ko'rdim. Uch kundan keyin u ham o'g'il ko'rdi. Uning o'g'li nobud bo'ldi. U esa bolalarni almashtirib qo'yibdi. Ertalab bolani emizmoqchi bo'lib qaragam, u o'lgan. U bola mening o'g'lim emas. Ikkinchi ayol esa buni rad etardi. Shunda Sulaymon shoh: "Mana bu qilichni olingda bolani ikkiga bo'lib oling"-debdi. Shunda dahshatdan baqirib: "yo'q-yo'q bolani unga bering, faqat tirik bo'lsa bo'lgani", – debdi ayollardan biri. Buni eshitgan Sulaymon: "Bolani mana shu baqirgan ayolga bering, uning onasi – shu", – debdi.*

**154-topshiriq.** Quyidagi mavzularda qiziqarli matnlar tuzing:

1. *Aqli bo'lish uchun besh maslahat.*
2. *Imtihonni muammosiz topshirish yoli.*
3. *Qanday qilib ko'pchikning e'tiborini qozonish mumkin?*
4. *Qanday qilib boyish mumkin?*

*Berilgan konstruksiyalarni to'ldiring.*

*...lar bilan birinchi marta tanishdim.*

*...lardan birinchi marotaba xabar topyapman.*

*...Bunday ma'lumotlarga birinchi bor duch kelishim.*

*...meni juda hayron qoldirdi.*

...bo'lishini men hech o'ylamagandim.

Men o'ylar edimki,...

...kabi maslahatlarda muallifning fikrlariga qo'shilaman.

...kabilar meni juda qiziqtirib qo'ydi.

**155-topshiriq.** Biror tarixiy shaxs haqida savol bilan boshlanuvchi qiziqarli nutq tuzing.

### **Tashviqot-targ'ibot qiluvchi (agitatsion) nutq**

Bu nutqning asosiy vazifasi tinglovchilarga ta'sir etishdir. Bunday nutq tinglovchini ishontirib, ergashtirib, aytilayotganlarga amal qilashga tayyor holatga keltira olishi shart.

<b>Maqsadi</b>	<b>Misollar</b>
<b>Harakatga chaqiriq</b>	Hammasi qo'lingizda Har hafta yuzlab mollar va xizmatlarga talab va taklif.... "Darakchi" gazetasini sotib oling!!!
	Siz 1000 so'mga avtomobilga ega bo'lasiz! Lotoreya sotib oling
	.... ga ovoz bering! Shunda Siz xato qilmaysiz
<b>Suhbatdoshning fikrini o'zgartirish</b>	-Sen italyan tilini or'ganmoqchimisiz? -Ha -Meni senga maslahatim, yaxshilab oylab ko'r, kelgusida xitoy tili butun jahonga tarqaladi

Shartli ravishda targ'ibot-tashviqot nutqlarini uch guruhga bo'lish mumkin: ishontiruvchi, rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi (uyg'otuvchi) nutqlar.

**Rag'batlantiruvchi nutq** o'ta qaltis vaziyatlarda qo'llaniladi. U kishilar hissiyotiga ta'sir qilib, ularni yaxshi ishlarga chorlaydi. Masalan: "Vatan qahramonlari", "Men va xalqim", "Otalarimiz an'anasi", "Milliy udumlarimiz" kabi.

**Ishontiruvchi nutq** mantiqiy asosga ega bo'lgan dalillarga tayangan holda o'z qarashlarini bayon qiladi. Bunday chiqishdan avval notiq ko'tarilayotgan masala haqiqatdan ham bahsli ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bunda nutq savol tarzida ham bo'lishi mumkin. "Nazorat ishlari test shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqmi?", "Zamonaviy televideniye inson ma'naviy qiyofasini boyitadimi?" kabi.

Notiq tomonidan qo'yilgan muammo albatta yechimini topishi shart.



**Yo'naltiruvchi nutq** tinglovchilarni aniq bir faoliyatga chorlashni maqsad qiladi. Tinglovchilarga notiq shunday ta'sir o'tkazadiki, natijada ular notiqning aytayotganlarini darhol bajarishga ehtiyoj sezadilar.

Yo'naltiruvchi nutq mantiqiy va ruhiy asosga ega bo'lib, tinglovchilarda yaxshi kayfiyat uyg'otadi va ularni ergashtira oladi. Uning mumtoz shakli reklama hisoblanadi.

**156-topshiriq.** Quyidagi nutqlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring. Ular qaysi nutq turiga mansub? Shunga o'xshash misollar ayting.

1. *O'lmas shifokor oshqozon-ichak kasalliklarini, o't pufagi va boshqa a'zolari faqat tabiiy giyohlar yordamida davolaydi.*

2. - *Men fransuz tilini o'rganishga qaror qildim.*
- *Nima uchun aynan fransuz tilini?*
- *Chunki u juda go'zal til.*
- *Menimcha sen ingliz tilini o'rganganing ma'qul.*
- *O'ylab ko'raman.*

*Hech narsani o'ylab ko'rishning hojati yo'q. Ingliz tili dunyoda eng ko'p tarqalgan tillardan biridir. Unda Amerika, Yevropa davlatlari, Hindiston va boshqa ko'pgina mamlakatlar gaplashadi. Ingliz tilini bilsang-senga teng keladigani bo'lmaydi! Shunday ekan, ingliz tilini o'rgan!-*

- *Nima ham derdim, ingliz tilini o'rganishni boshlayman.*

3. *Janob tadbirkorlar!*

*Hayotda shunday ham qiyinchiliklar ko'p, ularni yanada ko'paytirib nima qilasiz...*

*Bilib qo'ying, "Orzu" brokerlik firmasi Siz uchun faqat Siz uchun kecha-yu kunduz ishlaydi.*

4. *Agar Siz pul topishni istasangiz - bu sizning muammoingiz...*

*Agar Siz pul topishni istasangiz - bu siz bilan bizning muammomiz.*

*"Umid" mahsulot birjasi sizning xizmatizda!*

**157-topshiriq.** Matnni o'qing. Bu mavzu yuzasidan fikringizni bildiring. Yana qanday reklamalarni bilasiz!

*Reklama... Bundan 10-15 yillar muqaddam biror film tomosha qilayotganda birdaniga ekranda reklama paydo bo'lishiga ishonish qiyin edi. Hozir esa uning nima ekanligini hatto uch yashar go'dak ham tushunadi. Biz qayerga bormaylik, uyda televizor qarshisidami, radio tinglayotgandami, o'qish yoki ishdan kelayotgandami, bundan qat'iy nazar mahsulot yoki biror xizmat turini targ'ibot qiluvchi reklamalarni*

*ko'ramiz yoki eshitamiz. Reklamalarni targ'ibot qiluvchi eng asosiy vosita albatta televideniya.*

*Televideniya reklamalari kimningdir asablarini qaqshatsa, kimdir film orasida berilgan reklama vaqtidan unumli foydalanib, oshxonadan biror yegulik yoki choy olib kelib, film ko'rishni davom ettirishi mumkin.*

*Televideniya reklamalarining kishi ongiga kuchli ta'sir etuvchi qudrati haqida bir o'ylab ko'raylik.*

*Masalan, yangi yil bayrami arafasida har bir ayol o'z ko'rinishi haqida bosh qotira boshlaydi, chunki har bir ayol yangi yil kechasida qirolichalardek bo'lishni orzu qiladi. Zamonaviy moda 90 x 60 x 90 o'lchamni go'zallik talabi qilib belgilagan. Har bir ayol go'zal bo'lishni xohlaydi.*

## 19-§. MATNNI SHAKLLANTIRISHDAGI ASOSIY TAMOYILLAR

**Matn** – (lotincha textum – mato, birikish) ohang va grammatik jihatdan bir-biriga bog‘langan, ma‘lum ketma-ketlikda tartib bilan joylashgan fikr ifodasidir. Boshqacha qilib aytganda matn nutqiy jarayonning ma‘lumot beruvchi mustaqil, tugal natijasidir.

Har qanday matn o‘ziga hos kompozitsion qurilishga ega bo‘lib, ma‘lum ma‘no va maqsadga qaratilgan bo‘ladi.

**Mavzu** – matnning nima haqida ekanligini anglatadi. Ko‘pincha mavzu matn sarlavhasida ifodalangan bo‘ladi. *Masalan:* “Tabiatni asrang!” yoki “Boburning iqtisodiy qarashlari” kabi.

**G‘oya** – (asosiy fikr) muallifning nima demoqchi ekanligi bilan bog‘liq bo‘lgan fikr ifodasidir. Har bir matn **asosiy** va **qo‘shimcha** ma‘lumotlardan tashkil topadi. Matndagi asosiy ma‘lumotlar eng muhim va kerakli dalil – isbotlarga asoslangan bo‘ladi. Qo‘shimcha ma‘lumotlar esa asosiy ma‘lumotlarni yo‘ldiruvchi dalil va isbotlardan tashkil topadi.

**Abzats** – (xat boshi) matndagi har bir yangi fikrning ifodalanishi uchun ma‘lum bo‘sh joy tashlab yoziladigan qismdir.

Har bir abzatsni shartli ravishda *mikromatn*, ya‘ni *kichik matn* deb atash mumkin.

**Reja** – matnda qanday muammo haqida fikr yuritilishiga qarab, ya‘ni muallif qaysi masalalar ustida to‘xtalmoqchi bo‘lsa, shu masalalarni rejalashtiradi. Masalan, “O‘zbekiston kecha va bugun” mavzusini quyidagi reja asosida yoritish mumkin:

1. O‘zbekiston sovet davrida.
2. O‘zbekiston mustaqillikka erishish arafasida.
3. O‘zbekiston – mustaqillik davrida.

Matnni yaxshi tushunish, undagi eng kerakli o‘rinlarni yodda saqlash maqsadida unga savollar tuziladi. Buning uchun matndagi eng asosiy va kerakli o‘rinlarga diqqat qaratiladi. Ular belgilab olinganidan so‘ng, ketma-ketlik asosida savollar tuziladi. Matn savollarga javob berish asosida tezroq va osonroq o‘zlashtiriladi.

**158-topshiriq.** Quyidagi savollarga berilgan javoblar matnini tahlil qiling:

### 1. Ilm deganiga nimani tushunasiz?

Ilm-inson faoliyati sohasi, borliq haqidagi obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tomondan sistemalashtirishdir.

### 2. Ilmiy maqola nima?

Ma'lum fan yo'nalishi bo'yicha alohida mavzuga bag'ishlangan adabiyot bo'lib uning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlari tushuntirish, ommalashtirish o'quvchining g'oyaviy-ilmiy saviyasini oshirishdan iborat.

### **3. Monografiya nima va u qanday ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi?**

Monografiya – muayyan mavzu yoki muammoni, biror olim yoki yozuvchi hayoti va faoliyatini atroflicha chuqur tadqiq etuvchi ilmiy asar.

### **4. Ilmiy daraja va ilmiy unvonlar haqida ma'lumot bering.**

Ilmiy daraja-fan nomzodi va fan doktori. Ilmiy unvon-dotsent, professor, katta ilmiy xodim.

### **5. Dissertatsiya ishi nima va u qanday ilmiy tadqiqot ishi hisoblanadi?**

Dissertatsiya – ilmiy daraja olish uchun taqdim etiladigan va ilmiy tadqiqotchi tomonidan oshkora himoya etiladigan ilmiy tadqiqot.

### **6. Tezis haqida ma'lumot bering.**

Tezis- 1. Ilmiy asar, maqola, doklad va boshqa shakllarning qisqa va lo'nda qilib yozilgan asosiy mazmuni. 2. Haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim bo'lgan hukm, mulohaza, fikr. 3. Idealistik falsafada har qanday taraqqiyot prosessining dastlabki bosqich stadiyasi.

Tezis-doklad, Ma'ruza, xabar va h.k.larni qisqacha ifodalangan qoidalar.

### **7. Referat haqida ta'limot bering.**

Referat o'tkazilgan ITI asosiy mazmunining ifodasi.

### **8. Annotatsiya haqida ma'lumot bering.**

Annotatsiya – maqolaning qisqacha mazmuni.

**159-topshiriq:** O'quv qo'llanma va darslik haqidagi savol-javoblarni tahlil qiling hamda sohangizga doir qo'llanma va darsliklarga o'z munosabatingizni bildiring.

### **1. O'quv qo'llanmaning xususiyatlari haqida ma'lumot bering?**

O'quv qo'llanma dasturni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan fan asoslari chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi ayrim bob va bo'linmalari keng yuritilgan yoki amaliy mashq yechimiga mo'ljallangan nashr.

### **2. Darslikning xususiyati nimada?**

Darslik - o'quv adabiyotlarning asosiy turi. Unda fan va madaniyatning zamonaviy yutuqlarida aniq sohadagi bilimlar asosida tizimli ravishda bayon etiladi. Darslik ta'lim asosiy maqsad va vazifalariga, aniq yoshdagi ijtimoiy guruhning rivojlanishi tarbiyalanishiga javob beradi. Har bir o'quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi.

Darslik tegishli fanga oid bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

**Yodda tuting:**

Ko'pincha eng asosiy ma'lumot – fikr, matndagi dastlabki jumlada ifodalanadi. Keyingi jumlar esa uni to'ldirish, mustahkamlash, tasdiqlash uchun xizmat qiluvchi unsurlardan tashkil topadi.

**160-topshiriq.** Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing. Matnga so'z va dalil to'plashda nimalarga e'tibor berish zarurligini aniqlang.

**Dalil to'plash**

Mavzu bo'yicha jamlangan dalillar mohiyat e'tibori bilan har xil bo'ladi. Ularni zaruriyligiga qarab asosiy yoki yordamchi (qo'shimcha) dalil, mavzu qamrovi va hajmiga ko'ra katta yoki kichik, o'rniga ko'ra birlamchi yoki ikkilamchi, maqsadiga ko'ra asosli yoki asossiz, sifatiga qarab ishonchli yoki ishonchsiz, vazifasiga ko'ra tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi, davriyligiga ko'ra o'tkinchi yoki davomli, mohiyatiga ko'ra aniq yoki noaniq, xizmat doirasiga ko'ra umumiy yoki xususiy, ahamiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy, munosabatiga ko'ra xolis yoki noxolis dalillarga bo'lish mumkin.

Dalil doimo haqiqatni isbotlashga xizmat qilgan: Biri mutlaq, ikkinchisi esa nisbiy haqiqatdir. Dalil va haqiqat o'zaro uyqash va uyg'undir.

Asosiy dalilik materialga daxldor bo'lgan qo'shimcha, yordamchi dalillarni to'plash ham yangiliklar yozish, jarayonigacha bo'lgan muhim bosqichni tashkil etadi. Barcha dalillar ichidan eng asosiysini ajratish, ya'ni birinchi va ikkinchi darajali dalillarni farqlash zarur. To'plangan dalillarning ayrimlari bir-birini to'ldirishga xizmat qilsa, ayrimlari bir-birini inkor ham etadi. Asosiy dalil bu natija demakdir. Har qanday natija sababning oqibati, hosilasi.

Dalillarni jamlashda bevosita voqea-hodisaning o'ziga tegishli bo'lgan dalillarga tayanilsa, ikkinchidan o'sha hodisani ko'rgan, eshitganlarning fikrlari qayd etiladi.

To'plashda amal qilinishi bo'lgan holatlar dalilik materiallar bilan bog'liq.

Raqamlar, turli nomlar, iqtiboslar, geografik atamalar aniqlik bilan qayd etilishi zarur.

Yangi dalil hodisani yoritishga quyidagilarga e'tibor qilinadi.

*Birinchi*dan, qalamga olinayotgan dalilning muhim va dolzarbligini belgilash maqsadida uni shunga o'xshash dalillar orasidagi o'rnini aniqlashi lozim.

*Ikkinchi*dan, unga beriladigan iqtisodiy, geografik va tarixiy ta'rif ham dalilning mohiyatini atroflicha, to'laroq ochishga xizmat qiladi.

*Uchinchi*dan, o'zaro taqqoslash maqsadida statistik jihatdan raqamlar ko'rsatkichi bilan izoh berilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

*To'rtinchi*dan, ana shu dalilga daxldor bo'lgan soha mutaxassislarining fikrini keltirish orqali o'z munosabatini bildirish ham ayni muddaodir.

**Matn tuzuvchi, shaxs ushbu ikki manbaga tayanishi zarur:**

1. Hukumat qarorlari, chunki bunda barcha yo'nalishlar, tendensiyalar, iqtisod, fan, texnika, madaniyat bo'yicha rejalar barcha-barcha belgilangan bo'ladi.

2. Qaysi soha, qaysi yo'nalish bo'yicha matn tayyorlash zarur bo'lsa, shu soha vakillari, mutaxassislar bilan suhbatlashish, sohaga doir adabiyotlar bilan tanishib chiqish.

To'plangan barcha dalillar yangilik sifatiga qog'ozga tushmasligi mumkin. To'plangan dalillarning ahamiyatini ajratib olish boshqacha aytganda, "saragini-sarakka, puchagini-puchakka" ajratib usuli qo'llaniladi. Matn tuzuvchi shaxs mavzu mohiyatiga mos holda dalillarni yig'adi, saralaydi, tanlaydi, ajratadi, umumlashtiradi belgilaydi.

**161-topshiriq:** Ilmiy maqola to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganing va bitta maqola yozing:

Ilmiy maqolalarning vazifasi fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyot yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchilarning g'oyaviy-ilmiy bilimlarini oshirishdan iborat. Ilmiy maqola quyidagi qismlardan iborat bo'ladi: kirish, tadqiqot obyekti, tadqiqot usullari, xulosa.

Ilmiy maqola tayyor bo'lgandan keyin taqrizdan o'tkaziladi va akt ekspertiza olinadi. Qolgan hujjatlar har bir nashriyotning talabiga muvofiq tayyorlanadi.

### **Matn turlari**

Ma'no va vazifasiga ko'ra shartli ravishda matnlarni uch turga bo'lish mumkin:


- 1. Ma'lumot beruvchi.**
- 2. Tasvirlovchi.**
- 3. Tahlil qiluvchi – munosabat bildiruvchi.**

**Ma'lumot beruvchi** – matn bir – birini mantiqan quvvatlovchi fikrlardan tarkib topadi. Unda keltirilgan dalillar vaqt – davr nuqtai nazaridan tartibli ketma – ketlikda beriladi. Bunday matnlarga “Qanday voqea yuz beradi?” yoki “Nima bo‘ldi” kabi savollar berish mumkin bo‘ladi. Ma'lumot beruvchi matnlar uch qismdan tashkil topadi: *kirish, asosiy qism va xulosa*.


Kirish qismida – tanlangan mavzu haqida aytib o‘tiladi.

Asosiy qismida – mavzu yoritiladi.

Xulosa qismida – fikrlar umumlashtirilib, yakun yasaladi.



**Tasvirlovchi matnda** – ma'lum bir voqelikka so‘z orqali tavsif beriladi. *Masalan*, tabiat tasvirida daraxtlarning tashqi ko‘rinishi, maysalar, osmon, dengiz kabi; inson qiyofasi tasvirida uning yoshi, yuz tuzilishi, qomati, ko‘zlari, tabassumi, ichki hissiy holati kabi; biror narsa (predmet) tasvirida - o‘sha narsaning vazifasi, undan foydalanish, uning tashqi ko‘rinishi va boshqalar tavsifi beriladi.



**Ilmiy matnda** – o‘rganilayotgan soha turiga mos bo‘lgan ta’rif beriladi.

**Badiiy matnda** – fikr yuritilayotgan voqea, hodisa yoki inson haqida yorqin va obrazli tasvir beriladi.

*E’tibor bering:*

**Insho** – O‘quv yurtlarda ona tili yoki adabiyotdan yozma ish

161-topshiriq. “Til – do‘stlik kaliti” mavzusida insho yozing.

162-topshiriq. “Do‘stlik” mavzusida insho yozing.

163-topshiriq. Inshoni tashkil etgan unsurlar haqida o‘z fikringizni bayon eting.

### *E'tibor bering:*

Nasriy yo'l bilan yozilgan kicikroq badiiy asar – hikoya deyiladi. Hikoya yoki novella kishi hayotidagi ma'lum bir voqeani tasvirlaydi va shu voqeaga qadar bo'lgan yoki undan keyin ro'y bergan voqealarni batafsil bayon etmaydi.

**164-topshiriq.** Hikoyani diqqat o'qing va u haqda o'z fikringizni bayon qiling.

### *Yirtiq etik (Hikoya)*

Ovqat kirib, ovqatdan keyin bir-ikki piyola choyni qaynoq-qaynoq ichkanidanmi, asablari joyiga tushganday bo'ldi. Charchog'i yozildi. Otasining chexrasi yorishishini kutib turganmidi, yoki bo'lmasa, ertalabki bo'lho-bo'lda gaplashib ololmasligiga ko'zi yetganmi, katta o'g'il otaning yonboshiga kelib joylashdi-da, past ovozda sekin shipshidi:

- Og'a, o'qishimning to'lov puli... qalay bo'lyapti ekan?

- Bir iloji bo'lar, bolam. Firma rahbarimizga insof berib qolsa, ikki-uch maoshimni oldindan berar. Esiga solib turibman.

- Og'a, men kalta kurtkada sovqotib yuribman,- dedi dasturxonini yig'ishtirayotgan qizi. "Shu arzimni necha aytdim o'zi" deganday iymanib, yerga qaradi. – Olib bera olasizmi, og'a?

- Og'a, mening etigim yo'q, haliyam yozgi tuflida yuribman, -dedi qayoqdandir yetib kelgan kichkintoyi yig'lamsirab.

- Aytganday, sen kassaga borib, mahallaqo'mning yordam pulini olmadingmi? – dedi Satmurod xotiniga yalt etib qarab.

- Oldim. Ro'zg'ora hech narsa qolmagan, choy, tuzgacha tugagan edi, og'asi, shularga xarj qildim, - xotini ayb ish qilgan odamday yerga qaradi. – Ertaga narigi ko'chadagi o'rtog'ingiz Maden kelin tushiryapti, shanbada ovuldagi qarindoshimiz Qurbonniyoz o'g'lini uylayapti... Og'asi, ularga ham quruq qo'l borolmaymiz...

- To'yga tovuqlarning bir – ikkovini sotib, tuxumlarini pullab. O'zing borib qaytasan. Bilasan-ku, mening to'yga unchalik hushim yo'q... Qo'raning ichi issiq shekilli, makiyonlar tuxumlab yurishgandir, axir?! – dedi Satmurod qizishib.

- Tuxumlab yuribdi, biroq har kuni pishirib, dasturxonga chiqarayapman-ku, og'asi, bola-chaqaning og'zidan ortarmikan? – inqilladi xotini.



- Uch – to‘rt kun tuxum yemasdan turarmiz. To‘ylaringni eplab o‘tkazib ol, - dedi-yu, boshini changallaganicha hovliga chiqib ketdi. Qon bosimi xuruj qilib qoldi.

Tashqariga chiqdi-yu, ko‘z qurg‘ur bir nuqtada turadimi, uyning ikki tarafidagi ikki qo‘shnisining saroyday-saroyday hovlilariga tikilib-tikilib qaradi. Xayolga sig‘maydigan darajada hashamatli, vahimali hovlilar orasida o‘zining uyi tovuqning katagiday kichkinaligini ko‘rib, yuragi qaqshadi. “Bu ikkovining o‘rtasida ko‘zga botgan yaraday yarashmay turar ekan, avvalroq sotib yuborganimda yaxshi bo‘lardida” – ko‘nglidan o‘tkazdi u. Rostdan ham, mana shu qo‘shnilar bundan besh-olti yil avval bir-biri bilan urushib-janjallashib qolgan, “men olaman-a, yo‘q, men olaman”lab, ko‘chaga chiqishgan, so‘ng ikkoviyam Satmurodning uyiga kalandimog‘lik bilan kirib kelishgan edi.

“Menga sotasana uyingni!” deb, bir-biriga so‘z bermay, ancha talashishdi.

- Nima gap o‘zi? – degandi ushanda Satmurod.

- Uyingni sotmoxchi ekansan-ku, menga sotib qo‘yaqol! o‘zim olaman! – degan birinchi qo‘shni.

- qaysi uyni aytyapsan?

- mana shu uyingni-da , sotadigan bo‘lsang manga sot , ikki hissa ko‘p pul beraman! – chirangan ikkinchi qo‘shni.

Menga sotsang, uch barobariga olaman! Hovlimni kengaytirishim kerak. Bolmasa sening manavi kulbangga ko‘zim uchib turgani yo‘q. Menga sotsang, tekislatib, hovlimga qo‘shib yuboraman...

O‘shanda ham Satmurodning boshi og‘rib, yiqilib tushishiga bir bahya qolgan edi. “Nega men bexabarman-u sizlar mening uyimni talashib yuribsizlar! Men sizlarga uy sotaman dedimmi? ” deb qo‘shnilariga baqirmoxchi bo‘lgan, biroq ularning haybatlaridan qo‘rqqan.

- Uyimni sotmoqchi emasman. Tug‘ilib o‘sgan joyim, axir! Meni kechirasizlar, - deb qutilgan. Pul havosi odamni bir gangitsa qanaqa bo‘lishini qo‘shnilar timsolida ko‘rib tavbalar qilgan edi o‘shanda Satmurod.

“Bolalarimni o‘qitayapman. Xudo xohlasa, besh-olti yil ichida ulg‘ayishib, ishli bo‘lib, ko‘p pul topib, xo‘jaligimiz ham oyoqqa turib qolar...” – deb o‘zini yupatganlari hozir yana esiga tushdi. Hammamiz ham shunday deymiz-u, biroq hozir, ayni shu lahzalarda Satmurodga (o‘ziga emas, bolalariga!) falon falondan pul kerak edi. O‘qish uchun to‘lov puli, yo‘l haqi uchun pul, palto, etik uchun pul, oziq-ovqat uchun pul kerak. Har gal yomg‘ir yog‘ganda uyning shiftidan chakka o‘tadi, qor suvi o‘tadi –

demak, ta'mirlash uchun pul kerak. Shifer qoqtiraman desa, eh-he, necha so'm ketadi? Shularning bariga pul kerak, pul, pul, pul... "Eski etigimni yamatib kiyishga ham rozi edim, biroq shuning o'zigayam pul kerak" buncha pulni qayerdan topaman? Kim beradi?! Hay, Olloh-xudoyim, o'zing yorlaqa! Qatordan kam qilma!

Kuzning kechki izg'irini ta'sir etdimi, Satmurod yuragining zirqiraganini sezdi, tavba, xuddi nimadir bo'ladiganday. Nimayam bo'lsin, axir...

Shu payt ko'chadan g'izillab o'tadigan bir mashina g'iyqillab tormoz bosib kelib, naq Satmurodning paxsa devori tagida to'xtadi. Mashina eshigining qarsillab ochilgani, haydovchi yigitning mashina tepasiga sakrab chiqib, ko'cha tomondan Satmurodning hovlisiga alang-jalang qarayotgani ko'rindi. Keyin yigit Satmurodga ko'zi tushdi-yu, qo'lidagi kattagina qopchani hovli ichiga otib yubordi. Voqea shu qadar tezlik bilan ro'y berdiki, nima bo'lganini Satmurod angalayolmay ham qoldi. Qopcha uchib kelib, avval Satmurodning boshiga tegdi, keyin oyoqlari ostiga gursillab tushdi. Notanish yigitning ovozi eshitildi.

- Shoshib turibman! Izimdan quvib kelishyapti, og'a! Pulni tez yashir, bu senga omonat! Bir-ikki kundan keyin kelaman. Kelmasam ishlataveringlar. Mashina katta tezlik bilan yo'lga tushdi. Shuning orasida quvishib-haydashib kelayotgan ikki-uch mashina ham ko'chani burilish joyida bir sekinlab, keyin zo'riqqan ovozda g'uvillab o'tib ketdi. Satmurod nimalar yuz berganini anglab etmasa ham, oyog'i ostiga tushgan qopchani ichi to'la pul ekanligini sezdi. "tavba, huddi ertakdagiday bo'ldi-ku!" deb anchagacha angrayib turdi-da, qopchani qo'lga olib, uyga kirib ketdi.

Necha chaqirimdan yugurib kelganday, harsillaganicha to'rdagi xonaga o'zini urdi. Qopcha og'zidagi ipni bo'shatib, ichidagilarni yerga to'kob tashladi. Bari – beli bukilmagan banknotlar. Sanab oxiriga yetolmaysan. Juda ko'p!

- "Chin ko'ngildan yig'lasa, so'qir ko'zdan yosh kelar", deganlari rost keldimi, bunisini bir Yaratganning o'zi birladi, lekin voqeaning bo'lib o'tgani aniq edi. Ishonmay desa, mana dasta-dasta sanoqsiz pular sochilib yotibdi. Ishonay desa... Tavba-ye, tavba! Satmurod ham, xotini ham tush emasmikan, deganday yonboshlarini chimchilab-chimchilab ko'rishdi. Oxiri, shularning bari rost ekaniga ishonishdi. Va....

Oilaning birinchi navbatdagi ehtiyojlariga, institutning to'lov puliga, yangi palto va etikka, o'zining yertiq etigini tiktirishga, to'yonaga deb, osmondan tushgan qarzga deb olib, ishlatishdi. Qolgan pulga tegishmadi.

Pul juda ko'p edi, tugaydigan emas, shunda ham Satmurod nafsiga hay berib, sabr qildi.

Oradan kunlar o'taverdi. Qochani tashlab ketgan yigit qorasini ko'rsatmadi. Yo birovni yubormadi. O'n kun, yigirma kun, bir oy... ikki oy... o'n oy, bir yil o'tib ketdi. Yigitdan habar bo'lmadi.

“Tirik bo'lganida, shuncha pulni izlab-surishtirib bir kelardi. O'sha kuni mashinada qochaman deb ofatga uchrab, qaytish qildimikan? Biroq, qazo topgan bo'lsa ham, shunchalik ko'p pulni so'rab-surishtirib kimdir, qachondir shu ko'chadan o'tishi kerak edi, axir. So'roqsiz, xabar-o'charsiz irg'ib tushadigan pul – qanaqa pul ekan u? Balki, kim biladi deysiz, o'sha yigit tirikdir. Yana bir yil kutayin-chi, shungachayam kelmasa, iloji yo'q, hukumatga toshirib yuboraman-da”, degan fikrga keldi u.

Noma'lum yigitning kim ekanligini Satmurod juda bilgisi keldi. O'g'rimi, kazzobmi, yo'l to'sarmi, poraxo'rmi? Balki uyini yoki mashinasini sotib, kattakon pulga ega bo'lgan-u, biroq o'sha lahzaning o'zida qaroqchilarga uchragan bir peshonasi sho'r odamdir, kim bilsin?!

“Qayoqdan to'plangan pul bo'lsa ham, biroq shu pullar men uchun halol ekanligi aniq, sababi mening oldimga bu pullar o'z oyog'i bilan kelib tushdi....”

Xotini bilan necha marotaba mashvarat ko'rdi. Oxiri bir qarorga keldilar: yigit kelib, bu pulning qanday pul ekanligini aytmaguncha, xazina topib olganliklari haqida hech kimga churq etib og'iz ochmaslik kerak. Yaqin kunlar ichida qurilish firmasi tashkil qilib, Satmurod oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'ydi, manavi pullarni shunga qo'shadi – aylantiradi, o'rgiltiradi, togan foydasi bilan qopchadagi pulni tiklaydi, agar foyda oshib ketaversa, ana o'sha foydanigina xarj qiladi.

U ana shunday “taktika” bilan reja tuzib, qopdagi puldan yana “qarz”ga deb pul oldi. Shunday qilib, beliga quvvat enib, “bismilloh” deb yengini shimarib ishga kirishdi.

Satmurod chaqqon, savodli, ishning ko'zini biladigan tadbirkor chiqib qoldi. Buning ustiga mehnatkashligi ham qo'l kelib, sal kun ichida ishlari yurishib, cho'ntaklariga pul kira boshladi. Hozir kim ko'p – uy quraman, hovli tiklayman ofis bezataman deb yaxshi usta izlab yurganlar ko'p. Satmurod mana shunday qurilish - bezaklovchi firma ochib, yosh-yosh, qobiliyatli yigitlardan guruhlar tuzib, ularni ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'ydi. Pul oqib kela boshladi. Uch-to'rt yilning ichida katalakdaygina uyining o'mida zamonaviy ko'rinishda tiklangan, qo'shnilarinikidan ham hashamatli qilib hovli tikladi. Keyin antiqa bir ish qildi: pult bilan ochilib-yopiladigan kattakon darvozasining ustiga yirtiq

etigini osib qo'ydi. Qizig'i, bu etiklarning bir poyi ko'cha tomonda bo'lsa, ikkinchisi uy tarafda edi. Albatta, chiroyli qilib tiklangan yevromanzarali uyning bejirim darvozasiga qaqqaygan bir poy etik yarashibgina turgani yo'q. Uyni tomosha qilgani kelganlar, qo'shnilar, qarindosh – urug'lar kulishib, "Satmurod og'a, manovi etikni olib tashlasangchi, sira yarashmayapti" desa, Satmurod ham darrov javob qiladi:

-E, turaversin. Hech bo'lmasa, men tirik vaqtimda ko'zim tushib turgani ma'qul. So'ng, mayli, o'zlari biladi. "Ayozxon, holingni bil, qumirsqa, yo'lingni bil" degan gap bor-ku, axir. Ertalab o'g'illarim, kelinlarim, qizlarim mashinada ishlariga ketayotib, albatta etikka ko'zi tushadi. Shunda meni ro'zg'or tebrataman deb qanday ahvollarga tushganimni ham eslariga olar, axir. Odamzod qiziq, cho'ntagi sal qappayib, puli ko'paya boshlasa, kechagi kunini unitadi, qo'shnilari oldidan kekkayib o'tadigan bo'lib qoldi. Shunday paytda darvoza oldida osilib turgan etikka ko'zi tushsa, ko'ngliga shayton hovur bosilib, kechmish kunlarini eslay boshlaydi. Ko'zini bosayotgan yog'ni artib oladi...

Bu etikning dong'arasini eshitgan odamlar qiziqsinib, Satmurodning ko'chasidan mashinasini haydab o'tadigan bo'lishdi. Ba'zilar kula kula bosh chayqab ketsa, ba'zilar mashinadan tushib, o'ylanib ham qolishadi. Satmurodning eski etigini ko'rib, tavba qilganday, g'alati bir tusda mashinalarini sekin haydab ketishadi. Ishqilib, etikka ko'zi tushganlarning hech biri avvalgiday mansansirab, bosar – tusarini bilmay qolayotgani yo'q. Mendan o'tadigan boy bormi?! deganlar etikni ko'rgach, sal dami bosilib, o'zlariga kelib olishyapti.

Qaysidir bir yili noyabrning izg'irinli kunlaridan birida Satmurodning darvozasidagi qo'ng'iroq jiringladi. Satmurod bir qarashdanoq kelgan mehmonni tanidi.

- Uyga kir, inim! – dedi u salom-alikdan so'ng. Choy ichgach, Satmurod gavdali yigitning oldiga ikki qopchada pul qo'ydi.

- Mening pullarim bir qopchada edi-ku, og'a! – dedi yigit.

- Inim-ay, "qozoning qozon tug'di", degan gap bor-ku, axir. Sening pullaring ham pul tug'di, olaver, bu pullar hammasi seniki!

*Ollonazar Abdiyev*

### **Savollarga javob bering.**

1 Siz qanday hikoyalar o'qigansiz?

2 Siz o'qigan hikoyalar bir – biridan nimasi bilan farq qiladi?

3 Siz o'zingizni qattiq hayajonga solgan voqea – hodisa yoki xis tuyg'u haqida hikoya yoza olasizmi?

***E'tibor bering:***

Sujetining murakkabligi jihatdan romandan ko'ra soddaroq badiiy asar – *qissa* (povest) deyiladi

**Quyidagi savollarga javob bering.**

- 1 Siz qanday qissalar o'qigansiz?
- 2 Ulardan biri haqida umumiy ma'lumot bering.
- 3 Qissadagi ikkinchi darajali qahramonlarning xatti-harakatlari nimalar bilan bog'liq?

**165-topshiriq.** Quyidagi matnni o'qing va undagi asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni belgilang.

**Sultoniya arxiyepiskopi Uoann xotiralaridan:**

***Temur Bey ismining talqini xususida***

Shunday qilib, bu imperatorning ismi, Temur Bey edi, bu ism quyidagicha talqin qilinadi va izohlanadi: Temur Bey atoqli otdir va "temur" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "fer" (temir, fr.tar.) ma'nosini bildiradi va bey so'zi "hukumdor" ma'nosiga teng bo'lib, "temir hukumdor" ma'nosini anglatadi. Boshqalar uni "Temurlang" deb atashadi, bu so'z ham "temir" dan kelib chiqqan bo'lib, fransuzchasiga "Temur oqsoq" degan ma'noni bildiradi, "oqsoq" uning laqabi edi.

***Temir Beyning hayoti va uning xalqi xususida***

Temir Beyning turmush tarzi va xalqi haqida shunday deyish mumkinki, u har doim ochiq dalada harir shohi chodir ostida umr o'tkazadi; Zero, uning xalqi shunchalik ko'pki, ular shaharda yashay olmaydilar. Biroq ularga zarur barcha narsalar huddi shahardagidek bu yerga olib kelinadi, sotiladi va harid qilinadi, bu yerga uzoq o'lkalardan oziq-ovqat mahsulotlarini olib keuvchi savdogarlar juda ko'p, bu yerda parrandalar, boshqa turfa xil mahsulotlar va hatto gullar ham sotiladi; uning odamlari juda qimmatbaho, nafis shoyi matolar va harir jun matolardan kiyimlar kiyishadi; ularning ulug'lari Konstantinopol imperatori kabi bosh kiyimlar kiyishadi, martabalari qachonlar ulug' bo'lsa-da, ular bosh kiyimlariga qimmatbaho toshlar taqishmaydi va ayrimlari turklarga o'xshab dumalo kokiles kiyib yurishadi.

Uning fuqarolari saromjon sarishta odamlar, ular yerda – stol va kursisiz ovqatlanishadi. Bu yerlarda go'sht va guruch serob, ular mutlaqo non yeyishmaydi, ular nonni yoqtirishmaydi, biroq ajnabiylar to'ygunlaricha non yeyishlari mumkin, zero har qadamda non to'lib yotibdi.

Uning saroyida sharob ichish taqiqlangan, nasroniylar esa sharob ichishlari mumkin, u ham bo'lsa faqat kechki ovqat oldidan, ovqatdan so'ng esa choy va qimiz ichiladi, bir qimizki sharofdan kam kayf bermaydi. Ularning donli ekinlaridan tayyorlanadigan yana boshqa bir ichimligi bo'lib, uning rangi sutdek oppoq va sharofdek kayf beradi.

Uning saroyida nomussiz ayollarning yashashi taqiqlangan, har kimning o'z xotini va mol-mulki bor. Ayollar erkaklar kabi mohir chavandoz, ular yaxshi kiyinib oladilar, otda yurganlarida faqat burunlari va ko'zlari ochiq bo'ladi; ayollarning lozimsiz yurishi katta gunoh hisoblanadi. Odamlarning yuzlari keng va osiyoliklarga hos, hamma qatori yashashadi va saransillar (musulmon sunniylar) mashabidandir.

Temur Bey ziyofatlarda tilla va kumush idishlarda ovqat yeydi va o'z oldidagi go'shtdan vassallariga, shahzodalar, zodagonlar va elchilarga ulashadi; hamma yerda o'tirib ovqatlanadi, agar u o'zi chaqirmasa, uning yoniga borishga hech kim jur'at eta olmaydi. o'g'illari va beklari ham ruxsatsiz unug yoniga borib o'tirmaydilar.

### *E'tibor bering:*

**Roman** – Hajmi ancha katta, murakkab syujetli, odatda proza yo'li bilan yoziladigan asar.

### **Quyidagi savollarga javob bering.**

1. Siz qanday romanlarni o'qigansiz?
2. Sizni qaysi janrdagi romanlar qiziqtiradi?
3. Siz o'qigan romandagi sujet yo'nalishi haqidagi fikringizni bayon qiling.
4. Romandagi asosiy qahramonlar haqidagi fikringizni bayon qiling.
5. Romandagi ikkinchi darajali qahramonlar haqidagi fikringizni bayon qiling.

**166-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing va unda tasvirning qaysi turidan foydalanilganini aniqlang.

O'zbekoyim ellik besh yoshlar chamali, chala – dumbul tabiatli bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi

yolg'iz erigagina emas, Toshkent xotinlariga ham yoyilgan edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to'ylarida, azalarida, qisqasi tiq etgan yig'inlarida uylarining to'rini O'zbekoyimga atagan edilar. Bir ugina emas, qiz chiqaradigan, o'g'il uylantiradigan, sunnat to'yi qiladigan xotinlar o'z to'ylarini O'zbekoyim kengashidan tashqari jo'nata olmas edilar. O'zbekoyim aralashgan to'yli xotinlarning ko'ngillaridagi orzu – havaslari ham erlari tomonidan kamchiliksiz bajarilar, chunki "O'zbek oyim shundog' buyurdilar" degan so'z erlari uchun ham farz kabi eshitilib, O'zbekoyimning aytganicha hozirlik ko'ri-la boshlanar edi.

O'zbekoyim uncha – muncha to'yu azalarga "kavushim ko'chada qolgan emas" deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z to'ylarini O'zbekoyim ishtiroki bilan o'tkazib olsalar, o'zlarini shaharning eng baxtli xotinlaridan sanab, "mening to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar" degan jumlaning majlislarda iftixor o'rnida so'zlab yurar edilar. Shunga ko'ra, qaysi bir vaqtlarda o'rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko'ndalang qilib, "o'rda begi oyim buyurdilar" deb O'zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O'zbekoyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: "Kecha o'rda bek oyimdan arava kelgan ekan, fe'lim aynib turgan edi, bormay aravani bo'sh qaytardim... Bo hudo, o'rda bekachi bo'lsa o'ziga, dedim" der edi. Ikkinchi vaqtda: "O'tgan kun o'rdaga borgan edim, xonimlar yotib qolasiz, deb qo'ymadilar, noiloj bir kecha yotib qoldim" deb so'z orasiga qistirib ketar edi. Bu so'zlarni eshituvchi xotinlar o'zlarining qandog' bir xotinning suhbatiga noil bo'lganlarini o'ylab, O'zbekoyimning ehtiromini tag'in ham kuchaytirar edilar.

*Abdulla Qodiriy*

### Quyidagi savollarga javob bering

1. Aytingchi, ushbu parchada gap kim yoki nima haqida boryapti?
2. Nima uchun muallif asar qahramonlaridan biriga bunchalar batafsil ta'rif berayapti?

3. Qaysi o'rinlarda O'zbekoyimning tashqi qiyofasi tasviri berilgan?

**167-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing va uning turini aniqlang.

*Alisher Navoiy buyuk asarlar yaratish bilan birga o'z davrining ijtimoiy hayotida aktiv ishtirok etdi. Husayn Bayqaro saroyining bosh vazirlaridan biri sifatida u yurtida feodal urushiga barham berish, tinchlik o'rnatish, yurtni obod etish, o'quv yurtlari, shifoxonalar ochishga bevosita rahbarlik qildi. Shoirning "vaqfiya" asaridagi o'z so'zlari bilan ifodalanganda, zolimlarni jilovlab, mazhunlarning yarasiga malham*

qo'ydi. Buning natijasida uning shaxsiy qiyofasi o'z zamonasining ilg'or kishilari uchun juda zo'r jozibaga ega bo'lib, tahlid namunasi bo'lib qoldi.

Albatta, ijtimoiy hayotda aktiv ro'l o'ynash har safar ham yozuvchining zamona voqealariga qizg'in ishtirok etishi tarzida namoyon bo'lavermaydi. Ba'zan jamiyat uchun eng foydali bo'lgan o'z ijodini samarali qilish uchun yozuvchi kundalik hayotdan atayin uzoqlashuvi ham mumkin va bu hol uning ijtimoiy ro'li pasayganini ko'rsatmaydi. Masalan, Firdavsiy "Shohnoma"ni yozish uchun 30 yil umrini yolg'izlikda o'tkazgan edi. Lutfiy ham umrining oxirini Hirotdan uzoqda, qishloqda o'tkazdi. Odatda zamonasining ijtimoiy sharoitini tinch va samarali ijodga yo'l qo'ymagan chog'da yozuvchilar shunday qilishga majbur bo'ladilar.

**Izzat Sulton**

**168-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing va uning turini aniqlang

### **Abdulla Qahhor va yoshlar**

Abdulla Qahorning istarasi issiq edi: uning siyrak, mayin oppoq sochlari qosh - ko'zi, sersoqol mardona yuzi o'ziga nihoyatda yarashardi. Yozuvchining ko'zlari "gapirardi", yupqa lablariga zumda qo'nib, uchib turadigan kulgu, tabassum, jilmayish, istehzo, misoli qat - qat ma'noli matn edi. Qachon qayerda Abdulla Qahorga so'z berilsa, tinglovchilar bir qalqib olardi. Hamma darhol hushyor tortar, minbarda ijro etiladigan g'aroyib dramani ko'rish, mag'zini chaqishga chog'lanardi.

Abdulla Qahhor hech qachon shoshmasdan, gapni sekin, salmoqlab boshlardi. Uning nima demoqchiligini, kayfiyatini ko'z qarashlari, yuz ifodasi bildirib qo'yardi. Jiddiy gapni aytmoqqa chog'lansa, bilinar - bilinmas xo'rsinib olardi. Hazil qilmoqchi bo'lsa, yuziga tabbasum qalqirdi, lab - lunjini bot - bot siypalab qo'yardi.

**Abdig'afur Rasulov**

**169-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing va insonni tasvirlovchi jummalarni ko'chirib yozing.

### **Palaxmon toshlari**

(Romandan parcha)

Mo'ljaldagi kuni Beknazar barvaqt, hamsafarlaridan avval uyg'ondi, o'zini bir navi yengil sezdi. Bir oz aylanib, ham oyog'ini sinab ko'rish maqsadida tashqariga qarab yurdi. Qo'sh qanot, o'yma naqshli darvoza hali ochilmagan edi, u ustanadagi (eshikning tepa qismi) zulfidan zanjirni tushirib, qopqonning bir tabaqasin o'ziga tortdi-yu, ostonaning u betidagi



g'aroyib bir mo'jizaga ko'zi tushib, qo'lini eshik tutqichidan olishni ham unutganicha, serrayib qoldi. Ro'parasida boshiga yengil pushti ro'mol tashlagan, shaxlo ko'zlari charaqlagan, yuzlari oq – sariq moyil qirmizi, lablari xiyol ochilib, durri marjon tishlari yiltillab, bir malak siymo turardi. Uning bir qo'lida tuguncha bor edi.

Umridan chehrasi bu qadar chiroyli, maftunkor, qarashlari otashu alanga qizni uchratmagan yigit o'ngimmi yo ko'zimga ko'rinyaptimi degan xayolda karaxt kiprik qoqish ham esiga kelmasdi. Qiz ro'molini yuziga qiya qilib yopgani, so'ng o'sha qo'lining latif barmoqlari bilan och yashil tUSDagi ko'ylagi yoqasini xiyol qayirib ko'ksiga "tuf-tu"laganiga nazari tushgan yigit uning ro'yo ham, tush aksi ham emas, hayotiy xilqat ekanligini fahmlab, battar angraydi. Shu asnoda qizning kulimsiragan kuyi "Kun oydin, afandim..." deganini eshitib, unda birdan hayajon junjushga keldi, ichida kimdir taajjub izhor etdi: "Ovozining sho'xligi, yoqimlilikini..."

*Qamchibek Kenja*

**170-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing va undagi tabiat tasviriga bag'ishlangan jummalarni daftaringizga ko'chirib yozing. Ularga izoh bering.

### *Palaxmon toshlari*

*(Romandan parcha)*

Sayyohlar Turkiyaga kirib borishganda quyosh harorati, yer tafti pasayib, sho'x anhorlar shovqin solishdan charchagan, dov daraxtlarning oltinrang yaproqlari to'kilib, oyoqlar oldida pildirab, zorlanib ucha boshlagan, sarg'aygan gul-chechaklar, yo'l chetlaridagi dilgiz maysa o'tlarining boshi egilib, o'ylarga cho'mgan, ammo suv, osmon, tiniqlashgan, umuman tabiat mo'ysafid qiyofasida, hamma yoqda bosiqlik, sipolik hukumronday edi.

Sokinlashgan Marvar dengizi yuzasi kuz shabadasida yengilgina mavjlanib yotardi. Odatda bo'ron yo dovul oldidan shunday osoyishtalik yuzaga keladi va ko'pincha odamni g'aflatda qoldiradi.

Etik g'ajigan chap tovonni azob berayotganini hisobga olmaganda Beknazar ham ancha xotirjam edi, taqdirga tan bera boshlagandi.

Qadimdan, boshqa nomlar bilan atalgan davrlardanoq ma'lum va mashhur Istanbul dong'ining Turon – Turkiston tomonlarigacha yetib kelishiga asosiy sabab haj ziyoratini ixtiyor etib karvon bilan jo'nalgan Makkai mukarrama yo'lida joylashgan bu mo'tabar shaharga albatta qo'nib, nabiy Muhammad sallallohu alayhi vassallamning yaqin

sahobalaridan biri Abu Ayub al – Ansoriyning nazorati Ilcha mavzusidagi qabrini ziyorat qilib o‘tishardi. Shu bois, musulmonlar orasida “Istanbul – yarim haj” degan gap yurardi. E‘tiqodga, e‘zozga javoban qardoshlar qulay sharoit, imkoniyatlar yaratib, yo‘lovchilarni xushhollik bilan kutib olishardi. Takyalar (karvonsaroylar) musofirxonalar bag‘riga har qancha mehmon jo bo‘lishi mumkin edi...

*Qamchibek Kenja*

**171-topshiriq.** Matnni e‘tibor bilan o‘qing, uni boshqa janrlardan nimasi bilan farqlanishi haqida tushuncha bering. Inson tasviri ifodalangan jumlamani daftaringizga ko‘chirib yozing.

*“Otkan kunlar”*

*(Romandan parcha)*

1264-hijriya, dalv oyining o‘n yettinchisi, qish kunlarining biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshtiladir... Darvozasi sharqi – janubga qarab qurilgan bu dongdor saroyni Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir – ikki hujrani istesno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytganlar, ko‘p hujralar kechki osh pishirish bilan mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonli: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoholab kulishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek. Saroyning to‘rida boshqalarga qaraganda ko‘rkamroq bir hujra, ana shu hujralarga kiyiz to‘shalgan holda, bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo‘z ko‘rpachalar ko‘rilgan bo‘lsa, bunda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora chiroq sasiganda, bu hujrada sham yonardi, o‘zga hujralarda yengil tabiatli serchaqchoq kishilar bo‘lganida, bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda: og‘ir tabiatli, ulug‘ gavgdali, ko‘rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko‘zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yonidan, ham ega jihatdan diqqatni o‘ziga jalb etarli edi. Qandaydir bir xayol ichida o‘tirgan bu yigit Toshkentning mashhur a‘yonlaridan bo‘lgan Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek.

Saroy darvozasidan ikki kishi kelib kiringach, ulardan birovi darboza yonidagi kimdandur so‘radi:

– Otabek shu saroyga tushganmi?

*Abdulla Qodiriy*

**172-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o‘qing va tabiat tasviri berilgan jumlamani daftaringizga ko‘chirib yozing.

*Navoiy*  
(*Asaridan parcha*)

Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning "Gavharshod" madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari shularda jonli, havoii bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o'ynashar edi. Bir tomoni xonahiq, uch tomoni katakcha - hujralar bilan o'ralgan madrasaning keng, tekis chor - burchak sahnidan kecha shovdirab ketgan yomg'ir ko'zga ilinar - ilinmas bug' bo'lib havoga ko'tarilmoqda edi. Tolibi ilmlarning aksariyati bukun hovliga chiqishgan. Ular yassi g'isht o'tqizilgan yo'lkalarga bo'yralar solib, dars tayyorlashadi. Ularning qay biri "Qofiya" da, qaybiri "Hoshiya" da, qaybiri "Shamsiya" da. Mana bunda biri kitobni tizzasiga qo'yib, katta sallali boshini uzluksiz chayqab, ko'zlarini chirt yumgan holda, g'o'ngillab "Arabiyot"ni yodlaydi. Nariroqda uch mullabachcha bir bo'ya ustida uchburchak bo'lib o'tirib, mushkul bir masalani bahslashadi. Ulardan biri - sersoqol, rangpar va oriq - o'z mantiqining kuchini ko'rsatishga va "haqiqat mezoni"ni o'zicha ta'rif etishga astoydil tirishar, sheriklarining dalillarini rad etardi. Undan yoshroq bo'lgan, lekin o'jarlikda undan aslo qolmaydigan sheriklar qichqirib, yangi-yangi dalillar, mulohazalarning tilsimli ko'rg'onini bir zumda so'z bilan yasab qo'yardilar.

Ba'zan asl mavzu bahs g'oyib bo'lar, ular bahs asnosida kelib chiqqan yangi "nuqtalar"ga berilib, so'z chalangzorining tikanli mushkilot bilan to'la sohalarida urina-urina yana asli masalaga qaytishardilar. Bahslashuvchilar ba'zan munozara alangasida o'zlarini unitib, bir-birlariga dag'al iboralar aytishar, ba'zan burgutday hurpayib, bir-birlariga chang solmoqqa tayyorlanganday qiziq bir vaziyatda bir zumgina qotishardi. Bu hol madrasa dunyosida juda oddiy va tabiiy hodisa bo'lgani uchun, ularning asabiy shovqiniga atrofdagilardan hech kim e'tibor qilmas edi.

*Oybek*

**173-topshiriq.** Matnni diqqat bilan o'qing va asarning badiiyligini ta'minlagan vositalar haqida fikringizni bayon qiling.

**QUDUQ**  
(*Qissadan parcha*)

Ko'klam qurg'oq kelgan. Savr chiqib ulgurmagan bo'lsada, atrofda yastanib yotgan qir-adirlarning maysasi qovjirab, borliq sarg'ish tusga

kirib ulgurgan. Tikkaga kelgan oftob qovjiroq xas-xashakni yondirishga qasd qilgandek, dala-dashtga tinimsiz olov purkaydi. Adoq tarafdagi tepalikda ko'zga tashlanib turgan cho'pon kulbasi va kattagina qo'tonni hisobga olmaganda, ko'z ilg'amas kengliklarda tirik jon asari sezilmaydi.

Yangi qazilgan quduqning tevaragida quruq tuproq tog'day uyulib ketgan. Bir maromda g'uvillab esayotgan qaynoq garmsel uning changini uchirib o'ynaydi. Quduqning yonida Qobil cho'pon bilan ikki o'g'li horg'in qiyofada cho'nqayib o'tirishibdi.

Katta sopli ketmonni belbog'iga qistirib olgan Lallay quduqdan chiqib keldi. Uning jomakor kiyimlari tuproqqa belanib, yuz - ko'zi chang va ter qorishmasidan qo'ng'ir tusga kirgan edi.

Qobil cho'pon Lallayga savol nazari bilan qaradi.

- Suv yo'q amaki - dedi, Lallay go'yo bunga aybdordek o'ng'aysizlanib. Bo'z yigitlar xomush tortib qolishdi.

- Shuncha mehnatimiz bekor ketadimi? - dedi Qobil cho'pon atrofdagi tuproq uyumiga alam bilan tikilib. Lallay uning savoliga javob bermay, atrofga sinchiklab razm soldi. Bir qarorga kelib, quduqning tarafiga endi. Lallay ko'klam omg'urlari, hosil qilgan torgina o'zan bo'ylab yo'qotgan narsasini izlagandek yer singilab o'ngu so'lga yurdi. Nihoyat yakka o'sgan yantoqning yonida to'xtab, metindek qotib ketgan yerga ketmon urdi.

- Chig'iriqni buzinglar! - dedi Qobil cho'pon o'g'illariga. Bo'z yigitlar suvsiz quduqning chug'irig'ini buzishga tushdi. Qobil cho'pon arqon bog'lagan chelakni olib Lallay tomon yurdi.

Tepadan tushayotgan zaifgina nur quduqning tubini g'ira - shira yoritgan Lallay ketmon bilan quduq kovlayapti. Egnidagi jomakor kiyimi tuproq va terga qorishgan. Peshonasidan quyilayotgan terni yengi bilan artib qo'ydi.

### ***E'tibor bering:***

Shaxs, narsa - buyum, voqea - hodisalarni tasvirlash yo'li bilan bildiriladigan so'z birikmalari ***tasviriy ifodalar*** yoki ***paragrflar*** deyiladi. Tasviriy ifodalar so'zning ma'nosini oydinlashtirish, matni badiiylashtirish, takrorning oldini olish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi

### ***Masalan:***

*Mexanik haydovchilar - po'lat ot chavandozlari, zangori kema kapitanlari*

*Bunker - po'lat etak*

*Farg'ona - yashil vodiy*

*Prezident* – xalq oqsoqoli

*Traktor* – po‘lat ot

*Pilla* – kumush tola

*O‘rmon* – yashil boylik

Tasviriy ifodalarda ham ma‘nodoshlik va shakldoshlik kuzatiladi. Bir so‘zning bir necha tasviriy ifodasi bo‘lsa, ular ma‘nodosh hisoblanadi.

*Masalan:*

*Televizor* – zangori ekran, oynayi jahon.


*Bahor* – fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli.

Ba‘zan bir tasviriy ifoda bir necha so‘z o‘rnida qo‘llaniladi. Bunday hollarda ular shakldosh hisoblanadi.

*Masalan:*

*Aql gimnastikasi* – shaxmat va matematika

*Asr vabosi* – oitis va giyohvandlik



**Sifatlash** – tushuncha, va kishining ma‘lum bir xususiyati hamda sifatini aniqlab, izohlab, xarakterlab beruvchi so‘zdir.

Sifatlash – yolg‘iz o‘zi kelmasdan, ma‘lum so‘z birikmasi tarkibida o‘z mohiyati, o‘z belgilarini unga ko‘chirgan holda keladi. Bunday birikma **metaforik sifatlash** deyiladi. Masalan: *oltin vodi, zumrad bahor, kumush qish* kabilar

-mashqni ko‘chirib yozing, sifatlovchilarning tagiga chizing va izohlang.

1. Yovuz niyatli odamlar uning buloqdek tiniq, musaffo muhabbatiga og‘u soldilar (M.Qoriyev). 2. Hozir yo‘lakdagi cholning yo‘talishi uning yonidagi karavot bo‘sh yotganini yana bir bor esiga soldi – yu, chidab turolmadi (O‘.Hoshimov). 3. Oltmishlarga borib qolgan bir mo‘ysafid hassaga tayanib turardi (O‘.Umarbekov). 4. Paxsa devorga chaplangan qovun urug‘ini ari talaydi (S.Ahmad). 5. Yer ostidan topilgan zilolday tiniq suv Ahromning ko‘z oldidan ketmas edi (P.Qodirov). 6. Ammo har yuz metrda yog‘ochdan qurilgan qorovulxonadagi miltqli qorovullar mahbuslarining yo‘liga g‘ov bo‘lib, och qolgan qarg‘alardek atrofga alanglab turishardi (Y.Shukurov). 7. Aziz Rasul Allayorovich bergan papkani yana istar-istamas ochib, turli vaqtda turli qog‘ozlarga bitilgan har xil jadvallar, har xil hisobotlarni ko‘rib chiqa boshladi (O‘Usmonov). 8. Sherdor o‘zining samimiy niyatlarini tushunmayotgan

o'jar malikadan ko'z uzolmay qoldi (M.Qoriyev). 9. Yuqoridan alla nimaning tirsillagani eshitildi ("Qaldirg'ochlar" hikoyasidan). 10. Salqinlab ketishga chaqirgan do'stim Zamon Omonov bizni katta ko'chada kutib oldi (L.Rahim).

**174-topshiriq.** Quyidagi ozaytirma sifatlar yordamida gaplar tuzing.  
*Achchiqqina, himmatli, hidli, sarg'ish, torgina, qizg'ish*

**175-topshiriq.** Quyidagi orttirma sifatlar yordamida gaplar tuzing.  
*Ko'm-ko'k, oppoq, qop-qora, qip-qizil, yam-yashil, sap-sariq.*

**176-topshiriq.** She'rni o'qing. Unda badiiy vositalardan qaysilari ishlatilganligini belgilang va ularni daftaringizga ko'chirib yozing.

### **Kim deyay seni?**

Oppog'im, xudoy asrag'ay seni,  
Ko'z balosidan saqlag'ay seni.  
Sen jahonning eng nozaninisen,  
Qayg'ularg'a hech solmag'ay seni.

Qip – qizil gulim, yop - yorug' oyim,  
Ketmay tur, bir oz men ko'ray seni.  
Dardi jonimning sen davosimi?  
Mungli ko'nglumning podishosimi?

Gulim sen, ko'zim, jonim sen, ko'zim?  
Ko'nglimning buti yo xudosimi?  
Bilmadim, gulim, ayt o'zing kulib,  
Oshiqing nechuk atag'ay seni?

*Fitrat*

**177-topshiriq.** Matnni sinchiklab o'qing. Undagi tasviriy vositalarni aniqlab, izoh bering.

### **Ulug' ayyom**

Erta tong vaqti alohida bir sezgi berardi. Musaffo havo, mayin va yoqimli shamol kurtakdan endigina chiqib, bahorni salomlagan yosh va tiniq yaproqlarni yelpib turardi. Barakalik yomg'irlardan keyin yashnab ketgan barra maysa o'tlar yerlar betini sekin-sekin o'pib ketgan tong shamolida hilpirab-hilpirab ketib, hazillashganday bir-birlarini quchoqlaydilar. Butun yer yuzi, tom-tosh, yog'ochlar ko'k bilan bezagan...

Tabiatning shunday shirin chog'ida sumay, kamay orqasidan nog'ora chalinib ketadir. Bularga quloq berib yotasan, lekin ko'p yota olmaysan, turging, shularga qo'shilib quvonging kelardir...

Yumshoq avtomobillardan "go'dak kamisarlari" vizillab o'ynashib o'tib turibdir; boshlariga ko'k otdan toj (oqlik) o'rab olgan yosh qiz va bolalar ko'chalarda, tom-toshda qarab turgan onalariga, opalariga avtomobildan ko'kat, gul tashlab o'tib ketadirlar, ularning qiziq – qiziq, shirin-shirin ashulalarni qizil bayroqlar bilan bezalgan ko'chalarimizning nozik nag'masi bo'lib eshtilardir.

*A.Qodiriy "Kichik asarlar"*

### *Burgut bilan tulki*

Burgut bilan tulki do'st tutinishdi va qo'shni bo'lib yashashga ahd qilishdi. Burgut bir azim daraxtning qir uchiga uya qurdi. Tulki esa, shu daraxt tagida butalar orasida bolaladi. Oradan bir qancha vaqt o'tib, kunlardan birida Tulki ovga chiqdi. Shunda o'z polaponlarini nima bilan boqishni bilmay, ochiqib o'tirgan Burgut pastga uchib tushib, butalar orasida yotgan tulkivachchalarni ilib uyasiga olib chiqdi – da, ularni o'z polaponlari bilan baham ko'rdi. Mana Tulki iniga qaytib keldi, keldi – yu bir qarashda ne hol yuz berganini fahmladi. U juda qattiq qayg'urdi – nafaqat bolalarning nobud bo'lganidan, balki qotildan qasos ololmasligidan ich etini yeb iztirob chekdi, zero yerdagi hayvon osmondagi qushni tuta olmasligini u yaxshi bilar edi.

Notovon va nochor hayvon nima ham qila olardi? G'animni faqat uzoqdan turib qarg'ashgagina kuchi yetardi uning. Biroq oradan ko'p ham vaqt o'tmay, Burgut do'stlik ahdiga xiyonat qilgani uchun jazosini oldi. Bir odam dalada echki so'yib, xudolar yo'liga qurbonlik qildi; Burgut buni ko'rib uchib keldi-da, qurbongohda laqqa cho'g' bo'lib yonayotgan ichak-chavoqlarni o'g'irlab uyasiga olib chiqib ketdi. Xuddi shu payt birdan qattiq shamol turib, nozik shox-shabbalardan qurilgan uya boyagi ichak-chavoqlar orasidagi cho'g'lardan "pov" etib alanga oldi. Hali uchishni o'rganmagan temirqanot, jish polaponlar kabob bo'lib yerga tushdi, shunda Tulki yugurib kelib, Burgutning ko'zi oldida uning polaponlarini yamlamay yutib yubordi.

*Ezop*

*Aytingchi, qadim yunon masalnavisi Ezop ushbu masala bilan nima demoqchi?*

**178-topshiriq.** She'ni o'qing. Unda badiiy vositalardan qaysilari ishlatilganligini belgilang va ularni daftaringizga ko'chirib yozing.

*Bir oz kul*

Ko'z yoshlarim bukun tag'in oqadimi?  
Qizil gulim boshqalarg'a kular – da.

Qizil gulim, borlig'imning sultoni!  
Jonim, sening xayolingda kuchaydi.  
Yuragimning eng qimmatli armoni,  
Nechuk menga marhamating ozaydi?  
Ikki ko'zim, malak yuzim, sevdigim,  
Jonlar sening yuzingdan aylansun.  
Qizil gulim, qora ko'zim, tilagim,  
Dunyo sening boqishingdan o'rgulsun.

Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,  
Ko'ngil dardin oyog'ing'a to'kolmam.  
Tuproq kabi yiqilmisham yo'lingda deya olmam.  
Istar esang menga kelib gapuray, yonimda hech o'turma.  
Yolg'uz yig'lab uzoqdan turg'animni  
Ko'rganingda, marhamat et, bir oz kul!

*Fitrat*

*E'tibor bering:*

**O'xshatish** – narsa, hodisa yoki tushunchani ma'lum umumiylikka, o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa narsa, hodisa – yoki tushuncha bilan solishtirish. O'xshatish tomoni ko'rsatish bilan yoki – **dek** (- day); **o'xshash, xuddi, go'yo, misli, singari, yanglig', simon** kabi so'zlar yordami bilan tuziladi.

Masalan:

Dedikim: ishqig'a ko'nglung o'zundur?

Dedi: ko'nglumda jondek yoshirindur.

(Navoiy "Farhod va Shirin")

**179-topshiriq.** Quyidagi to'rtlikni ko'chirib yozing va o'xshatishlarni topib, ularga izoh bering.



Qo'limdagi sharob to'la piyola  
Qip – qizildir go'yo bahorgi lola.  
Qip – qizil botayotgan kun kabi,  
Qip – qizildir go'yo qizlarning labi.

(H. Olimjon, "Qadah")

180-topshiriq. Quyidagi misollarni ko'chirib yozing va o'xshatishlarni izohlang.

Osh yesalar o'rtada sarson ilik,  
Xo'ja-chirog' yog'i, Hakimjon-pilik.

(Muqimiy "Tanobchilar")

*E'tibor bering:*

**Jonlantirish** – badiiy tasvir usullaridan biri bo'lib, insonga xos qobiliyat va xususiyatlarni: so'zlash, his qilish, fikrlash va hokazolarni hayvonlar jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga o'tkazishdan ya'ni jonsiz narsani jonlantirishdan iboratdir.

*Masalan:*

Yaprog'iga bekinib olib,  
Suqing kirar ko'p nazar solma!  
Qizil yuzlarimdan bir o'pkaning  
Armoni yo'q, – der, yoqut olma.

(Uyg'un "Kuz qo'shiqlari")

181-topshiriq. Quyidagi g'azalni diqqat bilan o'qing va tasviriy vositalarni aniqlang. Ularga izoh bering.

Oy yuzidin oxiri oldi, niqob,  
Hush davosin qilmasin deb oftob.  
Sen uzotib muncha gulgun bodani,  
Jonu dilga muncha bergaysan azob!  
Boshima kel, maqdaming o'pgay bahor,  
Tashnalik, ochlik berar yuz iztirob.  
Ko'zlarimning senga boqmog'i mahol –  
Bo'ldi hijron tuni qirg'oq – joyi xob.  
Yodima bazning sening keltirgusi,  
Har nafas nay – nolani, g'amni – rubob.  
Bo'lmadi qadoling barobar sarv bilan,  
Bo'ldi qoshingda hijolatdan gul – ob.  
Chiqdi Mahmud dilidan, Ayoz sabob,  
Sabru qaror, aqlu egiligu xob!

(Mahmud G'aznaviy "Mahmudnoma")

**Tahlil qiluvchi – munosabat bildiruvchi – matnda keltirilgan biror dalil, fikr yoki tushuncha tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi**

**Matn tahlili quyidagicha bo'lishi mumkin**

<i>Matn tuzilishi</i>	<i>Leksik qurilma</i>
<i>Matn mavzusi</i>	<i>Maqola ..... deb nomlangan. Maqola mavzusi ..... Maqolada to'xtalib o'tiladi, tahlil qilinadi, baho beriladi. Muallif nuqtai nazari yoritiladi.</i>
<i>Matn kompozitsiyasi</i>	<i>Maqola ..... kabi qismlardan iborat bo'lib, ..... Unda ..... fikr yuritilib, ..... deya yakunlanadi.</i>
<i>Maqola muammosi</i>	<i>Ushbu maqola ..... kabi masalalarni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ..... Muallif ..... kabi muammolarni hal etishga kirishadi. .... ustida to'xtalib o'tadi. Muallif o'z fikrini quyidagicha bayon qiladi: ..... Muallif ilmiy dalillarga asoslangan holda quyidagi xulosaga keladi: .....</i>
<i>Muallifning ilmiy qarashlari</i>	<i>Muallif ..... yoritishda ..... kabi asosli dalillar keltiradi. U o'z fikrini ..... o'rinli iqtibos, ..... kabi dalil, ..... raqamlar bilan asoslaydi.</i>
<i>Xulosa</i>	<i>Muallif shunday xulosaga keladiki, ..... Muallif o'z fikrini umumlashtirib ..... Yuqorida keltirilgan asosli dalil va isbotlardan kelib chiqib, ..... Umuman olganda ..... Ushbu dalillar shuni ko'rsatadiki .....</i>

Bunday matnlarga ko'pincha "Nima uchun" so'rog'i beriladi. Ular: kirish, tezis, asosiy qism (dalil isbot) va xulosadan iborat bo'ladi. Kirish (tezis) odatda biror ta'rifdan boshlanadi yoki "Biz qanday insonlarni ziyoli deymiz?" kabi savol murojaati bilan boshlanishi ham mumkin.

Yuqorida berilgan matn turlari sof holda kam uchrashi mumkin. Asosan ma'lumot beruvchi, tasvirlovchi va tahlil qiluvchi matn turlari ko'proq uchraydi.

**182-topshiriq.**

- 1) Biror iqtisodiy sohaga oid ilmiy yoki badiiy tarif bering.
- 2) Do'stingizning ishbilarmonlik qobiliyatini ta'riflang.
- 3) Kursdoshingizni tavsiflang. Kim haqida gap ketayotganligini topishni do'stlaringizdan so'rang.

### *E'tibor bering:*

**Munosabatni bildiruvchi** – biror yangi kashfiyot, badiiy yoki ilmiy asar, kinofilm, darslik, spektakl, musiqiy yoki tasviriy asar yaratilishi munosabati bilan yozma ravishda bildirilgan fikr

**183-topshiriq.** Quyidagi matnni o'qing va uning boshqa matnlardan farqli tomonini aniqlang.

#### *Roman haqida ikki og'iz so'z*

“Qoraqyun” romanining jurnal variantini qiziqish bilan o'qib chiqdim. Jurnal variant deyishimga sabab shuki, muallifning aytishicha, asarning hali ishlanishi va to'ldirilishi lozim bo'lgan joylari bor ekan. O'zini hurmat qilgan adib asar bitdi deya ancha payt tashlab, yana biron sabab bilan qayta qo'lga olganda, ko'ngli to'lmay, yana pishirilishi kerak ekan degan xulosaga kelaveradi. Bu uning adabiyot oldidagi mas'uliyatini ko'rsatadi. Jurnalda e'lon qilinayotgan parcha roman haqida to'laqonli tasavvur uyg'otmasa ham, bugungi nasrimizda voqea bo'lishga va jiddiy tahlillarga arziydigan asar dunyoga kelayotgani haqida xulosa bera oladi, deb o'ylayman. Normurod aka dasht odamlarini, ularning turmush tarzi, ichki dunyosi, hayvonot olamini yaxshi bilishini oldingi asarlari bilan isbotlab bergan. “Qoraqyun”da ham men dasht odamlarining jozibali, qaynoq xususiyat va kechinmalarga to'la qismati, chigal taqdirleri, hayvonot olamining sinchkovlik va bilimdonlik bilan yaratilgan tasvirga duch kelaman, deb o'ylagandim.

Biroq Normurod akaga xos bo'lgan an'anaga mos tarzda, asosiy yuk yana Qoraqyun – itga tushgan bo'lsa-da, bu safar asar ruhi, sujeti falsafiy tus olgan. Asar g'oyasi odamlar o'rtasidagi adovat, kun, tabiatdan uzoqlashish, xudbinlik va nafs balosiga ruju qo'yish insoniyatni ham va uni o'rab turgan olamni ham halok etadi degan hikmatga qurilgan. Erman va Itolmasning adovati tufayli tabiat timsoli bo'lgan Qoraqyun halok bo'ladi. Chunki Erman itni ham adovatining bir qismi, qasos vositasi sifatida zanjirga bog'lab tarbiyalaydi. Avlodi bo'ri bo'lgan it asta - sekin zanjirda bani olamga kin va g'azab bilan qaraydigan maxluqqa aylanadi. U o'z egasidan boshqa barcha narsani tilka-pora qiladigan mavjudod qiyofasiga kiradi. Oxir-oqibat u Itolmasning bo'g'zini uzib oladi, ammo shu bilan birga o'zi ham halok bo'ladi. Boshqacha aytganda, tabiatni o'z nafi yo'lida qurol qilib olish, ularni parokanda qilish, o'ldirish bilan barobardir, degan xulosa kelib chiqadi. Tabiatni bo'ysundirdim, deb

maqтанish, tabiatni o'z qiyofasi va mohiyatidan ayirish bani olamni vayron qilish bilan barobardir.

**184-topshiriq.** Matn turini aniqlang. Uni bog'lab turuvchi unsurlarda e'tibor bering. Kompozitsion qismlarini aniqlang.

*Siz bahs – munozaraning turli usullari borligini bilasizmi? Agar siz do'stlaringizni bahs-munozara vaqtida kuzatsangiz, ular o'zlarini turlicha tutishlariga guvoh bo'lasiz.*

*Ba'zilar, munozara vaqtida o'zlarini og'ir-bosiq tutadilar, boshqalarni hurmat qilgan holda keskin, nohalol ravishda baland ovoz bilan fikr bayon qilmaydilar. Ular o'z qarashlarini daliliy asosga suyangan holda bayon qiladilar. Odatda bunday bahs-munozaralarda har ikki tomon maroq bilan muammoni hal etishga oshiqadilar.*

*Boshqalar esa, o'zlarini go'yo jangda his etib bor kuchlari bilan mumkin bo'lmagan usullarni qo'llaydilar. Ular uchun eng muhimi raqibni pachavasini chiqarib, ko'pchilik ichida noqulay ahvolga solib qo'yish. Demak siz jangovor holatda bo'lishingizga to'g'ri keladi.*

*Nihoyat, shunday bir ashaddiy bahslashuvchilar ham borki, ular o'zlarini haddan tashqari bo'lmag'ur tutadilar. Ular opponet so'zlarini tez – tez bo'lib tashlaydilar, uni obro'sini to'kuvchi, haqoratlovchi gaplar aytadilar, yoqimsiz baland ovoz bilan gapiradilar, bular ham kamlik qilganidek “qoyil qilayapmanmi” degandek zo'raki tabassum bilan eshituvchilarga qarab qo'yadilar. Bir so'z bilan aytganda o'zlarini o'ta tarbiyasizlik bilan tutadilar.*

*Shunday qilib, munozarachilarning o'zlarini qanday tutishlari muammoni yechimini topishda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bahslashuv usulini tushunish, opponetlarning munozara vaqtida o'z holati va qarashlari qay holda o'zgarayotganligini darhol ilg'ab olishi ziyraklik bilan o'z bahslashuv usulini topib, qo'llay bilish talab qilinadi.*

**L. Pavlova**

## 20-§. MUHARRIRLIK

**Muharrirlik** - ko'p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Muharrirning asosiy vazifasi – matn turini yaxshilash, uning uslubini hamda kompozitsiyasini talab darajasiga keltirmoqdir. Shuningdek, uning eng asosiy vazifasi matnni leksik va gramatik nuqtai nazaridan nafaqat maromiga yetkazish, balki uni yengil tushunilishi va qabul qilinishini ta'minlashdir.

Muharrir aynan qanday til va usullar bilan fikrni aniq va yorqin ifodalash usullarini topishi muhim. Boshqacha aytganda muharrir juda fikr doirasi keng, bilimli, o'ta savodxon, ma'naviyati baland va madaniyatli bo'lishi lozim.

Ko'pincha yozma ishlarda, referat va boshqa matnlarda uchraydigan xatolarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ba'zan materialni aniq bilmay turib, noaniq fikrlash, o'z fikrini tushunarli va aniq ifodalay olmaslik (daliliy, mantiqiy, uslubiy, nutqiy).

2. Savodxonlikni belgilovchi xatolar (orfografik, punktuatsion, gramatik).

**Daliliy xatolar deganda** – ba'zan dalillar (dalil) buzib ko'rsatiladi.

*Masalan*, "Navoiy" romani Abdulla Qodiriy qalamida mansub yoki "1942- yilda ikkinchi jahon urushi boshlangan" kabi.

**Ism-familiyalarning** noto'g'ri berilishi. *Masalan*, "Abdurauf Fitrat" o'miga "Abduqodir Fitrat" kabi.

**Joy nomlarining** noto'g'ri berilishi. *Masalan*, "Meganletet majmuasi Chilonzorda qad rosladi" kabi.

**Iqtibos** (sitata) keltirishda ham ko'pincha xatoliklarga yo'l qo'yiladi. *Masalan*, S. Rizayev "Ish qog'ozlarining ayrim turlari". "Mehnat", 1990. Aslida esa namunalari bo'lishi kerak.

**Uslubiy xatolar** – bir so'zni yoki tushunchani ketma – ket kelgan jumalarda noo'rin takror ishlatilishi, shuningdek, so'z yoki so'z birikmalarida taftologik xatolarga yo'l qo'yilishi kabi.

*Masalan*, Oybek..... yilda tug'ilgan.

Oybek o'z ijodini she'riy asarlar yozishdan boshlagan.

Oybek asarlarida .....

Bunday bir nomni takror ishlatavermay uning o'miga: Uning asarlarida.....

U o'z ijodini ..... kabi olmoshlardan foydalanish mumkin.

**Tavtologiya** – (gr.tauto – bu ham o'sha, logos so'z ) – aynan bir ta'rif yoki muhokamaning boshqa so'zlar bilan qaytarilishi, so'z va iboralardagi o'xshashlik.

*Masalan:*

“Kecha bozorda idish – tovoqlarning turli xil turlarini ko‘rdik”.

“Madrasa butunlay 1930- 1960- yillarda qaytadan butunlay tiklandi”.

Kabi jummalarda bir so‘z hech bir asossiz ravishda bir gapni o‘zida takrorlangan. Matn tuzishda bunday nuqsonlardan qochish lozim bo‘ladi.

*Oddiy matnlarda tautologiya nuqson hisoblansa, poetik tilda nutqning emotsionalligi va ifodaliligini kuchaytirish uchun takror turlaridan biri sifatida qo‘llaniladi. Bunda tovush ohangi va ma‘nosi bir xil bo‘lgan so‘zlar (masalan, isityapti – issiq bermoqda kabi) yo tovush ohangi jihatidan boshqacha bo‘lib, ma‘nosi yaqin bo‘lgan so‘zlar (yig‘lamoqda-qayg‘urmoqda kabi) takrorlanishi nazarda tutiladi.*

*Ba‘zan ayni bir so‘z turli ma‘noda qofiyalanib keladiki, bu tautologik qofiya deyiladi. Masalan:*

Chu shirin joni erdi, onsiz o‘ldi,  
Dami kim onsiz o‘ldi, jonsiz oldi.

*Navoiy*

Ma‘lum bir ta‘rifning aynan, hodisa va tushunchaga izoh bermay, tasavvurni boyitmay qaytarilishi ham salbiy ma‘noda tautologiya deb aytiladi. Masalan:

“Muallif nutqi – muallif nutqidir”.

Bunday holatda tautologiya muallif tilining kambag‘alligini, uslubining g‘o‘rligini ko‘rsatadi.

***E‘tibor bering:***

**I** Yozuvchi shoirlarning F.I.SH nomlari o‘rniga (shaxs olmoshi)

Nazar Eshonqul (asar muallifi) yozuvchi, shoir

Ochil Tog‘ayev so‘z ustasi, mohir adib kabi

**II** Sinonimlardan foydalanish:

Vafot etmoq – hayotdan ko‘z yummoq,

abadiy uyquga ketmoq,

dunyoni tark etmoq

qaytish qilmoq.

Ko‘rmoq – nazar tashlamoq,

diqqat qilmoq,

e‘tibor bermoq,

ilg‘amoq.

kabilardan foydalanish maqsadga muvofiq.

185-topshiriq. Matnning diqqat bilan o‘qiling va boshqa ma‘lumot beruvchi matnlardan farq qiluvchi tomonini aniqlang.

### *Abdulla Avloniy*

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miraylon aka mayda hunarmandchilik - to'quvchilik bilan shug'ullangan. Piyon bozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi san'at muzeyi atrofida) bo'z va chit bilan savdo qilardi.

Abdulla 7 yoshidan O'qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil ko'rdi. Ammo tirikchilikning og'irlashuvi o'qishga imkon bermadi.

"1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o'qib, boshqa fasllarda mardikor ishladim" – deb yozadi Avloniy. Ko'p o'tmay bu ham barham topti. U butunlay ishga sho'ng'ib ketdi. O'zi aytganidek, "binokor"likni o'rgandi, "g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari" bilan mashg'ul bo'ldi.

Adabiyotga havas unda shu yillari uyg'ondi. Navoiy she'riyatiga, Fuzuliy g'azallariga mehr qo'ydi. So'ngsiz bir ishtiyoq bilan fors tilini o'rgandi. Sa'diy va Hofizning sehrli olamidan zavq-shavq oldi. Nihoyat bular o'z samarasini berdi. O'zi kamtarona qayd qilganidek, "She'r yozishga tutindi" Avloniy bu vaqtni 1894-yil deb ko'rsatadi. Afsuski, yoshlik davrida yaratgan she'rlarning hech biri bizgacha saqlanmagan. Shoirning bizga ma'lum she'rlari 1905-yildan keyin yozilgan.

Mashhur pedagog, olim va shoir, aktyor va dramaturg, tarjimon va jurnalist Abdulla Avloniy 1934-yilda Toshkentda vafot etdi.

### *Begali Qosimov*

**186-topshiriq.** O'z tarjimai holingizni yozma ravishda batafsil bayon qiling.

**187-topshiriq.** O'zingiz sevgan yozuvchi va shoir yoki mashhur kishilardan 4ta shaxsning tarjimai holini yozing.

**188-topshiriq.** Punktuation me'yorning buzilish holatlarini toping.

1. Zaldan voy tavba, shu ham gapmi degan tovushlar eshitildi.  
2. Toshkent! Ey mening ona shahrim Toshkent!  
3. Komiljon uni ko'rib, onajon deb baqirib yubordi.  
4. Rayhon, binafsha gullarni juda ham yaxshi ko'raman.  
5. Qaniydi mana shu kitoblarnig barchasi meniki bo'lib qolsa!  
6. Bu joylar juda ajoyib joylar ekan-ku!  
7. Kech tushdi, shamol esa boshladi.  
8. To'satdan hovlida qadam tovushi eshitildi.  
9. Uni ko'rib yuragim tez, tez urib ketdi.  
10. Yarim kecha edi, olisdan o'q tovushi

*eshitilib qoldi. 11. Ruhlarini shod etay degan qalb pok bo'lishi, yurish – turishi, kiyinishi bilan ajralib turishi kerak. 12. Kelin kuyovlar bu yerga ulug'lardan baxt – najot tilab kelganiga emas o'zlarini birovlariga ko'rgazma qilayotganga o'xshaydi. 13. Nimani tushunganimizni albatta so'rar edilar. 14. Shveysariya va Gretsiya taqdirlandilar ko'rgazmaning baxtli ishtirokchilaridan biri. 15. Ayrimlariga kamar yoki xivchin, tarsaki yoki musht bilan tarbiya beradilar. 16. Dadam bizlarni, onamizni hech urushmaganlar.*

### **Jargonlar**

Saroy doirasiga mansub bo'lgan yuqori mansabdorlar, savdogarlar, din ahllari, qalandarlar, gadoylar, o'g'rilar o'z niyatlarini xalqdan yashirish maqsadida o'zlari uchungina tushunarli bo'lgan so'z va turg'un ifodalardan foydalanganlar. Bu so'zlar ko'proq o'zbek, tojik, arab tillariga oid bo'lib, ba'zan ular tovush tomonidan ham, ma'no tomonidan ham sun'iy ravishda o'zgartirib yuborilgan. Shuning natijasida qandaydir buzilgan dialekt paydo bo'lgan. Bu esa umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali yoki yashirin "dialekt" jargon deyiladi. Jargon – fransuzcha "buzilgan til" ma'nosini anglatadi. Masalan, oftobi olam ("podshoh") husni mutlaq ("xudo") nishoni oily shon ("xon"), farmoni oliy shon ("farmon") kabi dabdabali, hashamatli so'zlar saroy aristokratiyasiga mansub bo'lsa, inxay ("choy") tish ("guruch") ellik olti ("ipak"), qaychi ("revizor") kabi yashirin so'zlar savdogarlarga mansub bo'lgan jargonga xos so'zlardir.

O'g'rilar, qimorbozlar orasida esa loy, yakan ("pul"), bedana ("to'pponcha"), molam bo' ("bor"), deg'o ("begona"), xitolla ("o'g'irla") kabi xalqqa tushunarli bo'lmagan so'zlar ishlatilgan. O'g'rilarga xos bunday so'zlar argo ham deyiladi. Jargon va argolar hozir tilda qo'llanmasa ham, badiiy adabiyotda, tarixiy asarlarda, felyetonlarda voqelikni to'laroq aks ettirish uchun ulardan foydalaniladi.

### **Terminologik va kasb-hunar leksikasi.**

Kasb-hunarga doir bo'lgan so'zlar professionalizmlar yig'indisi esa professional leksika deyiladi.

Hozirgi zamon o'zbek tili o'zbek xalqi hayotida qadimdan mavjud bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, suvoqchilik, ipakchilik, misgarchilik, duradgorlik va boshqa hunarlarga doir bo'lgan maxsus so'zlarga juda boy. Masalan, kulolchilik kasbida **dog'chil** (xum yasashda ishlatiladigan yog'och asboblardan biri), **aspak** yoki ot **yog'och**, **bandak** yoki **bog'ich** (yasalgan xom idishning labini tekislash uchun ishlatiladigan



latta, charm yoki kigiz parchasi), **bo'g'iz dasmol**, **loy** (tekislash uchun ishlatiladi)kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida **bozi** (tokchaning yonlari, ikki tokchaning oralig'i) **andava** (loy suvaydigan asbob), **loykash** (loy tayyorlovchi kishi), **mola gazcho'p** (chaplangan loyni u yoq-bu yoqqa surish uchun ishlatiladigan reykasimon asbob) **moshpora** (ipak o'raladigan yog'och asbob), **davrakash** (davra qo'yuvchi), **tahpilchi** (ipakchilikda bir vazifa) kabi maxsus so'zlar bor. Bu so'zlar, odatda, shu kasb sohasida ishlaydigan kishilar uchungina tushunarli bo'lib, juda tor doiradagina qo'llanadi.

Kasb-hunarga doir so'zlarda sheva xususiyatlarining izi bilinib turadi.

Hozirgi davr – yirik industriya, taraqqiy etgan texnika davri. Shuning uchun hozirgi o'zbek tilida kompyuter bilan umuman barcha fanlar bilan bog'langan so'zlar – professionalizmlar ko'p.

**189-topshiriq.** O'zingiz bilan kasb-hunarga oid bir qancha so'zlar topib yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

**Termin** – fan, texnika, san'at sohasidagi ma'lum bir aniq tushunchani ifodalaydigan so'z yoki turg'un ifodalardir. Masalan: **morfologiya**, **leksika**, **suffiks**, **sanor** kabi tilshunoslik sohasidagi terminlar;

**kvadrat**, **teorema**, **parallelopiped** kabilar matematika sohasidagi terminlar;

**miokardit**, **plevrit**, **travma** kabilar tibbiyot sohasidagi terminlardir.

Biror fan yoki ishlab chiqarish sohasida qo'llanadigan terminlarning jami **terminologiya** deyiladi.

Terminlar dialekt yoki shevaga xoslikni bildiradigan fonetik, morfologik yoki lexis belgiga ega bo'lmaydi, balki ular umummilliy tilga xos bo'ladi.

Terminlar umummillat doirasida bir xilda qo'llanadi va yoziladi.

Ma'no jihatdan terminlar, odatda, internatsional xarakterga ega.

Ilmiy-texnik terminlarni o'zbek tilidagi imkoniyatlar yordami bilan yasashda terminning rus tilidagi ma'nosi va morfologik tuzilishi asosida aynan tarjima qilish muhim rol o'ynaydi. Masalan: burilish nuqtasi (точка поворота), tayanch nuqtasi (точка опоры), tenglama (уравнение), bo'r davri (меловой период), unli (гласный), undosh (согласный), urg'u (ударение), aniqlovchi (определение) va boshqalar.

Terminlarning ko'p qismini internatsionalizmlar tashkil qiladi. Masalan, **giperbola**, **genetika**, **alkoloid**, **brom**, **bakteriya** kabi so'zlar ko'pgina millatlarning tillarida bir xilda qo'llanadi.

*Sleng* – hozirgi kunda yoshlarning o'ziga xos og'zaki, ko'cha tili hisoblanadi. Bu biror gap yoki fikrni o'ziga xos tarzda o'zgartirib aytish demakdir. *Masalan:*

**dahshat** - o'ta zo'r ma'nosida

**quloqqa tepmoq** – yolg'on gapirma ma'nosida

**lag'mon osmoq** – bo'lar-bo'lmas gaplarni gapirmoq

**op qochmoq** – gapni aylantirmoq

**lagan** – lapashang, anqov

**harip** – gapga tushunmaydigan, g'alcha ma'nosida

**qotib qopti** – mast bo'lib qolish ma'nosida

**javob** – gapirilayotgan gapga kafolat bermoq ma'nosida

Yuqoridagi kabi noxush, yoqimsiz, salbiy so'z va iboralar afsuski tobora ko'payib borayapti. O'zini ziyoli sanagan har bir inson o'z nutqida bunday illatlarga yo'l qo'ymasligi lozim.

### **Mustaqil o'qish uchun materiallar**

#### ***Mening o'g'rigina bolam***

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil - o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam - onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab «qora buvi» deb ataymiz. Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi ochiq ayvonda uvunto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Sentabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz yetimlar bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so'nggi bo'lib, ona chumchuqday qora buvim yotardilar, u kishi saksondan oshib ketgan, noskash kampir edilar.

Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovoz bilan suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda bog'ga ko'chib ketardilar. Hozir ular tomon bo'sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da, dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza

maqtanadigan bo'ldim-da: «Bizning uyga o'g'ri keldi». G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?

O'g'ri o'sha amakivachchalarning tomidan sekin yura kelib, buvimning to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribdi. Buvim esa yostiqni ko'kraklariga qo'yib, til tagidagi nos bilan o'ylab yotar ekanlar. Buvim «tuf» deb nosni tuflab, tomga qarab:

– O'g'rigina bolam, hoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning ko'yida tomga chiqqan ko'rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, - debdilar.

O'g'ri tomdan turib:

– Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo'lini to'saverasizmi? - debdi.

Men gap shu yerlarga kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

– Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo'ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo'q. Kunduz kunlar garangday dovdirab yuraman. Biror yerga o'tib mizg'iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari hayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni hayol surasiz, buvijon? - bu gapdan keyin ustidagi to'nini turmuchlab bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarning hayolini surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da, bolam. Zamoni o'zing ko'rib turibsan, tiriklik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig'. Hali bularning qo'lidan ish kelmaydi. So'qqaboshgina aravakash tog'alarining topgani o'zining ro'zg'oridan ortib, bularga qut-loyamut bo'lishi qiyin. Ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib, qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. «Turib yeganga turumtog' chidamas», deganlar. Eh-ha, bu bolalar qachon ulg'ayadi-yu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi! Chor-nochor hayol surasan, kishi. Tag'in bu yetimlarning bittaginasini o'g'il, uchtasi qiz. Endi o'n to'rttdan o'n beshga o'tdi. Qizlari qurg'ur qachon bir yerga elashib ketadi-yu. O'zi o'rab, o'zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko'zi uchib turibdi deysan. Zamon qattiq, o'g'rigina bolam, zamon qattiq!

– To'g'ri aytasiz, buvijon, - dedi o'g'ri, - mening ham ikki bolam, xotinim, bitta kampir onam bor, bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak, deganlaridek, shularni boqishim kerak. To'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tga, cho'g'ga, Alining qilichiga uraman. Bo'lmasa, ishlay

desam bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'rilik kasbi yoqadi, deysizmi. Tuppa-tuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi, degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinmaydi. Hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarniki.

– Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi, bolam, - dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod. Ota kasbim kavushdo'zlikni qilaymi? Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok. Masallig'ining o'zi bitib chiqqan kavushdan uch baravar qimmat. Hammolik qilay desam, avvalgidek qoplab g'alla, qoplab sabzi-sholg'om oladigan badavlatning tuxumi qurigan. Tunov kuni shu mahallaning devkor etikdo'zlaridan Buvamat ota butun qolip-u shon-u so'zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga moveza qildi. Yaxshi qildi. Uning etigini kiyadigan o'zbek, qozoq, qirg'iz dehqonlari qayoqda deysiz, qolgan emas. Faqat ularning yetimlarigina shahrimizni to'ldirib yuribdi. Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib: «Amaki, non bering», deydi. Non-a, o'zimiriga topolmayman-u! Bitta man emas, buvi, mahalladagi hamma kosiblarning ahvoli shunaqa. Pichoqchilar ham, bo'zchilar ham, ko'nchilar ham, boringki, maktab domlari ham, mullavachchalarning ham rangi pano. Bir qoshiq obi yovg'onga zor. Sanqib yuribdi.

– Huv, xudoyo urushi boshiga yetsin, qiyomat-qoyim degani shudir-da, a, o'g'rigina bolam-a. Ha, mayli, shu yetimlarning ham peshanasiga yozgani bordir. Xo'sh, endi o'zingdan so'ray. Axir, noilojlikdan-ku, shu harom yo'lga qadam bosibsan, o'ziga to'qroq, badavlatroq odamlarnikiga borsang bo'lmaydimi? Mana shu mahallada Karim qori degan chitfurush bor, Odilxo'jaboy degan pudratchi bor. Matyoqubboy degan ko'nchi bor. Bularning davlati-ku mil-mil. Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi. Shularning tomini teshsang bo'lmaydimi?

– Ey, buvim tushmagur, soddasiz-da, sodda, - dedi o'g'ri. - Boylarning uyiga tushib bo'ladimi, ularning paxsasi sakkiz qavat, eshiklari temirdan, har bittasining qo'rasida eshakday-eshakday ikkita, uchtadan itlari bor. Bu itlar hovli sahnidan bitta kapalak o'tsa, bir hafta vovullaydi. Odilxo'jaboyning g'ulomgardishida-chi, miltiq ushlagan gorodovoy turadi. Jonimdan kechibmanmi, o'ldirmaganda ham sibir qilib yuboradi.

– Bu gaping ham to'g'ri, o'g'rigina bolam. Ammo-lekin ehtiyot bo'l. El-yurtning oldida tag'in badnom bo'lib qolmagin, - dedi bizning kampir.

– Gapingiz to‘g‘ri, buvi, tunov kuni Orif sassiqning otxonasidan to‘rtta tovuq, bitta xo‘roz o‘margan edim.

– Tovuuq, xo‘roz dedingmi? Ha, bu maxluqlari qurg‘ur qaqaqlab seni sharmanda qilmadimi?

– Hamma ishning ham o‘z maromi bo‘lar ekan, buvi, tovuq olgani borganda cho‘ntagimga bir shishaga suv solib olaman. Keyin qo‘ndoqning tagiga borib, og‘zimni suvga to‘ldirib tovuqlarga purkayman. Tovuuqday ahmoq jonivor olamda yo‘q. Yomg‘ir yog‘yapti, shekilli, deb o‘ylab, boshini ichiga tiqib, hap yotaveradi, keyin bitta-bitta hiqildog‘idan tutib xaltaga solaman.

– Shunaqa degin, voy tavba-ey. Hamma hunarning ham o‘zining murt gardoni bo‘lar ekan-da.

– Shunday qilib desangiz, buvijon, sirimning xashagi ochilishiga oz qoldi. Yo‘q, ellikboshimiz Rahmonxo‘jaga xo‘rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi. Rahmonxo‘ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so‘m pul jamg‘arib: «Topganimiz shu, ellikboshi ota», deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi.

– Ha, ishqilib, bola-chaqasining egiligini ko‘rsin. Endi buyoqqa qara, o‘g‘ri bolam, hademay tong ham yorishib qolar. Ana, yorug‘ yulduz ham tikkaga kelib qoldi. Oshxonaning yonidagi tutdan sirg‘alib pastga tush, o‘tinimiz yo‘q. Oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor, boltani olib, shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman. Kecha tog‘ang berib ketgan zog‘oradan ikkitasini olib qo‘yganman, birgalashib choy ichamiz.

– Yo‘g‘-e, buvi, - dedi o‘g‘ri, - to‘nka yorib-ku berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman.

– Voy o‘lay, qutlug‘ uydan quruq ketasanmi, bolam? Bir nima olib ket. To‘xta, nima olib ketsang ekan, ha, darvoqe, oshxonada bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlar uyimizda odamlar ko‘p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g‘ashiga tegdik shekilli, shundoq katta, gurkiragan xonadondan mana shu to‘rttagina yetim qolib turibdi. Eh-ha, bular qachon katta qozonni qaynatar edi-yu... Shuni olib keta qol. Sotib bir kuningga yaratarsan, o‘g‘rigina bolam.

– Yo‘q, yo‘g‘-e, buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo‘lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo‘ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. O‘sha yetimlarning o‘ziga buyursin.

To'ylarida o'ynab-kulib xizmat qilaylik. Xayr endi, buvi, men ketaman, tog' tomon ham yorishib qoldi.

– Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur.

– Xo'p, ona, xo'p...

Men o'sha o'g'ri kishini tanir edim. Haligacha hech kimga kimligini aytgan emasman.

1. ↑Uvunto'da - eski, titilib ketgan.

2. ↑Turmuchlab - buklab.

3. ↑Lut-loyamut - yetarli ovqat.

4. ↑Chavati non - oshirilmagan xamirdan qilinadigan yupqa non.

5. ↑Kerinska poshsho - Rossiyada 1917-yilning fevralidan oktabr oyiga qadar hukm surgan muvaqqat (vaqtinchalik) hukumat boshlig'i.

6. ↑G'ulomgardish - hovli darvozasi yonida qullar yashaydigan kulba; bu yerda «yo'lak» ma'nosida ishlatilgan.

7. ↑Murt gardoni - hisob-kitobi, javobi.

8. ↑Egiligini - «rohatini», «orzu-havasini» ma'nosida.

(*G'ofur G'ulom*)

**Fanorchi** Tor, qiyshiq ko'chani o'ksik oqshomini Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga o'tqizilgan bir fanorning titrak nurlarigina yoritar edi. Uni har kun kechqurun past bo'yli, burushiq yuzli bir chol kelib, yoqib ketar edi. Biz uni «Fanorchi ota», der edik. U juda yuvvosh, indamas kishiydi, kichkina narvonchasini chaqqon qo'yib, allaqanday ustalik bilan chiqar, qo'ltig'idan kir ro'molchasini olib, avaylab fanor oynalarini artardi. Fanorni yoqqach, yerga tushib, obkashdek bukilgan yelkasiga narvonchasini qo'yib birpasda ko'zdan yo'qolar edi.

Fanor qurilgan vaqtlarda butun mahalla quvonib, unga allaqanday mehr ila qaragan bo'lsalar-da, faqat bu mehr uzoqqa cho'zilmagandi. Keyincha har kim unga parvosiz bo'la boshladi.

Ayniqsa, mahalla bolalari ila fanor orasida anglashilmas dushmanlik uyg'ondi. To'planishib, avvalo bir-birimizning do'ppimizni otishar, fanorga do'ppi kiygizgan o'rtoq merganligi ila kerilar edi. Keyincha bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki piston qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do'ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo'lar edi. Shuning uchun qo'limizga tosh, kesak olib, fanorga hujum qilishni o'rgandik. Bunda u juda kuchsiz edi: kichkina bir kesak yoki tosh parchasi bechora fanorning oyna kozlarini o'pirib tushirardi. Keyin-keyin Fanorchi ota haftada uch-to'rt marta unga «yangi ko'zoynak» taqib ketishga majbur bo'lardi. U ketdi, darrov biz yangi «ko'z»ini o'yib

olardik. Shunday bo'lsa-da, Fanorchi ota «Lom» deb og'iz ochmasdi. Uning bu qiligi bizga sira yoqmas, tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib urasa ekan, der edik. Ammo shu tilaklardan bittasi ham yuzaga chiqmasdi.

Bir kun, namozshom vaqti, ko'chada bolalar ko'p edi. Ichimizda eng ko'p qo'rqmaydigan, eng battol Qosim cho'loq:

«Bolalar!» – dedi. Changga botgan yuzlarimiz yangi bir narsa kutib, uning ko'zlariga tikildik.

– Fanorchi ota keladigan vaqt yaqin. Sindiramiz. Nima qilar ekan? – dedi-da, qo'lga ilinadigan bir narsa qidira boshladi.

Qo'llarimizdan g'izillab uchgan tosh-kesaklar fanorning hamma ko'zlarini teshib o'tgan edi. Uzoqdan Fanorchi otaning bukilgan kichkina qomati yaqinlasha boshladi. Narvoncha yelkadan tushib, ta'zim ila devorga suyandi. Fanorchi ota uning ustiga chiqdi-da, «chirt» etib, gugurtni yoqdi: fanor to'rt tarafdin qulagan uy kabi ajava tusda, yana bir tomonga qiyshayib turar edi. Biz hammamiz kerilib turar edik. Ba'zilar «piq-piq» kulishdi. Chol kasal odamga o'xshab, sekin-sekin pastga tushdi. o'siq qoshlari tagida qisilib yotgan ko'zlari ila hammamizga yalingansimon qaradi-da, mayin bir tovush bilan:

– Tentak bolalarim, bu qanday gap? Fanorga tegmasanglar, bir narsa bo'ladimi? U yuqorida, sizlar pastda o'ynay beringlar-da.

Bolalar jim bo'lgan edi.

– Sizlar hali yosh, ko'zlaringiz o'tkir. Qorong'i ham, yorug' ham baravar. Xufton bo'lmasdan onalaringizning quchog'ida pish-pish uxlab qolasiz hammangiz. Bizga o'xshash qari-qartanglar uchun chirog' judayam kerak, – dedi.

Bolalarning ko'zi cholda edi.

– Tunov kuni kechasi qattiq yomg'ir yog'ib turgan edi. Bu yoqqa kelsam, ko'cha qop-qorong'u. Fanorning teshik oynasidan shamol kirib o'chirib qo'ygan. Ana u ariqning bo'yiga borganimda bir nima suvni shapillatardi. Yopiray, nima ekan, deb fanorchamni ariqqa tutsam, mendan ham qari bir kishi ariqdan chiqolmay yotgan ekan. Darrov qo'lidan tortdim, bir amallab chetga chiqardim, hamma yog'i loy, jiq-jiq suv.

Bolalardan biri:

– Voy, boyaqish, soqoliam, yuziam loymi?

– Hamma yog'i loy bo'lgan... Keyin yetaklab uyiga eltib qo'ydim, – dedi chol.

Mening ko'zimga Fanorchi otaning degani shunday ko'rinib kelgandi, Qosim cho'loq:

- Yolg'on-yolg'on! – deb baqirdi. Bolalar birdan:
- Rost! – deb javob qaytarishdi.
- Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga, – dedi Ahmad.

Fanorchi ota:

- Ha, barakalla, endi sindirmaysizlarmi? – dedi.
- Yo'q-yo'q, – javob berdik biz shu zamon. Kichkina narvonini yana yelkasiga ilib, chol qorong'ilikka kirib yo'qoldi.

Shundan beri, haqiqatan, fanorga hech shikast tegmadi. Hozir shu fanorning o'rnida sim to'r bilan o'ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi yonib turadi. Uning uchun na yoquvchi, na gugurt, na moy kerak. Hech bir bola tegajaklik qilib tosh ham otmaydi. Uning yorug'ida yurganda yoshligimning bir parchasini va Fanorchi otanigina xotirlayman.

(Oybek)

### *Ming bir jon*

Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib chiqqanida, bahor kelganidan bexabar hanuz g'aflatda yotgan o't-o'lanni, qurt-qumursqani uyg'otgan, avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotganday tuyuladi. Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!.. Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'lig'ini, kayfiyatini so'radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi.

Mastura Alieva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan ekan. Mirrahimovning odamgarchiligi tutib ketdi:

– Shu sho'rlik ayolni bir kirib ko'raylik! Uch kunligi bormi, yo'qmi... Sob bo'lgan deyishadi...

– Ha, ancha og'ir,– dedi hamshira xo'rsinib,– o'n yil dard tortish osonmi!

Poygakdagi karavotda kitob o'qib yotgan Hoji aka degan xasta yo'g'on gavdasiga nomunosib chaqqonlik bilan boshini ko'tarib, ko'zidan oynagini oldi.

– O'n yil? O'n yildan beri kasal ekanmi?



– Ha, o'n yil bo'libdi. Bechora turmush qilganiga bir yil bo'lar-bo'lmas shu dardga yo'liqqan ekan. Tomog'idan hech narsa o'tmaydi. Ovqatni qorniga quyishadi... Teshib qo'yilgan... Ba'zan o'zi quyadi, ba'zan eri.

Hoji akaning ko'zlari o'ynab ketdi.

– Eri? Eri bormi?

– Bor. Shu yerda. Besh oydan beri birga!

Hoji aka uzoq angrayib qolganidan keyin:

– O'n yil kasal boqib, yana kasalxonada ham birgami? – dedi.

– Shuni ayting,– dedi hamshira.– Doktorlarga yalinib-yolvorib palataga karavot qo'ydirib oldi.

Hoji aka dardga bu qadar bardoshli ayoldan ham ko'ra bunchalik vafodor erni ko'rishga ishtiyoqmand bo'lib qoldi-yu, xalatining belbog'ini mahkam bog'lab, shippagini kiydi.

– Qani, yuringlar, tabarruk odamlar ekan, bir ko'rib chiqaylik.

Hamshira Mastura bilan uning eriga xabar bergani ketdi.

Xayal o'tmay, qorni chiqqan Hoji aka oldinda, uzun koridordan o'ninchi palataga tomon yo'l oldik. Palata eshigi oldida bizni hindiga o'xshagan qop-qora, katta-katta ko'zlari yonib turgan bir yigit, aftidan, Masturaning eri kamoli ehtirom bilan kutib oldi va har qaysimizga ayrim minnatdorchilik bildirib, ichkariga yo'lladi. Palataga kirdik. Shu payt oftob yana bulut ostiga kirdi-yu, palatani shom qorong'iligi bosdi. Kattakon derazaning chap tomonidagi karavotdan zaif, yo'q, zaif emas, mayin tovush eshitildi:

– Kelinglar... Rahmat! Odamga odam quvvat bo'ladi, ming rahmat! Akramjon, kursi qo'yib bering...

Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teriyu suyakdan iborat bo'lgan murda ichiga botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi... Tobutda yotgan o'likning qo'limi, oyog'imi biron sabab orqasida bexosdan qimirlab ketsa kishi qay ahvolga tushadi? Uning o'lim pardasi qoplagan yuzida chaqnab turgan ko'zlarini ko'rgan kishi xuddi shu ahvolga tushar edi.

Boya bizni kutib olgan yigit – Akramjon kursi qo'yib berdi. Mirrahimov ikkovimiz o'tirdik. Hoji aka yo'g'on gavdasi bilan Masturani to'sib tikka turib qoldi. Yonimdagi kursini surib Hojining etagidan tortay desam, qorni silkinyapti... Ajabo, bu odam nega kulayotibdi, deb aftiga qaragam... rangi bo'z bo'lib ketibdi! Uning qo'rqqanini payqab, hamshira darrov yo'l qildi:

– Iye, Hoji aka, sizga dori berish esimdan chiqibdi-ku, yuring! - dedi va Hojini yetaklab chiqib ketdi. Hoji koridorga chiqib yiqilarmikan, deb o‘ylagan edim, yo‘q, xayriyat, gumburlagan tovush eshitilmadi...

Hamshira yo‘l qilib Hojini olib chiqishga chiqdi-yu, lekin baribir, Mastura payqadi. Juda-juda xunuk ish bo‘ldi. Mirrahimov ikkovimiz nima deyishimizni, nima qilishimizni bilmay qoldik. Bu hol kasalga qanday ta‘sir qildi ekan, deb sekin qaradim. Mastura qonsiz labida tabassum bilan eriga yuzlandi:

– Akramjon, daftaringizga yozib qo‘ying: uch mardi maydon meni ko‘rgani kirgan edi, bittasi arang qochdiyu, ikkitasi qochgani ham bo‘lmay, o‘tirib qoldi.

Mastura piqirlab kulib yubordi; yana kuldi, yosh boladay o‘zini tutolmay qiqirlar edi. Bu hazil va ayniqsa kulgi avval xunuk, odamning etini jimirlatadigan darajada xunuk eshitildi, keyin nuchuqdir, Masturaning yuzidan o‘lim pardasi ko‘tarilganday, hayot to‘la ko‘zlari o‘lik yuziga jon kirgizganday bo‘ldi. Mirrahimov Hoji akaning qilmishi to‘g‘risida uzr tariqasida bir nima demoqchi bo‘lib gap boshlagan edi, Mastura so‘zini og‘zidan oldi:

– Bunaqa narsa menga ta‘sir qilmaydi,– dedi,– Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... yo‘q, yo‘q, o‘zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko‘z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro‘parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog‘ini yamayotgan edi shekilli. Birdan ko‘cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam - tobut! Akramjonning ikki o‘rtog‘i hovlimizga tobut ko‘tarib kirdi! Yuragim jig‘ etib ketdi... Voy sho‘rim, nahot o‘lgan bo‘lsam... To es-hushimni o‘nglab, Akramjonga bir nima degunimcha, boyagi ikkovi tobutni devorga suyab qo‘yib, uyga kirib keldi; uyga kirdi-yu, meni ko‘rib ikkovi ham boyagi Hoji akangizday shaytonlab qolayozdi.

Akramjon hayron... Men ana ketdi, mana ketdi bo‘lib yotgan edimda, o‘sha kuni ertalab birov avtobusda yig‘lab ketayotgan bir bolani ko‘rib, mening ukamga o‘xshatibdi-yu, shundan haligiday gap tarqalibdi... Tobutni buzib pechkaga qalashdi. Menga shu ham ta‘sir qilgani yo‘q. Bunaqa narsalar o‘lim kutib yotgan kasalga yomon ta‘sir qilishi mumkin, men hech qachon o‘lim kutgan emasman, kutmayman ham! U yog‘ini surishtirsangiz, men odam bolasining o‘lim kutishiga, ya‘ni dunyodan umid uzishiga ishonmayman. Hatto tildan qolgan kasalning rozilik tilashib qaragani ham dunyodan umid uzgani emas, balki «rozilik tilashgani hali

erta» dermikin degan umid bilan, dunyoda tengi yo‘q, timsoli yo‘q zo‘r umid bilan qaragani deb bilaman.

Akramjon Masturaning biz bilan yozilib o‘tirganiga qanchalik xursand bo‘lsa, toliqib qolishidan shunchalik xavotirda ekani ko‘rinib turar edi; shuning uchun Masturaga tez-tez dam berishni ko‘zlab, ko‘proq bizni gapirtirishga, o‘zi gapirishga harakat qilardi.

– Sizning nima dardingiz bor?- dedi Mirrahimovga yuzlanib.

Mirrahimov birdaniga uchta dardning nomini aytdi.

– Voy sho‘rim!..– dedi Mastura, – jindakkina joningizga-ya! Shu jussangizga uchta dard sig‘dimi?

Bo‘ldi kulgi! Ayniqsa, Mirrahimov zavq qilib kuldi. Kasallik, o‘lim to‘g‘risidagi gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo‘lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi; askiyaga juda usta ekan, olamda dard nima, o‘lim nima ekanini butkul unutib, rosa kulishdik. Afsuski, Mirrahimovning yo‘g‘on tovushi suhbatimizning buzilishiga sabab bo‘ldi: vrach koridordan o‘tib borayotib, uning beso‘naqay kulgisini eshitgan bo‘lsa kerak, eshikni ochib qaradi va Masturaga zehn solib, uning yuzida horg‘inlik ko‘rdi shekilli, bizni chiqarib yubordi. Akramjon ketimizdan chiqdi, bizning bu iltifotimiz Masturaga qancha kuch-quvvat berishini aytib, ko‘nglida mavj urib, yosh pardasi bosgan ko‘zlarida ko‘rinib turgan cheksiz minnatdorchilik tuyg‘usini aytib bitirolmas, aftidan, Masturaning bir minutlik oromi uchun o‘ng ko‘zini o‘yib berishga ham tayyor edi.

Palatamizga qaytdik. Hoji aka karavotida yonboshlab, qand choy ichib, o‘zini yelpib yotar edi. Bo‘lib o‘tgan xijolatli ish to‘g‘risida u ham indamadi, biz ham indamadik. Hoji akaga bir nima deyish u yoqda tursin, Mirrahimov ikkovimiz ham kechgacha bir-birimizga so‘z qotmadik; aftidan, borlig‘imiz Mastura bilan band, quyunday charx urayotgan taassurotlar, fikrlar, tuyg‘ularni ifoda qilgani so‘z topolmas edik.

Kech kirdi. Hoji aka o‘rtacharoq xurrak tortib uyquga ketdi. Mirrahimov dam-badam u yoqdan-bu yoqqa ag‘darilar edi, nihoyat, mening uyg‘oq ekanligimni payqab, boshini ko‘tardi.

– Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! – dedi, – hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so‘ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so‘nadi. Mana shu ishonch Masturaga o‘limni yo‘latmaydi.

Mirrahimov uzoq jim qolganidan keyin yana birdan:

– Eri-chi, eri? – dedi, – bu yigitning ham raftoridan, yigitlik umri ming bittayu, shundan bittaginasini Masturaga qurbon qilyapti.

Ertasiga Mastura haqida yana bir ko'ngilsiz gap eshitdik: bechoraning tomog'idan hech narsa o'tmasligi ustiga qorniga tez-tez suv to'planar ekan...

Kunlar o'tib hammamiz tarqaldik. Mirrahimov o'zining MTSiga, Hoji aka kurortga ketdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tgandan keyin shu tomonga yo'lim tushdiyu, kasalxonani bosib o'tolmadim; kirib tanish hamshiradan so'rasam, Mastura bir soatdan keyin operatsiyaga yotar ekan. Doktorlar operatsiya stolidan turolmaydi, deb besh oydan beri uning ra'yini qaytarib kelishar ekan, oxiri bo'lmabdi – Mastura o'lsam tovonim yo'q, deb tilxat beribdi.

Kirib ko'ray desam, doktor ijozat bermadi. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa deb kutdim.

Vaqt-soati yetganda Masturani hamshira bilan Akramjon ikki tomondan suyab olib chiqishdi. Lekin eshikdan chiqishi bilanoq Mastura ikkovini ikki tomonga itarib o'zi yurdi; bardam qadam tashlab, operatsiya zalining eshigini o'zi ochib kirib ketdi. Akramjon, butun diqqati xotinida bo'lgani uchun meni payqamadi. Mastura esa menga bir qaradiyu, tanimadi shekilli, indamadi.

Operatsiyaga doktorlarning ko'ngli chopmagani, xastaning holi o'zimga ma'lum bo'lgani, Masturaning o'limning yuziga bunchalik tik qaragani qorong'ida qo'rqqan kishi ashula aytganidek emasmikin, degan gap ko'nglimdan o'tgani uchun operatsiyaning natijasini kutmadim, kechqurun kasalxonaga telefon qilmoqchi bo'lganimda, rostini aytsam, telefon trubkasini dadil ololmadim. Yo'q, hayriyat, Mastura operatsiyadan bardam turibdi. Shunaqa deyishdi.

Shundan keyin men uzoq safarga ketdimu, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim, lekin uni tez-tez eslar edim; bu toqati toq, joni temirdan insonning tuzalib ketishini, yashashini, uzoq umr ko'rishini uning o'zidan ham ko'proq tilar edim. Shuning uchun oradan uch yil o'tgach, Akramjonni bir begona xotin bilan ko'rganimda alamimdan dod deb yuborayozdim.

Paxta bayrami hech qayerda Mirzacho'ldagidek qiziq o'tma-sa kerak, chunki bu yerga respublikaning turli oblastlaridan kelgan odamlar o'z oblastining ashulasini, o'yinini ham olib kelgan deyishadi.

Paxta bayramini yor-jo'ralar bilan Guliston rayonida o'tkazdik.

Akramjonni, boya aytganim xotin bilan shu yerda, Guliston rayoni markazining chiqaverishida ko'rdim. O'rta bo'yli, xushqomat, vujudidan yoshlik kuchi va g'ayrati yog'ilib turgan qop-qora juvon otda olma yeb, yo'l bo'yida turar, Akramjon o'z otining ayolini qayta bog'lamoqda edi. Akramjon meni ko'rib qoldi-yu, juvonga bir nima dedi. Juvon darrov otdan tushdi. Ikkovi yugurib keldi. Ikkovi ham men bilan juda eski qadronday so'rashdi. Biroq men, harchand qilsam ham, palatadan chiqib operatsiya

zaliga kirib ketayotgan Mastura ko'z o'ngimdan ketmay, bular bilan samimiy ko'risha olmadim: Akramjonni bir nav quchoqlagan bo'ldim, juvonga esa qo'limning uchini berdim.

Juvon:

– Amaki, meni tanimadingizmi?– dedi va xurjundan ikkita olma olib, birini menga berdi.

– Qayerdadir ko'rganday bo'laman, lekin...

Juvon qo'lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi.

– Endi ham tanimadingizmi?– dedi.

Tanidim! Faqat ko'zidan tanidim! Kulimsirab, olamga tabassum sochib turgan bu juvon o'sha Mastura edi. Men nima deyishimni bilmay:

– Bu yoqda nima qilib yuribsiz? – dedim.

Mastura kuldi.

– Kuchimni, g'ayratimni to'la-to'kis ishga solib yuribman, - dedi.

– Operatsiyaga kirib ketayotganingizda men yo'lakda turgan edim, hayajonda bo'lsangiz kerak, tanimadingiz...

– Yo'q, amaki,– dedi Mastura bir oz hijolat bo'lib,– kechirasiz, atayin so'rashmagan edim... So'rashsam, menga tasalli berar edingiz... O'sha tobda menga tasalli berib aytilgan har bir so'z ishonchimga rahna, ko'nglimga g'ulg'ula solishi mumkin edi.

Uzoq suhbatlashdik. Er-xotin otlarini etaklab, meni talay yergacha kuzatib qo'yishdi: so'ng xayrlashib so'l tomonga ot qo'yib ketishdi.

Men sahroda lochinday uchib ketayotgan Mastura bilan Akramjonga uzoq qarab qoldim.

Ikkovi ufqqa yetganda, biri orqaga qaytdi, xayal o'tmay yetib keldi.

Bu Mastura ekan, yo'ldan bir necha qadam narida turib:

– Amaki, Hoji akamga salom ayting, – dedi va ufqda kutib turgan Akramjonga tomon ot qo'yib ketdi.

Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan.

*(Abdulla Qahhor)*

## X va h harflarining imlo lug'ati

### X

xabar	xavflanuv
xabar bermoq	xavflanuvchi
xabar olmoq	xavfli
xabar qilmoq	xavfli-xavfsiz
xabardor	xavfnok
xabardorlik	xavfsiz
xabarlamoq	xavfsizlanmoq
xabarlashish	xavfsizlik
xabarlashmoq	xavfsinmoq
xabarlashuv	xavfsiramoq
xabarlovchi	xavfsranmoq
xabar-mabar	xavfsirash
xabarnok ( <i>kl. ad.</i> )	xavfsirashlik
xabarnoma	xavf-xatar va xavfu xatf
xabarsiz	xavf-xatarli va xavfu xatarli
xabarsizlik	xavf-xatarsiz va xavfu xatarsiz
xabarchi	xavfchi xavfchilik
xabarchilik	xadang ( <i>o'k</i> )
xavotir	xayol
xavotir olmoq	xayola
xavotirlanganlik	xaslat va xayolot
xavotirlanish	xayoliy
xavotirlanmoq	xayoliylik
xavotirlanuv	xayolkash
xavotirli	xayolkashlik
xavotirlik	xayo'llanish
xavotirona	xasllanmoq
xavotirsiz ( <i>bexavotir</i> )	xayolli
xavotirsinmoq	xayolot va xayolat
xavoshi ( <i>kl. ad.</i> )	xayolparast
xavf	xayolparastlik
xavf olmoq	xayolparishon
xavflanganlik	xayolparishonlik
xavflanish	xayolsiz
xavflanmaslik	xayolsiramoq
xavflanmoq	xayolxona
xavflantirmoq	xayolchan

xayolchanlik	خايولچانلىق	xayriyatki	خايرياتكى
xayolchi	خايولچى	xayriyatchilik	خايرياتچىلىق
xayolchilik	خايولچىلىق	xayrlashish	خايرلاشيش
xazanak	خازاناك	xayrlashmoq	خايرلاشموق
xazanaksevar	خازاناكسەۋەر	xayrlashuv	خايرلاشۇۋ
xazina	خازىنا	xayrli	خايرلى
xazinabon	خازىنابون	xayrli-ehsonli	خايرلى-ەھسونلى
xazina-dafina	خازىنا-دافىنا	xayr-ma'zur	خاير-ما'زۇر
xazinador	خازىنادور	xayr-nazr	خاير-نازىر
xazinadorlik	خازىنادورلىق	xayrot	خايرۇت
xazinatopar	خازىناتوپار	xayr-sadaqa	خاير-سەداقا
xazinaxona	خازىناخونا	xayrsiz	خايرسىز
xazinachi	خازىناچى	xayrsizlik	خايرسىزلىق
xazinachilik	خازىناچىلىق	xayrxabar	خايرخاۋار
xazon	خازون	xayrxoh	خايرخۇھ
xazoia (kl. ad. – xazina)	خازوئا (كل. اد. – خازىنا)	xayrxohlik	خايرخۇھلىق
xazonday	خازونداي	xayrxohona	خايرخۇھونا
xazonzada	خازونزادا	xayr-xo'sh	خاير-خۇش
xazonlik	خازونلىق	xayrxo'shlar	خايرخۇشلاىمۇق
xazonmarg	خازونمىرغ	xayrxo'shlar	خايرخۇشلاشموق
xazonrez	خازونرەز	xayrchi	خايرچى
xazonrezgi	خازونرەزغى	xayrchilik	خايرچىلىق
xazon-rezgilik	خازون-رەزغىلىق	xayr-ehson va xayru ehson	خاير-ەھسون ۋا خايرۇ ەھسون
xazonrezlik	خازونرەزلىق	xala (sanchiq)	خالا (سانچىق)
xazonchilik	خازونچىلىق	xala (eshakni no'qiydigan cho'p)	خالا (ەشاكنى نۇقىيدىغان چۇپ)
xazonchipak	خازونچىپاك	xalaj	خالاج
xazonchinakchi	خازونچىناكچى	xalajoy	خالاجۇي
xay	خاير	xalakash	خالاكاش
xaysmshunos	خايرسىمىشۇنۇس	xalal	خالال
xayyot (tikuvchi, mashinachi)	خايرۇت (تىكۇۋچى، ماشىناچى)	xalal bermoq	خالال بەرمۇق
xayyotlik	خايرۇتلىق	xalal etmoq	خالال ەتمۇق
xayl (kl. ad.)	خايرل (كل. اد.)	xalat	خالات
xayma (kl. ad. – chodir)	خايرما (كل. اد. – چودىر)	xalatbop	خالاتبۇپ
xayr	خاير	xalatli	خالاتلى
xayr-baraka	خاير-بارەكا	xalatlik	خالاتلىق
xayr-andish (kl. ad.)	خاير-اندىش (كل. اد.)	xalatsiz	خالاتسىز
xayrbod	خايربۇد	xalaf	خالاف
xayr-duo va xayru duo	خاير-دۇۋ ۋا خايرۇ دۇۋ	xalacho'p	خالاشۇپ
xayriyat	خايريات	xalacho'plik	خالاشۇپلىق

xalaqit	xanik
xalaqit bermoq	xannot
xalaqit yetkizmoq	xannotlik
xalili ( <i>uzum turi</i> )	xaptal
xalifa	xap
xalifalik	xap bo'lmoq
xalloq	xap turmoq ( <i>jim turmoq</i> )
xaloyiq	xapir-xupir
xalos ( <i>saqlanish, ozod bo'lish</i> )	xar
xalos aylamoq	xarajat ( <i>xarojat emas</i> )
xalos bo'lmoq	xarajatlamoq
xalos qilmoq	xarajatlash
xaloskor	xarajatlov
xaloskorlik	xarakter
xaloskorona	xarakteristika
xalta	xarakterlamoq
xaltalamoq	xarakterlanish
xaltalanmoq	xarakterlanmoq
xaltalik	xarakterli
xalta-xulta	xarakterlilik
xaltacha	xarakterlov
xaltachi	xaractersiz
xaltura	xaractersizlik
xalturachi	xargo'sh ( <i>quyon – yil oti</i> )
xalturachilik	xarj
xalfa	xarj aylamoq
xalfa tushmoq	xarj etmoq
xalfalik	xarj qilmoq
xalfa-shogird	xarjallob
xalq	xarjlammoq
xalqaro	xarjlanmoq
xalq-demokratik	xarjlatmoq
xalq-demokratiyasi	xarjlov
xanjar	xarjlovchi
xanjarlanmoq	xarj-xurj
xanjarlamoq	xari
xanjarli	xarid
xanjarcha	xarid qilmoq
xanjuvar	xaridandon ( <i>bot.</i> )



xaridor	Харидор	xarsangi	Харсанги
xaridorbop	Харидорбоп	xarsangtosh	Харсангтош
xaridorgir	Харидоргир	xartiya	Хартиа
xaridorlik	Харидорлик	xartum	Хартум
xarita	Харита	xartumboshlilar	Хартумбoshlilar
xaritalamoq	Хариталamoq	xartumli	Хартумли
xaritachi	Харитачи	xartumcha	Хартумча
xaritachilik	Харитачилик	xarxasha	Хархаша
xaritashunos	Хариташunos	xarxashali	Хархашали
xarish	Харish	xarxashasiz	Хархашасиз
xarishlanmoq	Харishlanmoq	xarxashachi	Хархашачи
xarishlik	Харishlik	xarxashachilik	Хархашачилик
xarish-xurish	Харish-xurish	xarcho (ovqat turi)	Харчо (ovqat turi)
xarob	Хароб	xas	Хас
xarob aylamoq	Хароб aylamoq	xasak	Хасак
xarob etmoq	Хароб etmoq	xasaki	Хасакки
xarob qilmoq	Хароб qilmoq	xasva	Хасва
xaroba	Хароба	xasday	Хасдай
xarobazor	Харобазор	xasis	Хасис
xarobazorlik	Харобазорlik	xasislanish	Хасисlanish
xarobalik	Харобалик	xasislanmoq	Хасисlanmoq
xarobaxona	Харобaxona	xasislanuv	Хасисlanuv
xarobot	Харобот	xasislik	Хасисlik
xarobotchilik	Хароботchilik	xasisona	Хасисона
xarobgarchilik	Харобgarchilik	xaskash	Хаскаш
xarobgarlik	Харобgarlik	xasm	Хасм
xaroblanish	Харобlanish	xasmol	Хасмол
xaroblanmoq	Харобlanmoq	xasnamo	Хасnamo
xaroblashish	Харобlashish	xaspo'sh	Хасpo'sh
xaroblashmoq	Харобlashmoq	xaspo'shlamoq	Хасpo'shlamoq
xaroblashtirmoq	Харобlashtirmoq	xaspo'shlanish	Хасpo'shlanish
xaroblik	Харобlik	xaspo'shlanmoq	Хасpo'shlanmoq
xarobot	Харобот	xaspo'shlatmoq	Хасpo'shlatmoq
xarobotiy	Хароботiy	xaspo'shlash	Хасpo'shlash
xarosh	Харош	xasta	Хаста
xarrot	Харрот	xasta dil	Хаста dil
xarroti	Харроти	xastadillik	Хастадиллик
xarrotlik	Харротlik	xasta ko'ngil	Хаста ko'ngil
xarsang	Харсанг	xastalanmoq	Хасталанmoq

xastalantirmoq  
xastalashmoq  
xastalik  
xastaxona  
xatna  
xato  
xatoli  
xatolik  
xato-mato  
xatosiz  
xatosizlik  
xatoparast  
xatoparastlik  
xat-pat  
xat-savod  
xat-savodli  
xat-savodsiz  
xatti-harakat.  
xatti-rayhon  
xatti-hol  
xattot (*kalligraf*)  
xattotlik (*kalligrafiya*)  
xat-xabar  
xat-xabarlashmoq  
xat-xabarsiz  
xat-xut  
xatchi  
xatcho'p  
xat-hujjat  
xaf  
xafa  
xafa bo'lmoq  
xafa qilmoq  
xafagazak  
xafagarchilik  
xafalanganlik  
xafalangaismon  
xafalanish  
xafalanmoq

xafalashish  
xafalashmoq  
xafalashuv  
xafa  
xafalilik  
xafaqon  
xafaqonlik  
xafahol  
xafahollik  
xafif  
xafiflik  
xa-xa  
xaxalamoq  
xaxalash  
xaxalashmoq  
xaxa-tarala  
xa-xa-xa  
xachir  
xachirsuvor  
xashak  
xashakzor  
xashaki  
xashaklamoq  
xashaklatish  
xashaklatmoq  
xashaklov  
xashakxona  
xashak-xushak  
xeder (*tex.*)  
xez  
xezlamoq  
xezlanish  
xezlanmoq  
xezlatish  
xezlatmoq  
xezlash  
xezlashmoq  
xezlov  
xezlovchi

xemoz	xijillik
xemotaksis	xijolat
xemotropik	xijolat bo'lmoq
xemotropizm	xijolat tortmoq
xeidbol	xijolat chekmoq
xeops	xijolat qilmoq
xesh	xijolatgarchilik
xesh-aqrobo va xeshu aqrabo	xijolatlanish
xeshlik	xijolatli
xesh-tabor va xeshu tabor	xijolatlik
xivich	xijolatmandlik
xivichdak va xivichdek	xijolatnamo
xivichlamoq	xijolatomuz
xivichlanmoq	xijolatpazlik
xivichlatish	xijolatsiz
xivichlatmoq	xijolatsizlik
xivichlatuv	xijolatchilik
xivichlov	xizmat
xivichsimon	xizmat-pizmat
xiyobon	xizmatga-tuhmat
xiyobonli	xizmatkor
xiyobonsiz	xizmatkorlik
xiyol ( <i>sal.</i> )	xizmatkorxona
xiyol-xiyol ( <i>sal-sal</i> )	xizmatchan
xiyonat	xizmatchanlik
xiyonatgar	xizmatchi
xiyonatgarlik	xizmatchilik
xiyonatkor	xizr
xiyonatkorlik	xizrnzmo
xiyoiatkorona	xiyla (ancha)
xiyonatchi	xiylagacha (anchagachz)
xiyonatchilik	xiylagina
xijil	xiylacha
xijil bo'lmoq	xiyli
xijil qilmoq	xil
xijillangansimon	xila
xijillanish	xilvat
xijillanmoq	xilvatgoh
xijillanuv	xilvatjoy

xilvatlik  
xilvatnishin  
xilvatnishinlik  
xilvatxona  
xili-xesh  
xillaganlik  
xildamoq  
xillanish  
xillanmoq  
xillatmoq  
xillash  
xillashish  
xillashmoq  
xillashuv  
xillov  
xillovchi  
xillovchilik  
xilma-xil  
xilmaxillik  
xilondon (*xamyon*)  
xilof  
xiloflik  
xilofsiz  
xilt (*med.*)  
xil-xil  
xilxona  
xil'at  
xilqat  
ximizator  
ximizatorlik  
ximik, kimyogar  
ximik, kimyoviy  
ximikat  
ximiklik  
ximioprofilaktika  
ximiotaksis  
ximioterapiya  
ximiya, kimyo  
ximiya-biologiya

ximiyaviy, kimyoviy  
ximiyalashtirish  
ximchistka  
xina  
xina bermoq  
xina qo'ymoq  
xinabosma  
xinagina (*bot.*)  
xinagul  
xinagullilar  
xinalamoq  
xinalanmoq  
xinalatmoq  
xinalik  
xinasiz  
xinachi  
xinjir  
xinzir (to'ng'iz)  
xinin  
xinnak (*asli xirnyyS*)  
xin  
xippa  
xippa bo'g'moq  
xipcha  
xipchabel  
xipchabelli  
xipchabellik  
xipchalanmoq  
xipchalik  
xipchamiyon  
xipchin  
xipchinlamoq  
xipchinlanmoq  
xipchinlatmoq  
xipchinlov  
xira  
xirad  
xiradmand  
xiradmandlik

xiradmandona	xirpa
xira-yorug'	ximalamoq
xiralamoq	xirpalanish
xiralanmoq	xirpalanmoq
xiralantirmoq	xirpalanuv
xiralatmoq	xirpalov
xiralashish	xirs
xiralashmoq	xirslik
xiralashtirish	xirrak
xiralashtirmoq	xirurg
xiralashuv	xirurgiya
xiralik	xirurglik
xiralov	xir-xir
xiraxandon	xirxirlamoq
xiraxandonlik	xirxirak
xira-xira	xirqa
xirgoyi	xirqapo'sh
xirgoyi qilmoq	xirqapo'shlik
xirillagansimon	xirqiramoq
xirillamoq	xirqiratish
xirillatish	xirqiratmoq
xirillatmoq	xirqirov
xirillash	xirqirovchi
xirillashmoq	xirqiroq
xirillov	xirqiroqlik
xirilloq	xislat
xirmon	xislatli
xirmonjoy	xislatlilik
xirmon-xirmon	xislatsiz
xirmonchi	xislatsizlik
xirmonchilik	xislat-fazilat
xiroj	xisrav ( <i>podshoh</i> )
xirojyig'ar	xisravona
xirom ( <i>xirom aylamoq</i> )	xit
xirom ( <i>xirsm etik</i> )	xit bo'lmoq
xiromon	xit qilmoq
xirompaz	xitin ( <i>biol.</i> )
xirompazlik	xitlanish
xirotoniya	xitlanmoq

xitlanuv	xlorvinil
xitlashmoq	xlorvinilli
xitlik	xlorella
xitob	xloridli
xitoban	xlorin
xitoblik	xlorinauiya
xitobioma	xlorit ( <i>xim.</i> )
xitoy	xloritlashmoq
xitoyi	xlorlamoq
xitoylik	xlorlanmoq
xitoycha	xlorlash
xitoychalamoq	xlorli
xitoychalov	xloroz
xitoyshunos	xloroplast
xitoyshunoslik	xlorofill
xit-xit	xloroform
xitxitak ( <i>asbob</i> )	xlorofos
xitxitlamoq	xlorpikrin
xix	xmelli
xi-xi	xmel
xi-xi-xi	xo
xixilamoq	xob
xixilashmoq	xobgox
xixlamoq	xobi xayol
xixlatmoq	xobp gaflat
xixlash	xovar (kl. <i>ad.</i> – <i>quyosh</i> )
xixlov	xovon
xix-xix	xovoncha
xixxixlamoq	xoda
xisht	xodabozor
xishtak	xodacha
xishtaklamoq	xodim
xishtakli	xodima
xishtaklov	xodimgar
xlor	xodimlik
xloramin	xoj, och ( <i>but.</i> )
xlorat	xoja
xloralgidrat	xozin ( <i>xazinachi</i> )
xlorbenzol	xoin

xoiplashmoq  
xoinlik  
xoinona  
xoyiks (*bolg'a*)  
xok  
xoka  
xokandoz  
xoki  
xokipoy  
xokiturob  
xokkey  
xokkeychi  
xokkeychilik  
xokrang  
xoksor  
xoksorona  
xoksorlik  
xok-to'zon  
xol  
xola  
xolavachcha  
xola-jiyan  
xolajon  
xolak  
xolamoyi  
xoldevonbeklik  
xoldor  
xoldorlanish  
xoldorlanmok  
xoldorlik  
xolesterin  
xoli  
xolizm  
xolilanish  
xolilanmoq  
xolilatmoq  
xolilik  
xolis  
xolisanlillo va xolisanlilloh

xolislamoq  
xolisanish  
xolisanmoq  
xolislik  
xolisona  
xolik  
xollamoq  
xollanmoq  
xolli  
xollov  
xolma-xol  
xolodilnik  
xolos (*shu xolos*)  
xolparang  
xolsiz  
xoltoy  
xol-xol  
xol-xul  
xom  
xoma (*qalam*)  
xoma surmoq (*yozmog*)  
xomniy  
xomiylik  
xomak  
xomaki  
xomakilamoq  
xomakilashmoq  
xomaklamoq  
xomaklash  
xomaklov  
xomashyo  
xomdo'z  
xomdo'zi  
xom ipak  
xomit  
xomitbog'i  
xomitlamoq  
xomitlov  
xomkalla

xomkallalik	қомқаллик	xonavayronlanmoq	xonavayronlanmoq
xomlik	қомлик	xonavayronlashmoq	xonavayronlashmoq
xompaz	қомпаз	xonavayronluk	xonavayronlik
xompazak	қомпазак	xonavor	xonavor
xompazlik	қомпазлик	xonadon	xonadon
xompaxta	қомпахта	xonadonlik	xonadonlik
xompishiq	қомпшиқ	xonador	xonador
xomsemiz	қомсемиз	xonazod	xonazod
xomsimoq	қомсимоқ	xonaki	xonaki
xomsiramoq	қомсирamoқ	xonakilashtirilmoq	xonakilashtirilmoq
xomsirash	қомсирash	xoiakilashtirish	xoiakilashtirish
xomsirov	қомсиров	xonakilashtirmoq	xonakilashtirmoq
xomsuvoq	қомсувоқ	xonali	xonali
xomsuvoqlik	қомсувоқлик	xonama-xona	xonama-xona
xom surp	қомсурп	xonanda	xonanda
xomso'z	қомсо'z	xonandalik	xonandalik
xomso'zlik	қомсо'zлик	xonanishin	xonanishin
xomtalash	қомталash	xonasallot	xonasallot
xomtama	қомтama	xonasiyoh	xonasiyoh
xomtamalik	қомтамalik	xonasi	xonasi
xomtarosh	қомтарosh	xonatlas	xonatlas
xomteri	қомтери	xonaxarob	xonaxarob
xomtok	қомtok	xona-xona	xona-xona
xomush	қомush	xonacha	xonacha
xomushlangansimon	қомushlangansimon	xonaqoh	xonaqoh
xomushlanmoq	қомushlanmoq	xonaqohnishin	xonaqohnishin
xomushlanish	қомushlanish	xonaqohnishinlik	xonaqohnishinlik
xomushlik	қомushlik	xonzoda	xonzoda
xomushona	қомushona	xopim	xopim
xomfikr	қомfikr	xonimlik	xonimlik
xomxayol	қомxayol	xonimoyim	xonimoyim
xomxayollik	қомxayollik	xonimcha	xonimcha
xomchut	қомchut	xonimqiz	xonimqiz
xomqolip	қомqolip	xonish	xonish
xomg'ishe	қомg'ishe	xonish qilmoq	xonish qilmoq
xon	қон	xomlarxoni	xomlarxoni
xona	қона	xonlarcha	xonlarcha
xonavayron	қonavayron	xonlik	xonlik
xonavayronlanish	қonavayronlanish	xontaxlit	xontaxlit



xontaxta	xormeyster
xonumon	xormeysterlik
xop-xoqon	xorpusht
xonqni ( <i>zool.</i> )	xorpushtak
xopper (tex.) xor	xoru zor va xor-zor
xor	xoru xas va xor-xas
xor bo'ymoq	xos
xoretmoq	xosa
xor qilmoq	xosagar
xor	xoeagarlik
xorga chiqmoq	xosiyat ( <i>xoslik holati</i> )
xora	xosiyatli
xorazmlik	xosiyatsiz
xorvat (-lar)	xoslanganlik
xorvatcha	xoslanish
xorgul	xoslanmoq
xorda	xoslanuv
xordiq	xoslash
xoreografik	xoslashmoq
xoreografiya	xoslashtirmoq
xoreografiyachi	xoslashuv
xoreya ( <i>med.</i> )	xoslik
xor-zor va xoru zor	xoslov
xor-zorlik va xoru zorlik	xosmas
xorij	xosmas qism
xorij etmoq	xos-om va xosu om
xorij qilmoq	xossa
xorijiy	xosul-xos
xoriqulodda	xosxona ( <i>rezideniya</i> )
xorkash	xotam ( <i>muhr, uzuk</i> )
xorkashlik	xotin
xorlamoq	xotinboz
xorlanganlik	xotinbozlik
xorlanish	xotinyoig'oq ( <i>daraxt</i> )
xorlanmoq	xotimjon
xorlik	xotinmachit
xorlik-zorlik	xotinoshi ( <i>etnograf.</i> )
xormas	xotinparast
xormaslik	xotinparastlik

xotinsiz	xohlashmoq
xotinsizlik	xohlashuv
xotinfurush	xohlov
xotin-xalaj	xohlovchi
xotinchalish	xohlovchilik
xotinchalishlik	xoh-noxoh
xotin-qiz	xoh-noxohlik
xotir	xren (bog.)
xotira ( <i>xotira daftar</i> )	xrestomatiya
xotiranavis	xrizantema
xotiranoma	xrizoberill ( <i>min.</i> )
xotirjamlamoq	xrizolit
xotirjam	xristian
xotirjamlashmoq	xristian-demokratii
xotirjamlik	xristianlik
xotirjamona	xrom
xotirlamoq	xromaproteinlar
xotirlanmoq	xromat
xotirlatish	xromatizm
xotirlatmoq	xromatik
xotirlash	xromatin
xotirparishon	xromlamoq
xotirparishonlik	xremlanish
xotirot	xromlash
xotif	xromit
xoch ( <i>but, krest</i> )	xrom-molibdenli
xoxo	xromolitografiya
xoxolamoq	xromosfera
xoxolashmoq	xrompik
xoxolov	xronika
xoqon	xronikal
xoqonlik	xronikachi
xoh	xronikyor
xohish	xronograf
xohish-istak	xronografik
xohlamoq	xronologik
xohlatmoq	xronologiya
xohlash	xronometr
xohlashish	xronometraj

xronometrajlamog  
xronometrajchi  
xronometrik  
xronometrchi  
xronoskop  
xrustal (*xrustalʼ idish*)  
xuvvari  
xudbin  
xudbinlarcha  
xudbiilashmoq  
xudbinlik  
xuddi  
xudkom (*egoist*)  
xudkomlik (*egoistlik*)  
xudnamo  
xudnafis  
xudnafelik  
xudo  
xudobezori  
xudobexabar  
xudovapd  
xudovandi  
xudogoʼy  
xudogoʼylik  
xudojoʼy  
xudojoʼylik  
xudoyi  
xudoyixoma  
xudoparast  
xudoparastlik  
xudosiz  
xudosizlik  
xudopisand  
xudopisandlik  
xudroy  
xudroilik  
xujasta  
xujastaxotirlik (*kl. ad.*)  
xuld (*xuldi barin – kl. ad.*)

xuligan  
xuliganbashara  
xuliganbasharalik  
xuliganlik  
xuliganlashganlik  
xuliganlashmoq  
xuligannamo  
xuliyo  
xullas  
xullasi kalom  
xullaski  
xulosa  
xulosaga kelmoq  
xulosa qilmoq  
xulosalamoq  
xulosalanmoq  
xulosalash  
xulosalashmoq  
xulosalov  
xulosalovchi  
xulosaxoʼr  
xulosaxoʼrlik  
xulq  
xulq-atvor *va* xulqu atvor  
xulq-odat *va* xulqu odat  
xulqli  
xulqlilik  
xulqsiz  
xulqsizlik  
xulq-xoʼy *va* xulqu xoʼy  
xum  
xumbosh  
xumdon  
xumdonchi  
xumdonchilik  
xumkalla  
xumkallalik  
xumlab  
xumlamoq

xumor	xunuk aft
xumorbosti	xunuk bashara
xumori	xunukdan-xunuk
xumorigarlik	xunukkina
xumorigarchilik	xunuklanish
xumorko'z	xunuklanmoq
xumorko'zlik	xunuklashmoq
xumorlanish	xunuklashuv
xumorlanmoq	xunuklik
xumorlik	xunxor, xunxo'r
xumpar	xun-xun
xums	xun-xun yig'lamoq
xumsa	xunxo'r, xunxor
xumsalik	xunxo'rlik, xunxorlik
xumcha	xural
xumchi	xurda
xun	xurdabin
xun bo'lmoq	xurdadon
xun qilmoq	xurjun
xunasa	xurjunlashish
xunasalik	xurjunlashmoq
xunband	xurjunlashtirmoq ( <i>yomonlashtirmoq</i> )
xunbanda	xurjunlashuv
xunbaho	xurjunli
xuni-biyron	xurjunlik
xunibiyronlik	xurjun-xurjun
xunbor ( <i>kl. ad.</i> )	xurma ( <i>xurma idish</i> )'
xundor	xurmacha
xundorlik	xurmaqovoq
xunza	xurmo ( <i>meva turi</i> )
xunob	xurmozor
xunob bo'lmoq	xurmozorlik
xunob qilmoq	xurmoyi
xunoba	xurmoxo'r
xunobgarchilik	xo'rmoxo'rlik
xunrez	xurofiy
xunrezlik	xurofiy-diniy
xuntalab	xurofot
xunuk	xurofotchi

xurefotchilik	xususiy
xurr, <i>xurr etmoq</i>	xususiylashmoq
xurrak	xususiylashtirilmoq
xurrak otmoq	xususiylashtirmoq
xurrak tortmoq	xususiylilik
xurrakchi	xususiyyat
xurram	xutba
xurramdil	xutor
xurramdillik	xuttak ( <i>bot.</i> )
xurramlik	xutut ( <i>kl. ad. – xatlar</i> )
xurr-xurr	xufiyona
xursand	xufiya
xursand bo‘lmoq	xuftoi ( <i>xufton vsuqi</i> )
xursand etmoq	xush
xursand qilmoq	xushado
xursandlik	xushadolik
xursandona	xushandom
xursandchilik	xushatvor
xuruj	xushaxloq
xuruj aylamoq	xushaxloqlik
xuruj etmoq	xushbayon
xuruj qilmoq	xushbaxt
xurujlanmoq	xushbaxtlik
xurullamoq	xushbaxtona
xurullatmoq	xushbaho
xurullash	xushbahra
xurullashmoq	xushbahralik
xurulloq	xushbnchim
xurushlanmoq	xushbichimlik
xurshid ( <i>quyosh</i> )	xushbo‘y
xusumat	xushbo‘ylamoq
xusumatomuz	xushbo‘ylanmoq
xusumatona	xushbo‘ylik
xusumatchi	xushvaqt
xusumatchilik	xushvaktlanish
xusus ( <i>shu xususda</i> )	xushvaqtlanmoq
xususan	xushvaqtlilik
xususda	xushvaqtlik
xususida	xushvaqtona

xushvaqtchilik	xushnav
xushgap	xushnavo
xushgaplik	xushnud
xushgo'ylik	xushnudlanish
xushdil	xushnudlik
xushdillik	xushnudona
xushyokar	xushob
xushyoqarlik	xushovoz
xushsqmas	xushovozlik
xushyoqmaslik	xushovozlilik
xushyoqtirmaslik	xushomad
xushjamol	xushomadgo'y
xushzabon	xushomadgo'ylik
xushzabonlik	xushohang
xushzamon	xushohanglik
xushichim	xushpardoz
xushkayf	xushro'y
xushkayflik	xushro'ylik
xushki ( <i>hammom sochiq</i> )	xushrang
xushkalom	xushraftor
xushkalomlik	xushraftorlik
xushlamoq	xushsado
xushlanmoq	xushsadolik
xushlatish	xushsifat
xushlatmoq	xushsurat
xushlashlik	xushsuxan
xushlashmoq	xushsuxanlik
xushlibos	xushsuhbat
xushlutf	xushtabassum
xushluqum	xushtabassumlik
xushmanzara	xushtabiat
xushmanzaralik	xushtabiatlik
xushmulozamat	xushtabiatlilik
xushmulozamatlik	xushta'b
xushmuomala	xushta'blik
xushmuomalalik	xushta'm
xushmo'ylov, xushmo'ylob	xushta'mlik
xushnavis	xushtavoze
xushnavislik	xushtavozelik

xushtakalluf	xushhavolik
xushtakalluflik	xushhazm
xushtakallufoia	xo'shhid
xushtor	xushhidlik
xushtor bo'lmoq	xushhol
xushtorlik	xushhollik
xushtorona	xo'b
xushfahm	xo'bro'
xushfahmlik	xo'ja
xushfe'l	xo'jaahrori ( <i>uzum turi</i> )
xushfe'llik	xo'jabeka
xushxabar	xo'javachcha
xushxanda	xo'jazoda
xushxat	xo'jazodalik
xushxatlik	xo'jayin
xushxirom	xo'jayinlarcha
xushxiromlik	xo'jayinlik
xushxon	xo'jalik
xushxonlik	xo'jasavdogar ( <i>zool.</i> )
xushxosiyat	xo'jasiz
xushxosiyatli	xo'jasizlarcha
xushxosiyatlilik	xo'jasizlik
xushxulq	xo'jaliklararo
xushxulqlik	xo'jaqishloq
xushxo'r	xo'jag'at ( <i>malina</i> )
xushxo'rlik	xo'mraygan
xushchaqchaq	xo'mrayganlik
xushchaqchaqlik	xamrayishlik
xushqad	xo'mrayishmoq
xushqadam	xo'mraymoq
xushqadamlik	xo'mraytirish
xushqadlik	xo'mraytirmoq
xushqiliq	xo'mrayov
xushqiliqlik	xo'p
xushqismat	xo'plam
xushqomat	xo'plamoq
xushqomatlik	xo'plaxm-xo'plam
xushhavo	xo'ppa
xushhavoli	xo'ppak

xo'p-xo'l  
xo'r  
xo'ra  
xo'rak  
xo'raki  
xo'raklamoq  
xo'raklantirmoq  
xo'raklov  
xo'rakxona  
xo'ralik  
xo'ram-noxo'ram  
xo'randa  
xo'randalik  
xo'rda (*xo'rdi emas*)  
xo'rda-burda  
xo'rda-mastava  
xo'rdaosh  
xo'rillamoq  
xo'rillatish  
xo'rillatmoq  
xo'rillov  
xo'rllamoq  
xo'rllanganlik  
xo'rllanish  
xo'rllanmoq  
xo'rllatmoq  
xo'rllash  
xo'rllashmoq  
xo'rllik  
xo'rllik-zorlik  
xo'rlov  
xo'roz  
xo'rozboz  
xo'rozbozlik  
xo'rozcha  
xo'rozqand  
xo'rr (und.)  
xo'rsina-xo'rsina  
xo'rsinishp

xo'rsinmoq  
xo'rsintirmoq  
xo'rsinuv  
xo'r-xo'r  
xo'tik  
xo't-xo't  
xo'txo'tlamoq  
xo'sh  
xo'sha (*kl. ad. – boshog*)  
xo'shachin (*kl. ad.*)  
xo'shachinlik  
xo'shlamoq  
xo'shlashish  
xo'shlashmoq  
xo'shlashuv  
xo'sh-xo'sh  
xo'shxo'shlamoq  
xo'shshaymoq  
xo'qacha



ha  
habata  
habash  
habashdek  
habashiy  
habashistonlik  
habashlar  
habba  
habib  
havas  
havas etmoq  
havas qilmoq  
havas-zavq  
havaskor  
havaskorlik  
havaskorona  
havaslanarli  
havaslanganlik  
havaslanish  
havaslanmok  
havaslantirish  
havaslantirmoq  
havaslanuv  
havaslanuvchilik  
havasli  
havaslilik  
havasmand  
havasmandlik  
havasmandona  
havassiz  
havassizlik  
havz  
havza  
havo  
havoda-ko'kda  
havodis  
havodor  
havoza

## H

havoyi  
havoyilanish  
havoyilanmoq  
havoyilantirmoq  
havoyilanuv  
havoyilik  
havo-ko'k  
havol  
havola  
havolab  
havolamoq  
havolanish  
havolanmoq  
havolantirmoq  
havolatmoh  
havolachilik  
havoli  
havon  
havorang  
havoriy (-lar)  
havosiz  
hovosizlik  
had  
hadang  
hadaha  
had-had  
haddili  
haddi-g'oyat  
hadeb  
hadeganda  
hademay  
hadik  
hadikli  
hadiksiz  
hadiksiraganlik  
hadiksiragannamo  
hadiksiramoq  
hadiksiratish

hadiksiratmoq  
hadiksirash  
hadiksirashlik  
hadiksirov  
hadiksirovchi  
hadiksirovchilik  
hadis  
hadli  
hadoyo (*kl. ad.*)  
hadsiz  
hadsizlik  
hadsiz-hisobsiz  
hadya  
hadya-in'om  
hadyanoma  
hadyasiz  
had-hnsob  
had-hisobsiz  
had-hudud  
hayo  
hayo-adab  
hayo-ibo  
xayo-iboli  
hayoli  
hayon (*foyda*)  
hayonli  
hayonsiz  
hayosiz  
hayosizlanmoq  
hayosizlarcha  
hayosizlik  
hayot  
hayotan  
hayotbaxsh  
hayotiy  
hayotiylik  
hayotiy-maishiy  
hayotlik  
hayot-mamot

hayotsevar  
hayotsevarlik  
hayotsiz  
hayotcha  
hayotchan  
hayotchanlik  
haj  
hajar  
hajv  
hajviyot  
hajviy  
hajviya  
hajvchi  
hajvchilik  
hajiqiz  
hajiqizlik  
hajli  
hajm  
hajman  
hajmiy  
hajmli  
hajmsiz  
hajm-shakl  
hajr  
haz  
hazaj (*kl. ad.*)  
hazar  
hazarlanmoq  
hazarchi  
hazarchilik  
hazil  
hazilakam  
hazilakamiga  
hazilvon  
hazilvonlik  
hazilkash  
hazilkashlik  
hazillashish  
hazi

hazillashmoq	hayvonzod
hazillashuv	hayvoni
hazillashuvchi	hayvonlarcha
hazil-mazax	hayvonlashmoq
hazil-mazil	hayvonlik
hazilmand	hayvonona
hazilmandlik	hayvonot
hazil-mutoyiba	hayvonotxona
hazil-mutoyibali	hayvonotchilik
hazilnamo	hayvonotshunoslik
hazilomuz	hayvonsimon
hazil-pazil	hayvonsifat
hazilsimon	hayvonchilik
hazil-hazip	haydagich
hazil-huzul	haydagudek
hazin hazinlik	haydalish
hazm	haydalishlik
hazmi taom	haydalma
hazmli	haydalmoq
hazmtomoq	haydamoq
xazmchan	haydar
hazor	haydarkokil ( <i>soot.</i> )
hazora	haydatish
hazorasplik	haydatmoq
hazorbog'lik	haydattirish
hazoron	haydattirmoq
hazor-hazor	haydatuv
hazrat	haydash
hay	haydashmoq
haybarakalla	haydash-huydash
haybarakallachi	hayda-hayda
haybarakallachilik	haydahaydachilik
haybat	haydov
haybatli	haydovchi
haybatlilik	haydovchilik
haybatsiz	hayyo
hayvon	hayyolamoq
hayvonvash	hayyo-hay
hayvondek	hayyo-huv

hayyo-huy  
hayiz  
hayinchak  
hayit  
hayitlamoq  
hayitlashish  
hayitlashmoq  
hayitlik  
hayit-mayit  
hayit-ma'raka  
hayitchilik  
hayiqish  
hayiqishmoq  
hayiqmoq  
hayiqtirmoq  
hayiquv  
hayiquvchi  
haykal  
haykalday  
haykallashmoq  
haykalona  
haykaltarosh  
haykaltaroshlik  
haykalcha  
haykalchi  
haykalchilik  
hayrat  
hayratangiz  
hayratbaxsh  
hayratlanish  
hayratlanmoq  
hayratlantirmoq  
hayratlanuv  
hayratli  
hayratomuz  
hayratsiz  
hayron  
hayrona  
hayronalik

hayronlik  
hayronqolarli  
hayt (*und.*)  
haytovur  
hayt-hayt  
hayto-hayt  
hayt-huyt  
hayf  
hayfki  
hayfsan  
hayfsinish  
hayfsinmoh  
hayfsinuv  
hay'at  
hay'atshunos  
hay'atshunoslik  
hayqirish  
hayqirishmoh  
hayqiriq  
hayqirtirmoq  
hayqirtuv  
hay-hay  
hayhaylamoh  
hayhaylatmoq  
hayhaylashmoq  
hayhaylov  
hayhaysuron  
hayhaychi  
hayhaychilik  
hayhot  
hayhotday  
hayhotchi  
hay-huv  
hay-huy  
hakam  
hakamlik  
hakachalamoq  
hakillamoq  
hakillashmoq

hakillash	halvopaz
hakim	halvopazlik
hakima	halvofurush
hakimlik	halvochi
hakimona	halvochilik
hakka	hali-beri
hakka-dukka	haligacha
hakkalak	haligi
hakkalakam ( <i>o'yin</i> )	haligiday
hakkalakam-dukkalakam	haligidek
hakkalab-dukkalab	haligina
hakkalab-hakkalab	halidan-hali
hakkalamoq	hali-zamon
hakkalatish	halila ( <i>bot.</i> )
hakkalatmoq	halim
hakkalash	halimday ( <i>yushmoq</i> )
hakkalashmoh	halimlik
hakkalov	halimona
hakkam-dukkan	halimxona
hakkar va hakkari	halinchak
hakkari va hakkar	halitdan
hakkarikovush	hali
hakkok	hami
hakkoklik	hali-hali
hak	hallamoq
hak-hak	hallanmoq
hakhaklamoq	hallanuv
hakhaklov	hallash
hal	hallashmoq
hal bo'lmoq	halli
hala	halloj
halak	halloji
halala	hallos
halala-hashtu	halloslamoq
halvo	halloslatmoq
halvogar	halloslash
halvogarlik	halloslashmoq
halvoytar	halloslov
halvoytarxo'rlik	halova

halovat  
halovatli  
halovatsiz  
halovat-huzur  
halok  
halokat  
halokatli  
halokatsiz  
halol  
halola  
halollamoq  
halollanmoq  
halollatmoq  
halollash  
halollik  
halollov  
halolxo'r  
halol-harom  
halp-halp  
halpida  
halpillamoq  
halpillatish  
halpillatmoq  
halpillash  
halpillashmoq  
halpillov  
halpinchoq  
halqa  
halhalamoq  
halqalaganlik  
halqalanish  
halqalanmoq  
halqasimon  
halqacha  
halqa-halqa  
halqob  
halqum  
xal-hal  
ham

hamavlod  
hamavtor  
hamavtorlik  
hamadonlik  
hamal  
hamasr  
hamasrlik  
hamvoris  
hamvorislik  
hamgap  
hamgaplik  
hamd  
hamda  
hamdam  
hamdamlashish  
hamdamlashmoq  
hamdamlashuv  
hamdamlik  
hamdard  
hamdardlik  
hamdardona  
hamdars  
hamdarslik  
hamdast  
hamdastlik  
hamdil  
hamdillik  
hamdin  
hamd-sano va hamdu sano  
hamduna  
hamdu sano va hamd-sano  
hamdo'stlik  
hamyoza  
hamyov  
hamyoncha  
hamyostiq  
hamyotoq  
hamjanr  
hamjins

hamjinslik	hammayoqqa
hamjihat	hammaktab
hamjihatlik	hammaktablik
hamjihatlilik	hammaslak
hamzamon ( <i>zamondosh</i> )	hammaslaklik
hamzaobodlik	hammahsad
hamid	hammahsadlik
hamida	hammahalla
hamin	hammahallalik
hamisha	hamma-hamma
hamishabahor ( <i>bot.</i> )	hammeros
hamishalik	hammillat
hamishahozir	hammol
hamishahozirlik	hammollik
hamiyatli	hammolchilik
hamiyatlilik	hammolcho'p ( <i>asbob</i> )
hzmiyatsiz	hammom
hamiyatsizlik	hammombop
hamkasb	hammompesh ( <i>lunj</i> )
hamkasaba	hammompish ( <i>o'yin</i> )
hamkasabalik	hammomsiramoq
hamkasblik	hammomsirsv
hamkor	hammomchi
hamkorlik	hammomchilik
hamkorona	hamnafas
hamkosa	hamnafaslik
hamkurs	hamnishin
hamko'rpa	hamnishinlik
haml	hamniyat
hamla	hamnom
hamlakor	hamnomlik
hamlakorlik	hamovoz
hamma	hamovozlik
hammabop	hamoyil
hammavaqt	hamoyilln
hammadan	hamoyilsiz
hammayerda	hamoyilsimon
hammayoqda	hamon
hammayoqdan	hamona va hamono

hamonki	hamtovoqlik
hamono va hamona	hamfikr
hamon-hamon	hamfikrlik
hamog'ush	hamxob
hamog'ushlik	hamxoba
hamohang	hamxona
hamohanglik	hamx
hampesha	hamxonalik
hampeshalik	hannotlanish
hampo	hamshahar
hamradif	hannotlik
hamrayon	hamshaharli
hamrayonlik	hansiramoq
hamrant	hamshira
hamranglik	hansiratish
hamrez	hamshirazoda
hamroh	hansiratmoq
hamrohlarcha	hamshiralik
hamrohlik	hansirash
hamrohlilik	hamisha
hamrohona	hansirashlik
hamrohsiz	hamsho'r
hamrohsizlik	hanuz
hamrohchnlik	hamyurt
hamsaboq	hanuzgacha
hamsaboqlik	hamyurtlik
hamsafar	hanuzgachayin
hamsafarlik	hamqad
hamsinf	hanuz-hanuz
hamsoz	hamqadlik
hamsoya	hap
hamsoyalik	hamqator
hamsuxan	hapillatmoq
hamsuxanlik	hamqismat
hamsuhbat	hapinish
hamsuhbatlik	hamqismatlik
hamtilak	happa
hamtilaklik	hamqishloq
hamtovoq	happa-halol



hamqishloqlik  
hapriqish  
hamqur  
hapriqishmoq  
hamqurlik  
hapqatlik  
hamqurol  
hap-qap  
hang'oya  
hamhujra  
haraka  
hang  
harakat  
hanggi  
harakatdagi  
hanggilik  
harakatlanish  
hangillamoq  
harakatlanmoq  
hang-mang  
harakatlantirish  
hangmanglik  
harakatlantirmoq  
hangom  
harakatlantiruvchi  
hangoma  
harakatlanuv  
hangomalashish  
harakatlanuvchi  
hangomalashmoq  
harakatli  
hangomatalab  
harakatsiz  
hangomatalablik  
harakatsizlanmoq  
hantomachi  
haraketstayaik  
hangramoq  
harakatchan

hangratish  
harakatchanlik  
hangratmoq  
harala-tarala  
hangrash  
harala-hashtu  
hangrashmoq  
haram  
hangrov  
haramsaroy  
hantrovchan  
haramxona  
hangu mang  
harb  
hanghanglamoq  
harba  
handalak  
harb-zarb  
handalakday  
harbiy  
handalakdek  
harbiycha  
handalakzor  
harbiy-dengiz  
handalaksimon  
harbiy-duxovoy  
handalakfurosh  
harbiylashmoq  
handalakxo'rlik  
harbiylashtirilmok,  
handasa  
harbiylashtirish  
handasaviy  
harbiylashtirmoq  
hanik  
harbiylashuv  
hannot  
harbiylik  
harbiy-medsina

harbiy-operativ	harbiy-revolyutsion	harbiycha	harbiychasiga	har bir	harbu zarb	harvaht	harvona	har gal	hargiz	hardam	hardamxayol	hardamxayollik	har doim	haryon	haryona	haryoq	haryoqlama	haryoqlamalik	harjoylik	har zamon	har zamon-har zamon	harim	harina ( <i>dardi harina</i> )	harir	haris	hamslik	harislashmoh	harisona	harif	harifdosh	harifona	harna	harnav	har narsa	har nafas	har nechuk	har nima	harom	haromzoda	haromzodagarchilik	haromzodalik	haromzuluk	haromi	haromilik	haromlik	harommag'iz	haromnamak	haromnamaklik	haromtomoq	haromtomoqlik	harom-xarish	haromxo'r	haromxo'rlik	harorat	haroratlanmoq	haroratli	haroratlilik	haroratsiz	haroratsizlik	harsillamoq	harsillatish	harsillatmoq	harsillash	harsillashmoh	harsillov	hars-hars	hars-hurs	har taraflama	har tomon	har tomonlama	har tomonlamalik	hartugul	har turli	harf	harfan	harfiy	harfma-harf
-----------------	---------------------	-----------	---------------	---------	------------	---------	---------	---------	--------	--------	-------------	----------------	----------	--------	---------	--------	------------	---------------	-----------	-----------	---------------------	-------	--------------------------------	-------	-------	---------	--------------	----------	-------	-----------	----------	-------	--------	-----------	-----------	------------	----------	-------	-----------	--------------------	--------------	------------	--------	-----------	----------	-------------	------------	---------------	------------	---------------	--------------	-----------	--------------	---------	---------------	-----------	--------------	------------	---------------	-------------	--------------	--------------	------------	---------------	-----------	-----------	-----------	---------------	-----------	---------------	------------------	----------	-----------	------	--------	--------	-------------

harfxona	harfxonai	hatlov	hatlov
harfxo'r	harfxonadori	hatto	hatto
harfxo'rlik	harfxonadorlik	hattoki	hattoki
har xil	harxil	hafrang	hafrang
harchand	har chand	hafranggul	hafranggul
harchi	har chi	hafsala	hafsala
har chog'	har chog'	hafsalali	hafsalali
har qayerda	har qayerda	hafsalalilik	hafsalalilik
har qaysi	har qaysi	hafsalasiz	hafsalasiz
har qalay	har qalay	hafsalasizlik	hafsalasizlik
har hanaqa	har hanaqa	hafta	hafta
har qanday	har qanday	haftalab	haftalab
har qancha	har qancha	haftalarcha	haftalarcha
har qachon	har qachon	haftalik	haftalik
har-har	har-har	haftafahm	haftafahm
harholda	har holda	haftafahmlik	haftafahmlik
hasad	hasad	haftacha	haftacha
hasadgo'y	hasadgo'y	hafta-hafta	hafta-hafta
hasadkor	hasadkor	haftiyak	haftiyak
hasadkorlik	hasadkorlik	haftjo'y	haftjo'y
hasadkorona	hasadkorona	hafrang	hafrang
hasadlanish	hasadlanish	hasham	hasham
hasadlanmoq	hasadlanmoq	hashamat	hashamat
hasadlanuv	hasadlanuv	hashamatli	hashamatli
hasadli	hasadli	hashamatlilik	hashamatlilik
hasadchi	hasadchi	hashamatsiz	hashamatsiz
hasadchilik	hasadchilik	hashamdor	hashamdor
hasanot	hasanot	hashamdorlik	hashamdorlik
hasva	hasva	hashamli	hashamli
hasip	hasip	hashamsiz	hashamsiz
hasipfurusht	hasipfurusht	hashar	hashar
hasipxo'r	hasipxo'r	hasharboshi	hasharboshi
hasipxo'rlik	hasipxo'rlik	hasharboshilik	hasharboshilik
hassos	hassos	hashargoh	hashargoh
hassoslik	hassoslik	hasharlashish	hasharlashish
hassosona	hassosona	hasharlashmoq	hasharlashmoq
hatlamoq ( <i>sakramoq</i> )	hatlamoq	hasharli	hasharli
hatlatmoq	hatlatmoq	hasharot	hasharot
hatlashmoq	hatlashmoq	hasharotxo'r	hasharotxo'r

hasharchi	hasharchilik	hash-pash	hashtak-pashgak	hashtiyak	hashtiyakchi	hayajon	hayajonlangansimon	hayajonlanish	hayajonlanmoq	hayajonlantirish	hayajonlantirmoq	hayajonlantiruv	hayajonlantiruvchi	hayajonlanuv	hayajonlanuvchi	hayajonlanuvchilik	hayajonli	hayajonsiz	hayal	hayal qilmoq	hayallamoq	hayallatish	hayallatmoq	hayallash	hayallashmoq	hayallov	haq	haqgo'y	haqgo'ylik	haqdor	hahdorlnk	haqida	haqir	hahirlarcha	haqirlik	haqirona	haqiq	haqiqat	haqiqatan	haqiqatgo'y	haqiqatgo'ylik	haqiqatlamoq	haqihatlanmoq	haqiqatlov	haqiqatlovchi	haqiqagparvar	haqiqatnamo	haqiqatsevar	haqiqatsevarlik	haqiqatchi	haqiqatchilik	haqiqiy	haqiqiylik	haqlamoq	haqlash	haqlashlik	haqli	haqlilik	haqli-haqsiz	haqlov	haq-nohaq va haqu nohaq	haqorat	haqoratbozlik	haqoratlamoq	haqoratlanganlik	haqoratlanish	haqoratlanmoq	haqoratlanuv	haqoratli	haqoratomuz	haqoratlov	haqoratsiz	haqrost	haqsevar	haqsiz	haqsizlik	haqtalab
-----------	--------------	-----------	-----------------	-----------	--------------	---------	--------------------	---------------	---------------	------------------	------------------	-----------------	--------------------	--------------	-----------------	--------------------	-----------	------------	-------	--------------	------------	-------------	-------------	-----------	--------------	----------	-----	---------	------------	--------	-----------	--------	-------	-------------	----------	----------	-------	---------	-----------	-------------	----------------	--------------	---------------	------------	---------------	---------------	-------------	--------------	-----------------	------------	---------------	---------	------------	----------	---------	------------	-------	----------	--------------	--------	-------------------------	---------	---------------	--------------	------------------	---------------	---------------	--------------	-----------	-------------	------------	------------	---------	----------	--------	-----------	----------

haqtaolo	ҳақтаоло	hech	ҳеч
haqqast	ҳаққаст	hech bir	ҳеч бир
hahqast rost	ҳаҳқаст рост	hech kim	ҳеч ким
haqqi	ҳаққи	hech kimsa	ҳеч кимса
hahqi-mahr	ҳаҳқи-маҳр	hech narsa	ҳеч нарса
haqqi-huquq	ҳаққи-ҳуқуқ	hech nima	ҳеч нима
haqqoniy	ҳаққоний	hech nimaga	ҳеч нимага
haqqoniylik	ҳаққонийлик	hech nimadan-hech nima	ҳеч нимадан-ҳеч нима
haqqoniyat	ҳаққонийат	hech hayoq	ҳеч ҳayoq
haqqoniyatsizlik	ҳаққонийатсизлик	hech qayoqda	ҳеч қayoqda
haqqoniyatchi	ҳаққонийatchи	hech qayoqdan	ҳеч қayoqdan
haqquv	ҳаққув	hech qayoqqa	ҳеч қayoqqa
haqqullo	ҳаққullo	hech qaysi	ҳеч қaysи
haqqullochi	ҳаққullochi	hech qanaqa	ҳеч қanaqa
haqqulobodlik	ҳаққulobodlik	hech qanday	ҳеч қanday
haqqush	ҳаққush	heh (und.)	ҳеҳ (und.)
haq-haq	ҳақ-ҳақ	he-he	ҳе-ҳе
haq-huquq	ҳақ-ҳуқуқ	hehelamoq	ҳеҳelamoq
haq-huquqli	ҳақ-ҳуқуқли	hehha (und.)	ҳеҳha (und.)
hah	ҳаҳ	hi	ҳи
ha-ha	ҳа-ҳа	hibs	ҳибс
hahalamoq	ҳаҳalamoq	hibsxona	ҳибсxoна
hahalashmoq	ҳаҳalashmoq	hid	ҳид
hahachi	ҳаҳachi	hidbilarlik	ҳидbilarlik
hahachilik	ҳаҳachilik	hiddat	ҳидdat
hahha	ҳаҳha	hiddatlanish	ҳидdatlanish
ha-huv	ҳа-ҳuv	hiddatlanmoq.	ҳидdatlanmoq.
he va ha	ҳе va ҳа	hidlab-hidlab	ҳидlab-ҳидlab
hezalak	ҳезalak	hidlamoq	ҳидlamoq
hezalaklik	ҳезalaklik	hidlanish	ҳидlanish
hezalakchalish	ҳезalakchalish	hidlanmoq	ҳидlanmoq
hezalakchalishlik	ҳезalakchalishlik	hidlantirish	ҳидlantirish
hezvon	ҳезvon	hidlantirmoq	ҳидlantirmoq
hezimkash	ҳезimkash	hidlatish	ҳидlatish
hezimkashlik	ҳезimkashlik	hidlatmoq	ҳидlatmoq
hezlik	ҳезlik	hidlatuv	ҳидlatuv
hey	ҳей	hidli	ҳидли
hemiri	ҳемiri	hidlilik	ҳидlilik
hemirilik	ҳемirilik	hidli-hidsiz	ҳидли-ҳидsiz

hidlov  
hidoyat  
hidsiz  
hidsizlannsh  
hidsizlanmoq  
hijja  
hijjalab-hijjalab  
hijjalamoh  
hijjalatmoq  
hijo  
hijob  
hijoz (*muz.*)  
hijoli  
hijosiz  
hijrat  
hijriy  
hijriya  
hijron  
hijrondalik  
hijronzada  
hijronnoma  
hiy  
hiyla  
hiylagar va hiylakor  
hiylagarlik va hiylakorlik  
hiylakor va hiylagar  
hiylakorlik va hiylagarlik  
hiylakorona va hiylagarona  
hiylali  
hiyla-makr  
hiyla-nayrang  
hiylasiz  
hiylasoz (*hiylagar*)  
hiylasozlik  
hiylachi  
hiylachilik  
hikmat  
hikmatli  
hikmatsiz

hikmatchi  
hikmatshunos  
hikmatshunoslik  
hikoya  
hikoyali  
hikoyanavis  
hikoyanavislik  
hikoyat  
hikoyatlamog  
hikoyatchan  
hikoyachi  
hikoyachilik  
hilva  
hilviramoq  
hilviratmoq  
hilm (*muloyimlik*)  
hilol  
hilpillamoq  
hilpillatmoq  
hilpiramoq  
hilpiratish  
hilpiratmoq  
hilpirash  
hilp-hilp  
hil-hil  
himariqli  
himarilmoq  
himarish  
himarishmoq  
himarmoq  
himm va him  
himmat  
himmatli  
himmatlilik  
himmatsiz  
himmatsizlik  
himo  
himoli  
himor

himoya	himoyachilik	himoyachilik	hirssiz
himoyagar	himoyachilik	himoyachilik	his
himoyagarlik	himoyachilik	himoyachilik	hisli
himoyagarchilik	himoyachilik	himoyachilik	hisob
himoyalamoq	himoyachilik	himoyachilik	hisobdon
himoyalash	himoyachilik	himoyachilik	hysobdonlik
himoyasiz	himoyachilik	himoyachilik	hisobdor
himoyasizlik	himoyachilik	himoyachilik	hisob-kitob
himoyat	himoyachilik	himoyachilik	hisoblamoq
himoyatli	himoyachilik	himoyachilik	hisoblanish
himoyachi	himoyachilik	himoyachilik	hisoblanmoh
himoyachilik	himoyachilik	himoyachilik	hisoblatish
hing	hingillamoq	hingillamoq	hisoblatmoq
hingillamoq	hingillash	hingillash	hisoblattirmoq
hingillash	hingillashmoq	hingillashmoq	hisoblash
hingillashmoq	hingirlamoq	hingirlamoq	hisoblashish
hingirlamoq	hingirlatmoq	hingirlatmoq	hisoblashmoh
hingirlatmoq	hingirlash	hingirlash	hisobli
hingirlash	hingirlov	hingirlov	hisoblov
hingirlov	hingir-hingir	hingir-hingir	hisoblovchi
hingir-hingir	hind	hind	hisoblovchilik
hind	hindi	hindi	hisob-misob
hindi	hindizod	hindizod	hisobot
hindizod	hindilar	hindilar	hisobotli
hindilar	hindistonlik	hindistonlik	hisobot-saylov
hindistonlik	hindishunos	hindishunos	hisobotchi
hindishunos	hindishunoslik	hindishunoslik	hisobsnz
hindishunoslik	hiringlamoq	hiringlamoq	hisobchi
hiringlamoq	hiringlashish	hiringlashish	hisobchilik
hiringlashish	hiringlashmoq	hiringlashmoq	hisob-cho't
hiringlashmoq	hiring-hiring	hiring-hiring	hisor (kl. ad.)
hiring-hiring	hirovul	hirovul	hisor
hirovul	hirovullik	hirovullik	hissa
hirovullik	hirotlik	hirotlik	hissador
hirotlik	hirt	hirt	hissali
hirt	hirs-lazzat	hirs-lazzat	hissamand
hirs-lazzat	hirsli	hirsli	hissasiz
hirsli	hirslik	hirslik	hissiyot
hirslik			hissiz

hissizlik  
hissiz-tuyg'usiz  
hissiyotchi  
hissiyotchilik  
hissiy  
his-tuyg'u  
his-hayajon  
hifz  
hiqildoq  
hiqillamoq  
hiqillatmoh  
hihillov  
hiqilloq  
hihichoq  
hiqqa  
hiqqoq  
hiqqoqlik  
hiq-hiq  
hihiqlamoq  
hi-hi  
hihilamoq  
hihilashmoq  
ho  
hov  
hovva  
hovdiramoq  
hovdiratmoq  
hovlash  
hovli  
hovli-joy  
hovlima-hovli  
hovliqish  
hovliqishmoq  
hovliqma  
hovliqmalik  
hovliqmachi  
hovliqmoq  
hovliqmoqlik  
hovliqtirish

hovliqtiruv  
hovol  
hovollik  
hovon  
hovondasta  
hovoncha  
hovonchasimon  
hovr  
hovriqmoq  
hovuz  
hovullamoq  
hovur  
hovurlanmoq  
hovurli  
hovursiz  
hovuch  
hovuchlamoh  
hovuchlanmoh  
hovuch-hovuch  
hov-hov  
hovhovlamoq  
hodis  
hodisa  
hodisot  
hojat  
hojatbaror  
hojatbarorlik  
hojatmand  
hojatmandlik  
hojatravo  
hojatravolik  
hojatsiz  
hojatsizlik  
hojatxona  
hoji  
hoji  
hojib  
hojido'ppi  
hojitarvuz



hojixona  
hozir  
hozirgarlik  
hozirgacha  
hozirgidek  
hozirgi  
hozirgiday  
hozirgina  
hozirgi-kelasi  
hozirda  
hozirdan  
hozirdanoq  
hozirjavob  
hozirjavoblik  
hozirlamoq  
hozirlanish  
hozirlanmoq  
hozirlanuv  
hozirlatish  
hozirlatmoq  
hozirlash  
hozirlashish  
hozirlashmoq  
hozirlik  
hozirlov  
hozirlovchi  
hozirlovchilnk  
hozir-nozir  
hozircha  
hozirchalik  
hoziq  
hoy  
hoyillatmoq  
hoyillash  
hoyillov  
hoynahoy  
hoyil (*kl. ad.*)  
hoy-hoy  
hoyhoylamoq

hoyhoylashmoq  
hoyhoylov  
hoy-hu  
hoy-huy  
hoyhuylamoq  
hokazo  
hokim  
hokimiyat  
hokimlik  
hokimona  
hokimto'ra  
hol  
holat  
hol-ahvol va holu ahvol  
holi-baqudrat  
holbuki  
hol-jon  
holsiz  
holsizlanmoq  
holsizlanganlik  
holsizlik  
holsiramoq  
hol-qudrat  
homiy  
homiylik  
homila  
homilador  
homiladorlik  
homilali  
hомуza  
hopitish  
hopitishmoq  
hopitmoq  
hopittirmoq  
hopituv  
hordiq  
hordiqxona  
horib-tolib  
horib-charchab

horiganlik  
horimoq  
horish-charchash  
horitish  
horitmoq  
horittirmoq  
horituv  
hormay-tolmay  
hormang  
hormas  
hormasdan  
hormaslik  
hormas-tolmas  
hormoq  
hormoqlik  
horg'in  
horg'inlashmoq  
horg'inlik  
hosaki  
hosid  
hosil  
hosila  
hosilaviy  
hosila-to'plam  
hosilan  
hosildor  
hosildorlik  
hosilli  
hosilot  
hozilotlik  
hosilotxona  
hosilsiz  
hosilsizlik  
hosiyat (*his etish*)  
hosiyatli  
hosiyatsiz  
hosiyatsizlik  
hotam  
hotamlik

hotamtoy  
hotamtoylik  
hofiz  
hofiza  
hofizalik  
hofizlik  
hoshiya  
hoshiya-yo'l  
hoshiyalamoq  
hoshiyalanmoq  
hoshiyali  
hoshiyasiz  
hosho  
hoyu havas  
hu  
hubob  
huv  
huvaydo  
huvari  
huvillov  
huvillaganlik  
huvillamoq  
huvlamoq  
huv-huv  
huvhuvlamoq  
huvhuvchi  
huda-behuda  
hudaychi  
hudaychilik  
hudud  
hudhud  
hujayra  
hujayraviy  
hujayralararo  
hujayrali  
hujayrasimon  
hujjat  
hujjatlamoq  
hujjatlatish

hujjatlatmoq	hukmdorlarcha
hujjatli	hukmdorlik
hujjatsiz	hukmdorona
hujjatchi	hukmikush
hujra	hukmnoma
hujrabazm	hukmravo
hujrador	hukmron
hujradosh	hukmronlik
hujradoshlik	hukmronona
hujrai vayrona	hukmfarmo
hujrai xos	hukmfarmolnk
hujum	hukumat
hujumkor	hukumatdor
hujumkorlik	hukumatchilik
hujumkorona	hulla
hujumchi	hullalik
hujumchilik	humo
huzun	humoion
huzunli	hun (-lar)
huzur	hunar
huzurbaxsh	hunarboz
huzurgoh	hunarbozlik
huzurlanish	hunar-kasb
huzurlanmoq	hunarli
huzurlantirmoq	hunarlilik
huzurlashmoq	hunarmand
huzurxona	hunarmandlarcha
huzur-xalovat	hunarmandlik
huy (und.)	hunarmandona
huy-do'st	hunarmandchilik
huydo'stchi	hunarsiz
huydo'stchilik	hunarsizlik
huyt	hunarxona
huyhuytlamoq	hunarchi
hukamo	hunarchilik
hukamolarcha	hur
hukamollik	hurvash
hukm	hurvashlik
hukmdor	hurish

hurishlik  
hurishmoq  
hurkak  
hurka-hurka  
hurkinmoh  
hurkitmoq  
hurkittirmoq  
hurkituv  
hurkish  
hurkanlik  
hurkmoq  
hurkmoqlik  
hurkovuch, hurkagich  
hurkuv  
hurkuvchan  
hurlik  
hurliqo  
hurmat  
hurmatatak  
hurmat-izzat  
hurmatlamoq  
hurmatlanish  
hurmatlanmoq  
hurmatlash  
hurmatli  
hurmatlilik  
hurmatlov  
hur matsiz  
hur matsizlik  
hur mattalab  
hurmat-e'zoz  
hurmoq  
hurpaygan  
hurpayganlik  
hurpayish  
hurpayishmoq  
hurpaymoq  
hurpaytirish  
ho'rpaytirmoq

hurpaytiruv  
hurpak  
hurpaklik  
hurpayuv  
hurriyat  
hurriyatparvar  
hurriyatparvarlik  
hurriyatchi  
hurriyatchilik  
hursurat  
hurtal'at  
hurtal'atlik  
huruf (*harflar*)  
husayni (bog.)  
husn  
husnbuzar  
husndor  
husndorlik  
husnijamol  
husni latofat va husnu latofat  
husnixat  
husnixatchi  
husnli  
husniya  
husnparastlik  
husnsiz  
husnsizlik  
husnsoqol  
husni tarovat  
hut  
hut-yut  
hush  
hushyor  
hushyorlanish  
hushyorlanmoq  
hushyorlantirmoq  
hushyorlik  
hushyorona  
hushyorxona

hushli  
hushmand  
hush siz  
hushsizlanish  
hushsizlanmoq  
hushsizlantirish  
ho'shsizlantirmoq  
hushsizlanuv  
hushsizlik  
husht  
hushtak  
hushtakboz  
hushtakbozlik  
hushtakchi  
huqna (*klizma*)  
huquq  
huquqiy  
huquqlilik  
huquqsiz  
huquqsizlanish  
huquqsizlanmoq  
huhuqsizlik  
huquqshunos  
huhuqshunoslik  
huqqa  
huqqaboz (*fokuschi*)  
huqqabozlik  
huh  
hu-hu  
huhulamoq  
huhulashmoq  
ho'v  
ho'k (*und.*)  
ho'kiz  
ho'kizarava  
ho'kiztili (*taom nomi*)  
ho'kizday  
ho'kizlik  
ho'kizmijoz

ho'l  
ho'llamoq  
ho'llanish  
ho'llanmoq  
ho'llatmoq  
ho'llash  
ho'llashmoq  
ho'llik  
ho'llov  
ho'llovchi  
ho'llovchilik  
ho'l-quruq va ho'lu quruq  
ho'ng  
ho'ngillamoq  
ho'ngillatish  
ho'ngillatmoq  
ho'ngir-ho'ngir  
ho'ngirlamoq  
ho'ngirlov  
ho'ngramoq  
ho'ngratish  
ho'ngratmoq  
ho'ngrash  
ho'ngrashmoq  
ho'ngrov  
ho'ng-ho'ng  
ho'p  
ho'plam  
ho'plamoq  
ho'ppak  
ho'ppoz

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori: "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida", "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi" (Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori.)

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori: "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1994.

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida". –T., 1993-yil 12-sentabr. Toshkent oqshomi, 1993-yil 12-oktabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T., 1998.

5. Abdullayev Y. Yangi alifbo va imloni o'rgatish dasturi. – T., 1994.

6. Jumaniyozov R. Va boshq. Yangi alifboni o'rganamiz. – T., 1994.

7. Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. O'zbek tilining imlo lug'ati. –T., 1995.

8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. (Talabalar va mustaqil o'rganuvchilar uchun qo'llanma). –T., 1999.

9. Husanov N., Husanova M., Xo'jaqulova R., Yusupov E. Iqtisodiyotda texnik yozuv. –T., 2012.

10. Mahmudov N. Yozuv tarixidan qisqacha lug'at- ma'lumotnoma. –T., 1990.

11. Mamatov A. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. –T., 1991.

12. Teshaboyeva D. Ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyati. –T., 2011.

13. Begmatov E. Adabiy norma va nutq madaniyati. –T., 1983

14. Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami –T., 2013.

Azimova Hidoyat Ismailovna,  
Fayzullayeva Shaxnoza Mahamadnodirovna,  
Baltabayeva Gulmira Ismailovna,  
Azimova Umida Abduqahhorovna

## Yozuv texnikasi va og‘zaki nutq

Darslik

*“IQTISODIYOT” – 2014.*

*Muharrir*

*Mirxidoyatova D.M.*

*Musahhih*

*Rasulova S.S.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Terishga berildi 22.09.2014. Bosishga ruxsat etildi 20.12.2014. Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturası. Ofset bosma. Ofset qog‘ozı. Shartlı bosma tabog‘ı 14,5. Hisob nashr varag‘ı 14,2.

Алади 160 нусха. Буюртма №059.

Тошкент Давлат иқтисодиёт университети босмахонасида чоп этилди.

Лицензия № 10-3380.

Тошкент шаҳри, Ўзбекистон шоҳкўчаси, 49

81.1 Azimova H.I., Fayzullayeva Sh.M.,  
Baltabayeva G.I., Azimova U.A. Yozuv  
texnikasi va og'zaki nutq. Darslik. – T.:  
IQTISODIYOT, 2014. - 233 b.

1.

1. Almardanov M.I.,
2. Xudoyqulov S.K.,
3. Yusupov O.A.,
4. Agzamov A.T.

ISBN 978-9943-986-05-3

UO'K: 494.3  
KBK: 81.1